





SHAVKAT MIRZIYOYEV

**INSON QADRI, UNING
HUQUQ VA ERKINLIKLARI,
QONUNYIY MANFAATLARI
UCHUN**

**“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT – 2022**

A faint purple library stamp is visible in the bottom right corner of the page, containing some illegible text and a date.

UO'K 324.(575.1)
KBK 66.3(50')68
M 54

M 54 Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich

Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun
[Matn] / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti,
2022. – 392 b.

2021-yil 24-oktabrda mamlakatimiz hayotida muhim siyosiy voqea – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo‘lib o‘tdi. Saylov yakunlariga ko‘ra, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 80,12 foiz ovoz olib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

Ushbu kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining X syezdida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilar vakillari bilan o‘tkazgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan ma‘ruzalari, shuningdek, Prezidentlik lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi o‘rin olgan.

UO'K 324.(575.1)
KBK 66.3(50')68

Abdulla Qodiriy nomidagi
viloyat AKM
INV № 2023/31-8

**YANGI O‘ZBEKISTON –
INSON QADRI USTUVOR
BO‘LGAN JAMIYAT VA
XALQPARVAR DAVLATDIR**

*(Tadbirkorlar va ishbilarmonlar
harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik
partiyasining X syezdida so‘zlangan nutq)*

Hurmatli syezd delegatlari!

Muhtaram vatandoshlar!

Avvalo, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining mamlakatimiz hayotida muhim voqea bo‘lgan bugungi syezdida ishtirok etayotganimdan, barchangizni mana shunday ko‘tarinki kayfiyatda ko‘rib turganimdan g‘oyat mamnunman.

Sizlar bilan partiyamiz tashkil etilgan kundan boshlab, barcha masalalarda hamfikir bo‘lib, hayot oldimizga qo‘yayotgan dolzarb vazifalarni birgalikda samarali bajarib kelmoqdamiz.

Yurtimiz siyosiy maydonida katta nufuzga ega bo‘lgan O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi syezdining Siz, hurmatli delegatlari va faollari menga yuksak ishonch bildirib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga nomzodimni ko‘rsatganingizni behad qadrlayman.

Bu men uchun yuksak sharaf va ayni paytda ulkan mas‘uliyat ekanini yurak-yurakdan his etmoqdaman.

Bundan besh yil oldin men partiyamiz minbaridan o‘z saylovoldi dasturimni e‘lon qilgan edim. Ushbu dasturda davlat va jamiyatimizni yanada isloh qilish, fuqarolarimizning hayotiy muammolarini hal etish va orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarishni oliy maqsad etib belgilagan edik.

Besh yil mobaynida aholi farovonligini ta‘minlash va uning kelajakka bo‘lgan ishonchini mustahkamlash borasida nimalarga erishdik? Qanday marralarni egalladik? Kamchiliklar nimalardan iborat bo‘ldi?

Dasturimizdagi ezgu maqsadlarni hayotga to‘liq tatbiq etish uchun 2017–2021-yillarda mamlakatni rivojlantirishning 5 ta

ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini qabul qildik. Uning doirasida 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod Prezident farmoni va qarori qabul qilindi.

Qisqa davrda mamlakatimizda yangilanishlar nafasi kirib bormagan birorta soha va tarmoq, shahar va tuman, qishloq va mahalla qolmadi, desam, ayni haqiqatdir.

Shu borada bir fikrni alohida ta'kidlab aytishni istardim: **bugungi kunda davlatimiz inson uchun, xalq uchun ochildi. Xalq bilan bevosita muloqot qilish, uning dard-u tashvishlari, muammolarini ijobiy hal etish bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratdik.**

Davlat tashkilotlari ish faoliyatida "mahallaga tushish", "xalq ichiga kirish, uning dardiga quloq solish", "tashvishiga sherik bo'lish" va "muammolarni joyida hal etish" tamoyillari asosiy mezonga aylandi.

Bizning bu harakatlarimiz Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi buyuk ajdodlarimizning davlat va xalq birligi, insonparvarlik va adolat ustuvorligi haqidagi yuksak g'oyalariга tayanadi. Shu asosda, xalq hokimiyatini mustahkamlash, parlamentarizmi rivojlantirish va davlat organlari hisobdorligini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Davlat va jamiyat boshqaruvida ochiqlik va adolatga asoslangan, odamlar manfaatiga xizmat qiladigan xalqparvar qarorlar qabul qilish tizimi shakllantirildi.

Eng muhimi, biz ko'p yillar davomida amal qilib kelingan **"davlat-jamiyat-inson"** tamoyilini o'zgartirdik. Mamlakatimizda avvalo **inson, keyin esa, jamiyat va davlat** manfaati barcha harakatlarimizning negiziga qo'yildi. Hayotimizda **"Davlat – insonlar uchun"** degan xalqchil g'oya izchillik bilan qaror topib bormoqda.

Jamiyatda aholi va partiyalarning siyosiy faolligi, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli va

ahamiyatini oshirishga qaratilgan tizimli ishlarni olib bormoqdamiz.

Inson, uning haq-huquqlari, qadr-qimmati va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish tamoyili islohotlarimiz mohiyatini tashkil etmoqda. Shu tariqa o'tgan besh yilda ko'plab masalalarda yangi bilim, ko'nikma va tajriba orttirdik.

Albatta, barcha yo'nalishlarda ham ishlarimiz bir tekisda, silliq va ravon ketdi, deb ayta olmaymiz. Qator sohalarda ayrim kamchilik va xatolar ham bo'ldi. Lekin, to'la ishonch bilan aytish mumkin, barcha islohotlarimiz, ezgu harakatlarimiz faqat va faqat mamlakatimiz taraqqiyotiga, xalqimiz farovonligini oshirishga qaratilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, jamiyatimizda demokratiya tamoyillari, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Hurmatli do'stlar!

Ma'lumki, o'tgan besh yillik davr barchamiz, butun mamlakatimiz uchun keskin va og'ir sinov yillari bo'ldi. Ayniqsa, 2020-yili boshlangan koronavirus pandemiyasi va uning oqibatida kelib chiqqan global iqtisodiy inqiroz O'zbekiston uchun ham jiddiy muammolarni yuzaga keltirdi.

Mana shunday murakkab va qiyin vaziyatga qaramasdan, biz milliy iqtisodiyotimizning o'sish sur'atlarini barqaror saqlab qolishga erishdik.

Amalga oshirgan islohotlarimiz, erishgan yutuq va natijalarimiz Sizlarga, partiyamiz faollariga, ayniqsa, 1,5 milliondan ortiq ishbilarmon va tadbirkorlarimizga yaxshi ma'lum. Qo'lga kiritgan marralarimizni nafaqat xalqimiz, balki xalqaro hamjamiyat ham bugun xolisona e'tirof etmoqda.

Shu o'rinda ayrim raqamlarga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

So'nggi besh yilda mamlakatimiz iqtisodiyoti 24 foizga, sanoat – 34 foiz, eksport hajmi 1,5 barobarga, xorijiy investitsiyalar hajmi esa 3 barobarga o'sgani biz qo'lga kiritgan yuqori natijalardan

dalolat beradi. Shu davrda o'rtacha oylik ish haqi 2,2 marta ko'paydi.

Bu borada biz iqtisodiyotni erkinlashtirish, tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini tubdan takomillashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligida chuqur va puxta o'ylangan islohotlarni amalga oshirish, hududlarni rivojlantirish, sanoat va xizmatlar ko'lamini kengaytirish masalalariga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz.

Amaliy natijadorlik, inson manfaati islohotlarimizning bosh maqsadiga aylandi.

Hurmatli partiyadoshlar!

Har qanday islohot quruq raqamlarda emas, balki, eng avvalo, aholining kundalik hayotida, uning dasturxonini va ro'zg'orida o'z aksini topishi zarur. Bu – hayotiy haqiqat.

Barcha orzu-niyatlarimiz, mashaqqatli mehnatimiz, kechani – kecha, kunduzni – kunduz demasdan amalga oshirayotgan sa'y-harakatlarimiz – hamma-hammasi bizga katta umid va ishonch bilan qarab turgan xalqimiz uchundir. Biz ushbu yo'nalishdagi ezgu ishlarimizni davom ettirib, ijtimoiy adolat tamoyili asosidagi barqaror rivojlanish dasturini ishlab chiqdik va mazkur sohadagi faoliyatimizni davlat siyosati darajasiga ko'tardik. O'zbekiston tarixida ijtimoiy soha bo'yicha bunday keng ko'lamli ishlar ilgari hech qachon bo'lmagan.

Yurtimizda yashayotgan oilalar hayotini shu nuqtayi nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, o'tgan davrda qanday katta natijalarga erishganimiz ayon bo'ladi.

Misol uchun, hozirgi vaqtda O'zbekistondagi har 100 ta oilaga 162 ta televizor, 107 ta xolodilnik, 287 ta mobil telefon, 49 ta yengil avtomobil to'g'ri kelmoqda. Boshqacha aytganda, mamlakatimizdagi oilalarning qariyb yarmi o'zining shaxsiy avtomobiliga ega.

Yoki so'nggi yillarda yurtimizda ipoteka dasturlari doirasida 140 mingdan ortiq uy-joylar barpo etildi. Bu raqamni oldingi yillarga solishtirganda, 10 martadan ham ko'p demakdir.

Samarali va aniq manzilli ijtimoiy siyosatni joriy etishda aholini arzon uy-joylar bilan ta'minlash, uzluksiz ta'lim va tarbiya sohasida yangi tizim yaratish, ilm-fanni zamon talablari asosida rivojlantirish, aholining barcha qatlamlariga, xususan, nuroniyalar, xotin-qizlar, yoshlar va imkoniyati cheklangan, yordamga muhtoj shaxslarga zarur ko'mak berish borasida amalga oshirgan ishlarimiz el-yurtimizga yaxshi ma'lum.

Men bugun bu borada batafsil gapirish, qandaydir raqamlarni keltirish fikridan yiroqman.

Ijtimoiy yo'nalishdagi islohotlar haqida so'z borganda, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, ommaviy axborot vositalari, jismoniy tarbiya va sport kabi sohalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish masalalari o'tgan 5 yilda e'tiborimiz markazida bo'lganini alohida qayd etish lozim.

Eng asosiysi, mana shunday maskanlarga, ta'bir joiz bo'lsa, jon va ruh bag'ishlaydigan fidoyi muallim va tarbiyachilar, professor-o'qituvchilar, ilmiy va ijodkor ziyolilar, jonkuyar shifokorlarning mashaqqatli va sharafli mehnati munosib taqdirlanmoqda.

Pensionerlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida katta miqdordagi mablag' va resurslar sarflanmoqda.

Mana, hozir diyorimizda kuz fasli boshlandi. Hech kimga sir emas, ilgari kuz deganda, avvalambor, paxta yig'im-terim "kampaniyasi" ko'z oldimizga kelar edi. Yaqin-yaqingacha har yili taxminan 6-7 million aholimiz, jumladan, bolalar paxta terimiga "ixtiyoriy majburiy" safarbar etilardi.

Mana, uch-to'rt yildan buyon o'qituvchi va o'quvchilar – maktabda, vrach – shifoxonada, olimlar – laboratoriyada, talabalar – auditoriyada o'z mashg'uloti va o'z ishi bilan band bo'lmoqda. Bunday natijaga to'g'ri iqtisodiy siyosat yuritish, tadbirkor va dehqon uchun manfaatli bo'lgan samarali usullarni, jumladan, klaster va kooperatsiya tizimini joriy etish evaziga erishdik.

Muxtasar aytganda, bugun yurtimizda tarixan qisqa fursatda butunlay yangicha siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ma'rifiy va madaniy muhit yaratildi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Aziz do'stlar!

Shu o'rinda yana bir bor ta'kidlab aytmoqchiman: biz o'tgan besh yilda katta tajriba orttirdik. Xalqimiz bizga ishondi va inondi. Ayni vaqtda el-yurtimiz bizdan yangi reja va dasturlarni amalga oshirishni kutmoqda.

Xalqimizning ana shunday ishonchi va orzu-niyatlari, ezgu umidlarini ro'yobga chiqarish maqsadida yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, fuqarolar va millatlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, xalqimizning ma'naviy dunyosini yanada yuksaltirish, O'zbekistonda yashayotgan, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir vatandoshimizning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya etish, kafolatli daromad manbai, tibbiy xizmatlar va uy-joy, sifatli ta'lim bilan ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va ehtiyojmand aholini ijtimoiy muhofaza qilish, mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzini oshirishga qaratilgan **Yangi O'zbekiston strategiyasini** ishlab chiqdik.

Bugun sizlarga taqdim etilgan shu nomli kitobda ushbu Strategiyaning ustuvor yo'nalishlari haqida batafsil fikr yuritilgan.

Shu bilan birga, kitobga kirmagan, ammo e'tibor berishimiz lozim bo'lgan quyidagi eng muhim va dolzarb masalalarni ham, biz albatta hisobga olishimiz zarur.

Birinchidan, bugungi kunda mamlakatimiz aholisi 35 millionga yetdi, 2026-yilga borib esa 38 milliondan oshishi kutilmoqda.

Bu – yurtimiz jahonda aholi soni bo'yicha 37-o'ringa chiqib, Polsha, Kanada, Saudiya Arabistoni kabi davlatlar aholisidan ham oshadi, degani.

Ikkinchidan, aholimizning qariyb 55 foizini yoshlar tashkil etadi va har yili mehnat bozoriga kamida 600 ming yoshlar kirib kelmoqda.

Bunday demografik o'zgarish biz uchun ham imkoniyat, ham juda katta mas'uliyat demakdir.

Uchinchidan, dunyo miqyosida iqtisodiyotning tarkibi keskin o'zgarib, raqamli va biotexnologiyalar, sun'iy intellekt kabi sohalar shiddat bilan hayotga kirib kelmoqda.

Iqtisodiyot rivojini uskunalar emas, balki zamonaviy bilim va innovatsiyalar belgilaydigan zamon keldi.

To'rtinchidan, iqlimning keskin o'zgarishi, suv resurslarining kamayib borishi insoniyat uchun kelajakdagi emas, aynan bugungi kundagi dolzarb muammoga aylandi.

Bu esa dunyo miqyosida qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi, aholi salomatligi va daromadlariga jiddiy xavf solmoqda.

Beshinchidan, xalqaro maydondagi va mintaqamizdagi ziddiyatlar, radikalizm, ekstremizm va terrorism kabi xavf va tahdidlar xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash naqadar muhimligini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olib, bugungi syezdimizda kelgusi besh yilda oldimizda turgan eng asosiy va muhim vazifalar haqida Sizlar bilan maslahatlashib, fikrlashib olmoqchiman.

I. Ilm va innovatsiyalarga asoslangan yangi iqtisodiyotni barpo etish

Hurmatli syezd qatnashchilari!

Qabul qilingan Harakatlar strategiyasi iqtisodiyotimizning barcha sohalarida bozor mexanizmlarini amalda joriy etish hisobidan barqaror rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Endi, mavjud zaxira va imkoniyatlarimizni safarbar etgan holda, kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni **1,6 barobar** oshirish vazifasi oldimizda turibdi.

Shu tariqa, 2030-yilga borib, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming dollardan oshirib, *daromadi o'rtachadan*

yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirishga puxta zamin yaratgan bo'lamiz.

Albatta, bu oson vazifa emas. Bunga erishish uchun, avvalo, iqtisodiyotda ilm va innovatsiyalarga asoslangan rivojlanish hisobidan yangi texnologiyalar va qo'shilgan qiymat zanjirlarini ko'paytirish orqali mehnat samaradorligida tub o'zgarishlar qilishimiz shart.

Shu maqsadda **birinchidan**, kelgusi besh yilda sanoat mahsulotlari hajmi 1,4 barobar, mehnat unumdorligi esa kamida 2 marta oshiriladi. Buni, avvalo, "drayver" sohalarda, "xomashyodan tayyor mahsulotgacha" degan tamoyil asosida sanoat klasteri tizimini rivojlantirish orqali yo'lga qo'yamiz.

Misol uchun, mis sanoati klasterini tashkil etish bilan kelgusi besh yilda mis va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 2 marta ko'payadi hamda 8 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqarishga asos yaratiladi. Navoiy, Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinatlari va Bekobod metallurgiya korxonasida qator yirik loyihalarni amalga oshirish hisobidan qo'shimcha 10 milliard dollarlik mahsulotlar ishlab chiqarish ta'minlanadi.

Shuningdek, tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8 foizdan 20 foizga oshirish orqali kimyo sanoatida 2 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqariladi.

Yaqinda "Navoiyazot" korxonasi negizida Markaziy Osiyoda birinchi yirik kimyo texnologik klasteri tashkil etilganidan xabarimiz bor.

Kelgusi yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida yana 5 ta kimyo texnologik klaster tashkil etiladi va ularda umumiy qiymati qariyb 7 milliard dollarlik 40 dan ziyod istiqbolli loyihalar amalga oshiriladi. Ushbu loyihalar uchun yosh, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan kadrlar va olimlarni tayyorlash maqsadida Toshkentdagi Ulug'bek shaharchasida kimyo sohasida ilmiy va ta'lim klasteri tashkil etiladi.

Sanoatni resurs bazasi bilan ta'minlash uchun geologiya-qidiruv ishlari hajmi keskin oshiriladi, sohaga xususiy investorlar va ilg'or xorijiy kompaniyalar keng jalb qilinadi. Bunda yerosti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari noruda qazilmalar bo'yicha – 2 martaga, tabiiy gaz bo'yicha – 3 martaga, neft bo'yicha – 2 martaga kamaytiriladi. Shuningdek, ushbu soliq mis va oltin bo'yicha – 7 foizgacha pasaytiriladi.

Ilm-fanni rivojlantirish orqali sanoat tarmoqlariga eng zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish dasturlari ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, kelgusi besh yilda raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantiramiz. Uning hajmi kamida 2,5 barobar oshirilib, 4 milliard dollarga yetkaziladi.

Har bir xonadon va ijtimoiy muassasa maqbul narxda yuqori tezlikdagi Internetga ulanadi, magistral avtomobil yo'llari 100 foiz mobil aloqa va Internet bilan qamrab olinadi. Shuningdek, xalqaro magistral Internet tezligi – 5 barobar, tumanlararo tarmoqlar tezligi – 8 barobar oshiriladi.

2026-yilga qadar neft-gaz, kimyo, metallurgiya va boshqa sanoat sohalaridagi barcha jarayonlar to'liq raqamlashtiriladi. Dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmi 5 barobar, ularning eksporti esa 10 barobar oshirilib, 500 million dollarga yetkaziladi.

Kelgusi yil yakuniga qadar **“Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi”** tamoyili asosida barcha davlat organlarida ish yuritish, aholi bilan hujjat almashish to'liq elektron shaklga o'tkaziladi.

Uchinchidan, iqtisodiyotda yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qolish uchun makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi.

Bunda 2023-yil oxirigacha inflatsiya darajasi 5 foizga tushiriladi. Davlat budjeti taqchilligi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2,5 foizdan oshmasligi ta'minlanadi. Buning uchun budjet mablag'larini samarali taqsimlash va nazorat qilishning yangi tizimi yo'lga qo'yiladi. Bundan buyon budjet xarajatlari, birinchi

navbatda, fuqarolarimizning turmush sharoitini yaxshilash va hududlarni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Xabaringiz bor, bu yildan boshlab joriy etilgan **“Fuqarolar budjeti” dasturi** doirasida 14 ta tuman budjetining 5 foizi aholi takliflari asosida dolzarb muammolarni echishga qaratildi. Kelgusi yildan boshlab har bir tuman budjetining kamida 5 foizi ushbu Dastur orqali taqsimlanadi. Shu tariqa bevosita aholining talablari asosida yiliga 1,5–2 trillion so'm mablag' joylardagi eng dolzarb muammolarni hal etishga sarflanadi.

Yana bir muhim masala – yangidan jalb qilinadigan yillik tashqi qarz miqdori 5 milliard dollardan oshmasligi ta'minlanadi.

Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida kelgusi 5 yilda fond bozori hajmi 200 million dollardan 7 milliard dollarga yetkaziladi. Bunda mamlakatimizda kapital olib kirish bo'yicha mavjud cheklovlar qayta ko'rib chiqilib, barcha uchun qulay bo'lgan shart-sharoitlar yaratiladi.

To'rtinchidan, iqtisodiyotda yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun kelgusi besh yilda 120 milliard dollar, jumladan, 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalar jalb qilinadi.

Shu maqsadda 2026-yilgacha xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha alohida strategiya qabul qilinadi.

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar doirasida kelgusi besh yilda transport, yo'l qurilishi, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard dollar investitsiya jalb qilinadi.

Kelgusi yildan boshlab asosiy vositalarni amortizatsiya qilishga soliq imtiyozlarini kengaytirish orqali 130 mingdan ziyod tadbirkorlar ixtiyorida har yili qariyb 2 trillion so'm mablag' qoldiriladi.

Xabaringiz bor, keyingi paytda hududlarda sanoat va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Buning uchun albatta qo'shimcha moliyaviy resurslar kerak. Shu maqsadda **O'zbekiston taraqqiyot banki** tashkil etiladi.

Beshinchidan, mamlakatimizning eksport salohiyati 1,7 barobar oshirilib, 2026-yilda 30 milliard dollarga yetkaziladi.

Eksport tarkibida xomashyoning ulushi hozirgi 46 foizdan 23 foizga kamayib, tayyor mahsulotlar hajmi 2,5 barobar ko'payadi.

Yevropa davlatlariga "GSP+" tizimi doirasida 2 mingdan ziyod turdagi tayyor mahsulot eksporti yo'lga qo'yiladi.

Kelgusi yildan boshlab "**Yangi O'zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti**" degan g'oya asosida 200 ta eksportchi ochiq tanlov asosida saralanib, ularni yetakchi eksportyorlarga aylantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha manzilli dastur amalga oshiriladi.

Oltinchidan, davlat korxonalarining transformatsiyasi hamda xususiylashtirish jarayonlari tezlashtiriladi.

Endi samarasiz korxonalar davlatdan qo'shimcha yordam olmasdan, xususiy sektor kabi "o'z aravasini o'zi tortishi" shart.

Bunda mashinasozlik, kimyo, neft-gaz, energetika, kon-metal-lurgiya, transport kabi tarmoqlardagi 23 ta yirik korxonalar xalqaro kredit reytinglarini olish orqali ichki va tashqi moliyaviy bozorlarga mustaqil chiqib, investitsiya loyihalari uchun o'zi mablag' jalb qilishi talab etiladi.

Shuningdek, energiya resurslari bozori erkinlashtirilib, sohaga xususiy investitsiyalar keng jalb qilinadi. Natijada 2026-yilga borib, elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi yiliga qo'shimcha 30 milliard kilovatt soatga oshiriladi va jami 100 milliard kilovatt soatga yetkaziladi.

Kelgusi yilda tabiiy gaz bo'yicha ham erkin bozor tamoyillarini joriy etish jarayonlari boshlanadi.

Elektr energiyasi va tabiiy gaz bozorlarini erkinlashtirish bilan birga, ehtiyojmand aholimizni himoya qilish uchun ijtimoiy iste'mol normalari kiritiladi.

Shu bilan birga, bank tizimini transformatsiya qilish orqali xususiy banklarning ulushi jami bank aktivlarining 60 foiziga yetkaziladi.

Umuman, 2026-yilga borib, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 67 foizdan 80 foizga, eksport hajmida esa, 32 foizdan 60 foizga o'sishi ta'minlanadi.

Yettinchidan, “yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etamiz.

Mamlakatimizda kelgusi besh yilda quvvati 5 ming megavattidan ortiq bo‘lgan shamol, quyosh va gidro-elektrostansiyalar ishga tushiriladi. Natijada yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gaz tejaladi.

Elektromobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni rag‘batlantirish bo‘yicha alohida dastur qabul qilinadi. Kelgusi yilning o‘zida Toshkent shahri jamoat transportida 320 ta elektrobus qatnovi yo‘lga qo‘yiladi.

Shu bilan birga, “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish maxsus jamg‘armasi tashkil etiladi.

Bu kabi amaliy ishlarimiz natijasida iqtisodiyotning energiya samaradorligi 20 foizga oshadi, atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar hajmi 10 foizga qisqaradi.

Sakkizinchidan, zamonaviy texnologiyalarda ishlay oladigan **yuksak bilimli va malakali kadrlarni tayyorlash** tizimini yanada takomillashtiramiz.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, kelgusi besh yilda sanoat tarmoqlarida 100 ming oliy hamda 460 ming o‘rta maxsus ma‘lumotli kadrlarga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Shuning uchun yirik korxonalarining o‘zida kasbiy ta‘lim markazlarini tashkil etish bo‘yicha barcha zarur sharoitlar yaratiladi. Eng avvalo, qurilish materiallari, farmatsevtika, to‘qimachilik, neft-kimyo, elektrotexnika kabi yetakchi sohalarda xo‘jalik birlashmalari va loyiha institutlari bilan malakali mutaxassislarni tayyorlaydigan yangi tizim yo‘lga qo‘yiladi.

II. Faol tadbirkorlik va manzilli moliyaviy ko‘mak – kambag‘allikni qisqartirishning muhim omili

Muhtaram yurtdoshlar!

Xabaringiz bor, 2020-yilda biz ilk bor aholimiz o‘rtasida kambag‘allik borligini ochiq tan olib, bu muammo bilan jiddiy

shug'ullanishni boshladik. Avvalambor, ehtiyojmand aholini aniqlashning yangi tizimi yaratilib, **“temir daftar”**, **“ayollar daftari”** va **“yoshlar daftari”** joriy etildi.

Bundan buyon, shahar va tumanlarda iqtisodiy kompleks tarkibiga kiradigan barcha idoralarning bosh vazifasi **“mahallabay”** ishlash asosida kambag'allikni qisqartirish va ishsizlikni bartaraf etish hisoblanadi. Bunda aholini, ayniqsa yoshlar va ayollarni kasb-hunarga o'qitish, oila xo'jaliklarida biznes tashkil etishga ko'maklashish, ehtiyojmand fuqarolar bilan manzilli ishlash, bir so'z bilan aytganda, xalqni rozi qilish asosiy mezon bo'ladi. Buning uchun ushbu idoralarning tizimi va xodimlar soni ham to'liq qayta ko'rib chiqiladi, ularning maoshi ham, obro'-e'tibori ham ish natijasiga bog'liq bo'ladi.

Bu borada eng muhim vazifa – 2026-yil yakunigacha kambag'allikni kamida 2 barobar qisqartirishdan iborat. Bunga erishish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur.

Birinchidan, tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Xabaringiz bor, shu yil 20-avgust kuni siz, hurmatli tadbirkorlar bilan o'tkazilgan ochiq muloqot doirasida 7 ta yo'nalish bo'yicha 60 ga yaqin yangi tashabbus va takliflarni amalga oshirish uchun alohida Dastur qabul qildik.

Shu bilan birga, biznes sohasiga imkoniyatlarni kengaytirish, soliq turlari va uning yukini kamaytirish bo'yicha tizimli ishlarimizni izchil davom ettiramiz.

Yaxshi bilasizlar, 2020-yilda qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini 20 foizdan 15 foizga tushirgan edik. Bu – 100 ming tadbirkor ixtiyorida 10 trillion so'm mablag' qoladi, degani.

Endi zarur tayyorgarlik ko'rgan holda, 2023-yildan boshlab ushbu soliq stavkasini 15 foizdan 12 foizga tushiramiz.

Kelgusi yili korxonalarining mol-mulk solig'i stavkasi 2 foizdan 1,5 foizga kamaytiriladi va buning natijasida tadbirkorlar ixtiyorida yiliga 500 milliard so'm mablag' qoladi.

Yana bir yangilik – 2023-yildan boshlab yuridik shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini birlashtirib, yagona ko'chmas mulk solig'i joriy qilinadi.

Hozirgi vaqtda bank, moliya, telekommunikatsiya kabi tadbirkorlik yo'nalishlarida foyda solig'i stavkasi har xil bo'lib, ular amaldagi 20 foizdan 15 foizga tushiriladi va barcha tadbirkorlar uchun bir xil bo'ladi.

Yo'l qurilishi, issiqlik ta'minoti, obodonlashtirish xizmatlari kabi 25 ta faoliyat turidagi monopoliyaga barham berilib, endi bu sohalarda tadbirkorlik subyektlariga keng yo'l ochiladi.

Tuman va shaharlardagi mavjud bir nechta tadbirkorlikka ko'maklashadigan tuzilmalar negizida Tadbirkorlar kengashi tashkil etiladi.

Ikkinchidan, har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyati yaratiladi.

Bu borada kasbga o'qitish ko'lami 2 barobar oshirilib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaro kasb-hunarlariga o'qitiladi. Bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtiroki 30 foizga yetkaziladi.

Kasbiy ta'lim bilan tizimli shug'ullanish masalalari to'liq Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga o'tkaziladi.

Kelgusi besh yilda norasmiy ishlayotgan 2,5 million nafar fuqarolar bandligini legallashtirishga yordam beriladi. Shu orqali ularning ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to'liq foydalanishiga imkoniyat yaratiladi.

Shuningdek, hududlarda servis sohalari ko'laminini kengaytirish orqali xizmat ko'rsatish hajmi 3 barobar oshiriladi va buning evaziga 3,5 millionta yangi ish o'rni yaratiladi.

Uchinchidan, jamiyatda ayollar mavqeyini oshirishga qaratilgan siyosatimizni izchil davom ettiramiz.

Oilada farzandlar barkamol bo'lib ulg'ayishi, muhit sog'lom bo'lishi uchun ayollarni o'qitish, kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatish, ularning ishlashiga sharoit yaratish bu boradagi ishlari-

ninging ustavor yo'nalishlaridan biri bo'ladi. Buning natijasida

ayollar o'rtasidagi ishsizlik darajasi kelgusi besh yilda 2 barobar kamaytiriladi. Shuningdek, 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlar kasb-hunarga o'qitiladi va ularning xarajatlari davlat tomonidan qoplab beriladi.

Kelgusi uch yilda uy-joyga muhtoj 10 mingdan ziyod xotin-qizlarga imtiyozli shartlar asosida uy-joylar ajratiladi.

To'rtinchidan, ehtiyojmand aholi qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur.

Ehtiyojmand aholini ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan ta'minlash darajasi hozirgi 60 foizdan 100 foizga yetkaziladi.

Bazaviy pensiya hisoblashda ish haqining chegaraviy miqdori hozirgi 10 barobardan 12 barobarga oshiriladi. Bu – 2 million nafar fuqaroning pensiyasi kamida 20 foizga ko'payadi, degani.

Shu bilan birga, uy-joyga muhtoj fuqarolarga turar joylarni ijtimoiy ijaraga berish tizimi joriy etiladi.

Manzilli ijtimoiy himoya borasida imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarning himoyasi va ularning jamiyatda o'z o'rnini topishiga alohida e'tibor qaratamiz. Hozirgi kunda ishlash imkoniyati bor 162 ming nogironligi bo'lgan shaxslarning atigi 13 foizi ishlayapti. Kelgusi besh yilda ularning bandligini 3 barobar oshirishni ko'zda tutadigan Kasbga o'qitish va ish bilan ta'minlash Milliy dasturi ishlab chiqilib, amalga oshiriladi.

Shular qatorida ehtiyojmand oilalarning qizlari uchun oliy ta'lim grantlari har yili oshirib boriladi va 2026-yilda 6 mingga yetkaziladi.

Bir so'z bilan aytganda, biz yurtimizda yordamga muhtoj bironta inson e'tibor va amaliy g'amxo'rlikdan chetda qolmasligi uchun barcha choralarni ko'ramiz.

III. Qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish – islohotlarimiz talabi

Hurmatli syezd qatnashchilari!

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining hamda bandlikning 30 foizdan ortig'ini ta'minlamoqda. Shundan kelib chiqib, bugungi yer va suv resurslari cheklangan sharoitda qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish – navbatdagi ustuvor vazifamizdir.

Kambag'allikni qisqartirish, oziq-ovqat mahsulotlarini yetarli hajmda va maqbul narxlarda yetkazib berish, dehqon va fermerlar daromadini kamida **2 barobar** oshirishni reja qilganmiz.

Shuningdek, qishloq xo'jaligining yillik o'sish sur'atlarini kamida 5 foizga, bir gektardan o'rtacha daromadni 5 ming dollarga, qishloq xo'jaligining eksport hajmini 7 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo'yilmoqda. Buning uchun quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratiladi.

Birinchidan, qishloq xo'jaligida davlat aralashuviga to'liq barham berib, mahsulot ishlab chiqarishni sanoat bosqichiga olib chiqish lozim. Bunda tumanlar aniq mahsulotlar yetishtirishga ixtisoslashtirilib, davlat tomonidan dehqonlarni qo'llab-quvvatlash uchun subsidiyalar ajratiladi.

Agrar tarmoqdagi klaster korxonalari va fermer xo'jaliklari faoliyatini barqaror, qulay shart va muddatlarda moliyalashtirish va sug'urtalashning mutlaqo yangi mexanizmlari amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, davlat idoralari tomonidan narx belgilash hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini majburiy sotib olish tizimi ham to'liq bekor qilinib, erkin bozor munosabatlari joriy qilinadi.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi yerlaridan unumli va samarali foydalanish maqsadida 200 ming gektar paxta va g'alla maydonlari qisqartirilib, aholiga ochiq tanlov asosida 10 sotixdan 1 gektargacha uzoq muddatli ijaraga beriladi.

Ikkinchidan, eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish maqsadida yangi o'zlashtiriladigan 400 ming gektar yer maydonlari klaster korxonalariga ochiq tanlov asosida ajratiladi.

Kelgusi besh yilda intensiv bog'lar 3 barobar yoki 150 ming gektarga, issiqxonalar esa 2 barobar yoki 11 ming gektarga ko'paytiriladi. Bu orqali mamlakatimiz eksport salohiyatini yana 1 milliard dollarga oshirish imkoni yaratiladi.

Tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish bo'yicha alohida qonun ishlab chiqiladi.

Uchinchidan, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimi takomillashtiriladi.

Hududlarda agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta'minlash hamda ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobar oshirish bo'yicha alohida dastur qabul qilinadi.

Agrologistika markazlari va zamonaviy laboratoriyalar soni ko'paytiriladi.

Urug'chilik, ko'chatchilik va chorva mollarining zotlarini yaxshilash bo'yicha milliy dastur amalga oshiriladi. Xususan, yuqori hosil beradigan g'o'za va g'alla navlarini chetdan olib kelish va erkin joylashtirishga bosqichma-bosqich ruxsat etiladi.

Nufuzli xalqaro ilmiy markazlar va oliygohtar bilan birgalikda Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti tashkil etiladi.

To'rtinchidan, chorvachilikda ozuqa ekinlari maydoni 340 ming gektardan 700 ming gektarga yetkaziladi. Shuningdek, 11 million gektar yaylovlarni qayta tiklash va hosildorligini oshirish choralari ko'riladi.

Shuning evaziga kelgusi besh yilda go'sht, sut, tuxum va baliq yetishtirish hajmini 1,5–2 barobar ko'paytirish, ozuqa bazasini kengaytirish bo'yicha ham alohida dasturlar amalga oshiriladi.

Beshinchidan, eng murakkab va dolzarb masalalardan biri bo'lgan suv resurslarini boshqarish tizimi tubdan isloh qilinadi. Jumladan, suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish, raqamlash-

tirish, irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari hisobidan yiliga kamida 7 milliard kub metr suvni iqtisod qilish bo'yicha alohida davlat dasturi amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlar uchun kelgusi besh yilda 2 milliard dollar mablag' yo'naltiriladi.

IV. Sifatli ta'lim – inson kapitalini rivojlantirishning hal qiluvchi omili

Aziz do'stlar!

Ijtimoiy sohadagi barcha islohotlarimizning pirovard natijasi, jumladan, kambag'allikni qisqartirish ham ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya tizimini qanday tashkil etishimizga bog'liq. Buni hech qachon unutmashimiz kerak.

Kelgusida uzluksiz ta'lim tizimi uchun milliy o'quv dasturini joriy etish, ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadida quyidagi masalalar doimiy e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Birinchidan, maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasi hozirgi 62 foizdan kamida 80 foizga yetkaziladi. Buning uchun qo'shimcha ravishda 7 mingdan ziyod yangi bog'cha tashkil etiladi.

Shuningdek, 2024-yil yakuniga qadar 6 yoshli bolalar maktabgacha tayyorlov tizimi bilan to'liq qamrab olinadi.

Ana shu tadbirlar hisobidan kelgusi besh yilda tizimda 45 mingdan ortiq xotin-qizlar uchun qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi. Bog'cha tizimi xodimlarining oylik maoshlari ham bosqichma-bosqich oshirib boriladi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsadimiz – yetti yoshgacha bo'lgan birorta ham farzandimiz maktabga chiqqunga qadar e'tiborsiz va bilimsiz qolmasligi kerak.

Ikkinchidan, maktab ta'limi tizimi uchun o'quv dasturlari va darsliklar ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ishlanib, 2026-yilga qadar amalda joriy etiladi.

O'qituvchilarning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash borasidagi ishlar davom ettiriladi.

Yurtimizda bolalar soni o'sib borayotganini inobatga olib, yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko'paytirish, ta'lim sifatini oshirishni nazarda tutadigan **Maktablarni rivojlantirish davlat dasturi** ishlab chiqiladi. Shu asosda kelgusi besh yilda qo'shimcha **1,2 million o'quvchi** o'rni yaratish uchun maktablar rekonstruksiya qilinadi va yangidan barpo etiladi.

Uchinchidan, oliy ta'limga qamrov darajasini 50 foizga yetkazish bilan birga, asosiy e'tibor ta'lim sifatini oshirishga qaratiladi.

2026-yilga qadar kamida 10 ta oliygohimiz nufuzli xalqaro reytinglarga erishishi uchun sa'y-harakatlarimizni kuchaytiramiz.

Shuningdek, davlat oliygohlari bosqichma-bosqich mehnatga haq to'lash, xodimlar soni, to'lov-kontrakt miqdori va ta'lim shaklini mustaqil belgilaydi. Ularning moliyaviy barqarorligini oshirish maqsadida ijtimoiy soliq stavkasi amaldagi 25 foizdan 12 foizga tushiriladi, bo'shagan mablag'lar ta'lim muassasalarini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Xususiy oliygohlarda ta'lim olayotgan talabalarga ham 7 yillik ta'lim kreditini olish tartibi joriy etiladi.

Talabalarning yashash sharoitini yaxshilash uchun kelgusi besh yilda qariyb 100 ming o'rinli talabalar turar joylari barpo etiladi.

Oliy ta'limda sifat va raqobat muhitini kuchaytirish maqsadida 2026-yilgacha xususiy oliygohlar soni kamida 50 taga yetkaziladi.

Zamonaviy, erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlar uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish maqsadida "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali ularni nufuzli xorijiy oliygohlardagi bakalavriyat, magistratura va doktoranturaga yuborish ko'lami 2 marta oshiriladi.

To'rtinchidan, ilmiy kadrlar tayyorlash va ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash tizimi takomillashtiriladi.

Doktoranturaga qabul davlat buyurtmasi hamda manfaatdor tashkilotlar mablag'lari hisobidan to'lov-grantlari asosida joriy etiladi.

Bulardan ko'zlangan yagona maqsadimiz – ta'limning barcha bosqichidagi muassasalarni – Uchinchi Renessansning 4 ta uzviy halqasiga, bog'cha tarbiyachisini, maktab muallimini, professor-o'qituvchilar va ilmiy ijodiy ziyolilarimizni esa, Yangi Uyg'onish davrining 4 ta tayanch ustuniga aylantirishdir.

Jismoniy yetuk va barkamol avlodni tarbiyalash bundan buyon ham ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.

Shu borada olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha har ikki yilda o'tkaziladigan umumrespublika sport o'yinlari – Milliy olimpiada tizimi joriy etiladi. 2024-yili Parijda bo'ladigan olimpiya va paralimpiya o'yinlarida munosib ishtirok etish uchun tegishli "yo'l xaritasi" qabul qilinadi.

Umuman, ta'lim-tarbiya va sport sohasida izchil davom ettiriladigan islohotlarimiz Yangi O'zbekiston bunyodkorlarini kamolga yetkazishga xizmat qiladi.

V. Aholi salomatligi – bebaho boyligimiz

Hurmatli syezd ishtirokchilari!

Sizlarning e'tiboringizga taqdim etilayotgan Yangi O'zbekiston strategiyasida fuqarolarning sog'lig'ini asrab-avaylash masalasi eng muhim vazifalardan biri bo'ladi.

Buning uchun, **birinchidan**, tibbiyotning birlamchi bo'g'inida xalqimizga malakali xizmat ko'rsatish sifati yaxshilanadi. Ushbu sohaga ajratiladigan mablag'lar 2 barobar oshirilib, asosiy e'tibor xonadonbay tibbiy profilaktikaga qaratiladi.

Aholi o'rtasida keng tarqalgan yurak-qon tomir, endokrin, buyrak yetishmovchiligi va onkologik kasalliklarni kamaytirish maqsadida alohida dasturlar qabul qilinadi.

Reproduktiv yoshdagi va homilador ayollar, bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish tizimi takomillashtiriladi. Birinchi bosqichda 46 ta tumanlararo perinatal markazlari barpo etiladi.

Nogironligi bo'lgan o'g'il-qizlarimizni sog'lomlashtirish uchun Respublika bolalar tibbiy reabilitatsiya markazi va uning filiallari tashkil qilinadi.

Ikkinchidan, xususiy tibbiyotni yanada rivojlantirish maqsadida ularga soliq imtiyozlari berish davom ettiriladi.

Tibbiy xizmatlardagi xususiy sektorning ulushi hozirgi 12 foizdan 25 foizga yetkaziladi.

Shuningdek, 11 ta tibbiyot oliygohi transformatsiya qilinib, ularning qoshida klinikalar tashkil etiladi hamda o'qituvchilarning ilg'or xorijiy davlatlarda tizimli malaka oshirishi yo'lga qo'yiladi.

Uchinchidan, o'zimizda ishlab chiqarilgan dori-darmon va tibbiyot vositalarining miqdori 80 foizga yetkaziladi. Ushbu tarmoqdagi ishlab chiqaruvchilarga berilgan imtiyozlar yana 5 yilga uzaytirilib, zamonaviy farmatsevtika klasterlari hamda zonalarini tashkil etiladi va mavjudlari yanada rivojlantiriladi.

To'rtinchidan, sanitariya-epidemiologiya xizmatining xalqaro maqomga ega 250 dan ziyod laboratoriyalari tashkil etiladi.

Chunki bu sohaning naqadar muhimligini pandemiya davri bizga yaqqol ko'rsatdi.

Bosh maqsadimiz – sog'liqni saqlash tizimida yuksak natijadorlikka erishish, aholi o'rtasida kasalliklarni kamaytirish, sog'lom turmush tarzini faol targ'ib qilish va o'rtacha umr ko'rish darajasini oshirishdan iboratdir.

VI. Hududlarni mutanosib rivojlantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining garovi

Muhtaram do'stlar!

Bugungi syezdimizda taqdim etilayotgan Strategiyada hududlarni mutanosib rivojlantirish masalasi ilk bor ustuvor yo'nalish sifatida belgilanmoqda.

Birinchidan, bu borada har bir hudud bo'yicha tuman va shaharlar kesimida 14 ta besh yillik dasturlar ishlab chiqilmoqda. Bunda har bir tuman va shaharning muammo va imkoniyatlari o'rganilib, "o'sish nuqtalari" belgilab olindi. Ularga muvofiq, aniq reja va loyihalar shakllantirilmogda.

Ushbu dasturlarning mazmun-mohiyati joylardagi saylovoldi uchrashuvlarimizda har bir hudud jamoatchiligi e'tiboriga taqdim etiladi.

Ikkinchidan, hududlarda aholining yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosati yanada takomillashtiriladi.

Shu maqsadda 18 ta katta, 22 ta o'rta va 80 ta kichik shaharlar o'rtasida transport-logistika tizimi va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, Samarqand va Namangan kelgusi besh yilda aholi soni million nafarni tashkil etadigan shaharlarga aylantiriladi. 450 ming aholi yashashiga mo'ljallangan Yangi Andijon shahrining dastlabki bir nechta mavzolari qurilib, foydalanishga topshiriladi.

Renovatsiya dasturlari asosida shaharlarda eskirgan uylar o'miga 19 million kvadrat metrdan ortiq zamonaviy uy-joylar quriladi, 275 mingdan ziyod oilalar yangi massivlarga ko'chiriladi.

Uchinchi

dan, og'ir ekologik sharoitga qaramasdan, mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan Qoraqalpog'iston Respublikasini, uning barcha shahar, tuman va ovullarini kompleks tarzda rivojlantirish, mehnatkash va matonatli, oqko'ngil va bag'rikeng qoraqalpoq elining hayotini obod va farovon etishga har qachongidan ham ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Bizning oliy va ezgu maqsadimiz – birgalikdagi fidokorona mehnatimiz bilan Yangi O'zbekiston tarkibida Yangi Qoraqalpog'istonni bunyod etishdir.

To'rtinchidan, Toshkent shahrini aholiga qulay, ekologik toza va yashash uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lgan hududga aylantirish bo'yicha boshlangan ishlar davom ettiriladi. Bunda

Toshkent shahrida jamoat transporti tizimi tubdan qayta ko'rib chiqiladi. Shuningdek, 3 ming kilometr ichki yo'llar yangilanadi, 10 ta zamonaviy ko'priq quriladi.

Poytaxtimizni ko'kalamzorlashtirish darajasini 30 foizga yetkazib, 9 ta jamoat parki, 20 ta xiyobon, 250 kilometr velosiped va piyodalar yo'lakchalari barpo etiladi.

Toshkentning oqova suv tizimi kollektorlari shahar hududidan tashqariga chiqarilib, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi tozalash inshooti barpo etiladi.

Chirchiq daryosining 16 kilometrlik qirg'og'ini qayta tiklash hisobidan 500 gektar yer maydonlari o'zlashtiriladi. Bu joyda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va aholi turar joylari bunyod etiladi.

Umuman, kelgusi besh yilda Yangi Toshkent shahrini barpo etishga qaratilgan loyihamizni bosqichma-bosqich amalga oshirish boshlanadi.

Beshinchidan, "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida hududlarning "o'sish nuqtalari"dan kelib chiqib, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma obyektlari qurilishiga alohida e'tibor qaratamiz. Bunda 70 ming kilometr magistral va past kuchlanishli elektr tarmoqlari, 22 mingdan ortiq transformator hamda 100 dan ziyod podstantsiya quriladi va yangilanadi.

Ayni vaqtda 70 ming kilometrdan ziyod avtomobil yo'llari, 15 ming kilometrdan ortiq ichimlik suvi va 1 ming kilometr oqova suv tarmoqlari quriladi. Mamlakatimiz bo'yicha aholini markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 87 foizga yetkaziladi.

Bundan tashqari, 2026-yilgacha 32 ta yirik shahar, 155 ta tuman markazlarida oqova suv tizimlari yangilanadi. Shuningdek, maishiy chiqindilar yig'ish 100 foizga va uni qayta ishlash darajasi hozirgi 21 foizdan 50 foizga yetkaziladi.

Oltinchidan, zarur sharoitlar tashkil qilish orqali 2026-yilda O'zbekistonga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar soni 9 millionga, turizm xizmatlari eksporti 1,8 milliard dollarga yetkaziladi.

Samarqand xalqaro aeroporti yirik transport xabiga aylantiriladi. “Abadiy shahar” tarixiy majmuasini o‘z ichiga olgan “Samarqand turizm markazi” tashkil etiladi.

“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida, mahalliy sayyohlar soni kelgusida har yili 12 milliondan oshadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Orolbo‘yida ekoturizmni rivojlantirish bo‘yicha alohida dastur amalga oshiriladi. Bunda Mo‘ynoqning yangi aeroporti imkoniyatlaridan keng foydalaniladi. Bundan tashqari, 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlari imkoniyatlaridan samarali foydalanishga alohida e‘tibor qaratiladi va ushbu yo‘nalishda davlat dasturi qabul qilinadi.

Eng muhimi, 2026-yilgacha turizm sohasida band bo‘lgan aholi soni 2 barobar oshirilib, 520 mingga yetkaziladi. Turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirishga har yili 1 trillion so‘m mablag‘ ajratiladi.

Yettinchidan, transport yo‘nalishida oldimizda ikkita eng muhim vazifa turibdi.

Avvalambor, Toshkent va yirik shaharlar o‘rtasida kunlik qatnovlar bo‘yicha uzog‘i bilan 6–7 soatda manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyati yaratiladi.

Temir yo‘llarni elektrlashtirish darajasi amaldagi 40 foizdan 60 foizga oshiriladi. Toshkent – Urganch yo‘nalishi bo‘yicha tezyurar poyezdlar qatnovi yo‘lga qo‘yiladi.

Shu bilan birga, yuk tashish xarajatlarini kamida 30 foizga pasaytirishimiz, tranzit hajmini 15 million tonnaga yetkazishimiz shart.

Sakkizinchidan, butun mamlakatimiz bo‘ylab “Yashil makon” umummilliy loyihasi tatbiq etiladi.

Xonadon, ko‘cha, mahalla va qishloq, shaharlarda, yo‘l bo‘ylari va dala chetlariga daraxtlar ekish, har bir hudud iqlimiga mos ko‘chatlarni yetishtirish, sug‘orish hamda parvarish qilish tizimi joriy etiladi. Bu tizim orqali hududlarda har yili kamida 200 million tup daraxt ko‘chatlari ekiladi.

Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar markazlarida “Yangi O‘zbekiston bog‘i” namunasi asosida kamida 50 gektar maydonda “yashil bog‘lar” barpo etiladi. Bundan tashqari, shaharlar va tuman markazlarida har 50–100 ming aholi uchun “yashil parklar” tashkil etiladi.

Shu bilan birga, daraxt kesishga muddatsiz moratoriy joriy qilinadi. Bundan buyon parklar va yashil zonalar hududini boshqa maqsadlar uchun ishlatish qat‘iyan taqiqlanadi.

To‘qqizinchidan, kelgusi yillarda Orol dengizining qurigan tubida qo‘shimcha 500 ming gektar yashil maydonlar barpo etilib, ularning umumiy hajmi 2,5 million gektarga yoki hududning 78 foiziga yetkaziladi.

Orolbo‘yida xalqaro “Yashil iqlim” va “Global ekologik jamg‘arma”lari mablag‘lari hisobidan bioxilma-xillik, iqlim o‘zgarishi va tuproq yemirilishining oldini olishga qaratilgan 300 million dollarlik loyihalar amalga oshiriladi.

Bularning barchasi Qoraqalpog‘iston hamda Xorazm vohasi-ning ekologik sharoitini yaxshilash, ushbu hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi.

VII. Yangi O‘zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat

Muhtaram yurtdoshlar!

Yangi O‘zbekiston – xalqchil va insonparvar, adolatli davlatdir.

Yangi O‘zbekiston – kuchli qonunchilik, ijro va sud hokimiyati, fuqarolik jamiyati institutlari samarali faoliyat ko‘rsatadigan, **“Davlat – xalq xizmatchisi”** tamoyili amal qiladigan, demokratik dunyoviy davlatdir.

Shu munosabat bilan “Xalqchil davlat” milliy dasturini, Xalq qabulxonalariga konstitutsiyaviy maqom berish va ularning faoliyati to‘g‘risida alohida qonunni ishlab chiqish vaqti yetdi. Shuningdek,

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini rivojlantirish konsepsiyasini tayyorlash ham davr taqozosidir.

Milliy taraqqiyotimizning bugungi yangi bosqichida ixcham, professional, xalqimiz talablariga javob beradigan, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish muhim vazifa bo'lib turibdi.

Bu borada o'tgan davrda yetarli tajriba to'pladik va kelgusida quyidagi tashkiliy-huquqiy tadbirlarni amalga oshiramiz.

Birinchidan, mahalla tom ma'noda jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylanishi uchun barcha sharoitlarni yaratamiz.

Shu maqsadda avvalo, mahalla tizimining huquq va vakolatlari kengaytiriladi, uni moliyalashtirish manbalari va tartibi takomillashtiriladi.

Bundan tashqari, mahallada fuqarolar uchun davlat va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish, davlat organlariga mahalladan turib murojaat qilish imkoniyati yaratiladi.

Ikkinchidan, tuman, shahar, viloyat vakillik va ijro hokimiyati tizimi qayta ko'rib chiqiladi.

Kelgusida tuman va shahar kengashlarida kamida 2–3 nafar deputat doimiy asosda ishlaydigan tartib joriy etiladi. Ular muammolarni mahallabay o'rganib, yechimini Kengash muhokamasiga kiritadi.

Tuman va shahar hokimi lavozimiga nomzod tegishli kengashda eng ko'p deputatlik o'rnini egallagan partiya guruhi tomonidan ilgari suriladi. Bunda nomzod hududni rivojlantirish bo'yicha o'z dasturini xalq vakillari oldida himoya qila olgan taqdirda hokim lavozimiga tasdiqlanadi.

Bir qator ijtimoiy masalalar, jumladan, ichimlik va oqova suv, ichki yo'llar, boshqa infratuzilma obyektlarining qurilishi, bandlik dasturini tasdiqlash tuman va shahar kengashlari vakolatiga o'tkaziladi.

Kelgusi yildan boshlab 28 ta tuman va shaharda eksperiment tariqasida hududni rivojlantirish va muammolarni hal qilish bo'yicha hokimliklarning vakolat va imkoniyatlari kengaytiriladi. Endi har bir hokimlik o'zining va hududiy ijro idoralarining shtat birligi va tuzilmalarini Kengash bilan bamaslahat mustaqil belgilaydi. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i to'lig'icha ushbu tuman va shaharlarda qoldiriladi.

Bundan tashqari, hududiy ijro idoralarining "vakolatlar reyestri" shakllantiriladi, takrorlanadigan 500 dan ortiq funksiyalar maqbullashtiriladi.

2022-yildan boshlab bog'cha, maktab, sog'liqni saqlash obyektlarini qurish va ta'mirlashga ajratiladigan 4 trillion so'm mablag'ni taqsimlash vakolati viloyatlarga beriladi.

Bundan buyon Xalq ta'limi va Maktabgacha ta'lim vazirliklari o'qitish va tarbiya sifatiga, mahalliy hokimliklar esa ta'lim muassasalarining qurilish-ta'mirlash ishlariga javob beradi.

Uchinchidan, barcha bo'g'indagi ijro idoralari rahbarlari – xoh u vazir bo'lsin, xoh qo'mita raisi, bir yillik ish dasturi va amalga oshiradigan loyihalarini jamoatchilikka ochiq e'lon qilib boradi.

Kelgusi besh yilda davlat idoralarining shtatlarini oshirishga yo'l qo'yilmaydi. Aksincha, **raqamlashtirish va qator funksiyalarni xususiy sektorga berish hisobidan** shtatlar qisqartirib boriladi.

Qator vazirlik, idora va xo'jalik birlashmalari hamda mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyati islohotlarimiz talablaridan kelib chiqib, tanqidiy qayta ko'rib chiqiladi.

To'rtinchidan, zamonaviy davlat xizmatini joriy qilishga ustuvor ahamiyat beriladi. Xususan, elektron davlat xizmatlarining ulushi 100 foizga yetkaziladi. Jumladan, 700 dan ortiq davlat xizmatlarining 100 tasi xususiy sektorga o'tkaziladi.

Bundan buyon davlat xizmatiga kadrlar, qoida tariqasida, tanlov asosida qabul qilinadi. Davlat xizmatchilari uchun **uzluksiz malaka oshirish, natijadorlikni baholash va lavozim bo'yicha**

ko'tarilish mezonlari belgilanadi. Ish vaqti, mehnat me'yorlari bo'yicha talablar ham qayta ko'rib chiqiladi.

Beshinchidan, biz ochiqlik va oshkoralik, jamoatchilik bilan faol hamkorlik yo'lidan qat'iy boramiz.

Ijtimoiy soha obyektlarini qurish, "Obod qishloq", "Obod mahalla", hududiy infratuzilma dasturlari doirasidagi loyihalar ochiq e'lon qilinib, keng jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqiladi.

Shuningdek, subsidiya, grant va ijtimoiy buyurtmalar ajratish orqali nodavlat notijorat tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash hajmi 2 barobar oshiriladi.

Ommaviy axborot vositalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash davom ettirilib, jurnalistlarning erkin faoliyat yuritishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Men haqiqat va adolatni o'z e'tiqodi deb biladigan barcha jurnalistlarni islohotlarning faol ishtirokchilari, deb bilaman va ular hamisha Prezident himoyasida bo'ladi. Bu fikrni bugun yana bir bor ta'kidlayman.

VIII. Adolat va qonun ustuvorligi – xalqparvar davlat poydevori

Qadrli safdoshlarim!

Odil sudlov, inson qadr-qimmatini va huquqlari oliy qadriyat sifatida sud-huquq sohasidagi islohotlarimizning asosiy mazmuni bo'lib qoladi.

Ushbu soha yanada ochiq va xalqchil bo'lishi uchun quyidagi yo'nalishlarda muhim o'zgarishlar amalga oshiriladi.

Birinchidan, mansabdor shaxslarning qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish tizimi takomillashtiriladi.

Bu borada ma'muriy sudning o'rni va rolini kuchaytirish maqsadida uning vakolatlari kengaytiriladi. Shuningdek, ma'muriy sudlarga davlat idoralari tomonidan yetkazilgan zararni qoplash

va boshqa huquqiy oqibatlariga oid masalalarni hal qilish vakolati beriladi.

Bundan tashqari, endi qaror noqonuniy emasligini sudda isbotlash majburiyati uni qabul qilgan mansabdorning o'ziga yuklanadi.

Mansabdor shaxslar ma'muriy sud qarorini bajarmagan taqdirda, ularga nisbatan "o'shib boradigan" jarima va boshqa huquqiy choralarni qo'llash tartibi kiritiladi. Shu orqali shikoyatlar sonining kamida 2 barobar qisqarishiga erishish mumkin.

Ikkinchidan, sudlar faoliyatiga "yagona darcha" tartibi joriy etiladi. Ya'ni, bundan buyon ish fuqarolik, iqtisodiy yoki ma'muriy sudga taalluqli bo'lishidan qat'i nazar, ariza "yagona darcha" asosida qabul qilinadi. Bu esa fuqaro va tadbirkorlarning eshikma-eshik sarson bo'lishiga chek qo'yadi.

Uchinchidan, prokuratura faoliyati fuqarolarning qadr-qimmatini, huquqlari va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltiriladi. "Qonun – ustuvor, jazo – muqarrar" degan prinsip prokuratura organlari faoliyatining bosh mezonini bo'lishi zarur.

Buning uchun 20 yil avval qabul qilingan "prokuratura to'g'risida"gi qonun o'rniga mamlakatimizda qonuniylikni qat'iy ta'minlaydigan, ochiq va adolatli prokuratura tizimining yangi huquqiy asoslarini yaratish lozim.

To'rtinchidan, ichki ishlar organlarini xalqqa va har bir oilaga yanada yaqinlashtirish, bu tizimni chin ma'noda xalqchil tuzilmaga aylantirish borasida boshlagan islohotlarimizni izchil davom ettiramiz.

Ayniqsa, bu sohani **ma'naviy pok, o'z burchiga sodiq, xalqparvar va mas'uliyatli** xodimlar bilan to'ldirib borishga alohida e'tibor qaratamiz.

Bundan buyon ichki ishlar organlari faoliyatini baholashda aholi muammolarini hal etish va fuqarolar murojaatlari bilan ishlash natijadorligi asosiy mezon etib belgilanadi.

Ma'lumki, qayerda kamchiliklar ro'y-rost aytilmas ekan, u joyda ijobiy o'zgarish bo'lmaydi. Shuning uchun sohani ijtimoiy

fikr asosida xolis baholash maqsadida Ichki ishlar vazirligining barcha pog'onalarida Jamoatchilik kengashlari tuziladi.

Ichki ishlar xodimlarining "Kasbiy madaniyat kodeksi"ni qabul qilish va joriy etish ushbu tizimda o'z xizmat burchiga nisbatan mas'uliyat hissini oshirishda muhim rol o'ynaydi, deb hisoblayman.

Beshinchidan, mamlakatimizda olib borilayotgan liberallashtirish siyosatining mantiqiy davomi sifatida o'z ahamiyatini yo'qotgan 10 ga yaqin qilmishlar jinoyat toifasidan chiqariladi va jazoni yengillashtiradigan holatlar soni amaldagi 9 tadan 15 tagacha ko'paytiriladi.

Gumon bilan ushlab turilgan shaxslarni hisobga olish bo'yicha yagona elektron reyestr ishga tushiriladi.

Eng muhimi, reyestrga ma'lumotlarni kiritmaslik, gumonlanuvchi shaxslarni **ushlab turishni noqonuniy deb topishga** asos bo'ladi.

Oltinchidan, taraqqiyotimiz yo'lida jiddiy to'siq va g'ov bo'layotgan korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat va jamiyatning barcha kuch va vositalarini safarbar etamiz.

Davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulklarini deklaratsiya qilish tizimi kelgusi yildan bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Davlat xaridlari, davlat mulkini sotish jarayonlari ochiq va shaffof tarzda tashkil etiladi va bunga jamoatchilik keng jalb qilinadi.

Korrupsiyaga yo'l qo'ygan har qanday mansabdor shaxs, lavozimi va mavqeyidan qat'i nazar, so'zsiz qonuniy javobgarlikka tortiladi.

Bunday shaxslarning ochiq reyestri yuritilib, ularning davlat xizmatiga kirishi, mas'ul lavozimlarga nomzodi ko'rsatilishi cheklanadi.

Yettinchidan, fuqarolar huquqlarini himoya qilish tizimi yanada kengaytiriladi.

Endi davlat hisobidan ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga bepul yuridik yordam nafaqat jinoyat ishlari bo'yicha, balki fuqarolik va ma'muriy ishlar bo'yicha ham ko'rsatiladi. Shu orqali kamida

100 ming nafar aholini huquqiy himoya bilan qamrab olish imkoni tug'iladi.

Yana bir masala mamlakatimizda advokatlar sonining yetishmasligi bilan bog'liq. Shuning uchun sohaga yosh kadrlarni jalb qilish maqsadida yuridik taj haqidagi talab bekor qilinib, oliy yuridik ma'lumotli shaxslarga 3 oylik stajirovkadan keyin advokatlik imtihanini topshirish imkoniyati yaratiladi.

IX. Xavfsizlik va ochiq, pragmatik faol tashqi siyosat borasidagi ustuvor vazifalar

Aziz vatandoshlar!

Dunyodagi hozirgi murakkab vaziyat, qo'shni mintaqalardagi ziddiyat va qurolli nizolar O'zbekiston Respublikasining xavfsizligi va tinchligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Biz o'tgan davrda yangilangan Mudofaa doktrinasi asosida Qurolli Kuchlarimiz faoliyatini tubdan qayta ko'rib chiqib, takomillashtirmoqdamiz.

Qo'shnlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimini chuqur isloh qildik. Armiyamiz eng zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnika bilan ta'minlanmoqda.

Bugun Qurolli Kuchlarimiz har qanday tashqi xavf-xatarlarga, turli tajovuz va tahdidlarga qat'iy zarba berishga qodir bo'lgan yaxlit va ishonchli kuchga aylanmoqda.

Yaqinda 42 ta davlat vakillari ishtirokida o'tkazilgan nufuzli "Armiya – 2021" xalqaro o'yinlarida askarlarimiz faxrli 2-o'rinni egalladi. Bu milliy armiyamizning qudrati, harbiy xizmatchilari-mizning vatanparvarligi va jangovar ruhi yuqori ekanini yana bir bor namoyon etdi.

Kelgusida ham mamlakatimiz mudofaa salohiyati va harbiy qudratini yanada mustahkamlash bo'yicha aniq va manzilli ishlarni davom ettiramiz.

Eng avvalo, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqib, tizimli amalga oshiramiz.

Shu bilan birga, mamlakatimizni havo hujumidan himoya qilish tizimi ham, davr talablaridan kelib chiqib, yanada kuchaytiriladi.

Chegaralarimiz xavfsizligini zamonaviy kommunikatsiya vositalari va texnik inshootlarni keng qo'llash orqali yanada mustahkamlaymiz.

Shuningdek, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolarining ijtimoiy himoyasini har tomonlama kuchaytiramiz.

Ikkinchidan, tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalar sohasida so'nggi besh yildagi sa'y-harakatlarimiz natijasida mamlakatimizning xalqaro maydonda ochiq, ishonchli va tashabbuskor davlat sifatidagi maqomi va obro'si keskin oshdi.

Biz Markaziy Osiyo mintaqasida o'zaro hamjihatlik va hurmat, yaqin qo'shnichilik va strategik sheriklik ruhidagi yangi siyosiy muhitni yaratishga muvaffaq bo'ldik.

Oddiy fuqarolarimizni uzoq yillar qiynab kelgan ko'plab muammolar yechildi, do'st va qardosh xalqlarimizning o'zaro bordikeldilari tobora kuchaymoqda. Bu – bizning eng katta yutug'imizdir.

Qo'shnilarimiz bilan savdo hajmi besh yilda 5 barobar ko'paydi. birgalikda yirik qo'shma loyihalarni amalga oshirmoqdamiz. Mintaqa davlatlari yetakchilarining Maslahat uchrashuvlari muntazam o'tkazilmoqda.

Bundan tashqari, dunyoning qudratli davlatlari va boshqa strategik hamkorlarimiz bilan yangi formatdagi amaliy aloqalar yo'lga qo'yildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashida a'zo sifatida faol qatnashmoqdamiz.

Bu ijobiy jarayonlar xalqaro hamjamiyat tomonidan keng e'tirof etilmoqda. Yaqinda Toshkentda bo'lib o'tgan Markaziy va Janubiy Osiyoning o'zaro bog'liqligiga bag'ishlangan sammit hamda Islom taraqqiyot banki anjumani ham buning isboti bo'ldi.

Biz, tizimli va puxta o'ylangan, pragmatik tashqi siyosiy va iqtisodiy diplomatiyamizni bundan keyin ham faol davom ettiramiz.

Avvalambor, Markaziy Osiyoda xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv, energetika va transport, madaniy-gumanitar sohalaridagi yaqin hamkorlikni sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqamiz.

Kelgusi besh yilda o'zaro savdo aylanmasi hajmi kamida 2 barobar oshiriladi. Sanoatda qo'shimcha qiymat yaratish bo'yicha yaxlit zanjirlarni va kooperatsiyani mustahkamlaymiz.

Transport sohasida tashqi savdo uchun "yashil koridorlar" hamda tranzit imkoniyatlari kengaytiriladi.

Xalq diplomatiyasi tamoyilini, jumladan, ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va turizm sohalaridagi aloqalarni kuchaytirish asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi. Shu maqsadda O'zbekistonning Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy hamkorlik strategiyasini ishlab chiqamiz.

Rossiya, Xitoy va AQSH, shuningdek, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Birlashgan Arab Amirliklari kabi an'anaviy hamkorlarimiz bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, tashqi aloqalarimiz geografiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Bu yo'nalishda, eng avvalo, iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirishga alohida urg'u beramiz. Yangi bozorlarni o'zlashtirish, investitsiya va innovatsiyalarni keng jalb qilish, sayyohlar oqimini ko'paytirish va eng muhimi – O'zbekiston imijini faol targ'ib etish barcha diplomatik vakolatxonalarimizning asosiy vazifasiga aylanadi. Ushbu masalalar hozirgi vaqtda ishlab chiqilayotgan O'zbekiston tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyatining yangilangan konsepsiyasida o'z ifodasini topadi.

Biz nufuzli xalqaro tuzilmalarda O'zbekistonning ishtirokini yuqori darajada ta'minlashimiz shart.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatimizni kuchaytiramiz.

Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish bo'yicha aniq amaliy qadamlar qo'yiladi.

Hozirgi vaqtda Shanxay hamkorlik tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalarda O'zbekiston raisligi uchun yangicha yondashuv asosida tayyorgarlik ko'rmoqdamiz.

Shu bilan birga, qadimiy va navqiron shaharlarimiz – Toshkent, Samarqand, Buxoro, Nukus, Xiva, Termiz, Shahrisabz va Qo'qonda xalqaro ahamiyatga molik yirik sammit, forum va anjumanlarni doimiy ravishda o'tkazishni davom ettiramiz.

Uchinchidan, qo'shni Afg'oniston zaminida tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash yo'lida jafokash afg'on xalqiga qo'limizdan kelgan barcha yordamni ayamaymiz.

“Termiz – Mozori Sharif – Kobul – Peshovar” temir yo'lini qurish hamda energetika, savdo va sanoat sohalaridagi strategik va muhim loyihalarni hamkorlikda albatta amalga oshiramiz.

To'rtinchidan, yaqinda tashkil etilgan “Vatandoshlar” jamoat fondi orqali xorijiy davlatlardagi yurtdoshlarimiz bilan doimiy va samarali aloqalar o'rnatamiz. Ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarga jalb etish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib beramiz.

Yaqin kelgusida asosiy vazifasi chet ellarda o'zbek tili, madaniyati va milliy an'analarimizni keng ommalashtirish, gumanitar aloqalarni mustahkamlashdan iborat bo'lgan Alisher Navoiy xalqaro instituti tashkil etiladi.

X. Madaniy-ma'naviy taraqqiyot sari

Hurmatli delegatlar!

Biz Yangi O'zbekistonni yuksak madaniyat va ma'naviyatga ega bo'lgan, erkin va baxtli insonlar yashaydigan mamlakatga aylantirish uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz. Shu munosabat bilan **“Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat”** konsepsiyasi va uni amalga oshirish milliy dasturi ishlab chiqiladi. Bu, avvalo, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizni davr talablariga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning madaniy-ma'rifiy yuksalishiga erishish imkonini beradi.

O'z navbatida, bu jamiyat a'zolarining ongi va tafakkurini, hayot falsafasi va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ushbu yo'nalishdagi ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini kuchaytirish zarur. Bunda aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash – bizning oliy maqsadimizdir. Shu borada ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot va badiiy ijod sohalarining mamlakatimiz taraqqiyotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirishga qaratilgan alohida dasturlar qabul qilamiz.

Ijodkor ziyolilarga doimiy e'tibor qaratish, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga, mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan ishlarni ushbu sohadagi siyosatimizning muhim yo'nalishlari sifatida davom ettiramiz.

Madaniyat va sport muassasalari, teatr va muzeylarning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Hududlarimizning madaniy yuksalishi, xalq hunarmandchiligini ravnaq toptirishga qaratilgan samarali va manzilli ishlarni tizimli asosda olib boramiz.

Mamlakatimizda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash, fuqarolarimizni turli mafkuraviy tahdidlardan, zararli oqim va g'oyalardan himoya qilish masalalari bundan buyon ham ustuvor tarzda diqqatimiz markazida bo'ladi.

Biz muqaddas dinimizni ezgu fazilatlarimizning mujassam ifodasi sifatida qadrlaymiz.

Asrlar davomida milliy ma'naviyatimizning ajralmas qismi bo'lib kelayotgan insonparvar dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qilmaymiz.

Boy diniy va ma'naviy merosimizni chuqur o'rganish va keng targ'ib etish maqsadida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Islom sivilizatsiyasi xalqaro markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy kabi ilmiy-ma'rifiy markazlar imkoniyatlari to'liq ishga solinadi.

Yurtimizda yashayotgan barcha millat va elat vakillari o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, turli diniy konfessiyalar uchun zarur sharoit yaratishga qaratilgan siyosatimizni izchil davom ettiramiz.

Aziz yurtdoshlar!

Bugun sizlarning e'tiboringizga havola qilingan **Yangi O'zbekiston strategiyasi**, hech shubhasiz, saylovoldi uchrashuvlarida jamoatchiligimiz, xalqimiz tomonidan yana bildiriladigan qo'shimcha fikrlar, taklif va tashabbuslar hisobiga yanada boyitiladi va takomillashtiriladi. Shu asosda ushbu dasturimizni har tomonlama mukammallashtirib, barchamiz bir tan-u bir jon bo'lib, birgalikda amalga oshirishimiz lozim.

Ushbu Strategiya el-yurtimizning islohotlarga bo'lgan ishonchi, shu yo'ldagi amaliy harakatlaridan kuch-qudrat olib, butun xalqimizni Yangi O'zbekiston g'oyasi atrofida birlashtiradigan, tom ma'nodagi umummilliy dasturga aylanishi uchun butun xalqimiz, avvalo, partiyamiz a'zolari astoydil birgalikda harakat

qilishimiz kerak. Chunki bu Strategiya mard va mehnatkash xalqimizning azaliy orzu-intilishlari va tub manfaatlarini ifoda etishga qaratilgan.

Xalq ishonchi qanday buyuk qudrat va ilhom manbai ekanini o'tgan yillar davomida barchamiz chin yurakdan his etib kelmoqdamiz, desam, o'ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo'shilasiz. Aynan ana shu buyuk ishonch eng qiyin damlarda bizga umid va madad berdi, vujudimizga – kuch, ruhimizga – qanot bag'ishladi.

Bizga tog'dek tayanch bo'lib turgan mo'tabar nuroniylarimiz, mehribon onalar, azamat aka-ukalarimiz, oqila opa-singillarimiz, navqiron avlodimizga tayanib, tanlagan yo'limizdan dadil ilgari bormoqdamiz.

Ana shu yuksak ishonchga munosib bo'lish, xalqimiz, Vatanimiz manfaatlari hamda uning baxt-saodati yo'lida bor kuch-g'ayratim, bilim va salohiyatimni safarbar etish men uchun hamisha hayotimning ma'no-mazmuni bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Men uchun bundan ulug' baxt, bundan buyuk sharaf va mas'uliyat yo'q va bo'lishi ham mumkin emas.

Ona xalqim bilan birga Yangi O'zbekistonni qurish, Uchinchi Rennessans poydevorini barpo etishdek ulkan baxt nasib etgani uchun Yaratganga cheksiz shukronalar aytaman. Bu yo'lda oliyjanob xalqimiz bilan har qanday sinov va mashaqqatlarni yengib o'tishga tayorman.

Jonajon Vatanimiz o'z taraqqiyotining hal qiluvchi bosqichiga qadam qo'yayotgan mana shu tarixiy damlarda ko'pmillatli xalqimizga murojaat qilib aytmoqchiman: sizlar bilan birga qancha murakkab marra va dovonlardan o'tdik. Ammo hech qachon yarim yo'lda to'xtab qolmadik. Ba'zan toliqqan va charchagan paytlarimiz ham bo'ldi. Lekin hech qachon tushkunlikka tushmadik. Kelajakka, yorug' kunlarga ishonchimizni aslo yo'qotmadik. **Chunki hamisha kuch-quvvat beradigan, bolam, deb bag'riga bosadigan xalqimiz bor, betakror Vatanimiz bor.**

Mana shunday buyuk va yengilmas tuyg'uni qalbimizga jo aylab, doimo oldinga, faqat oldinga qarab bormoqdamiz.

Aql-zakovatimiz, bilim va tajribamiz, iymon-irodamiz, butun borlig'imiz bilan hayot sinovlarida toblandik. Ochiq muloqot, ochiq siyosat, ochiq islohotlar bizni xalqimizga va dunyoga yanada yaqin qildi.

O'zingiz ko'rib turibsiz, bugungi xalqimiz – kechagi xalq emas. Bugungi O'zbekiston ham kechagi O'zbekiston emas. Biz bilan hamkorlik qilayotgan dunyo ham – kechagi dunyo emas.

Ko'ryapsizlarmi, o'zimiz o'zgarsak, sidqidildan intilib, fido-korona mehnat qilsak, atrofimizdagi hamma narsa o'zgaradi. Bu o'zgarishlar – shunchaki oddiy voqealar emas. Har biri shonli tariximizga oltin harflar bilan yoziladigan, kelajak avlodlar minnatdor bo'lib esga oladigan buyuk o'zgarishlardir.

Bu o'zgarishlarning ijodkori, bunyodkori kim? Albatta, ko'pni ko'rgan, irodasi mustahkam, matonatli va mehr-oqibatli bag'rikeng xalqimizdir.

Men doimo ezgulikka, adolat va ma'rifatga intilib yashaydigan ana shunday xalq farzandi ekanimdan cheksiz faxrlanaman.

Barcha islohotlarimizni doimo qo'llab-quvvatlab, ularni amalga oshirishda hal qiluvchi kuch bo'lib kelayotgan, o'zini ayamasdan qahramonlarcha mehnat qilayotgan oliyjanob xalqimga farzandlik mehri va sadoqati bilan chin dildan ta'zim qilaman.

Ishonchim komil, asrlar davomida ko'plab sinov va mashaqqatlardan munosib o'tib kelayotgan ko'pmillatli O'zbekiston xalqi bu gal ham o'zining aql-zakovati, mustahkam irodasi va yuksak siyosiy madaniyatini yaqqol namoyon etadi.

Bo'lajak saylovlarda faol ishtirok etib, o'zining fuqarolik burchini mas'uliyat bilan ado etadi va Yangi O'zbekiston uchun, tinch va erkin, obod va farovon hayot uchun ovoz beradi.

Qadrli yurtdoshlarim!

Vatanimizning bugungi va ertangi taqdiri, farzandlarimizning kelajagi Sizlarning ushbu saylovdagi ongli ishtirokingizga, fuqarolik pozitsiyangizga bog'liq.

Ishonaman, bu saylov Sizlarning faol ishtirokingiz bilan bugun biz intilayotgan Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessans sari tashlangan yana bir ulkan amaliy qadam bo'ladi.

Hech qachon unutmang, saylash va tanlash huquqi – Sizning qo'lingizda, kelajak uchun mas'uliyat esa – barchamizning zimmamizda.

Ana shunday buyuk hissiyot, ishonch-e'tiqod bilan harakat qil-sak, bizdan xalqimiz ham, kelajak avlodlar ham albatta rozi bo'ladi.

Yangi O'zbekistonimiz har tomonlama taraqqiy topgan, gullab-yashnagan go'zal mamlakatga aylanadi.

Barchangizga shu ezgu yo'lda sihat-salomatlik, oilaviy baxt, shaxsiy hayotingiz va faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

* * *

Hurmatli syezd delegatlari!

Muhtaram partiyadoshlar!

Bugun Sizlar tomoningizdan menga bildirilgan yuksak ishonch, keyingi besh yillik faoliyatim to'g'risida aytgan samimiy fikrlaringiz, meni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga nomzod etib ko'rsatish haqida qabul qilgan qaroringiz uchun barchangizga chin qalbidan minnatdorchilik izhor etaman. Men bu qarorni o'tgan davrda Sizlar bilan, el-yurtimiz bilan birgalikda amalga oshirgan ulkan ishlarimiz uchun berilgan munosib baho, deb qabul qilaman.

Bugun butun xalqimiz qatori Siz, hurmatli partiyadoshlarimning, partiyamiz faollari hamda bizga tarafdor va xayrixoh bo'lgan millionlab insonlarning siyosiy ongi va tafakkuri, bilim va saviyasi,

hayotga, islohotlarimizga munosabati, jonajon Vatanimiz taqdiriga daxldorlik hissi yuksalib borayotganini yana bir marta chuqur his qildim.

Mana shunday tub o'zgarishlar siyosatini, xalqparvar siyosatni amalga oshirishda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi kelgusida yana yangi-yangi g'oya va tashabbuslar bilan maydonga chiqadi, deb ishonaman.

Albatta, saylovoldi dasturimni bugun bildirilgan, joylardagi uchrashuvlarda ilgari suriladigan taklif va mulohazalar asosida bo'yitib, takomillashtiramiz.

Ayniqsa, Siz, azizlarning Yangi O'zbekiston strategiyasini chin dildan qabul qilib, uni ro'yobga chiqarishda ko'pmillatli xalqimiz bilan birga yagona kuch, yagona va faol jamoa bo'lib ishlashga tayyor ekaningiz meni behad xursand qilmoqda. Kuchingizga – kuch, g'ayratimga – g'ayrat qo'shilmoqda.

Partiyamiz timsolida mustaqillik g'oyalariga, ona xalqimiz va buyuk Vatanimizga sodiq va fidoyi, yuksak malakali mana shunday safdoshlarim borligidan g'oyat faxrlanaman.

Bugun menga bildirgan ishonchingizni yuksak qadrlayman. Bu ishonchni oqlash uchun o'zimning bor kuch-g'ayratim, bilim va salohiyatimni safarbar etaman.

Barchangiz saylov jarayonlarida faol ishtirok etib, oldimizda turgan ana shu muhim siyosiy tadbiri Yangi O'zbekistonning obro'-e'tiboriga har tomonlama munosib tarzda o'tkazishga hissa qo'shasiz, deb ishonaman.

Jumladan, hududlarda bo'ladigan uchrashuvlarimizda har bir masalani birgalikda muhokama qilib, saylovchilar va xalqimiz uchun ma'qul takliflar, tashabbus va loyihalarni ilgari suramiz, albatta.

Shu ma'noda, **bugun o'z oldimizga qo'yayotgan ulkan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda Sizlarga, butun xalqimizga tayanaman.**

Mana shunday birlik va hamjihatlik, o'z kuch va imkoniyatlarimizga, kelajakka bo'lgan ulug' ishonch bilan biz ezu maqsadlarimizga albatta yetamiz.

Mamlakatimizning yangi taraqqiyot dasturini – Yangi O'zbekiston strategiyasini albatta amalga oshiramiz.

Doimo sog'-omon bo'linglar!

Katta rahmat!

***Toshkent shahri,
2021-yil 9-sentabr***

**YANGI O‘ZBEKISTONDA YANGI
QORAQALPOG‘ISTONNI
BIRGALIKDA BUNYOD ETAMIZ**

*(Qoraqalpog‘iston Respublikasi
saylovchilar vakillari bilan
uchrashuvdagi nutq)*

Assalomu alaykum, aziz yurtdoshlar!

Qadrli do'stlar!

Hurmetli jasi ulkenlar, aziyz apa-singiller, navqiran jaslar!

Bugun mana shu qadimiy va saxovatli zaminda, qayta tashkil qilingan Bo'zatov tumanida siz, azizlar – mard va tanti, mehnatkash va bag'rikeng Qoraqalpog'iston xalqining vakillari – muhtaram oqsoqollar, munis opa-singillarimiz, navqiron yoshlarimiz bilan ko'tarinki kayfiyatda uchrashib turganimdan baxtiyorman.

Fursatdan foydalanib, barchangizga, butun qoraqalpoq eliga o'zimning chuqur hurmat-ehtiromim va samimiy tilaklarimni bildiraman.

Xabaringiz bor, bu galgi uchrashuvimiz mamlakatimizda davom etayotgan muhim siyosiy jarayon – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi munosabati bilan o'tkazilmoqda.

Saylovoldi uchrashuvlarni, eng avvalo, Qoraqalpog'iston diyoridan boshlayotganim albatta bejiz emas. Ilgari ham aytganman, bugun ham katta mamnuniyat bilan takrorlayman – **men o'zimni qoraqalpoq xalqining ham farzandi deb bilaman.**

Aziz do'stlar!

Bu saylov barchamiz, butun el-yurtimiz uchun O'zbekistonning, uning tarkibiy qismi bo'lgan Qoraqalpog'istonning bundan keyingi taraqqiyoti qanday bo'ladi, mamlakatimiz qanday rivojlanish yo'lidan boradi, farzandlarimiz, oilamiz, butun yurtimiz kelajagini qanday barpo etamiz, degan hal qiluvchi savollarga javob beradigan g'oyat muhim siyosiy tadbirdir.

O'zingiz ko'rib, guvohi bo'lib turibsiz, o'tgan besh yillik muddat butun mamlakatimiz, xalqimiz uchun og'ir sinovlar davri bo'ldi. Biz Alloh taoloning marhamati, xalqimizning fidokorona mehnati bilan

koronavirus pandemiyasi va global iqtisodiy inqiroz qiyinchiliklarini mardona yengib o'tmoqdamiz.

Xabaringiz bor, biz yaqinda mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimizning turmush farovonligini yuksaltirishga qaratilgan Yangi O'zbekiston strategiyasini ishlab chiqdik. Ushbu strategiyada sizlar bilan birgalikda fidokorona mehnatimiz orqali **Yangi O'zbekistondagi Yangi Qoraqalpog'istonni bunyod etish vazifasini ham yuksak maqsadlarimizdan biri sifatida belgilab olganmiz.**

Bugun sizlar bilan ochiq va samimiy muloqot qilib, mana shunday hal qiluvchi masalalar haqida atroflicha fikrlashib, maslahatlashib olsak, ayni muddao bo'ladi.

Qadrli hamyurtlar!

Qoraqalpog'iston deganda, barchamizning ko'z o'ngimizda o'ziga xos, betakror tabiatga ega bo'lgan bepoyon kengliklar, murakkab iqlim sharoitiga qaramasdan, fidokorona mehnat qilib, ona Vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan oliyjanob insonlar siymosi namoyon bo'ladi.

Bilasizlar, men ish yuzasidan Qoraqalpog'istondagi deyarli barcha ovul va qishloqlarni kezib, ko'p yoshullilar, dehqon va fermerlar, tadbirkorlar, ziyolilar bilan dildan suhbat qurganman. Keyingi besh yilning o'zida bu zaminga ko'p marta kelib, sizlar bilan birgalikda amalga oshirgan katta-katta ishlarimizni yorqin taassurotlar bilan eslayman.

Qoraqalpoq do'stlarimizning chiroyli bir gapi bor. Ya'ni, ular yaxshi insonlarga baho berganda, **“Bul adamning juragi qabirg'asining astinnan ko'rinip turadi”**, deyдилar.

Qarang, qanday chuqur ma'noli, xalqona hikmat!

Men bugun ana shu go'zal ta'rifni biroz o'zgartirib, **“Qoraqalpoqlarning qalbi ularning samimiy chehrasida yaqqol ko'rib turadi”**, desam, yuragimdagi katta ishonch va mehmi ifoda etgan bo'laman.

Ulug' mutafakkir shoir Ajiniyozning: **“Bosh ketsa ham to‘g‘ri so‘zdan qaytmagan, Nomi qoraqalpoq ellarim bordir”**. degan so‘zlari ham bu haqiqatni yaqqol tasdiqlaydi.

Chindan ham, bunday lafzi halol insonlarga bemaolol ishonish, ular bilan birgalikda har qanday katta ishlarni amalga oshirish mumkin. Tili bilan dili, so‘zi bilan ishi bir bo‘lgan shunday oliyjanob xalq albatta yuksak hurmat va e‘tiborga sazovordir.

O‘zingiz bilasiz, Qoraqalpog‘istonning ulkan hududi bor, shahar va tumanlar, ovullar orasidagi masofa ham ancha uzoq. Lekin men qachon bu yurtga kelsam, charchash nimaligini bilmayman. Nega? Chunki xosiyatli qoraqalpoq diyorining qiradirlari, dala va bog‘lari, oqko‘ngil odamlari menga ko‘tarinki ruh beradi, samimiy muloqotlar kuchimga kuch qo‘shadi. Shuning uchun doimo yuragim qoraqalpoq eliga talpinib turadi, sizlarni hamisha sog‘inib yashayman.

Muhtaram do‘stlar!

Mustaqillik yillarida qoraqalpoq xalqi ham barcha sohalarda samarali mehnat qilib, ulkan yutuq va natijalari bilan yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Shu paytga qadar qoraqalpog‘istonlik minglab insonlar Vatanimizning yuksak orden va medallari, faxriy unvonlari bilan taqdirlangani ham shundan dalolat beradi.

Jumladan, o‘tgan davr mobaynida bu zamindan yetishib chiqqan Ibroyim Yusupov, To‘lepbergen Qaipbergenov, Ag‘itay Adilov, Allaniyaz O‘teniyazov, Gayratdin Xojaniyazov, Sarsenbay Seyt-nazarov, Anesiya Saitova, Musa Erniyazov singari fidoyi insonlar “O‘zbekiston Qahramoni” oliy unvoniga sazovor bo‘lishdi.

Ularning sharafli hayoti va faoliyati yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Misol uchun, Allaniyaz O‘teniyazov hayotlik chog‘ida halol peshona teri bilan to‘plagan shaxsiy mablag‘i hisobidan ehtiyojmand odamlarga 42 ta uy-joy, 4 ta maktab, 4 ta bog‘cha va 4 ta tibbiyot punktini qurib bergan.

Xorijiy mamlakatlardagi ko'plab insonlar ham bunday ulkan saxovat va bag'rikenglikka qoyil qolib, Allaniyaz O'teniyazovga xatlar yozishgan. Masalan, argentinalik millioner X.Sapun Allaniyaz og'aga yo'llagan maktubida uning ezgu ishlaridan saboq olib, o'zi ham bundan buyon oddiy insonlarga ko'mak berishga qaror qilganini qayd etadi.

Hech shubhasiz, Allaniyaz O'teniyazov o'z eliga sadoqati va saxovati bilan qoraqalpoq xalqiga xos eng yaxshi qadriyatlarni butun dunyoga namoyon etdi. Shuning uchun Nukus shahrining ko'rkam mavzellaridan biriga bu ulug' insonning nomini bersak, nima deysizlar?

Bu – barchamiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ish bo'lar edi.

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

Qoraqalpoq elining yana bir fidoyi farzandi Qallibek Kamolovdir. Qallibek og'aning chorak asrdan ziyod Qoraqalpog'istonga rahbarlik qilib, el-yurt ravnaqi yo'lida qanday ulkan ishlarni amalga oshirganini aytmasam ham barchangiz yaxshi bilasiz.

Hurmatli oqsoqolimiz hozirgi nuroniy yoshida ham jamoat ishlaridagi, yoshlar tarbiyasidagi faolligi bilan ko'pchilikka o'mak bo'lib kelmoqda. Men yaqinda Qallibek Kamolovichning "El xizmatida" deb nomlangan chuqur siyosiy-falsafiy tafakkur bilan yozilgan kitobini o'qib, muhim ma'lumotlardan xabardor bo'ldim.

Muhtaram oqsoqol o'z asarida o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining azaliy do'stligiga alohida e'tibor qaratib, ularning o'tmishi ham, buguni ham, kelajagi ham birligini hayotiy misollar bilan ko'rsatib bergan. Bu kitob nafaqat Qoraqalpog'iston, balki O'zbekiston tarixini ham haqqoniy yoritib bergan muhim manba bo'lib, barcha rahbarlarning ish stolida turishga arziydigan asardir.

Xalqimiz, yoshlarimizning baxtiga Qallibek og'a doimo sog'omon bo'lsinlar.

Qoraqalpog'iston zaminidan yetishib chiqqan juda ko'plab taniqli olimlar, ijodkor va san'atkorlar o'zlarining noyob iste'dodi bilan

yurtimiz dovrug'ini dunyoga yoyib kelishmoqda. Ularning nomlarini shunchaki sanab chiqishning o'zi juda ko'p vaqtni oladi. O'ylaymanki, bunga zarurat ham yo'q, chunki sizlar ularning barchasini yaxshi bilasiz va qadrlaysiz.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri, "Ayqulash" milliy folklor ansambli, Igor Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat san'at muzeyi tom ma'noda O'zbekiston san'atining faxri hisoblanadi.

Biz bundan buyon ham qoraqalpoq tili va adabiyotini rivojlantirishga, qoraqalpoq xalqining madaniyati va san'atini mamlakatimiz va jahonda keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratamiz. Shu maqsadda hozirgi paytda "Qoraqalpoq adabiyoti durdonalari" ko'p jildlik to'plami o'zbek tilida nashr qilinmoqda.

Ayni vaqtda butun dunyoda "Sahrodagi Luvr" deb shuhrat qozongan Savitskiy muzeyi bo'yicha AQSH, Rossiya, Buyuk Britaniya, Fransiyaning yetakchi ilmiy-madaniy muassasalari bilan hamkorlikda maxsus tadqiqotlar amalga oshirilib, chet tillarda kitob va albomlar nashr qilinadi. Xorijdagi nufuzli madaniyat markazlarida uning ko'rgazmalari tashkil etiladi.

O'rni kelganda, yana muhim bir masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Bir paytlar Toshkentda qoraqalpoq madaniyati kunlari. Qoraqalpog'istonda o'zbek madaniyati kunlarini o'tkazish an'anasi mavjud edi. Endilikda ana shu yaxshi an'anani qayta tiklab, qoraqalpoq san'atini nafaqat poytaxtimiz, balki viloyatlarimizda ham namoyish etsak, o'ylaymanki, xalqimizning ko'nglidagi ish bo'ladi.

Oddiy xalq orasidan yetishib chiqqan mohir baxshi-jirovlar qoraqalpoq xalqining boy va betakror xalq og'zaki ijodiyotini yuksak cho'qqilarga ko'targanlar. Shuning uchun ham biz yaqinda ikkinchi Xalqaro baxshichilik festivalini aynan Qoraqalpog'istonda o'tkazdik. Nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari hamda xorijlik mehmonlar ishtirokida o'tgan ushbu anjuman xalqimizning boy san'ati va madaniyatini butun dunyoga yana bir bor namoyon etdi.

Kuni kecha qoraqalpog‘istonlik iste’dodli jirov Jonibek Piyazov festivalning bosh sovrini – Gran-pri mukofotiga, baxshi Gulbahor Aximbetova esa ikkinchi o‘ringa sazovor bo‘lgani hammamizni quvontirdi. Bunday ulkan yutuq bilan barchangizni chin dildan tabriklayman.

Nukus shahrida qoraqalpoq adabiyotining so‘nmas yulduzi, O‘zbekiston Qahramoni Ibroyim Yusupov nomidagi ijod maktabi ochildi. Toshkent shahridagi muazzam Adiblar xiyobonida Berdaq, To‘lepbergen Qayipbergenov, Ibroyim Yusupov haykallarining o‘rnatilishi qoraqalpoq xalqiga, uning betakror adabiyoti va madaniyatiga yuksak ehtiromimiz ramzi bo‘ldi.

Kezi kelganda, anchadan beri ko‘nglimga tugib yurgan bir ezgu reja haqida sizlar bilan maslahatlashib olmoqchiman.

Xabaringiz bor, keyingi yillarda ijodkorlarimizga zarur sharoitlar yaratish maqsadida Toshkentdagi “Do‘rmon” ijod uyi qayta ta‘mirlandi, Zomin va Parkent tumanlarida zamonaviy ijod maskanlari barpo etildi. Ana shu ishlarni davom ettirib, Ellikqal‘a tumanidagi xushmanzara Aqchako‘l bo‘ylarida yana bir ijod uyi qursak, nima deysizlar?

Bu maskanda qoraqalpoq elining tarixini tarannum etadigan, qoraqalpoq tili va adabiyotini yanada ravnaq toptirishga xizmat qiladigan yetuk badiiy asarlar yaratilishiga ishonaman.

O‘zbekistonning tashabbusiga asosan, shu yilning oxirigacha UNESCOning 2023-yilda qomusiy alloma, birinchi Renessans davrining buyuk namoyandasi Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini dunyo miqyosida keng nishonlash haqidagi qarori qabul qilinishi kutilmoqda. Albatta, ushbu tarixiy sanani xalqimiz bilan birgalikda, ulug‘ ajdodimizning yuksak maqomiga munosib ravishda keng nishonlaymiz.

Sizlarga ma‘lumki, Mo‘ynoq tumani hududida Xoja Ahmad Yassaviyning shogirdi, tasavvuf falsafasining yirik namoyandasi Sulaymon Boqirg‘oniy maqbarasi joylashgan. Xalq orasida “Hakim ota” nomi bilan shuhrat qozongan bu zot sodda va xalqona uslubda

yozgan asarlari bilan turkiy adabiyot olamida alohida e'tirof etilgan.

Kelgusi yili Sulaymon Boqirg'oniy tavalludiga 900 yil to'ladi. Ana shu muhim sanani munosib bayram qilib, shoir bobomizning maqbarasini obod qilsak, asarlarini chop etsak, har jihatdan o'rinli bo'ladi, albatta.

“O‘zbek bilan qoraqalpoq – et bilan tirnoq” degan gap ham ayni haqiqat. Xudoyi taoloning o‘zi qoraqalpoq va o‘zbek xalqlarini taqdirdosh qilib yaratgan va bu bebaho boylikni ko‘z qorachig‘idek asrash – barchamizning burchimizdir.

O‘z vaqtida O‘zbekistonga rahbarlik qilgan Akmal Ikromov, Fayzulla Xo‘jayev, Usmon Yusupov, Sharof Rashidov, Islom Karimov bilan birga, Allayar Do‘stnazarov, Pirjan Seyitov, Meteke Jumanazarov, Navro‘z Japaqov, Erejep Aytmuratov, Timur Kamolov, Musa Emiyazov va boshqa ko‘plab atoqli davlat arboblari Qoraqalpog‘istonda tarixiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga, xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va qardoshlikni mustahkamlashga bosh-qosh bo‘lganini hammamiz yaxshi bilamiz.

O‘zining butun ongli hayotini mamlakatimiz rivoji va xalqimiz farovonligiga bag‘ishlagan bunday fidoyi insonlarning xotirasini abadiylashtirish – barchamizning insoniy burchimiz hisoblanadi.

Ayni vaqtda Qoraqalpog‘istonni har tomonlama taraqqiy ettirishga katta hissa qo‘shgan taniqli davlat va jamoat arboblari – Ubbiniyoz Ashirbekov, Amin Hamroyev, Ajiniyaz Tojiboyev, Ulmambet Xo‘janazarov, Tatlimurot Atamuratov, Bibioyim Yusupova, Guliston Annaqilicheva singari faxriylarimizni ham alohida hurmat bilan tilga olamiz.

Muhtaram vatandoshlar!

Orol fojiasi – shu yurtning rahbari sifatida mening eng katta dardim, yuragimdagi armonimdir. Hozir ham erta-yu kech shu haqda o‘ylayman. Shu maqsadda, mehnatkash Qoraqalpog‘iston eli bilan qo‘lni qo‘lga berib, ahillik va “og‘zibirchilik”da bu muammoni hal qilish uchun jiddiy kirishganimiz barchangizga ma’lum.

Oxirgi yillarda Orol dengizining qurigan tubida 1,6 million gektar maydonga saksovul va sahro iqlimiga chidamli boshqa o'simliklar ekib, o'rmonzor barpo etishga erishdik. Yaratganning inoyati bilan O'zbekistonning barcha viloyatlari ishtirokida qisqa vaqt ichida ushbu tumanda qanday katta ishlarni amalga oshirganimizni el-yurtimiz ko'rib turibdi.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Yaqin tarixga nazar solsak, 2016-yilda Qoraqalpog'iston iqtisodiyotining ahvoli qanday edi?

Bundan besh yil avval Qoraqalpog'istonda jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmi mamlakatimizda eng oxirgi o'rinda bo'lgan. Bugungi kunda esa 9-o'ringa ko'tarildi. Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining atigi 4 foizi eksportga yo'naltirilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich joriy yilda 30 foizga yetdi. Umumiy eksport hajmi 2011–2015-yillarga nisbatan 3,5 barobar oshib, 2,1 milliard dollarni tashkil etdi.

Agar to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2016-yilgacha 15 million dollarga ham yetmagan bo'lsa, joriy yilda bu ko'rsatkich 100 million dollardan oshadi. Yoki 25 yil davomida xorijiy investorlar ishtirokidagi korxonalar soni 50 tani tashkil etgan bo'lsa, oxirgi besh yilda esa 130 ta ana shunday yangi korxonalar ishga tushirildi.

O'tgan besh yilda sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohasida umumiy qiymati 2 milliard dollardan ziyod 2 ming 500 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi.

Hududda sanoatning jadal rivojlanishiga asosiy turtki bo'lgan to'qimachilik, charm-poyabzal, qurilish materiallari, mebel mahsulotlarini ishlab chiqarish o'rtacha 3 barobar o'sdi. Kichik biznes subyektlari soni 2 barobar ko'payib, qariyb 21 mingtaga yetdi. Bu davrda 83 mingta yangi doimiy ish o'rinlari yaratilib, o'rtacha ish haqi 2,8 barobar oshirildi va 2,7 million so'mga yetdi.

Maktabgacha ta'limda qamrov darajasi 28 foizdan 71 foizga yetkazildi. Shahar va tumanlarda 14 ta yangi maktab va 32 ta tibbiyot

muassasasi barpo etildi, 173 ta maktab va 101 ta tibbiyot muassasasi rekonstruksiya qilinib, ta'mirlandi. Shuningdek, o'tgan to'rt yilda 4 ta yangi oliy ta'lim muassasasi tashkil etildi. Aholining yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadida qariyb 13 mingta xonadon uchun uy-joylar barpo etildi.

Markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 40 foizdan 65 foizga yetdi, 61 ta ovul va mahallada yashovchi 350 ming aholi ilk bor toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi.

Qayta tashkil etilgan Bo'zatov tumani markazida, Mo'ynoq tumani va barcha tuman markazlarida katta hajmdagi qurilish-obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida 81 ta olis qishloq va ovullarning qiyofasi tubdan o'zgardi. Umuman, o'tgan besh yil davomida Qoraqalpog'istonni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishga jami 17 trillion so'm yo'naltirdik. Shu jumladan, budjetdan 4 trillion so'm, xalqaro moliya tashkilotlaridan 444 million dollar hamda 10 trillion so'm bank kreditlari ajratildi.

Eng muhimi, qoraqalpoq diyorida yashayotgan zahmatkash insonlarning ko'nglida ertangi kunga ishonch uyg'ondi va u tobora mustahkamlanib bormoqda.

Hurmatli do'stlar!

Biz erishgan dastlabki natijalar bilan aslo xotirjam bo'lmasligimiz lozim. Xalqimizning yuksak ishonchini oqlash uchun marrani yanada baland olishimiz zarur. Shu bois, sizlar bilan o'tkazilayotgan bugungi uchrashuvga tayyorgarlik davomida aholimiz va tadbirkorlarni qiynayotgan eng dolzarb muammolar, ularni bezovta qilayotgan masalalarni puxta o'rgandik.

Bugungi kunda Qoraqalpog'istonda **eng katta masalalardan biri** – yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali kambag'allikni qisqartirish hisoblanadi.

Bu borada aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha o'tgan yili “temir daftar”, “ayollar daftari” va “yoshlar daftari” joriy qilinib, “mahallabay” ishlash tizimi yo'lga qo'yildi. Jumladan, “temir

daftar”ga kirgan 32,5 ming oilaning mehnatga layoqatli bo‘lgan 45 ming nafar ishsiz a’zosining bandligi ta’minlandi.

Shu bilan birga, yil boshidan “ijtimoiy reyestr” joriy qilinib, 100 mingdan ziyod oilaga ijtimoiy nafaqa va yordam berish yo‘lga qo‘yildi. Bu oldingi yillarga nisbatan 2,5 marta ko‘p. Sababi, oldin bunday oilalarni hisobga olish, ijtimoiy yordam berish mezonlari aniq va shaffof emas edi. Oqibatda yordam ko‘lami yiliga 40 ming oiladan oshmagan.

Ana shunday ishlar bilan cheklanib qolmasdan, ushbu oilalardagi 80 mingdan ziyod aholini kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘rgatib, moliyaviy ko‘maklashib, ularni doimiy daromad manbai-ga ega qilishimiz kerak. Shuningdek, kelgusi besh yilda 200 ming yoshlar mehnat bozoriga kirib kelishini ham hisobga olishimiz zarur.

Ikkinchi dolzarb masala – aholini va qishloq xo‘jaligini suv bilan ta’minlashdir.

Sug‘orish tizimlari, kanallar, drenajlar eskirgani va izdan chiqib ketgani oqibatida dalaga ham, ovullarga ham suv yetib bormayapti. Ayniqsa, bu yilgi qurg‘oqchilikda buning og‘ir ta’sirini barchamiz sezdik.

Uchinchi dolzarb muammo – aholi salomatligini ta’minlash.

Qoraqalpog‘istonda surunkali kasalliklari bor, yuqori xavf guru-higa kiradigan 355 ming aholi aniqlangan. Bunga og‘ir ekologik sharoit bilan birga, tibbiy xizmatlar sifati ham o‘z ta’sirini ko‘rsat-moqda. Ayniqsa, Qo‘ng‘irot, Amudaryo, Shumanay, Ellikqal’a, Taxtako‘pir tumanlari aholisidan tibbiy xizmatlar bo‘yicha ko‘plab murojaatlar tushgan.

To‘rtinchi masala – aholiga munosib uy-joy va yashash sharoit-larini yaratish.

Hozirgi kunda 20 mingdan ziyod oilaning uy-joy sharoitini yaxshilashga ehtiyoji bor. Shuningdek, har yili 10 mingdan ziyod yangi oilalar tashkil bo‘lmoqda. Tabiiyki, ularni ham uy-joy bilan ta’minlashimiz zarur.

Shu bilan birga, Qoraqalpog‘istonning barcha tumanlarida ichimlik suvi va yo‘llarning holatini yaxshilash bo‘yicha hali juda ko‘p ishlashimiz kerak.

Beshinchi ustuvor masala – ta‘lim tizimidagi muammolar.

Nukus shahridagi ayrim maktablar 3 smenada ishlayotgani, Beruniy, Qo‘ng‘irot, To‘rtko‘l, Ellikqal‘a, Chimboy tumanlarida ham o‘quvchi o‘rinlari yetishmasligi bo‘yicha ko‘plab murojaatlar bo‘lmoqda. Shu bois men bugun ushbu muammolarni hal etishga qaratilgan besh yillik dasturni sizlar bilan maslahat qilmoqchiman.

Avvalo, kambag‘allik va ishsizlikni qisqartirish, aholi daromadini oshirish uchun kelgusi besh yilda 280 mingdan ziyod doimiy ish o‘rinlari yaratiladi. Umuman, Qoraqalpog‘istonda kambag‘allikni 3 marta qisqartirish iqtisodiy idoralar oldidagi eng ustuvor vazifalardan biri bo‘ladi.

Buning uchun islohotlarimizni har bir mahallagacha olib kiradigan yangi tizim joriy qilinadi. Qoraqalpog‘istonning 422 ta mahallasida “hokim yordamchisi” lavozimi joriy etiladi. Ular mahallada tadbirkorlarning loyihalariga yordam beradi, kasb-hunarga o‘qitish, tomorqa, bo‘sh yer va binolardan unumli foydalanishni tashkil etadi. Bu orqali yangi ish o‘rinlari yaratish, jon boshiga daromadni oshirish va kambag‘allikni qisqartirishga mas‘ul bo‘ladi.

Hokim yordamchilari qo‘lida o‘zining budjeti bo‘ladi, ular mahallaga biriktirilgan soliq, bank, yo‘l va boshqa idoralar xodimlari bilan birga ishlaydi.

Hokim yordamchilari soliq, bank, iqtisodiyot, investitsiya, moliya idoralari, hokimiyatda ishlaydigan bilimli va fidoyi yoshlar orasidan tanlanadi. Ular yangi tizim bo‘yicha ishlashga o‘qitiladi va ishi-ning natijasiga qarab ish haqi bilan ta‘minlanadi. Mahallada 2–3 yil ishlab, yaxshi natija ko‘rsatgan hokim yordamchilarini kelgusida hokim va vazir lavozimlariga qo‘yamiz. Umuman, mahallada hokim yordamchilari – iqtisodiy o‘qishga, oqsoqollar esa – ma‘naviy-tarbiyaviy muhitga mas‘ul bo‘ladi.

Quyidagi yo‘nalishlarda yangi ish o‘rinlari tashkil etiladi.

Birinchidan, 14 ming gektar paxta va g'alla maydonlari qisqartirilib, aholiga ochiq tanlov asosida 1 gektargacha uzoq muddatli ijaraga beriladi va bu orqali 50 mingga yaqin ish o'rni tashkil etiladi. Misol uchun, Amudaryo tumanida 1,2 ming gektar yer ajratish hisobidan kamida 4 mingta yangi ish o'rni yaratiladi. Shuningdek, 6 ming nafar ishsiz aholi uchun ixcham issiqxonalar qurib beriladi.

Ikkinchidan, aholi tomorqalarining suv ta'minotini yaxshilash orqali 12 ming fuqaroning bandligi ta'minlanadi. Masalan, Chimboy tumanida 500 ta kichik quduqlar qaziladi va bu orqali tumandagi 1,5 mingta xonadondagi tomorqalar foydalanishga kiritiladi. Yoki Nukus tumanida "Qattioqar" kanalidan 8 ta mahallaga suv yetkazib beruvchi nasos tarmog'ini tiklash orqali 1 ming 400 ta xonadonda aholi o'z tomorqasida band bo'ladi.

Ushbu tizim barcha tumanlarda joriy qilinadi. Buning uchun irrigatsiya tizimini tiklash maxsus jamg'armasi tashkil etiladi. Bu jamg'armani Fermer va dehqonlar kengashi barcha tumanlarda tashkil qilib, o'zi boshqaradi. Dastlabki bosqichda yiliga har bir tuman jamg'armasiga budjetdan 10 milliard so'mdan o'tkazib beriladi.

Uchinchidan, tadbirkorlikni rivojlantirish orqali 100 mingta yangi ish o'rni yaratiladi. Bunda mavjud jami 422 ta mahallaning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, oilaviy tadbirkorlik dasturlariga har yili 650 milliard so'm kreditlar ajratiladi.

Misol uchun, Nukus tumanida yagona klaster doirasida qo'y-chilik, jun, go'sht, kigiz, gilam va o'tov ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali 1,5 mingta ish o'rni yaratiladi. Bo'zatov tumanida 150 mingdan ortiq kurka yetishtirish kooperatsiya asosida yo'lga qo'yiladi va 2,5 ming aholi ish bilan ta'minlanadi. Mo'ynoq tumanidagi mahalliy sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasidagi tadbirkor va fuqarolar uchun kelgusi o'n yilda yer, mol-mulk, suv solig'i, ijtimoiy, foyda, daromad va aylanma mablag'dan olinadigan soliq stavkalari 1 foiz etib belgilanadi.

Xabaringiz bor, yaqinda 200 milliard so'mga teng loyihalar bo'yicha elektr, tabiiy gaz, suv va yo'l tarmoqlarini o'tkazib berishni davlat to'liq zimmasiga oldi. Endi Qoraqalpog'iston uchun bu raqam 4 barobar tushiriladi va 50 milliard so'mlik loyihalardan boshlab qo'llanadi.

Kelgusi yillarda kamida 45 ta yangi kichik sanoat zonasi barpo etiladi va bunga budjetdan dastlabki bosqichda 100 milliard so'm beriladi. Ushbu sanoat zonalarida qiymati 3 trillion so'mdan ziyod loyihalar doirasida qariyb 25 mingta yangi ish o'rmi yaratiladi.

To'rtinchidan, sanoat tarmoqlarida qiymati 5 milliard 100 million dollarlik 2 mingdan ziyod investitsiya loyihalari doirasida 76 mingta yangi ish o'rmi tashkil etiladi. Xususan, hududning asosiy drayver sohalari bo'lgan qurilish materiallari, elektrotexnika, to'qimachilik, charm va oziq-ovqat sanoati sohalarida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilishi natijasida hududning eksport hajmi kamida 4 barobar ko'payib, 500 million dollarga yetkaziladi.

Masalan, Qorao'zak, Beruniy, Xo'jayli, Taxiato'sh, Ellikqal'a tumanlarining "o'sish nuqtasi" hisoblangan qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida 270 million dollarlik 153 ta sanoat loyihasi ishga tushiriladi. Buning uchun tumanda geologiya-qidiruv ishlarini ko'paytirib, 500 dan ziyod uchastkalar tadbirkorlarga taklif etiladi. Natijada 12 mingdan ziyod yuqori daromadli doimiy ish o'rinlari yaratiladi.

To'qimachilik sohasida Amudaryo, Beruniy, Ellikqal'a, Chimboy tumanlarida 260 million dollar bo'lgan 49 ta yangi loyiha ishga tushiriladi. Natijada paxta tolasini qayta ishlash – 100 foizga, ip-kalavani qayta ishlash esa – 91 foizga yetkaziladi, 28 mingta yangi ish o'rmi yaratiladi.

Elektrotexnika sohasida 130 million dollarlik 17 ta loyiha amalga oshiriladi va 22 turdagi yangi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, yirik "mega-loyihalar" amalga oshirilib, hududning sanoat salohiyatini keskin oshirishga erishiladi.

Beruniy, Qorao'zak va Qo'ng'iro't tumanlarida loyiha qiymati 2 milliard dollar bo'lgan, umumiy quvvati 1 ming 800 megavattli shamol elektr stansiyalari ishga tushirilib, 750 mingta xonadon va 25 mingdan ziyod korxonalarni ta'minlash uchun yetarli elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Shuningdek, Qorao'zak tumanidagi Tebinbuloq koni negizida zamonaviy kon-metallurgiya kompleksi, Qo'ng'iro't tumanidagi Ustyurt gaz-kimyoy majmuasi yonida yiliga 500 ming tonna polimer mahsulotlari ishlab chiqaradigan gaz-kimyoy klasterini qurish boshlanadi. Bundan tashqari, 180 million dollarlik loyiha yakunlanib, Qo'ng'iro't soda zavodining ishlab chiqarish quvvati 2 barobar oshiriladi.

Ana shu yo'nalishlarda ishlarimizni yanada kengaytirish, Qoraqalpog'istonda innovatsion loyihalarni amalga oshirishga faol investitsiyalarni hamda xalqaro hamjamiyat e'tiborini jalb etish maqsadida, 2022-yil sentabr oyida Orolbo'yi xalqaro forumini o'tkazishni taklif etaman. Har ikki yilda o'tkazib boriladigan mazkur Forumga xorijiy davlatlar hukumat vakillari, nufuzli xorijiy kompaniyalar va investorlar, xalqaro xayriya jamg'armalari va moliya tashkilotlari rahbarlari taklif etilib, anjuman natijasi bo'yicha aniq yo'nalishlar, loyiha va tashabbuslarni moliyalashtirishga mablag'lar jalb qilinadi.

Beshinchidan, xizmatlar sohasida 50 mingdan ziyod ish o'rinlari tashkil etiladi. Misol uchun, To'rtko'l, Beruniy, Amudaryo, Nukus, Taxiatosh va Qo'ng'iro't tumanlaridan o'tadigan "A-380" xalqaro yo'lini rekonstruksiya qilish natijasida ushbu hududlarda transport oqimi 3–4 marta oshadi. Shu orqali magistral yo'l bo'yida 500 dan ziyod servis obyektlari tashkil etilib, 3 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratiladi. Shu bilan birga, Amudaryo qirg'oqlarida turizm obyektlari va dam olish joylarini tashkil etish uchun sharoit yaratiladi.

Turizm infratuzilmasini yaxshilash uchun har yili 60 milliard so'm ajratiladi. Bu orqali Amudaryo, Beruniy, To'rtko'l, Xo'jayli, Qonliko'l va Nukus tumanlarida mingdan ziyod xiz-

mat ko'rsatish obyektlari barpo qilinib, besh mingta yangi ish o'rni tashkil etiladi.

Nukus shahrida tun-u kun ishlaydigan savdo, turizm, madaniyat, ta'lim, tibbiyot, injiniring va axborot texnologiyalari sohalaridagi xizmatlarni rivojlantirish orqali olti mingta yangi ish o'rni yaratiladi. Bunga kelgusi besh yilda qo'shimcha 100 million dollar mablag' ajratiladi. Shuningdek, Nukus shahrida investorlarga biznes qilish va yashash uchun eng qulay sharoitlar yaratiladigan "Nukus siti" barpo etiladi.

Umuman olganda, kelgusi besh yilda Qoraqalpog'istonni rivojlantirish uchun 43 trillion so'm yo'naltiriladi. Ushbu mablag'lardan samarali foydalanish, iqtisodiyot va investitsiya sohasida belgilab olingan marralarga erishish uchun, hukumat, markaziy iqtisodiy idoralar va Vazirlar Kengashining ish uslubi to'liq o'zgaradi. Bunda Toshkentdagi vazirlar va tarmoqlar rahbarlari Vazirlar Kengashi bilan birga ish natijalari bo'yicha har chorakda Jo'qorg'i Kengesda hisobot beradi. Bu masala Oliy Majlis Senatining alohida nazoratida bo'ladi va muntazam ravishda joylarga chiqilgan holda muhokama qilib boriladi.

Ikkinchi yo'nalish – qishloq va suv xo'jaligini rivojlantirish orqali 70 mingta ish o'rni yaratiladi va mahsulotlar hajmi ikki barobar oshiriladi.

Birinchidan, Qoraqalpog'istonning chorvachilik bo'yicha mavjud imkoniyatlari go'sht-sut mahsulotlari bilan nafaqat o'zini, balki qo'shni hududlarni ham ta'minlay oladi. Shuning uchun chorvachilik bo'yicha uchta yo'nalishdan iborat alohida dastur qabul qilinadi.

Eng avvalo, Bo'zatov, Nukus, Taxiatosh, Taxtako'pir, Qorao'zak va Qo'ng'iro't tumanlarida 30 ming gektar paxta va g'alla maydonlari to'liq ozuqa va boshqa ekinlar yetishtirish uchun ajratiladi. Shuningdek, kelgusi besh yilda 200 ming gektar yaylovlarni qayta tiklash va hosildorligini oshirish choralari ko'riladi.

Bundan tashqari, qoramollar soni 500 boshdan kam bo'lmagan xo'jaliklarni tashkil etish uchun Qoraqalpog'istonda chorvachilikni

rivojlantirish jamg'armasi tashkil etiladi. Ushbu jamg'armaga dastlab 100 milliard so'm ajratilib, subsidiyalar hajmi ko'paytiriladi va 5 foizli kredit ajratish tizimi yo'lga qo'yiladi. Shu bilan birga, har bir tumanda 200 ming boshli parranda va 100 gektardan baliq xo'jaliklari tashkil etiladi. Shu tariqa, kelgusi besh yilda go'sht, sut, tuxum va baliq yetishtirish hajmi ikki barobar oshiriladi.

Ikkinchidan, kelgusi besh yilda kamida 70 ming gektar yer maydonlari qayta foydalanishga kiritilib, meva-sabzavotchilik va chorvachilik uchun ochiq tanlov asosida ajratiladi. Amudaryo, Beruniy, To'rtko'l, Xo'jayli, Ellikqal'a va Nukus tumanlarida qo'shimcha olti ming gektar intensiv bog' va tokzorlar barpo etiladi.

Qorao'zak, Taxtako'pir, Nukus va Kegeyli tumanlaridagi jami 15 ming gektar maydonda kam suv talab etuvchi va yuqori daromad beruvchi kunjut kabi ekinlar ekishga o'tiladi. To'rtko'l, Ellikqal'a, Amudaryo, Taxiatosh, Xo'jayli, Nukus tumanlarida kelgusi besh yilda ming gektardan ziyod zamonaviy issiqxonalar quriladi.

Hududda umumiy quvvati 56 ming tonna bo'lgan uchta yirik agrologistika markazi va meva-sabzavotni qayta ishlaydigan 13 ta korxonalar ishga tushiriladi. Mo'ynoqda artemiya qobig'ini yig'ish va qayta ishlash bo'yicha qiymati yarim trillion so'mlik 12 ta loyiha amalga oshirilib, yiliga ikki ming tonna mahsulotni qayta ishlash yo'lga qo'yiladi.

Har yili kamida ikki ming gektar maydonda qizilmiya plantatsiyalarini tashkil etish bo'yicha 500 milliard so'mlik 20 ta loyiha amalga oshiriladi va ikki mingdan ziyod yangi ish o'rinlari tashkil etiladi.

Uchinchidan, har tomchi suv oltinga teng bo'lgan Qoraqalpog'istonda suv ta'minoti va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha alohida dastur qabul qilinadi. Bunda, 100 ming gektarda suv ta'minotini va 120 ming gektarda meliorativ holatni yaxshilash, sho'rlangan yerlarni 24 ming gektarga kamaytirish, 26 ming gektar maydonda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish choralari ko'riladi.

Hozirgi vaqtda Qoraqalpog'istonda har yili o'rtacha 40 ming gektar maydonga sholi ekilib, me'yorga nisbatan 300 million kub metr suv ortiqcha sarflanmoqda. Vaholanki, bu suv bilan ikki barobar ko'p maydonda mahsulot yetishtirish mumkin.

Shuning uchun ko'chat tayyorlashdan boshlab, qayta ishlashgacha bo'lgan jarayonni to'liq qamrab olgan klaster tizimi joriy qilinadi. Ushbu klasterlar lazer asosida tekislaydigan texnika bilan yerni tayyorlab, sholini to'liq ko'chat usulida ekish orqali bir yilda ikki marta hosil olishni yo'lga qo'yadi. Buning uchun texnika va zamonaviy seyalkalarni lizing orqali berish, bunga subsidiya ajratish va imtiyozli kreditlar berishni ko'paytiramiz. Buning natijasida 650–700 million kub metr suv iqtisod qilinadi.

Shu bilan birga, Nukus, Kegeyli, Chimboy, Qorao'zak, Bo'zatov, Mo'ynoq tumanlari hududidan o'tadigan "Kegeyli" hamda Shumanay, Qonliko'l, Qo'ng'iro't, Mo'ynoq, Xo'jayli tumanlaridan o'tadigan "parallel" kanallarini betonlash, 16 ta nasos stansiyasini modernizatsiya qilishga 100 million dollar ajratiladi. Buning hisobidan 80 ming gektar yerlarning suv ta'minoti va meliorativ holati yaxshilanadi. Bu ishlar yaqin kunlarda boshlanadi.

Turkmanistonlik do'stlarimiz bilan birgalikda "Tuyamo'yin" gidrouzelineing "Sulton Sanjar" dambasini mustahkamlash hisobidan bir milliard kub metr qo'shimcha suv zaxirasi yaratiladi. Umuman, Qoraqalpog'istonda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish orqali yiliga ikki milliard kub metr suv tejiladi.

Uchinchi yo'nalish – ekologiya va aholi salomatligini saqlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshiriladi.

Birinchidan, keyingi besh yilda mamlakatimiz bo'yicha Qoraqalpog'istonda birinchi bo'lib barcha oilaviy shifokor punktlari va poliklinikalar, dispanserlar, tuman, shahar va markazdagi shifoxonalar to'liq yangi qiyofaga keltiriladi va jihozlanadi. Buning uchun dastlabki bosqichda budjetdan 600 milliard so'm ajratiladi.

Ikkinchidan, birlamchi tibbiyot bo'g'inida eng ko'p uchrayotgan surunkali kasalliklarni davolash va profilaktika qilish, sifatli va

malakali tibbiy xizmatlarni mahallagacha yetkazish bo'yicha samarali tizim yaratamiz.

O'tkazilgan monitoringlar natijasida Qoraqalpog'istonda yuqori xavf guruhiga kiradigan aholining 70 ming nafarida – yurak-qon tomir, 42 ming nafarida – endokrin, 35 ming nafarida – nafas yo'llari, 33 ming nafarida – oshqozon-ichak, 19 ming nafarida – surunkali buyrak kasalliklari borligi aniqlangan.

Ayniqsa, yurak-qon tomir kasalliklari – Nukus shahri, Ellikqal'a, Chimboy tumanlarida, qandli diabet – Nukus shahri, Qorao'zak, Mo'ynoq tumanlarida, nafas yo'llari kasalligi – Kegeyli, Chimboy, Qorao'zak, Taxtako'pir tumanlarida ko'p uchraydi.

Shu bois har bir mahallaga birlashtirilgan "tibbiyot brigadalari" va oilaviy poliklinikalar surunkali kasalliklarni barvaqt aniqlash bo'yicha zarur vositalar bilan ta'minlanadi.

Erta o'limning asosiy sababi bo'lgan qon bosimi va qandli diabet kasalliklarini davolash uchun surunkali kasali bor bemorlarga eng zarur dori vositalari bepul tarqatiladi.

Yiliga har 100 ming aholiga 66 nafar onkologik kasalliklar aniqlanishi bizni tashvishga solishi tabiiydir. Shu sababli 12 ta tuman eng zamonaviy kompyuter tomograflari bilan ta'minlanadi. Birlamchi bo'g'inda ayollar onkologik kasalliklarini barvaqt aniqlash uchun tegishli tibbiyot muassasalari uchta mobil mammograf bilan ta'minlanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan 175 o'rinli zamonaviy onkologiya markazi tashkil etiladi.

Qorao'zak, Taxtako'pir, Shumanay, Qonliko'l, Beruniy, Taxiato'sh, Nukus tumanlari tibbiyot birlashmalari laparoskopik uskunalar bilan ta'minlanib, kaminvaziv operatsiyalar o'tkazish yo'lga qo'yiladi. Shu bilan birga, Qoraqalpog'istonning 500 nafardan ziyod yosh shifokorlari davlat hisobidan eng ilg'or xorijiy klinikalarda malaka oshirishga jo'natiladi. Shuningdek, 15 yoshgacha bo'lgan 610 ming nafar bola va 40 ming nafar homilador ayol yetti turdagi vitaminlar bilan bepul ta'minlanadi. Natijada ayollar va bolalar o'rtasida kamqonlikni 25 foizga kamaytirishga erishamiz.

Uchinchidan, Qoraqalpog‘istonda aholiga malakali, sifatli va yuqori texnologik tibbiy xizmatlar ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish borasida alohida dastur amalga oshiriladi. Misol uchun, joriy yilda Toshkentdagi ixtisoslashgan markazlarda davolanish uchun Qoraqalpog‘istondan 3,5 mingdan ziyod fuqaro murojaat qilgan. Ulardan 1,5 ming nafari haligacha navbatda turibdi, 604 nafari esa yuqori texnologik operatsiyalarga muhtoj. Ularni davolashga 40 milliard so‘m ajratiladi va ushbu operatsiyalar bepul o‘tkaziladi.

O‘tgan haftada Nukus shahrida to‘rt nafar bemorga buyrakni ko‘chirib o‘tkazish, ikki nafariga koxlear implantanti o‘rnatish, bir nafariga traxeya stenozini to‘g‘rilash kabi murakkab operatsiyalar muvaffaqiyatli amalga oshirilgani quvonarli hol, albatta.

Kelgusi yillarda Orolbo‘yi aholisiga yuqori texnologik tibbiy xizmatlarni moliyalashtirish uchun alohida jamg‘arma tashkil etiladi. Ushbu jamg‘arma barqaror moliya manbalari bilan ta‘minlanadi.

Shu bilan birga, Toshkentdagi tibbiyot markazlarini Qoraqalpog‘istonning barcha hududlari bilan bog‘laymiz. Xususan, Respublika kardiologiya markazi – Nukus shahri, Ellikqal‘a va Chimboy tumanlariga, Endokrinologiya markazi – Nukus shahri, Qorao‘zak, Mo‘ynoq tumanlariga, Ftiziatriya markazi – Kegeyli, Chimboy, Qorao‘zak, Taxtako‘pir tumanlariga birlashtiriladi. Shuningdek, Qoraqalpog‘istondagi markaziy va tuman shifoxonalarida oldin bo‘lmagan 40 turdagi jarrohlik amaliyotlari, 15 turdagi endokrinologiya va 12 turdagi kardiologiya davolash amaliyotlari ko‘paytiriladi.

To‘rtinchidan, Qoraqalpog‘istonda “yashil hududlar”ni ko‘paytirishga qaratilgan ishlar izchil davom ettiriladi. Jumladan, kelgusi besh yilda Orol dengizining qurigan hududida yana bir million gektar o‘rmonzor va butazorlar barpo etiladi. Shuningdek, shahar va tumanlar markazida jami 280 gektar, jumladan, Nukus shahrida 50 gektar maydonda jamoat parklari va yashil maydonlar tashkil etiladi. Nukus shahri atrofidagi “yashil belbog‘” maydoni yana 200 gektarga kengaytiriladi.

Yo'l bo'yi hududlari, mahallalar, korxonalar, ijtimoiy obyektlar, dalalar atrofida har yili 15 million tup daraxt, jamoat joylarida manzarali butalar ekiladi. Shuningdek, kelgusi besh yilda Qo'ng'iroq, Mo'ynoq, Beruniy, Ellikqal'a va Amudaryo tumanlarida jami 550 ming gektar hududda tabiiy qo'riqxonalar, kelgusi yildan boshlab bir million gektar hududda Orolqum milliy tabiat bog'i tashkil etiladi. Natijada Qoraqalpog'istonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydoni to'rt million gektarga yetkaziladi.

Beshinchidan, Orolbo'yi hududida sog'liqni saqlash, ta'lim, ichimlik suvi ta'minoti, yoshlar tadbirkorligi, ayollar bandligi yo'nalishlaridagi loyihalarni moliyalashtirish uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining ko'p tomonlama sheriklik asosidagi Trast jamg'armasiga jami bir milliard dollar grant va imtiyozli kreditlar jalb qilinadi.

Joriy yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan Orolbo'yi mintaqasi Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilindi. Shu munosabat bilan qabul qilingan dasturimizga muvofiq, aniq loyihalarni moliyalashtirish uchun 2,5 trillion so'mdan ziyod mablag' yo'naltiriladi.

Navbatdagi muhim yo'nalish – aholi va tadbirkorlik uchun qulay infratuzilma yaratishdan iborat.

Shu maqsadda, **birinchidan,** Orolbo'yi hududlari infratuzilma jamg'armasi tashkil etiladi va unga mamlakatimiz budjetidan har yili 100 milliard so'm ajratiladi. Ushbu mablag'lar tuman va shahar Xalq deputatlari kengashlarining qarori bilan hudud uchun eng zarur obyektlarni rekonstruksiya qilishga yo'naltiriladi.

Ikkinchidan, kelgusi besh yilda markazlashgan tarmoqlar orqali toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 65 foizdan 90 foizga yetkaziladi.

Orolbo'yi aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha alohida jamg'arma tashkil etiladi va bu orqali yiliga kamida 200 million dollar yo'naltiriladi. Jumladan, Qoraqalpog'istonda kelgusi besh yilda 2,6 ming kilometr ichimlik suv tarmog'i tortilib,

70 ta suv inshooti barpo etiladi. Bu orqali 250 ta mahalladagi 300 mingta xonadon toza ichimlik suvi bilan ta'minlanadi.

Olis hududlardagi ovullar, bog'cha, maktab va shifoxonalarga sho'r suvni ichimlik suviga aylantirib beradigan mingta uskuna o'rnatiladi.

Bundan tashqari, 236 million dollarlik loyihalar hisobidan 440 kilometr kanalizatsiya tarmog'i, 110 ta markazlashgan va lokal oqova suv inshootlari quriladi. Natijada 70 ta mahalladagi 80 ming xonadon kanalizatsiya tizimiga ulanadi va oqova suv tizimi qamrovi 16 foizdan 55 foizga yetadi.

Uchinchidan, xalqimiz hayotini yanada yaxshilash, uni arzon va sifatli uy-joy bilan ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'istonda kelgusi besh yilda jami 22 ming kvartirali 730 ta ko'p qavatli uy-joylar quriladi. Bu – oldingi yillarga nisbatan qariyb ikki barobar ko'p, degani.

Shuningdek, aholi murojaatlaridan kelib chiqib, yakka tartibdagi uy-joylarni kengaytirishga ipoteka kreditlari ko'paytiriladi. Taxiatosh, Qo'ng'iro't, Xo'jayli tumanlarida avariya holatidagi ikki qavatli uylarda yashaydigan aholi uchun yangi ko'p qavatli uy-joylar barpo etiladi. Bunga joriy yilda 50 milliard so'm ajratdik.

Nukus shahri, Taxiatosh va Qo'ng'iro't tumanlarida issiqlik ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish uchun 350 milliard so'mlik loyihalar amalga oshiriladi va mingdan ortiq ko'p qavatli uylar markazlashgan va individual issiqlik ta'minotiga ulanadi.

To'rtinchidan, "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasidagi tizimli ishlar davom ettiriladi. Kuni kecha sharoiti eng og'ir bo'lgan 21 ta mahallada obodonchilik ishlarini amalga oshirish, yo'l, elektr va suv tarmoqlarini ta'mirlash uchun budjetdan 32 milliard so'm ajratildi. Kelgusi yilda sharoiti og'ir bo'lgan yana 38 ta mahallaga 70 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi.

Amudaryo, Beruniy, Nukus, Taxiatosh, To'rtko'l, Ellikqal'a tumanlaridagi 46 ta mahallani obodonlashtirish, ijtimoiy obyektlarni qurish va ta'mirlash uchun 90 million dollar ajratiladi.

Shuningdek, aholining energiya ta'minotini yaxshilash maqsadida kelgusi besh yilda 5 ming kilometr tarmoqlar yangidan quriladi va rekonstruksiya qilinadi, 1,5 mingga yaqin transformator va 12 ta podstantsiya yangilanadi.

Beshinchidan, Qoraqalpog'istonda 12 ming kilometrda ziyod xalqaro, davlat va mahalliy ahamiyatga molik va ichki yo'llarning katta qismi ta'mirga muhtoj ahvolda. Shuning uchun kelgusi besh yilda 7 trillion so'm mablag' yo'naltirilib, 5 ming kilometr yo'llar quriladi va ta'mirlanadi. Shuningdek, 500 milliard so'm mablag' hisobidan 370 ta ko'prik to'liq ta'mirlanadi. Shu orqali Amudaryo, Qonliko'l, Qorao'zak, Mo'ynoq, Shumanay va Ellikqal'a tumanlarida ko'priklar bilan bog'liq muammolar to'liq hal etiladi.

Amudaryoning ikki sohilini bog'laydigan, 412 metr uzunlikdagi yangi barpo etilayotgan ko'prik Qoraqalpog'iston va Xorazm iqtisodiyoti uchun ham, aholi uchun ham katta qulayliklar yarata-di. Ushbu loyiha doirasida 79 kilometrlik Shovot – Gurlan – Jumurtov – Qorao'zak temir yo'l tarmog'i qurilmoqda. Bu – yurtimizdan Rossiya va Qozog'istongacha yuk tashishni 240 kilometrga, vaqtni esa 6 soatga qisqartiradi.

Amudaryo tumanida yangi temir yo'l vokzali quriladi. Shuningdek, Qo'ng'iro't, To'rtko'l va Xo'jayli vokzallari rekonstruksiya qilinadi.

Beshinchi yo'nalish – ta'lim sifatini oshirish orqali Qoraqalpog'istonda inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratamiz.

Hozirgi vaqtda respublika aholisining 55 foizini yoshlar tashkil etadi. Ana shu farzandlarimizning ta'lim-tarbiyasi, ularni eng zamonaviy va talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga o'qitish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur sharoitlar yaratiladi. Bu orqali kelgusi besh yilda maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 71 foizdan 87 foizga yetkaziladi. Buning uchun yangi 40 ta davlat va xususiy, 525 ta oilaviy bog'chalar tashkil etiladi, 73 ta davlat

bog'chasi rekonstruksiya qilinadi va yana 40 ming nafar bolajonlarga bog'chaga borish imkoniyati yaratiladi.

Qoraqalpog'istonda kelgusi yildan boshlab **boshlang'ich 1–4-sinf o'quvchilari uchun bepul tushlik berish yo'lga qo'yiladi**. Buning uchun budjetdan yiliga 100 milliard so'm ajratiladi.

Shuningdek, kelgusi besh yilda jami 90 mingdan ziyod yangi o'quvchi o'rinlari yaratiladi. Jumladan, 55 ta yangi maktab, 187 ta maktab uchun qo'shimcha o'quv binolari quriladi, 135 ta maktab kapital ta'mirlanadi va to'liq jihozlanadi. Buning hisobidan Nukus shahridagi maktablarning yuklamasi 30 foizga, To'rtko'lda esa 25 foizga kamayadi. Bo'zatov, Qo'ng'iro't, Ellikqal'a tumanlaridagi maktablar to'liq ta'mirdan chiqariladi. Ushbu maqsadlarga budjetdan 1,6 trillion so'm ajratiladi.

Kelgusi besh yilda oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 50 foizga yetkaziladi. Buning uchun Qoraqalpog'istonda mamlakatimizdagi 5 ta nufuzli oliygoh va xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etiladi.

O'zbekiston davlat konservatoriyasining Nukus filiali uchun yangi o'quv binosi quriladi va uning sharoitlari yaxshilanadi. Talabalarni turar joy bilan ta'minlash maqsadida qo'shimcha 6 ming o'rinli yangi yotoqxonalar qurib bitkaziladi.

Shu bilan birga, kelgusi besh yilda har bir shahar va tumandagi Yoshlar markazlari va umumta'lim maktablarida 100 mingdan ziyod yoshlar chet tillari va axborot texnologiyalariga o'qitiladi. Buning uchun maktablarning 500 ta sinfxonasi eng zamonaviy kompyuterlar va yuqori tezlikdagi internet bilan ta'minlanadi.

Shuningdek, 50 mingdan ziyod, jumladan, "yoshlar daftari"ga kirgan 13 ming nafar yoshlarning biznes loyihalari, startaplarini qo'llab-quvvatlashga 750 milliard so'm kredit va subsidiyalar ajratiladi. O'lis va chekka hududlardagi yoshlarning ijtimoiy muammolarini hal etish uchun har yili 20 milliard so'm grantlar beriladi.

Nukus shahrida ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot sohalaridagi eng sara namunalar jamlangan, zamonaviy jihozlangan Berdaq nomidagi Qoraqalpog' milliy kutubxonasi barpo etiladi.

Aziz hamyurtlar, qadrlı do'stlar!

Men bugun Qoraqalpog'istonni har tomonlama taraqqiy ettirish, bu zaminda yashayotgan zahmatkash insonlarning hayotini yanada fayzli va farovon qilish bo'yicha aniq belgilab olgan eng asosiy reja va dasturlarimiz haqida qisqacha to'xtalib o'tdim.

Albatta, Qoraqalpog'istondagi ishlarimiz faqat shular bilan cheklanib qolmaydi. Chunki bugun shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot oldimizga yangi-yangi vazifalarni qo'ymoqda. Davr talablaridan kelib chiqib, kelgusida sizlar bilan birgalikda Qoraqalpog'istonda yana ko'plab katta ishlarni amalga oshiramiz, deb ishonaman.

Biz saylovoldi dasturimizdan o'rin olgan har bir masala haqida chuqur va atroflicha fikr yuritib, puxta tahlil qilib, ularni ro'yobga chiqarishning aniq choralarni belgilab olganmiz. Bugungi uchra-shuvimizda ana shu masalalar haqida qoraqalpog'istonlik tajribali rahbarlar, oddiy xalq hayotini yaxshi biladigan insonlar, hurmatli el oqsoqollari bilan maslahatlashib, bildirilgan takliflar asosida dasturimizni yanada boyitishni maqsad qilganmiz.

Bir so'z bilan aytganda, Qoraqalpog'iston bo'yicha rejalarimiz juda salmoqli, niyatlarimiz katta.

Bu esa har birimizdan masalaga chuqur mas'uliyat bilan yondashib, har bir kun, har bir soatdan unumli foydalanishni talab etadi. Ezgu va pok niyatlar bilan boshlangan har qanday ish albatta ijobiy natija beradi.

Men bugun amalga oshirayotgan islohotlarimiz xalqimizni rozi qilishdek ulug' maqsadga qaratilganini takror va takror aytishdan charchamayman. Bunday yuksak marralarga balandparvoz gaplar bilan erishib bo'lmasligini, bu yo'lda tinimsiz, halol va fidokorona mehnat qilish zarurligini hammamiz yaxshi tushunamiz. Bu borada har bir rahbar – viloyat, shahar va tuman hokimlari barchaga, avvalo, yoshlarga o'rnak va namuna bo'lishi kerak.

Barchamiz ko'rib, guvohi bo'lib turibmiz, hozirgi globallashuv davrida insoniyatning taqdiri va kelajagiga tahdid solayotgan xavf-xatarlar, iqtisodiy-moliyaviy inqiroz tobora kuchayib bormoqda. Xalqaro maydonda turli ziddiyat va qarama-qarshiliklar, shafqatsiz raqobat, manfaatlar to'qnashuvi, savdo urushlari kechmoqda.

Mana shunday keskin va murakkab vaziyatda O'zbekistonga rahbarlik qilish, uning manfaatlarini himoya qilish albatta oson bo'lmaydi. Men ana shunday ulkan mas'uliyatni zimmamga olishga qaror qilgan ekanman, avvalo jonajon xalqimizning, xususan, siz, aziz qoraqalpoq xalqining ishonchiga, yordam va madadiga tayanaman.

So'zimni ulug' Berdaq bobomizning hikmatli satrlari bilan yakunlashni istardim:

*Mehnat qilgin, tug'ilgansan el uchun,
Joningni ayama ulus, xalq uchun,
Kindik qoni tomgan aziz yer uchun
Umr bo'yi xizmat qilgan yaxshiroq.*

Qarang, buyuk allomaning bu dono o'gitlari aynan biz – bugungi avlodlar uchun amaliy harakatga da'vat emasmi?

Yangi Qoraqalpog'istonni bunyod etishdek g'oyat mas'uliyatli va sharafli yo'lda barchamizga yangi yutuq va zafarlar yor bo'lsin!

Yana bir bor barchangizga sihat-salomatlik, tolmas kuch-g'ayrat, baxt va omad tilayman.

Qaraqalpaq elini hesh qashan bereket tark etpesin!

Doimo sog'-omon bo'linglar!

E'tiboringiz uchun rahmat!

**Bo'zatov tumani,
2021-yil 21-sentabr**

**XORAZMNING MARD VA
OLIJANOB, TANTI VA
MEHNATKASH XALQI – UNING
HAQIQIY TAYANCH TOG‘IDIR**

*(Xorazm viloyati saylovchilar vakillari
bilan uchrashuvdagi nutq)*

Assalomu alaykum, qadrlı vatandoshlar!

Hurmatlı saylovchilar!

Avvalo, bugun mana shu qadim va tabarruk zaminda siz, azizlar bilan sog'-omon, xush kayfiyatda ko'rishib turganimdan baxtiyorman.

Men har gal Xorazm viloyatiga tashrif buyursam, sizlar bilan mana shunday samimiy suhbat va muloqotlarni doimo orziqib kutaman.

Ilgari Xorazmga kelsam, bir narsaga hayron bo'lardim. Nega Xorazmda tog'lar yo'q, deb o'ylardim. O'zbekiston xalq shoiri Omon Matjonning "Quyosh soati" degan ajoyib kitobini o'qib, bu savolimga javob topganday bo'ldim. Atoqli shoirimiz: **"Xorazmning buyuk tog'lari – bu Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Pahlavon Mahmud, Ogahiy, Feruzlardir"**, deb yozadi.

Men bunga qo'shimcha qilib, Xorazmning haqiqiy tog'lari – uning mard va oliyjanob, tanti va mehnatkash xalqi, degan bo'lardim. Chindan ham, Vatanimiz ravnaqi va xalqimiz farovonligi yo'lida kunni tunga ulab, fidokorona mehnat qilayotgan Xorazm eli vakillari bilan uchrashganda, men doimo o'zimga katta kuch-quvvat olaman.

Xorazmning necha ming yillik tarixi, qadimiy va muazzam shaharlari, betakror me'moriy obidalari g'ururimni tog'dek yuksaltiradi.

Aziz do'stlar!

Yaxshi bilasizlar, Xorazm atamasi bilan bog'liq ko'plab afsona va rivoyatlarda ushbu voaha quyoshli yer, muqaddas, unumdor zamin sifatida ta'riflanadi.

Qadimiy Xorazm eli har qanday bosqin, har qanday qiyinchilikni mardona yengib yashagani tarixdan yaxshi ma'lum. Mo'g'ullar istilosiga qarshi kurashgan ulug' avliyo Najmiddin Kubro, buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi singari shonli ajdodlarimizning jasorati barchamiz uchun ibrat maktabidir.

Bu ko'hna makonda bundan necha ming yillar oldin davlatchilik va shaharsozlik asoslari, boy madaniyat va sivilizatsiya yaratilgani dunyo ilm-fanida e'tirof etilgan.

Muborak zaminimizdan yetishib chiqqan Muhammad Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Iroq singari IX–XII asrlardagi ilk Uyg'onish davrining mashhur vakillari bilan barchamiz haqli ravishda faxrlanamiz. Ana shunday buyuk allomalarimizning ulkan xizmatlari bilan Xorazm Ma'mun akademiyasi nafaqat Sharq, balki G'arb olamida ham dovruq qozongan.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning nomini barchamiz yaxshi bilamiz. Lekin bu ulug' allomaning ilmiy faoliyati haqida, afsuski, hammamiz ham yetarlicha ma'lumotga ega emasmiz.

O'zingiz tasavvur qiling, o'sha olis o'rta asrlarda Beruniy bobomizning astronomiyaga oid 70 ta, matematikaga oid 20 ta, kartografiyaga oid 4 ta, metrologiya va mineralogiyaga oid 3 tadan, fizika va farmakologiyaga oid bittadan, tarix va etnografiya bo'yicha 15 ta, falsafaga doir 4 ta va adabiyotga doir 18 ta asar yaratgani har qanday odamni ham hayratga soladi.

Xabaringiz bor, O'zbekiston tashabbusi bilan UNESCO tomonidan 2022–2023-yillarda Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini keng nishonlash bo'yicha qaror qabul qilinishi kutilmoqda. Yubiley munosabati bilan Beruniy bobomiz faoliyat ko'rsatgan Ma'mun akademiyasi samaradorligini yangi bosqichga ko'tarish, allomaning to'la asarlar to'plamini nashr etish, uning hayoti va ilmiy merosiga bag'ishlab xalqaro konferensiya o'tkazish kabi muhim ishlarni amalga oshirishimiz kerak.

Xalqimizning: **“Oqqan daryo – oqaveradi”**, degan hikmatli soʻzlari butun yurtimiz, jumladan, Xorazm haqida aytilgandek tuyuladi. Koʻplab nodir asarlar, jumladan, arab tili grammatikasini yaratgan yetuk olim Mahmud Zamaxshariy, turkiy adabiyotning koʻzga koʻringan namoyandasi Nosiriddin Rabgʻuziy, yelkasi yerga tegmagan Pahlavon Mahmud va “Xorazmiy” nomini olgan boshqa yuzlab mashhur alloma va shoirlar bilan har qancha gʻururlansak arziydi.

Yurtimiz zaminida yuz bergan Ikkinchi Uygʻonish davri gʻoyalari ruhlangan Abulgʻoziy Bahodirxon, Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiydek ulugʻ zotlarning ilmiy va ijodiy yutuqlari negizida ham Xorazm elining beqiyos salohiyati mujassam, desak, adashmagan boʻlamiz.

Mashhur venger sayyohi, sharqshunos olim Arminiy Vamberi bilan 1863-yilda Yevropaga ketgan xorazmlik mulla Isʻhoq Ibrohim tarixini sizlar yaxshi bilasiz.

Muhimi shundaki, bu odam qisqa vaqt ichida venger tilini oʻrganib, Vengriya Fanlar akademiyasida ishlash darajasiga yetgan. Venger adabiyotining nodir namunalari oʻzbek tiliga oʻgʻirgan. Uning venger tilida chop etilgan oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi namunalari jamlangan kitobi Yevropa ilmiy jamoatchiligida katta qiziqish uygʻotgan.

Bu yil Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban rasmiy tashrif bilan yurtimizga kelganidan xabardorsiz. Men u kishiga venger xalqining turkiy ildizlari haqida hikoya qiladigan. Isʻhoq Ibrohim tomonidan oʻzbek tiliga tarjima etilgan **“Ajoyib suygʻunning hikoyati”** nomli kitobni sovgʻa qilganimda, nihoyatda taʼsirlanib, xursand boʻlib ketdi.

Bugun davramizda ana shu vatandoshimizning hayoti va faoliyatini chuqur oʻrganayotgan yosh tarixchi olim Umid Bekmuhammad ham oʻtiribdi.

Fursatdan foydalanib, ilm-fan, sport va boshqa sohalarda nafaqat yurtimiz, balki xalqaro miqyosda katta natijalarga erishib kelayotgan azm-u shijoatli barcha Xorazm yoshlariga o‘z hurmat-ehtiromimni bildiraman.

Xorazm xalqi hozirgi kunda ajdodlarimizdan o‘tib kelayotgan, mana shunday yuksak vatanparvarlik ruhi bilan yashamoqda va mehnat qilmoqda.

Bugun g‘oyat qiyin va og‘ir davrlarda elga bosh bo‘lgan, yurt farovonligi uchun xizmat qilgan Madiyor Xudoyberganov, Riyma Xudoyberganova, Marks Jumaniyozov, Shakarjon Xo‘janiyozova kabi yoshullilarni barchamiz hurmat bilan yodga olamiz.

Masharif Quvoqov, Bekturdi Jumaniyozov, Islom Bobojonov, Gulmat Haytmetov, Sharifboy Rajabov, Vera Pak, Anora Mahmudova, Egambergan Karimov, Ravshanbek Qurbonov singari O‘zbekiston Qahramonlarining turli sohalar rivojiga katta hissa qo‘shganini minnatdorlik bilan e‘tirof etamiz.

O‘zbek adabiyotining ravnaq topishida Xorazm adabiy muhiti, xususan, Muhammad Rizo Ogahiy muhim o‘rin tutishi hammamizga ma‘lum. Ulug‘ shoir nomidagi ijod maktabida ta‘lim olayotgan yoshlar o‘z ijodiy yutuqlari bilan butun mamlakatimizda tanilib kelayotgani barchamizni albatta quvontiradi.

Xorazm ahlining madaniy salohiyatini, san‘atga chinakam fidoyiligini ko‘rgan har qanday odam albatta qoyil qoladi.

Chindan ham, san‘atga yaqin bo‘lgan, san‘atni qadrlaydigan insonning qalbida ezgulik bo‘ladi.

Xabaringiz bor, o‘tgan yili bebaho ma‘naviy durdonamiz – “Lazgi” raqsi UNESCO tomonidan insoniyat nomoddiy merosi ro‘yxatiga kiritildi.

Yaqinda Germaniyadagi Dortmund baleti xoreografi Raymondo Rebek O‘zbekiston xalq artisti Gavhar Matyoqubova bilan birgalikda sahnalashtirgan “Lazgi – muhabbat va qalb raqsi” baleti Alisher

Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatrida muvaffaqiyatli namoyish etildi. Endilikda bu spektaklni Parij va boshqa Yevropa shaharlaridagi muhtasham sahnalarga olib chiqish rejalashtirilgan.

Bunday natijalar bejiz emas, albatta. Xorazmning o'ziga xos betakror san'ati madaniyatimizning oltin fondini tashkil etadi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bu haqda gapirganda, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Quvondiq Iskandarov, Olmaxon Hayitova, Ortiq Otajonov, Rahmatjon Qurbonov singari atoqli san'atkorlar, Farhod Davletov, aka-uka Eshchonovlar, Og'abek Sobirov, To'lqin Jabborov, Bunyodbek Saidov, Dilmurod Sultonov kabi ularning o'nlab iste'dodli shogirdlari nomlarini tilga olishimiz tabiiydir.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Ruxsatingiz bilan oxirgi besh yilda Xorazm viloyatida amalga oshirilgan o'zgarishlarga qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

O'tgan davrda viloyatda 141 mingta yangi doimiy ish o'rinlari yaratildi. "Temir daftar"ga kiritilgan 17 mingta oila daromad manbai bilan ta'minlanib, kambag'allikdan chiqarildi. O'rtacha ish haqi qariyb uch barobar oshib, 2.5 million so'mga yetdi.

O'tgan besh yilda sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohasida umumiy qiymati 2 milliard dollar bo'lgan, 7 mingdan ziyod investitsiya loyihalari amalga oshirilib, yangi quvvatlar ishga tushirildi. Jumladan, Xivada yirik gilam ishlab chiqarish fabrikasi, Bog'ot, Yangisirik tumanlari va Urganch shahrida trikotaj, Yangi-arqada meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalari o'z faoliyatini boshlab, minglab yangi ish o'rinlari tashkil etildi. Tuproqqal'ada elektrodvigatel va avtomobil kuzovi panellari ishlab chiqarish bo'yicha yirik sanoat quvvatlari ishga tushirildi.

Huquqda jalb qilingan investitsiyalar 2.5 barobar o'sdi. To'g'ri, sanoat to'g'ri xonajir sarf-moya hajmi 7 marta oshib, yiliga 150 million dollarga yetdi.

Sanoat mahsuloti hajmi 1,7 barobar ko'paydi, 64 turdagi yangi mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Ayniqsa, yetakchi tarmoqlar bo'lgan to'qimachilik, avtomobilsozlik, oziq-ovqat, qurilish materiallari, elektrotexnika sanoatida mahsulot ishlab chiqarish o'rtacha ikki marta o'sdi. Eksport hajmi oldingi 5 yilga nisbatan ikki barobar oshib, 720 million dollarni tashkil etdi.

Ko'p yillar davomida muammo bo'lib kelgan Toshsoqa irri-gatsiya tizimi 146 million dollar hisobidan rekonstruksiya qilindi. Natijada 191 ming gektar qishloq xo'jaligi yerlariga suv yetib bordi.

Paxta tolasini qayta ishlash darajasi ikki barobar, meva-sabzavot va pilla bo'yicha uch marta oshdi. Viloyatda 100 million dollardan ziyod mablag' yo'naltirilib, 370 gektar zamonaviy issiqxonalar barpo etildi.

Turizm sohasida 80 ta yangi mehmonxona qurildi, jami mehmon o'rinlari ikki barobar oshdi. Xiva shahriga temir yo'l yetib bordi va yangi vokzal ishga tushirildi. Kichik biznes subyektlari ikki marta ko'payib, ularning soni 22 mingdan ortdi.

Maktabgacha ta'lim qamrovi 21 foizdan 65 foizga yetkazildi. Viloyatda 3 ta yangi oliy ta'lim muassasasi tashkil etildi. 6 ta yangi maktab qurildi va 205 ta maktab rekonstruksiya qilindi.

Aholining yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadida 12 ming xonadonli uy-joylar barpo etildi. Yuqori kuchlanishi yangi elektr tarmoqlari qurilib, elektr ta'minoti sezilarli darajada yaxshilandi. Markazlashgan ichimlik suvi ta'minoti darajasi 52 foizdan 80 foizga yetdi, 503 ming aholi toza suv bilan ta'minlandi. "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida 89 ta qishloq va mahalla hamda barcha tuman markazlarini obod qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Umuman, o'tgan besh yil davomida Xorazmni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishga jami 9 trillion so'm yo'naltirildi. Davlat budjetidan

2,4 trillion so'm, xalqaro moliya tashkilotlaridan 226 million dollar, shuningdek, 4 trillion so'm bank kreditlari ajratildi.

Qadrli do'stlar!

Xorazmda bo'layotgan o'zgarishlarni xalqimiz ham o'z hayotida sezib, ertangi kunga ishonchi, orzu-umidlari, shu bilan birga, talab va ehtiyojlari tobora ortib bormoqda. Shu sababli biz odamlarimizga munosib turmush sharoitini yaratish, ularning hayotiy manfaatlarini ta'minlash, bir so'z bilan aytganda, inson qadrini ulug'lash, uning izzat-hurmatini joyiga qo'yish uchun yangi reja va dasturlarni amalga oshirishimiz zarur.

Bu borada, avvalo, viloyat aholisi va tadbirkorlarini qanday dolzarb muammolar tashvishga solayotganini, ularni hal etish uchun mavjud rezerv va imkoniyatlarni chuqur o'rgandik.

Bugungi kunda Xorazmdagi **eng katta muammolardan biri** – 80 mingdan ziyod aholi bandligini ta'minlashimiz kerak. Shuningdek, mehnat bozoriga har yili 30 ming nafar yoshlar kirib kelmoqda. Ayniqsa, bu masala Qo'shko'pir, Yangiariq, Yangibozor tumanlarida o'ta dolzarb bo'lib turibdi.

Ikkinchi muhim masala – aholining hayot darajasi va infratuzilmani yaxshilash.

Viloyatda ko'plab oilalarning yashash sharoitini yaxshilashga ehtiyoj bor. Birgina Xonqada 6 ming oila uy-joyga muhtoj. Hazorasp, Xiva, Shovot, Yangiariq aholisining ichimlik suvi bo'yicha ta'minoti past darajada qolmoqda. Barcha tumanlarda yo'l-transport, ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasini yaxshilash talab etiladi.

Uchinchi jiddiy muammo – 542 ming nafar yoki 30 foiz aholining surunkali kasalligi bor. Urganch shahri, Hazorasp, Qo'shko'pirda – yurak-qon tomir, Xiva, Hazorasp, Xonqa tumanlarida – qandli diabet, Shovot, Xonqa, Hazoraspda – nafas yo'llari kasalliklari ko'p uchramoqda.

To'rtinchi dolzarb masala – ta'lim sohasidagi muammolar viloyat yoshlarining salohiyatini va aniq fanlarga intilishini ro'yobga chiqarishga to'siq bo'lmoqda. Viloyatda 30 ta maktabda o'qish 2–3 smenada tashkil etilmoqda. Kelgusi besh yilda o'quvchilar soni 35 mingga ko'payib, maktablarga yuklama yanada oshadi.

Ana shu muammolarning barchasini hisobga olib, biz viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha besh yillik dastur tayyorladik.

Dasturga muvofiq, quyidagi ustuvor yo'nalish va vazifalarga asosiy e'tibor qaratamiz.

Birinchi yo'nalish – ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish, aholi daromadlarini oshirish maqsadida kelgusi besh yilda viloyatda 250 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Avvalambor, mahallalarda tadbirkorlikni keng joriy etish orqali 100 mingdan ziyod yangi ish o'rnini ochiladi. Buning uchun har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish va ish o'rinlarini yaratish uchun mas'ul bo'lgan hokim yordamchisi lavozimi joriy qilinadi. Endi oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida tadbirkorlarga ajratiladigan 700 milliard so'm imtiyozli bank kreditlari ana shu hokim yordamchilari bilan birga ishlab chiqilgan loyihalar uchun beriladi.

Shuningdek, sharoiti og'ir 98 ta mahallaning infratuzilmasini rivojlantirish uchun budjetdan 150 milliard so'm yo'naltiriladi. Ushbu mahallalarda kooperatsiyalar tashkil etilib, ularga jami 200 milliard so'm miqdorida 10 foizlik kreditlar ajratiladi.

Misol uchun, Bog'otdagi "O'zbekiston", "Qipchoq" va "Tozabozor" mahallalarida chorvachilik va parrandachilik, Hazoraspdagi "Bag'dod", "O'zbekiston" va "Oybek" mahallalarida tikuvchilik, Xiva tumanidagi "Otajon To'ra" mahallasida gilam to'qish, Xiva shahridagi "Kalta minor" mahallasida mebel ishlab chiqarish bo'yicha kooperatsiyalar yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, aholini kasb-hunarga o'qitib, tadbirkorlikka jalb qiladigan mikrokredit tashkilotlariga 50 milliard so'm miqdorida 5 foizli imtiyozli kreditlar ajratiladi. Bu tajriba Xorazmdan boshlanadi.

Yoshlarning o'z biznesini boshlashiga amaliy yordam berish uchun Urganch tumanida biznes-inkubator tashkil etiladi.

Ikkinchidan, turizm va hunarmandchilik viloyatda yangi ish o'rinlarini yaratishda asosiy drayver sohalari bo'ladi.

Kelgusi besh yilda turizm xizmatlarini kamida besh barobar oshirish bo'yicha alohida dastur qabul qilinadi. Bunda yangi mehmonxona va oilaviy mehmon uylari tashkil etilib, o'rinlar soni 8 mingga yetkaziladi.

Urganchdagi Pahlavon Mahmud va Xivadagi Alleya hududlarida "Turizm ko'chasi" barpo etiladi. Xiva shahriga tezyurar poyezd qatnovi yo'lga qo'yilib, turistlar oqimi kamida ikki marta oshadi.

"Manguberdi Vataniga sayohat" nomli ichki turizm dasturi orqali har yili 500 mingdan ziyod o'quvchi, talaba va pensionerlarning Xorazmga safarini tashkil etish mo'ljallanmoqda.

Shu bilan birga, hozirgi kunda e'tibordan chetda qolgan 100 dan ziyod madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilishga davlat buyurtmasi joriy qilinadi hamda ularga olib boradigan infratuzilma tiklanadi. Buning uchun budjetdan har yili 50 milliard so'm ajratiladi.

Misol uchun, Ichanqal'dagi Najmiddin Kubro saboq bergan Shayx Kabir masjidi, xonaqoh va chillaxona rekonstruksiya qilinib, ziyoratgohga aylantiriladi. Arab Muhammadxon madrasasidagi 56 mingta eksponat, nodir topilma va buyumlarni saqlash va namoyish qilish uchun yangi muzey tashkil etiladi. Ushbu obyektlar negizida yangi turizm marshrutlari ko'paytirilib, 200 dan ortiq servis shoxobchalari barpo etiladi va ikki mingga yaqin ish o'rinlari yaratiladi.

Shuningdek, Xiva shahrida UNESCO ko'magida restavratsiya maktabi tashkil etiladi. Ushbu maktabda malakali mutaxassislar tayyorlash uchun xorijdan ham yetakchi ekspertlarni olib kelamiz.

Hunarmandchilik yo'nalishida kelgusida 15 mingta yangi ish o'rni tashkil etiladi. Masalan, Xonqada kigiz tayyorlovchilar, Yangiariq va Qo'shko'pirda kulollar, Xivada gilamchi va yog'och o'ymakorlarini qo'llab-quvvatlash uchun ularga naqd pulda kredit beriladi va asbob-uskunalar sotib olishga subsidiyalar ajratiladi.

Shuningdek, Qo'shko'pirda yangi dizayndagi mahsulotlar ishlab chiqarish va qadoqlash, elektron savdo platformasi orqali sotish, marketingga o'qitish bo'yicha Hunarmandlar o'quv markazi tashkil etiladi.

Hunarmandlar mahsulotlari bo'yicha Xorazm brendini yaratish va bozorlarga olib chiqish dasturi amalga oshiriladi.

Uchinchidan, 12 ming gektar paxta va g'alla maydonlari qisqartirilib, aholiga ochiq tanlov asosida 50 sotixgacha yer uzoq muddatli ijaraga beriladi va 55 mingdan ziyod aholining bandligi ta'minlanadi.

Shuningdek, Yangiariq tumanida ekin ekilmaydigan yerlarda tadbirkorlar tomonidan quduqlar qazilib, ixcham issiqxonalar quriladi va ular aholiga kooperatsiya asosida beriladi. Natijada ikki ming nafar aholi ish bilan band bo'ladi. Viloyatda bu tajribani joriy etishga dastlabki bosqichda 100 milliard so'm ajratiladi.

To'rtinchidan, xorazmlik mohir ustalar qurilish sohasida katta salohiyatga ega ekani hammaga ma'lum. Ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida o'zini o'zi band qilgan ustalarga kooperativ asosda birgalikda ishlashga ruxsat beriladi. Shuningdek, kasb-hunar markazi tashkil etilib, uni bitirganlarga asbob-uskuna sotib olishga subsidiya ajratiladi. Shu orqali 10 ming nafar fuqaro o'qitilib, ularning bandligi ta'minlanadi.

Beshinchidan, kelgusi besh yilda xizmat ko'rsatish sohasida mingdan ziyod loyiha amalga oshirilib, 25 mingta yangi ish o'rni yaratiladi. Urganch va Xiva shaharlari o'rtasida 100 dan ziyod zamonaviy servis obyektlari barpo etiladi. Bu ishlar Urganch, Xonqa, Bog'ot, Hazorasp, Tuproqqal'a tumanlaridagi yo'llar bo'ylarida ham amalga oshiriladi.

Shuningdek, qadimdan savdo-sotiq rivojlangan, tadbirkorlar yurti bo'lgan Hazoraspda bozor hududi kengaytirilib, u zamonaviy transport-logistika va savdo markaziga aylantiriladi.

Ikkinchi yo'nalish – kelgusi besh yilda viloyatda 5 milliard dollarlik investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali 70 mingdan ziyod doimiy ish o'rinlari yaratiladi.

Masalan, Urganch, Bog'ot, Gurlan, Shovot, Hazorasp, Yangiariq va Qo'shko'pir tumanlarida to'qimachilik sohasida loyiha qiymati 263 million dollar bo'lgan 48 ta yangi quvvat ishga tushiriladi. Natijada kelgusi yilda paxta tolasini qayta ishlash darajasi hozirgi 51 foizdan 100 foizga, 2026-yilda ip-kalavani qayta ishlash hajmi 30 foizdan 100 foizga yetkaziladi.

Shuningdek, paxta yetishtirish og'ir bo'lgan tumanlarda sun'iy ip-kalava ishlab chiqarish bo'yicha loyihalar amalga oshiriladi.

Kelgusi ikki yilda Yangiariqda 174 megavattli gaz-porshenli elektr stansiyasi va Tuproqqal'ada 100 megavattli quyosh elektr stansiyasi ishga tushiriladi. Natijada 283 ta mahalla va mingdan ziyod korxonani ta'minlash uchun yetarli bo'lgan qo'shimcha elektr energiyasi ishlab chiqariladi.

Tuproqqal'adagi "O'zavtomotors"ning Xorazm filialida avtomobillar uchun 100 dan ortiq butlovchi qismlarni kooperatsiya asosida ishlab chiqarish tashkil etiladi.

Shuningdek, 2024-yilda 250 million dollar xorijiy investitsiya hisobidan yiliga 30 ming tonna kaustik soda ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

Tuproqqal'ada litiy-ionli batareyalar, Urganch tumanida elektron gaz gorelkalari, bug' va isitish qozonlarini ishlab chiqarish boshlanadi.

Viloyatda 40 ta yangi kichik sanoat zonasi barpo etiladi. Bunga budjetdan dastlabki bosqichda 100 milliard so'm beriladi. Ushbu zonalarda 500 million dollarlik mingdan ziyod loyiha amalga oshirilib, 20 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Misol uchun, Xonqadagi Sarapayon qishlog'ida mebel chiqarish bo'yicha kichik sanoat zonasi barpo etilib, mingdan ziyod ish o'rinlari tashkil etiladi.

Milliy bank, "Sanoatqurilishbank" va "Asakabank" tomonidan ochilgan "Xorazm invest projekt" kompaniyasining ustav fondi 80 million dollarga yetkaziladi.

Kelgusi besh yilda viloyatda eksport hajmi 2,5 barobar ortib, yiliga 500 million dollarga yetkaziladi.

Misol uchun, 2016-yilga nisbatan mato va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilish 10 marta oshgan bo'lsa, 2026-yilgacha yana kamida besh barobar oshiriladi. Buning uchun yaqinda Turkmaniston bilan Shovotda chegaraoldi savdo zonasini tashkil etish va chegara o'tkazuv punktini ochish bo'yicha kelishuvlarga erishdik. Natijada Ashxobodgacha masofa 400 kilometrga, transport xarajatlari 1,5 marta qisqaradi.

Shuningdek, viloyatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksport qilishda Kaspiy dengizigacha bo'lgan transport xarajatlari 100 foiz qoplab beriladi.

Ip-kalavani chuqur qayta ishlash va tayyor to'qimachilik mahsulotini eksport qilish hajmini keskin ko'paytirishga 50 million dollar ajratiladi.

Umuman olganda, kelgusi besh yilda Xorazmni rivojlantirish uchun 30 trillion so'm yo'naltiriladi. Jumladan, budjetdan – 6,5 trillion so'm, xalqaro moliya tashkilotlaridan – 10 trillion so'm, bank kreditlari – 13,5 trillion so'm.

Uchinchi yo'nalish – qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish orqali 100 ming aholi uchun doimiy ish o'rni yaratiladi. Bu borada, avvalo, suv ta'minoti va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha loyihalarni amalga oshirishni davom ettiramiz.

Toshsoqa tizimidagi magistral sug'orish kanallarini qayta tiklash bo'yicha loyihaning ikkinchi bosqichini amalga oshiramiz. Bunga 130 million dollar yo'naltiriladi. Buning hisobidan 250 ming gektar yer maydonlarining suv ta'minoti va meliorativ holati yaxshilanadi, 13 ming gektar yer foydalanishga qaytariladi.

Tuyamo'yin gidrouzelingning Sulton Sanjar dambasini mustahkamlash hisobidan Xorazm viloyati uchun 370 million kub metr qo'shimcha suv zaxirasi yaratiladi.

Alohida dastur asosida, 170 ming gektarda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etish hisobidan yiliga 600 million kub metr suv tejaladi. Bunda 45 ming gektarda lazer asosida tekislash, 50 ming gektar yerda tomchilatib sug'orish tizimini joriy etish hisobidan hosildorlik oshadi va suv sarfi kamayadi.

Yangi o'zlashtirilgan yerlar, samarasiz bog' va tokzorlar o'rnida 4 ming gektar intensiv bog' va 5 ming gektar uzumzor barpo etiladi. Buning hisobidan 10 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratiladi. Jumladan, Oltiariq tajribasi asosida Bog'otda 3 ming gektar maydonda uzumchilik klasterlari tashkil etiladi. Foydalanishga qaytarilgan yerlarda barpo etiladigan bog'lar va tokzorlar uchun yer solig'ini to'lash bo'yicha imtiyozli davr uch yildan besh yilga uzaytiriladi.

Yangi bog' va tokzorlarni ko'chat bilan ta'minlash uchun Urganch tumanida in-vitro laboratoriyasi ishga tushiriladi. Ikki ming gektar yerda zamonaviy issiqxonalar, 8 ta yirik agrologistika markazi va 40 ta meva-sabzavotni qayta ishlaydigan korxonalar ishga tushiriladi.

Sholichilikda klaster usuli keng joriy qilinadi. Ko'chat usulida sholi ekishga o'tilib, yiliga ikki marta hosil olish yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, yiliga ming gektarda sholini tomchilatib sug'orish yo'lga qo'yiladi.

Misol uchun, Gurlanda 4 ming gektarda ko'chat tayyorlashdan boshlab, qayta ishlashgacha bo'lgan jarayonni to'liq qamrab olgan 14 ta sholichilik klasteri tashkil etiladi.

Kollektor-drenaj tarmoqlariga 10 ta nasos stansiyasini o'rnatish orqali qo'shimcha 160 million kub metr suv qishloq xo'jaligida foydalanishga yo'naltiriladi. Buning hisobidan Gurlan, Shovot, Qo'shko'pir, Urganch, Xonqa, Yangibozor tumanlarida qo'shimcha 20 ming gektar yerni sug'orish va 200 ming tonna sholi yetishtirish imkoniyati yaratiladi.

Tuproqqal'a tumanini chorvachilikka ixtisoslashtirib, 107 ming tonnadan ortiq ozuqa yetishtirish, go'sht-sut yo'nalishida 20 ming bosh qoramol, 50 ming bosh qo'y va echki, 500 ming bosh parranda boqish yo'lga qo'yiladi.

To'rtinchi yo'nalish – aholi va tadbirkorlik uchun qulay infratuzilma yaratish.

Birinchiidan, "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari davom ettiriladi. Bunda 130 ta qishloq va mahallani obodonlash-tirish, ichki yo'llar, ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasini qurish-ta'mirlash uchun har yili bir trillion so'm yo'naltiriladi.

Shuningdek, ahvoli eng og'ir bo'lgan ijtimoiy soha va infratuzilma obyektlarini tiklash va qurish uchun budjetdan 500 milliard so'm ajratiladi. Ushbu mablag'lar mahalliy kengash qarori asosida, maqsadli ishlatiladi.

Elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash maqsadida 5 ming kilometr tarmoqlar, mingta transformator va 12 ta podstansiya yangilanadi.

Ikkinchiidan, kelgusi besh yilda markazlashgan tarmoqlar orqali aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 76 foizdan

90 foizga yetkaziladi. Jumladan, Hazorasp va Xiva tumanlarida 8 tadan, Shovotda 4 ta va Yangiariqda 3 ta mahalla toza ichimlik suvi bilan to'liq ta'minlanadi.

Shu o'rinda Xorazmdagi ichimlik suvi sifati aholining ko'plab haqli e'tirozlariga sabab bo'layotganini aytib o'tmoqchiman. Shuning uchun 2023-yil yakuniga qadar mavjud suv tozalash inshooti va nasos stansiyalari to'liq rekonstruksiya qilinadi. Buning hisobidan Bog'ot, Gurlan, Qo'shko'pir, Shovot, Xonqa, Hazorasp va Urganch tumanlari aholisi uchun ichimlik suvi sifati va ta'minoti tubdan yaxshilanadi. Urganch, Xiva va Pitnak shaharlarida kanalizatsiya tarmog'i bilan qamrov darajasi 80 foizga yetkaziladi.

Bu loyihalar yangi tashkil etiladigan Orolbo'yi aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash jamg'armasi hisobidan moliyalashtiriladi. Jumladan, 2 ming 200 kilometr ichimlik suvi va 200 kilometr kanalizatsiya tarmoqlari, 30 ta suv tozalash inshooti va nasos stansiyalari quriladi.

Uchinchidan, kelgusi besh yilda jami 18 ming kvartirali 650 ta ko'p qavatli uy barpo etiladi. Jumladan, Xonqada infratuzilmaga yaqin hududda 100 ta ko'p qavatli uy yirik massiv shaklida qurilib, ikki mingdan ziyod oilaning turmush sharoiti yaxshilanadi.

To'rtinchidan, 4 ming kilometrdan ziyod avtomobil yo'li va ichki ko'chalar, 262 ta ko'prikni qurish-ta'mirlash uchun 4,2 trillion so'm yo'naltiriladi. Jumladan, Urganch tumanida 35 ta, Shovotda 34 ta va Yangiariqda 32 ta ko'prik ta'mirlanadi.

Sizlarga yaxshi ma'lumki, Qoraqalpog'iston va Xorazm o'rtasida Amudaryo ustidan o'tadigan ko'prik yo'qligi hammamiz uchun juda katta muammo edi. Shuni hisobga olib, joriy yilda Amudaryo ustidan o'tadigan 412 metrli temir yo'l va avtomobil yo'li o'tadigan qo'shma ko'prikni qurishni boshladik. Bunga 45 million dollar ajratdik.

Bu ko'prik orqali qatnovni yo'lga qo'yish uchun 82 kilometrli Shovot – Amudaryo – Gurlan – Qorao'zak temir yo'li ham barpo etiladi. Urganch xalqaro aeroporti rekonstruksiya qilinib, yangi yo'lovchi va yuk terminali quriladi.

Toshkent shahridan Nukus va Urganch shaharlariga qatnash uchun aviachipta narxining 25 foizini budjetdan subsidiyalash tartibini joriy qildik. Natijada aviachipta narxlari 33 foizga arzonlashib, aholi uchun qulaylik yaratildi. Shu sababdan ushbu imtiyozni yana ikki yilga uzaytiramiz.

Jamoat transporti parkini yangilash maqsadida 400 ta zamonaviy avtobus sotib olinadi. Kelgusi yilda 61 ta yangi yo'nalish ochiladi, 16 ta olis hududga jamoat transporti qatnovi yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, Urganch shahri bo'ylab yangi trolleybus halqa yo'li quriladi.

Beshinchi yo'nalish – ekologiya va aholi salomatligi.

Birinchidan, birlamchi tibbiyot bo'g'inida aholiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat turlarini ko'paytirish va sifatini oshirish choralari ko'riladi. Buning uchun kelgusi ikki yilda 19 ta mahallada oilaviy shifokorlik punktlari hamda Urganch va Xiva shaharlarida 4 ta oilaviy poliklinika faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Shu bilan birga, aholi o'rtasida erta o'lim holatlarining asosiy sababi bo'lgan qon bosimi va qandli diabet kasalliklarini davolash uchun bemorlarga eng zarur dorilar bepul yetkazib beriladi. Surunkali nafas va oshqozon-ichak kasalliklarini oilaviy shifokor punktlarida davolash yo'lga qo'yiladi. Buyrak kasalliklarini erta aniqlash maqsadida barcha birlamchi tibbiyot muassasalari ekspress-test vositalari bilan ta'minlanadi. Onkologik kasalliklarni erta aniqlash uchun 45 yoshdan oshgan 180 ming nafar ayol har yili skrining tekshiruvidan o'tkaziladi.

Viloyatda ikkita tumanlararo perinatal markaz tashkil etiladi. Shuningdek, har yili 420 ming nafar bola va homilador ayollar vitaminlar bilan bepul ta'minlanadi.

Hazorasp, Gurlan va Xivada – urologiya, travmatologiya, oftalmologiya, LOR yo‘nalishlari bo‘yicha; Yangiariq, Shovot, Qo‘shko‘pirda kardiologiya, nevrologiya, endokrinologiya yo‘nalishlari bo‘yicha; Xonqa, Bog‘ot, Yangibozor va Urganch tumanlarida bolalar uchun gematologiya, nevrologiya va buyrak kasalliklari bo‘linmalari tashkil qilinadi.

Xiva shahri, Tuproqqal‘a, Hazorasp, Gurlan, Yangibozor, Yangiariq, Shovot, Qo‘shko‘pir, Xonqa, Urganch va Xiva tumanlari tibbiyot birlashmalari laparoskopik uskunalar bilan ta‘minlanib, kaminvaziv operatsiyalar o‘tkazish yo‘lga qo‘yiladi.

Ikkinchidan, aholiga yuqori texnologik tibbiy xizmatlar ko‘rsatish ko‘lami kengaytiriladi.

Bugungi kunda viloyatda 200 nafar tug‘ma yurak nuqsoni bor bola yuqori texnologik operatsiyaga muhtoj. Ularni bepul davolash yo‘lga qo‘yilib, bunga 25 milliard so‘m yo‘naltiriladi. Murakkab jarrohlik operatsiyalarini Kardiologiya markazining Xorazm filialida o‘tkazish uchun 3 million dollar ajratiladi.

Bundan tashqari, Gurlan va Hazoraspda tumanlararo o‘tkir qon-tomir kasalliklari markazlari va gemodializ xizmati tashkil etiladi.

Toshkent tibbiyot akademiyasining Urganch filiali mustaqil oliy ta‘lim muassasasiga aylantiriladi. Oliygo‘h hududida Neyroxirurgiya markazining filiali tashkil etiladi.

Uchinchidan, hududdagi ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha shahar va tuman markazlarida jami 270 gektar yashil jamoat parklari va yashil maydonlar barpo qilinadi.

Yo‘llar bo‘yida, mahalla, korxonalar, ijtimoiy obyektlar va dala atroflarida har yili 2 million 200 ming tup daraxt, jamoat joylarida manzarali butalar ekiladi. Hazorasp, Yangiariq, Tuproqqal‘a va Xiva tumanlarida yashil maydonlar 7 ming gektarga kengaytiriladi.

Oltinchi yoʻnalish – taʼlim sifatini oshirish boʻyicha aniq chora-tadbirlar koʻriladi.

Birinchiidan, viloyatda bogʻcha yoshidagi bolalarni maktabgacha taʼlim bilan qamrab olish darajasi 82 foizga yetkaziladi. Jumladan, qamrov darajasi past boʻlgan Hazorasp, Xiva, Bogʻot, Urganch va Yangiariq tumanlarida bu koʻrsatkich 100 foizga olib chiqiladi. Buning uchun 104 ta davlat va 43 ta xususiy, 379 ta oilaviy bogʻcha tashkil etiladi.

Ana shu bogʻchalar birorta ham maktabgacha taʼlim muassasasi boʻlmagan 40 ta mahallada ishga tushirilishi, ayniqsa, eʼtiborga molikdir.

Ikkinchiidan, kelgusi besh yilda 17 ta yangi maktab quriladi, 248 ta maktab esa rekonstruksiya qilinadi va kapital taʼmirlanadi. Buning hisobidan maktablardagi yuklama 30 foizga kamayadi. Ushbu maqsadlar uchun budjetdan 1,4 trillion soʻm ajratiladi. Shuningdek, 160 ta maktabda sport zallari taʼmirlanadi.

Sport anjomlari va cholgʻu asboblari bilan jihozlash uchun har bir maktabga yiliga 10 million soʻmdan, bogʻchaga esa, 5 million soʻmdan mablagʻ ajratib boriladi.

Shuningdek, kelgusi oʻquv yilidan 1–4-sinflarda oʻqiyotgan boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun bepul tushlik berish tizimi Xorazmda ham joriy etiladi.

Uchinchiidan, oliy taʼlimga qabul kvotalari 2,4 barobar oshirilib, qamrov darajasi 52 foizga yetkaziladi. Buning uchun texnika, qishloq xoʻjaligi, turizm sohalari uchun kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan 3 ta oliygoh tashkil etiladi.

Urganch davlat universiteti qoshida Muhammad Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika markazi va jamgʻarmasini tashkil etamiz. Markaz matematika boʻyicha iqtidorli yoshlarni tanlab olish va ilmga yoʻnaltirish, oʻz salohiyatini namoyon qilishida ularga koʻmak berish bilan shugʻullanadi.

Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Urganch filiali uchun qo‘shimcha ming o‘rinli yangi o‘quv binosi quriladi. O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali va uning qoshida Urganch boshlang‘ich raqs san‘ati maktab-internati tashkil etiladi. Shuningdek, viloyatdagi oliygohlar uchun qo‘shimcha 3,5 ming o‘rinli 8 ta talabalar yotoqxonasi quriladi.

To‘rtinchidan, axborot texnologiyalari sohasi rivojini yangi bosqichga olib chiqish uchun Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda IT klaster faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Ushbu klaster loyihasi doirasida Xalqaro universitet, buyuk ajdodimiz Muhammad Xorazmiy xotirasiga raqamli texnologiyalar forumi tashkil etiladi.

“Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 100 ming nafar yoshlar o‘qitilib, ular uchun dunyodagi ilg‘or IT kompaniyalarida ishlash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, 73 ta ixtisoslashgan maktabga xorijiy til mutaxassislari bo‘lgan o‘qituvchilar olib kelinadi.

Viloyat maktablarida 300 ta zamonaviy kompyuter sinfxonasi tashkil etilib, 15 ming nafar yigit-qizni IT texnologiyalariga o‘qitish tashkil etiladi.

Qadrli yig‘ilish qatnashchilari!

Mana, saylov bahona sizlar bilan yana bir bor uchrashib, samimiy fikrlashib oldik.

Prezidentlik – avvalo, el-yurtning yuksak ishonchini oqlash, degani.

Bu – o‘z huzur-halovatidan kechib, ona xalqimiz, jonajon Vatanimizga chin dildan xizmat qilish, degani.

Bu – millionlab insonlar taqdiri uchun, ularning huquq va erkinliklarini ta‘minlash, qadr-qimmatini joyiga qo‘yish uchun mas‘uliyatni zimmaga olish, degani.

Shu bois men Prezident saylovini – yangi O‘zbekiston istiqboli, xalqimizning bugungi va ertangi hayoti uchun nihoyatda muhim bo‘lgan siyosiy voqea deb bilaman.

Siz, muhtaram xorazmlik yurtdoshlarimiz ushbu jarayonlarda faol ishtirok etasiz va mas'uliyat bilan o'z tanlovingizni bildirasiz, deb ishonaman.

Aziz vatandoshlar!

Biz bugungi kunda xalqimizning aql-zakovati va bunyodkorlik salohiyatiga tayanib, mamlakatimizda Yangi Uyg'onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga bel bog'ladik.

Hammamiz yaxshi tushunamizki, bu maqsadga yetish uchun tinimsiz mehnat qilish kerak, intilish kerak, ulkan g'oya va maqsadlar bilan yashash, hech qachon to'xtamaslik kerak.

Chunki, donishmandlar aytganidek:

“To'xtaganning – o'tirgisi keladi.

O'tirganning – yotgisi keladi.

Yotganning esa – uxlagisi keladi.

Shu sababli, doimo harakatda bo'lish kerak”.

Qarang, qanday chuqur ma'noli so'zlar! Xuddi bugungi kunimiz uchun, Yangi O'zbekiston bunyodkorlari uchun aytilganga o'xshaydi.

Biz bugun nimagaki erishgan bo'lsak, faqat mashaqqatli va sharaflı mehnatimiz, tinimsiz harakatlarimiz bilan erishdik. Bugun oldimizga yanada ulkan yangi reja va marralarni qo'yayotgan ekanmiz, ularga ham faqat va faqat o'z mehnatimiz, amaliy sa'y-harakatimiz bilan erisha olamiz.

Shu ma'noda, Xorazm viloyatida amalga oshiradigan barcha islohot va loyihalarimiz hududning iqtisodiy o'sish sur'atlarini yuksaltirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining bandligini ta'minlash orqali inson qadrini ulug'lash, xalqni rozi qilishga qaratilgan.

Mana shunday ulkan rejalarni amalga oshirish uchun bizda barcha imkoniyatlar – tabiiy resurslar ham, iqtisodiy, insoniy, intellektual va ma'naviy salohiyat ham yetarli.

Ishonchim komilki, butun xalqimiz qatorida Xorazm vohasining muhtaram yoshullilari, ishning ko'zini biladigan, tashabbuskor tadbirkorlari, faol opa-singillarimiz, azm-u shijoatli yoshlarimiz, yetakchi va mutasaddilar bilan birga ko'zlagan yuksak marralarimizni albatta zabt etamiz.

So'zimni yakunlar ekanman, sizlarga va sizlar orqali butun Xorazm ahliga sihat-salomatlik, yangi omadlar, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Barchangizga dunyodagi eng katta boylik – oilaviy baxt-saodat doimo yor bo'lsin!

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Xiva shahri,
2021-yil 22-sentabr*

**HAR BIR INSONNING TINCH,
ERKIN VA FAROVON HAYOT
KECHIRISHINI TA'MINLASH –
USTUVOR VAZIFAMIZDIR**

*(Samarqand viloyati saylovchilar vakillari
bilan uchrashuvdagi nutq)*

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!

Hurmatli saylovchilar!

Sizlarga yaxshi ma'lumki, jonajon Vatanimiz shu kunlarda ulkan siyosiy voqea arafasida turibdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik jarayonlari hal qiluvchi bosqichga kirmoqda.

Mana, kuni kecha Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida bo'lib, saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazdik. Bugun esa, siz, aziz yurtdoshlarim, qadrdonlarim bilan mana shunday ko'tarinki kayfiyatda ko'rishib turganimdan g'oyat mamnunman.

Qadrli do'stlar!

Samarqandning ulug' farzandi, islom olamining benazir mutafakkiri Imom Moturidiy bobomizning: **"O'tgan hayotingni o'zing uchun muallim deb bil"**, degan o'gitlarini ko'p eslayman.

Samarqandda hokim bo'lib ishlagan yillarimda Botir Valixo'jayev, Hasan Normurodov, Ibroyim Raupov, Haydar Kenjayev, Usmonxon Alimov, Tanabardi Qurbonov, Alisher Mardiyev, To'xta Xudoynazarov, Farmon Toshev, Barot Nodirov, Yaxshinor Allayorov, Zoyir Ziyoyev, Temur Shirinov kabi ko'pni ko'rgan, katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan insonlar ishtirokida jamoatchilik kengashi tuzgan edik.

Men bu kengashni "Fidoyilar kengashi" deb atardim. Chunki bu odamlar tom ma'noda fidoyi insonlar edi.

Kengash a'zolari bilan har haftada bitta tumanga borib, mavjud muammolarni bartaraf etishga kirishar edik.

Hozirgi kunda barcha rahbarlar uchun faoliyat mezoniga aylangan xalq bilan muloqot, inson qadr-qimmatini ulug'lash, "mahallabay" ishlash tizimining dastlabki kurtaklari o'sha vaqtda paydo bo'lgan edi.

Viloyatning aksariyat tumanlari, ayniqsa, Nurobod va Qo'shrabot tumanlarida sharoit og'ir edi. Turli qarshilik va e'tirozlariga qaramasdan, birinchi marta g'allaning rejadan ortig'ini mana shu tumanlarda qoldirishga erishganmiz.

Viloyatda ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun mablag' yetishmasdi. Faqat markazdan pul ajratilsa, hokim bir ishni boshlashi mumkin edi. Ana shu achchiq tajribamizdan kelib chiqib, mana, hozir hududlarimizga moliyaviy masalalarda keng erkinlik ber-yapmiz.

O'sha yillari Paxtachi tumanidagi 24-maktab, Qo'shrabot tumanidagi yana bir eski maktab va Oqdaryodagi tug'ruqxonani qanday qiyinchilik bilan ta'mirlaganimiz hali-hali esimdan chiq-maydi. Ana shu ishlar uchun 50 foiz mablag' viloyat budjetidan ajratilgan, qolgani esa hashar yo'li bilan bajarilgan edi.

Viloyatdagi ko'plab bunyodkorlik ishlari shu tarzda olib borildi. Maxdumi A'zam, Xoja Doniyor, Hazrati Dovud ziyoratgohlari bunga misol bo'la oladi.

Albatta, o'sha og'ir yillarda biz bilan yelkama-yelka turib ishla-gan insonlarning ba'zilar, afsuski, bugun oramizda yo'q. Ilojimiz qancha, hayot qonuni shunday ekan.

Xususan, Samarqand nuroniylarining yetakchisi, O'zbekiston Qahramoni Hasan Normurodov, keyingi o'n besh yil davomida O'zbekiston musulmonlari idorasiga rahbarlik qilib kelgan muftiy hazratlari Usmonxon Alimov, buyuk iste'dod egasi, atoqli rejissor Bahodir Yo'ldoshev, tarixchi olim Mavlon Jo'raqulov, jonkuyar shifokorlar Nurmamat Abdullayev, Hoji Ulug'ov kabi ajoyib insonlarning vafoti butun xalqimiz, Samarqand ahli uchun katta yo'qotish bo'ldi.

Alloh ularning barchasini o'z rahmatiga olib, oxiratlarini obod qilsin.

Muhtaram uchrashuv qatnashchilari!

Samarqand milliy davlatchiligimiz poydevori yaratilgan, qadi-miy poytaxt maqomiga ega bo'lgan yirik tarixiy va madaniy mar-

kazlarimizdan biri. Bu ko'hna va betakror shahar O'zbekiston tarixida, bugungi ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda alohida o'rin tutadi.

Jahon ilm-fanida **“G'arbda – Rim, Sharqda – Samarqand”** degan ibora bejiz paydo bo'lmagan. Ayniqsa, buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomiz davrida Samarqandning shuhrati butun dunyoga taraldi.

Samarqand zaminida o'nlab, yuzlab buyuk ajdodlarimiz – mashhur sarkarda va davlat arboblari, alloma va mutafakkir zotlarning qadamjolari mavjud. Birinchi Prezidentimiz, atoqli davlat va siyosat arbobi, muhtaram Islom Abdug'aniyevich Karimovning qabri, ziyoratgohi ham shu yerda.

Samarqandning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotimizdagi o'rni va maqomi, ayniqsa, keyingi yillarda o'sib bormoqda. Qadimiy poytaxtimiz yirik xalqaro sammitlar, taniqli siyosat, ilm-fan, madaniyat va din arboblari ishtirokidagi ko'plab ilmiy-madaniy anjumanlarga mezbonlik qilmoqda.

Aziz do'stlar!

Samarqand deganda, barchamiz noyob tarixiy va me'moriy yodgorliklarni, xususan, betakror Registon maydonini ko'z oldimizga keltiramiz.

Ushbu qutlug' maskandagi ikki buyuk obida – Sherdor va Tillakori madrasalarini bunyod etgan o'zbek xalqining buyuk farzandi, Samarqand hokimi Bahodir Yalangto'sh bobomiz nomini minnatdorlik bilan esga olamiz. Bu ulug' zotning xotirasini abadiylashtirish bo'yicha ko'p ishlar qilyapmiz. Jumladan, ushbu mavzuda badiiy film suratga olinmoqda, sahna asarlari, ilmiy tadqiqotlar yaratilmoqda.

Butun hayotini el-yurt ravnaqiga bag'ishlagan buyuk siymolarining boy va betakror merosini xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz o'rtasida keng targ'ib etish – barchamiz uchun muhim vazifadir.

Shu sababli hadis ilmining sultoni, ulug' ajdodimiz Imom Buxoriyning Payariq tumanidagi yodgorlik majmuasi hozirgi vaqtda tubdan qayta qurilayotganidan sizlar, albatta, xabardorsiz.

Bu yerda 21 gektar maydonda bog' va xiyobonlar, 10 ming o'rinli masjid, 3 ta mehmonxona, 24 ta oilaviy mehmon uylaridan iborat, ziyorat turizmi majmuasi barpo etiladi.

O'zbek xalq og'zaki ijodini asrab-avaylash va kelajak avlodlarga bezavol yetkazishda Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil shoir, Islom shoir, Po'ltan shoir kabi atoqli baxshi bobolarimizning xizmatlari beqiyosdir. Ularning merosini chuqur o'rganish va targ'ib qilish, jumladan, uy-muzeylarini ta'mirlash bo'yicha amaliy choralar ko'rishimiz zarur.

Kelgusi yili Fozil Yo'ldosh o'g'li tavallud topganiga 150 yil to'ladi. Ushbu tarixiy sana bo'yicha maxsus qaror qabul qilib, uni adabiyot va ma'naviyat bayrami sifatida o'tkazamiz. Chunki ma'naviy durdonamiz bo'lgan "Alpomish" dostoni aynan ana shu mashhur baxshi tilidan yozib olingan.

Hurmatli yurtdoshlar!

Samarqand eli – tarixning har qanday murakkab sinovlaridan hamisha yorug' yuz bilan o'tib kelayotgan mard va matonatli xalq. Buni viloyat ahli Ikkinchi jahon urushining og'ir yillarida Samarqandga evakuatsiya qilingan 165 ming kishiga boshpana berib, ular bilan so'nggi burda nonini baham ko'rgani ham yaqqol tasdiqlaydi.

Bu haqda gapirganda, kattaqo'rg'onlik Hamid Samadov haqida alohida to'xtalishni o'rinli, deb bilaman. Janglarda qahramonlik ko'rsatib, "Qizil yulduz" ordeni va "Jasorat uchun" medali bilan taqdirlangan, urushdan nogiron bo'lib qaytgan Hamid aka umr yo'ldoshi Sanobar aya bilan birga o'zining olti farzandi yoniga turli millatga mansub 13 nafar yetim bolani olib, voyaga yetkazgan.

Kattaqo'rg'onlik fidoyi va jonkuyar ayol, o'sha suronli yillarda kolxoz raisi bo'lib ishlagan Fotima Karimova ham 10 nafar yetim bolani o'z qaramog'iga olib, tarbiya qiladi.

Hammangiz xabardorsiz, biz keyingi yillarda yurtimizdagi Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalarga alohida e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning hayotda o'z munosib o'rnini

topishi uchun katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Jumladan, bu ta'lim dargohlarini Milliy gvardiya o'z otalig'iga olib, yoshlarni jismoniy va ma'naviy barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun zarur choralarni ko'rmoqda.

Men joylarda bo'lganimda, ko'plab insonparvar, mehr-oqibatli yurtdoshlarimizning mana shunday bolalarni o'z oilasiga farzand qilib olayotganini eshitib, nihoyatda xursand bo'laman.

Bunday savobli ishlarni amalga oshirishda Hamid aka, Sanobar va Fotima aya kabi mehr-shafqatli insonlarning ibratli faoliyati barchamiz uchun o'rnak va namuna bo'lib xizmat qiladi, deb ishonaman.

Hurmatli uchrashuv qatnashchilari!

Barchamizga yaxshi ma'lumki, qadimdan ilm-fan markazi sifatida shuhrat qozongan Samarqand bugungi kunda ham o'zining nufuzli oliygohlari bilan mashhur.

Ayniqsa, Samarqand davlat universiteti, Samarqand tibbiyot instituti ular orasida alohida o'rin tutadi.

Bu oliygohlarning mamlakatimiz ta'lim tizimidagi o'rni va salohiyatini yanada oshirish maqsadida sizlar bilan o'z takliflarimni o'rtoqlashmoqchiman.

Samarqand davlat universitetiga ushbu qutlug' maskanda tahsil olgan, shu yerda ishlagan, respublikamizda ilm-fan, ta'lim, madaniyat, adabiyot va san'at rivojiga beqiyos hissa qo'shgan atoqli davlat va jamoat arbobi, taniqli adib Sharof Rashidov nomini bersak, nima deysizlar?

Shuningdek, Samarqand tibbiyot institutiga universitet maqomini berish haqida alohida qaror qabul qilsak, o'ylaymanki, ushbu yirik oliygohning mavjud salohiyati va kelgusi rivoji uchun yanada puxta zamin yaratgan bo'lamiz.

Bo'lg'usi universitetning rahbariyati, professor-domlalari o'zlarining bilim va tajribasini to'la safarbar etib, viloyatning barcha tuman, shahar va qishloqlarida aholi salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etishga munosib hissa qo'shadilar, deb ishonch bildiraman.

Qadrli yurtdoshlarim!

Men joylarda oddiy insonlar, muhtaram nuroniylarimiz, yoshlar, opa-singillarimiz, turli kasb egalari bilan suhbatlashib, bir narsaga to'la ishonch hosil qilyapman.

O'tgan besh yilda yurtimizda hayot o'zgargani, odamlarning fikri, ishga, oila, mahalla va Vatanimiz taqdiriga munosabati o'zgargani mana shu uchrashuvlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Butun O'zbekistonimiz kabi jonajon Samarqandimiz ham bugun yangi orzu-maqсад, katta intilishlar bilan yashamoqda.

Ayni vaqtda Samarqand viloyatida erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda, hali o'z yechimini kutayotgan ko'plab muammolar ham mavjud. Bugungi kunda Samarqanddagi eng **dolzarb masalalardan biri** – 170 mingdan ziyod aholi doimiy ish o'rniga muhtoj, 65 mingga yaqin oila doimiy daromad manbaiga ega emas. Shu bilan birga, kelgusi besh yilda 200 ming yoshlar mehnat bozoriga kirib kelishini ham hisobga olishimiz zarur.

Ikkinchi muhim masala – Samarqand mamlakatimizdagi aholisi eng ko'p hudud bo'lib, kelgusi besh yilda 4,5 millionga yetadi. Ularga qulay yashash sharoitlarini ta'minlash lozim. Lekin hozir viloyatning 1,6 million nafar aholisi markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanmagan, 6 ming kilometr ichki yo'llar ta'mirtalab holatda.

Elektr tarmoqlari eskirgani bois, viloyatda elektr ta'minoti aholi uchun ham, tadbirkorlar uchun ham eng jiddiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Uchinchi masala – mavjud imkoniyatlarga qaramasdan, tuman va shaharlarda sanoat bir maromda o'sayotgani yo'q. Ayniqsa, xomashyoga boy Qo'shrabot, Nurobod va Oqdaryo tumanlarida sanoat rivojlanishi ancha orqada.

To'rtinchi masala – viloyatda qishloq xo'jaligi imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti. Bulung'ur, Jomboy, Samarqand, Urgutning meva-sabzavotchilik va uzumchilik, Nurobod, Qo'shrabot tumanlarining chorvachilikdagi imkoniyatlari to'liq ishga solinmayapti.

Beshinchi masala – viloyatning ayrim hududlarida sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimi ortiqcha yuklama bilan ishlamoqda. Sog‘liqni saqlash obyektlari quvvatini oshirish va ularni zamonaviy jihozlash talab etiladi.

Hurmatli do‘stlar!

Yuqorida aytib o‘tilgan muammolarni hisobga olib, biz viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha besh yillik dastur tayyorladik.

Bunda quyidagi ustuvor yo‘nalish va vazifalarga asosiy e‘tibor qaratamiz.

Birinchi yo‘nalish – 450 mingta ish o‘rni yaratish orqali kambag‘allikni ikki barobar qisqartirish – eng ustuvor vazifamiz bo‘ladi. Buning uchun kelgusi besh yilda yalpi hududiy mahsulotni 1,4 baravarga oshirib, 90 trillion so‘mga yetkazishimiz zarur. Avvalambor, tadbirkorlikni rivojlantirish va aholini kasb-hunarga o‘qitish orqali 130 mingta ish o‘rni yaratiladi. Oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida viloyatga har yili qariyb bir trillion so‘m imtiyozli kredit ajratiladi.

Narpay misolida tumanni “ishsizlikdan xoli hudud”ga aylantirish bo‘yicha yangi tizim qanday ishlashi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tsam.

Ayni paytda tumanda 14 mingta mehnatga layoqatli aholi ish bilan ta‘minlanmagan. Shu bilan birga, 4 mingta oila kambag‘al toifaga kiritilgan.

Tumandagi mavjud 57 ta mahallaning 11 tasi “qizil” va 33 tasi “sariq” mahalla toifasiga kiradi.

Endi bevosita quyi bo‘g‘inda ijroni tashkil etish uchun tumandagi mahallalarga biriktiriladigan “hokim yordamchilari” lavozimlari joriy etiladi.

Ular mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag‘al-likni qisqartirish va yangi ish joylarni tashkil etish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etadi.

Ushbu yordamchilarga mahallada oilaviy tadbirkorlik kreditlarini berish, lider tadbirkorlar loyihalarini amalga oshirishda

ko'maklashish, ehtiyojmand oilalarga subsidiyalar ajratish va ularni jamoat ishlariga jalb qilish, yoshlarni kasbga o'qitish bo'yicha moliyaviy instrumentlar beriladi.

Avvalambor, tumanda sanoat sohasida umumiy qiymati 800 milliard so'm bo'lgan 145 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish hisobidan 1,5 mingta ish o'rinlari tashkil etiladi.

Jumladan, tumandagi "Baxt", "Guliston", "Muqimiy" va "Tepa" mahallalarida 4 ta yangi kichik sanoat zonalari tashkil etiladi.

Shuningdek, mavjud korxonalar faoliyatini kengaytirish hisobidan 4 ming 800 ta, ijtimoiy sohada 650 ta, 747 ta xizmat ko'rsatish shoxobchalarini tashkil etish orqali 1100 ta, 14 ta yo'l bo'yi infratuzilma komplekslarini tashkil etish orqali 500 ta, paxta va g'alladan bo'shatiladigan maydonlarni aholiga ijaraga berish orqali 4 mingta, Mirbozor bozorini rekonstruksiya qilib, zamonaviy savdo kompleksiga aylantirish orqali 1200 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Hokim yordamchilariga amaliy yordam berish maqsadida iqtisodiy idoralar va tijorat banklari rahbarlari biriktiriladi.

Shu bilan birga, tumanda faoliyat yuritayotgan Xalq banki, Mikro kredit va Agrobank rahbar va xodimlari "pastga tushib", tadbirkorlar va o'z mijozlari bilan yangi loyihalar ustida "mahallabay" ish olib boradilar.

Tadbirkorlik dasturlari doirasida tumanga har yili yillik 10 foiz stavkada 70 milliard so'm kredit ajratiladi.

Shu kreditlar hisobidan har bir mahallaga biriktirilgan yetakchi tadbirkorlar bilan loyihalarni amalga oshirish, mahalladagi bo'sh yerlar va aholi tomorqalaridan unumli foydalanishni tashkil etish orqali 7 ming aholining bandligi ta'minlanadi.

Tumanning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, 12 ta mahallada quruvchi, chilangar, qandolatchilik, tikuvchilik, IT sohasi kasblari bo'yicha kasb-hunarga o'qitish maskanlari tashkil etiladi.

Bundan tashqari, norasmiy sektorda band bo'lgan 6 mingdan ziyod aholiga ro'yxatdan o'tishga ko'maklashib, ijtimoiy imtiyozlardan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Yuqoridagi loyihalarni amalga oshirish natijasida tumanda tadbirkorlik subyektlari soni 1,5 mingdan 3 ming 700 tagacha ko'payadi.

Umuman, kelgusi ikki yilda ushbu tadbirlar natijasida 22 ming aholining bandligi ta'minlanadi.

Agar shu yangi tizim orqali ish samarali tashkil etilsa, uch yilda nafaqat Narpayda, balki viloyatning boshqa hududlarida ham ishsiz odam va kambag'al oila bo'lmasligi kerak.

Ikkinchidan, Samarqandning asosiy drayverlaridan biri bo'lgan turizm sohasida 40 ming kishi bandligi ta'minlanadi.

Viloyatni yurtimizning "Turizm darvozasi"ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari hajmi kamida 10 barobar oshiriladi. Bunda 600 dan ortiq yangi mehmonxona va oilaviy mehmon uylari tashkil etilib, yotoq o'rinlar soni 22 mingtaga yetkaziladi.

Viloyatda Xalqaro pazandalik va servis maktabi tashkil etilib, o'qitishga Fransiya, Italiya, Yaponiya, Turkiyadan yetakchi restoratorlar jalb etiladi.

Shuningdek, Xalqaro gastronomik festival tashkil etiladi.

Samarqand xalqaro aeroportida parvozlar soni yetti barobar oshirilib, yo'lovchilar oqimi yiliga 220 mingdan 1,5 million nafarga yetkaziladi.

Kelgusi yilda 212 gektar yer maydonida "Samarqand biznes va turizm markazi" barpo etiladi. Unda xalqaro kongress markazi, "Abadiy shahar" karvonsaroy majmuasi, 8 ta mehmonxona, dam olish va ko'ngilochar obyektlar, hunarmandchilik markazi, sun'iy suv havzalari quriladi. Bu orqali besh mingdan ziyod yoshlar bandligi ta'minlanadi.

Kelgusi yilda Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining imtiyozli mablag'lari hisobidan 50 ta elektrobus olib kelinadi.

Umuman, viloyatga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar soni yiliga 5 millionga yetadi.

Uchinchidan, viloyatda boshqa turdagi xizmatlarni rivojlantirish orqali 60 mingta yangi ish o'rni yaratiladi. Samarqand shahrida

17 ta, Kattaqo'rg'on shahrida 8 ta yirik savdo va xizmat ko'rsatish markazlari barpo etiladi.

Bulung'ur, Jomboy, Kattaqo'rg'on, Narpay, Paxtachi va Oq-daryo tumanlaridan o'tuvchi avtomagistralning ikki tarafida yo'l bo'yida qariyb bir trillion so'mlik 500 ta loyiha doirasida mingdan ziyod servis obyektlari ishga tushiriladi va 5 mingga ish o'rni yaratiladi.

To'rtinchidan, 17 ming gektar paxta va g'alla maydonlari qisqartirilib, aholiga ochiq tanlov asosida bir gektargacha yer uzoq muddatli ijaraga beriladi va 54 ming aholi bandligi ta'minlanadi.

Qo'shimcha 30 ming gektar yangi yer maydoni o'zlashtirilib, meva-sabzavot, dorivor va ozuqa ekinlarini yetishtirish uchun tanlov asosida ajratiladi. Bunda elektr tortish va quduq qazish xarajatlari-ning 50 foizi budjetdan qoplab beriladi.

Payariq, Qo'shrabot, Ishtixon, Narpay, Bulung'ur va Urgut tumanlarining lalmi yerlarida 19 ming gektar intensiv bog' va 18 ming gektar tokzor barpo etish orqali qo'shimcha 40 ming ish o'rni yaratiladi.

Misol uchun, Ishtixonda 100 gektar maydonda tokzorlar "tayyor holda" aholiga yetti yil muddatga lizing asosida beriladi. Bunda yangi bog' va tokzorlar uchun yer solig'ini to'lashdagi imtiyozli davr uch yildan besh yilga uzaytiriladi.

Bandlik jamg'armasidan 50 milliard so'm ajratilib, 5 mingdan ziyod aholi tomorqasida yengil konstruksiyali issiqxonalar quriladi.

Shuningdek, meva-sabzavotni qayta ishlash klasteri faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Nurobod, Qo'shrabot va Kattaqo'rg'on 18 ming gektar lalmi yer maydonlari o'zlashtirilib, qo'y va echkichilik klasterlari tashkil etiladi.

Bundan tashqari, kamida 500 bosh qoramol bo'lgan 48 ta yirik chorvachilik komplekslari ishga tushiriladi va yangi o'zlashtiriladigan 2,4 ming gektar yer ozuqa uchun ajratiladi.

Tayloq, Samarqand, Oqdaryo, Kattaqo'rg'on va Nuroboda parrandachilik klasterlari tashkil etilib, 50 ming tonna parranda go'shti yetishtiriladi.

Dorivor o'simliklarni yetishtirish maqsadida Qo'shrabot, Nurobod, Payariq, Ishtixon va Urgutda za'faron va lavanda plantatsiyalari tashkil etiladi.

Irrigatsiya sohasida 145 million dollar hisobidan 69 ta nasos stansiyasi modernizatsiya qilinib, 48 ming gektar maydonning suv ta'minoti yaxshilanadi.

Shu bilan birga, "Bulung'ur" suv omborida qurilish ishlari yakunlanib, Bulung'ur, Payariq va Jomboy tumanlarida 36 ming gektar yerning suv ta'minoti yaxshilanadi.

Umuman olganda, kelgusi besh yilda Samarqand viloyatini rivojlantirish uchun davlat hisobidan 41 trillion so'm yo'naltiriladi.

Ikkinchi muhim yo'nalish – investitsiya va eksport salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish.

Kelgusi besh yilda viloyatda 8 milliard dollarlik 5,5 mingdan ziyod katta-kichik investitsiya loyihalari amalga oshirilib, 250 ming doimiy ish o'rni yaratiladi.

Ushbu loyihalar viloyat uchun "drayver" hisoblangan tarmoqlarda amalga oshiriladi. Jumladan, to'qimachilik sanoatida besh yilda umumiy qiymati 750 million dollarlik 182 ta loyiha ishga tushirilib, 19 mingta yangi ish o'rni yaratiladi va ip-kalavani qayta ishlash darajasi 100 foizga yetkaziladi.

Qurilish materiallari sanoatida Nurobod, Qo'shrabot, Narpay, Pastdarg'om, Paxtachi tumanlari va Kattaqo'rg'on shahrida 1,4 milliard dollarlik 21 ta loyiha amalga oshirilib, 10 mingta ish o'rni tashkil etiladi.

"Urgut" erkin iqtisodiy zonasi tajribasidan kelib chiqib, Pastdarg'om, Jomboy, Samarqand tumanlari va Samarqand shahrida elektrotexnika sohasida 200 million dollarlik investitsiya hisobidan 4,5 ming ish o'rniga mo'ljallangan alohida sanoat klasteri ishga

tushiriladi. Natijada, viloyatda maishiy texnika ishlab chiqarish hajmi o'n barobar, eksport olti barobar oshadi.

Shuningdek, charm-poyabzal va ipakchilik sanoatlarida 260 million dollarlik 52 ta loyiha amalga oshirilib, 10 mingta yangi ish o'rni tashkil etiladi.

Viloyatning ahamiyatli sohalaridan biri – meva-sabzavotni qayta ishlash sanoatida 75 ta loyiha asosida 180 million dollarlik investitsiya o'zlashtirilib, 5 mingta doimiy ish o'rni yaratiladi.

Eng muhimi, viloyatda yetishtiriladigan meva-sabzavotlarni qayta ishlash darajasi 50 foizga yetkaziladi.

Kelgusi besh yilda Samarqandda bir qator yirik "mega-loyihalar"ning ishga tushirilishi viloyatni mamlakatimizning "innovatsion sanoat xabi"ga aylantiradi. Jumladan, Samarqand metallurgiya zavodida 300 million dollarlik investitsiya hisobidan metallurgiya klasteri tashkil etiladi.

Klasterda har yili 870 ming tonna metall mahsulotlari ishlab chiqariladi. Xuddi shuningdek, "Samavto" korxonasi kelgusi yilda 50 million dollarlik investitsiya o'zlashtirilishi hisobidan avtobus, yuk va maxsus avtomobillarni ishlab chiqarish hajmi 2,5 barobar oshiriladi.

"UrGaz karpet" va "SAG" korxonasi negizida sun'iy toladan tayyor gilam va to'qimachilik mahsulotlarigacha ishlab chiqarish jarayonini qamrab oladigan 500 million dollarlik klaster barpo etiladi. Natijada, 5 mingta yangi ish o'rni yaratilib, 250 million dollarlik qo'shimcha eksport hajmlari qo'shiladi.

Ushbu yirik loyihalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi tomonidan tuziladigan "Milliy sanoat xoldingi" mablag'lari jalb etiladi. Kelgusi besh yilda viloyatning barcha tumanlarida "Urgut" erkin iqtisodiy zonasining 14 ta filiali hamda 88 ta kichik sanoat zonalari tashkil etiladi.

Shuningdek, Samarqand shahrining Xishrav-2 mavzesida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar kompaniyalari ishtirokida

yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “SHHT” industrial zonasi barpo etiladi. Uning ishtirokchilari uchun alohida soliq, bojxona va huquqiy rejim belgilanadi.

Viloyat eksporti uch barobar ortib, yillik 1,5 milliard dollarga yetkaziladi. Jumladan, poyabzal, qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari eksportini kamida besh barobar oshirish rejalashtiriladi.

Tayyor to‘qimachilik mahsulotlari eksporti kelgusi besh yilda 3,4 baravar oshirilib, uning kamida 50 foizi brendlar asosida bozorga chiqariladi. Bunda xodimlarni yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishga o‘qitish xarajatlarining 50 foizi Bandlik jamg‘armasidan qoplab beriladi.

Eng muhimi, eksportchi korxonalar soni to‘rt barobar ko‘payib, 1 ming 100 taga yetadi. Viloyat eksportida yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ulushi hozirgi 35 foizdan 60 foizga yetkaziladi. Eksport geografiyasi hozirgi 56 ta davlatdan 83 ta davlatga kengayib, Samarqand mahsulotlari Shvetsiya, Norvegiya, Braziliya, Chili, Avstraliya kabi mamlakatlar hamda Afrika qit‘asiga ham yetib boradi.

Viloyat eksport imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida Urgut tumanining Tojikiston bilan chegaradosh hududida “Urgut” erkin savdo zonasi tashkil etiladi.

Shuningdek, har biri 100 gektar yer maydoniga ega to‘rtta ixtisoslashgan eksport texnoparklari tashkil etiladi.

Pastdarg‘om – to‘qimachilik, Jomboy – mashinasozlik, Tayloq – oziq-ovqat, Samarqand tumani maishiy texnika ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Ularning infratuzilmasini barpo etishga budjetdan 250 milliard so‘m ajratiladi.

Eng katta masala – barcha transport vositalari orqali tashqi savdo logistika hajmini 640 ming tonnadan 1,5 million tonnaga oshirish talab etiladi. Buning uchun Samarqand aeroportiga yondosh hududda xalqaro “kargo” markazi tashkil etiladi. Jomboy, Paxtachi,

Oqdaryo va Samarqand tumanlarida oltita agrologistika markazi tashkil qilinadi.

Shuningdek, yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlarni qo'shni davlatlarga eksport qilishda transport xarajatlarini kompensatsiya qilish yo'lga qo'yiladi.

Viloyat eksportchilariga aylanma mablag' uchun yiliga 50 million dollargacha imtiyozli kreditlar beriladi. Tadbirkorlik jamg'armasi tomonidan eksportchilarga kompensatsiya va kafolat taqdim etish yana ikki yilga uzaytiriladi.

Uchinchi yo'nalish – aholi va tadbirkorlik uchun qulay infratuzilma yaratish.

Eng avvalo, so'nggi besh yilda elektr energiya iste'moli bir yarim barobar oshgani bois, uning ta'minotini yaxshilash bo'yicha alohida dastur qabul qilinadi.

Hozirgi kunda viloyatdagi elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlari talabning atigi ikki foizini qoplaydi.

Kelgusi ikki yilda Nurobod, Kattaqo'rg'on va Tayloq tumanlarida jami quvvati 400 megavattli quyosh elektr stansiyalari va kichik GESlar ishga tushiriladi. Natijada 600 ming aholi va 2,5 mingdan ziyod korxonalarni ta'minlash uchun yetarli bo'lgan qo'shimcha elektr energiyasi ishlab chiqariladi. 6 ming kilometr tarmoqlar, 500 kilovoltli nimstansiya, ikki mingta transformator va 61 mingta eski simyog'och to'liq yangilanadi.

Shuningdek, "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari davom ettiriladi. Bunda sharoiti og'ir 32 ta qishloq va mahallani obodonlashtirish uchun kelgusi yilning o'zida 390 milliard so'm yo'naltiriladi.

Ijtimoiy soha va infratuzilma obyektlarini qurish uchun budjetdan 275 milliard so'm ajratiladi. Ushbu mablag'lar mahalliy kengash qarori asosida maqsadli ishlatiladi.

Ikkinchidan, kelgusi besh yilda markazlashgan toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 64 foizdan 84 foizga, oqova suv tizimi 12 foizdan 35 foizga yetkaziladi. Xususan, Kattaqo'rg'on shahrida

ichimlik va oqova suv tizimlarini yaxshilash maqsadida 66 million dollarlik loyiha amalga oshirilib, ichimlik suvi ta'minoti bilan to'liq qamrab olinadi.

Ilgari ichimlik suvi yetib bormagan Kattaqo'rg'on, Ishtixon, Pastdarg'om, Nurobod, Narpay, Jomboy, Oqdaryo va Tayloq tumanlaridagi 177 ta mahallaning 680 ming aholisi toza ichimlik suvi bilan to'liq ta'minlanadi.

Kelgusi besh yilda 28 ming xonadonli 730 ta ko'p qavatli uy barpo etiladi. Chekka va olis hududlardagi 408 ta ko'p qavatli uyni ta'mirlashga budjetdan mablag' ajratiladi.

"Renovatsiya" dasturi asosida Samarqand shahrining Temir yo'l hududida 100 mingdan ortiq aholi uchun ko'p qavatli zamonaviy uylar, Shirin mavzesida 90 ming aholiga mo'ljallangan shaharcha barpo etiladi.

Uchinchidan, 8 ming kilometrdan ziyod avtomobil yo'li va ichki ko'chalar, 270 ta ko'prikni qurish-ta'mirlash uchun 4 trillion so'm yo'naltiriladi.

Kelgusi yildan Kattaqo'rg'on, Ishtixon, Payariq va Qo'shrabot tumanlaridagi 105 ta mahalladagi 400 ming aholi uchun jamoat transporti qatnovi yo'lga qo'yiladi.

To'rtinchidan, Samarqand shahri yashash uchun qulay va jozibador "millioner yashil shahar"ga aylantiriladi. Buning uchun Samarqand, Pastdarg'om, Oqdaryo va Tayloq tumanlari hududidan 18 ming gektar yer shahar tarkibiga qo'shiladi. Davlat idoralari va ma'muriy xizmatlar tarixiy markazdan yangi hududga ko'chiriladi. Samarqand shahrida ikkitadan yangi tunnel va ko'prik quriladi.

Navbatdagi muhim yo'nalish – Samarqand bilim va ilm-fan makoni, "ta'lim xabi"ga aylanadi.

Buning uchun, avvalo, maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 69 foizdan 82 foizga yetkaziladi. 59 ta davlat va 34 ta xususiy, 905 ta oilaviy bog'chalar tashkil etiladi.

Kelgusi besh yilda 38 ta yangi maktab quriladi, 711 tasi rekonstruksiya qilinadi va kapital ta'mirlanadi, 155 mingta qo'shimcha o'quvchi o'rni yaratiladi.

Bundan tashqari, barcha shahar va tumanlarda axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan maktablar tashkil etilib, ularda 50 mingdan ziyod yoshlar qamrab olinadi.

Oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 50 foizga yetkaziladi. Samarqand shahrida 20 ming talabaga mo'ljallangan "Yoshlar shaharchasi" barpo etilib, unda kamida 4 ta xorijiy universitetlarning filial va kampuslari joylashtiriladi.

Samarqand davlat universitetini jahonning mingta nufuzli oliygoxlari qatoriga kirish dasturi amalga oshiriladi.

Yetakchi texnika universitetlari bilan birgalikda Samarqand texnologiya universiteti tashkil etiladi.

To'rtinchi yo'nalish – aholi salomatligini yaxshilash va tibbiy xizmatlar ko'lamini kengaytirish.

Birlamchi tibbiyot bo'g'inida xavf guruhiga kiruvchi 702 ming nafardan ziyod fuqarolar har yili maqsadli tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi.

Shuningdek, ajratiladigan mablag'lar bosqichma-bosqich ikki barobar oshirilib, kasallikni erta aniqlash, bepul dori vositalari bilan ta'minlash va davolash choralari ko'riladi.

Kattaqo'rg'on shahar, Paxtachi, Pastdarg'om, Payariq va Urgut tumanlarida perinatal markazlar tashkil etiladi. Bulung'ur, Urgut, Ishtixon va Paxtachida 4 ta o'tkir yurak-qon tomir kasalliklari markazlari tashkil etilib, gemodializ xizmati ham yo'lga qo'yiladi.

Viloyatda 25 mingdan ziyod tug'ma nogironligi bo'lganlar uchun Bolalar tibbiy rehabilitatsiya markazi filiali ochiladi.

Aholiga yuqori texnologik tibbiy xizmatlar ko'rsatish ko'lami kengayib, Samarqand mintaqaning "tibbiyot xabi"ga aylantiriladi.

Kelgusi besh yilda Toshkentda ko'rsatilayotgan ixtisoslashgan tibbiy xizmatlarning barchasi Samarqandda ham yo'lga qo'yiladi.

Viloyat kardiologiya markazida yurak kasalliklarining barcha turlarini davolash imkonini beradigan zamonaviy jihozlangan kardiojarrohlik bo'limi tashkil etiladi.

Kelgusi yilda Tibbiyot instituti klinikasi negizida Mintaqaviy neyroxirurgiya markazi tashkil etilib, 10 dan ortiq jarrohlik amaliyotlari yo'lga qo'yiladi. Samarqandda bir yilda 25 mingdan ziyod bemor neyroxirurgiya xizmatiga muhtoj bo'lib, ularning atigi 30 foizi viloyatda davolanadi.

Respublika xirurgiya markazi filialida yetti nafar bemorga buyrakni ko'chirib o'tkazish operatsiyasi muvaffaqiyatli o'tkazilgani quvonarli hol, albatta. Endilikda jigarni ko'chirib o'tkazish amaliyoti ham yo'lga qo'yiladi.

Onkologiya markazining moddiy-texnik bazasi yangilanib, bolalar onkoxirurgiya va kimyo terapiyasi, kaminvaziv xirurgiya amaliyoti joriy etiladi.

Shu bilan birga, viloyatda ilk bor tug'ma eshitish nuqsoni bor bolalarni to'liq davolash yo'lga qo'yiladi.

Muhtaram do'stlar!

Ko'rib turganingizdek, bizning asosiy maqsadimiz – eng katta boylik bo'lgan xalqimizning tinchligi, sog'ligini asrash, inson manfaatlarini ta'minlash, uning sha'ni, g'ururi va qadr-qimmatini yuksaltirishdan iborat.

Yurtimizda millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir insonning erkin va farovon, baxtli hayot kechirishini ta'minlash – bizning ustuvor vazifamizdir.

Ana shunday maqsadlarni o'zida mujassam etgan dasturimiz saylov jarayonida, jumladan, bugun sizlar bildirgan fikrlar, amaliy takliflar asosida yanada boyitilib, tom ma'noda umumxalq dasturiga aylanadi.

Bugun belgilab olgan ulkan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda men butun xalqimiz qatorida, g'ururi baland, niyati pok, bag'rikeng Samarqand ahliga tayanaman.

Ishonchim komil, sizlar bo'lajak saylovda Yangi O'zbekiston uchun ovoz berib, Samarqand eliga xos bo'lgan yuksak siyosiy ong va madaniyatingizni namoyon etasiz.

O'tgan besh yilda sizlar bilan, butun xalqimiz bilan birga g'oyat murakkab va sharaflı yo'lni bosib o'tdik.

Yo'limiz qiyin bo'ldi, og'ir bo'ldi, qancha-qancha sinovlarga duch keldik.

Albatta, ishimiz bundan keyin ham oson bo'lmaydi. Lekin qanchalik mashaqqatli bo'lmasin, inson qadrini ulug'lashga, xalqimizni rozi qilishga qaratilgan yo'limizni davom ettiramiz. Hech qachon ortga qaytmaymiz.

Shu ulug' maqsad yo'lida bir yoqadan bosh chiqarib, tinimsiz mehnat qilsak, ishonaman, marra albatta bizniki, kelajak albatta bizniki bo'ladi. Ma'lumki, **"Samarqand – Yer yuzining sayqali"** bo'lgan davrlarni barchamiz katta g'urur va iftixor bilan eslaymiz.

Samarqandni mana shunday yuksak maqomga ko'targan, uning shuhratiga shuhrat qo'shib kelayotgan kuch – Samarqand ahlining aql-zakovati, bilim-ma'rifati, mustahkam irodasi, bunyodkorlik salohiyati, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Xalqimizning mana shunday buyuk qudratiga tayanib, yagona va ulug' maqsad yo'lida birlashib, inshaalloh, biz Samarqandni yana qaytadan Yer yuzining sayqaliga aylantiramiz.

O'zining shonli tarixida buyuk shaharlar, buyuk davlat va sivilizatsiyalar yaratgan xalqimiz bunga har tomonlama qodir, har tomonlama munosib.

Fursatdan foydalanib, mehnatkash, mard va oliyjanob Samarqand ahliga yuksak ishonch va e'tibor uchun yana bir bor minnatdorlik bildiraman.

Xalqimizning ishonchini oqlash men uchun hamisha hayotimning ma'no-mazmuni bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Shu yo'lda bundan buyon ham bor kuch-g'ayratim, bilim va salohiyatimni safarbar etaman.

Barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, farzandlar, nabiralar kamolini ko'rishni tilayman.

Katta rahmat sizlarga, doimo sog'-omon bo'linglar!

*Samarqand shahri,
2021-yil 24-sentabr*

**NAMANGANNING BUNYODKOR
XALQI BILAN VILOYATNI HAR
TOMONLAMA OBOD MASKANGA
AYLANTIRAMIZ**

*(Namangan viloyati saylovchilar vakillari
bilan uchrashuvdagi nutq)*

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

Hurmatli saylovchilar!

So‘zinning avvalida siz azizlarga, sizlar orqali butun Namangan ahliga o‘zinning chuqur hurmat-ehtiromim va ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Men har gal Namangan zaminiga kelganimda, iymon-e‘tiqodi mustahkam, bag‘rikeng va zahmatkash insonlar bilan dildan suhbatlashganimda, ularning odob-axloqi, yuksak madaniyatini, xush muomalasini ko‘rib, doim qoyil qolaman.

Shu ma‘noda, Namanganning mevasi shirin, mevasidan ham shevasi shirin, degan gapda juda katta hayotiy haqiqat bor.

Muqaddas kitoblarimizda: **“Alloh go‘zaldir va u go‘zallikni sevadi”**, deb aytilganini sizlar yaxshi bilasizlar.

Namangan elining mana shu ilohiy so‘zlarga amal qilib, o‘z yurtini har tomonlama obod va so‘lim maskanga, gullar diyoriga aylantirish yo‘lidagi amaliy harakatlari yuksak hurmatga loyiq.

Alisher Navoiy bobomiz ta‘biri bilan aytsek, **“Bu bo‘ston sahnida gul ko‘p, chaman ko‘p”**.

Keyingi uch-to‘rt yilda bu zaminda bunyod etilgan “Afsonalar vodiysi” majmuasi, Ibrat bog‘i, Yoshlar ziyo maskani, Namangan monomarkazi, ko‘plab zamonaviy korxonalar, ko‘rkam uy-joylar, ilm-fan, madaniyat, san‘at va sport maskanlari, butunlay yangicha qiyofa kasb etgan Sulton Uvays Qaroniy ziyoratgohi, Nodira nomidagi kutubxona ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Namangan viloyatining boy va qadimiy tarixga ega ekani ham-mamizga yaxshi ma‘lum. O‘tmishda Farg‘ona vodiysining markazi hisoblangan Axsikent arxeologik yodgorligida keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirganimizdan barchangiz xabardorsiz.

Bugungi kunda “Namangan Afrosiyobi” deb nom olgan bu gavjum ziyoratgoh ochiq osmon ostidagi tarix darsxonasiga aylangani alohida e’tiborga molik.

Ana shunday ishlarning davomi sifatida bugungi kunda Norin tumanidagi Uchtepa – Buloqmozor arxeologik yodgorligida hurmatli akademigimiz Ahmadali aka Asqarov rahbarligida olib borilayotgan katta ilmiy izlanishlarga barchamiz muvaffaqiyat tilaymiz.

Bu tabarruk zamindan yetishib chiqqan Mahdumi A’zam, Asiriddin Axsikatiy, Boborahim Mashrab, Nodim Namangoniy, Xilvatiy, Is’hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So’fizoda singari mutafakkir va shoirlarning nomlari butun mamlakatimizda ma’lum va mashhurdir.

Bu ulug’ siymolarning o’lmas merosini xalqimizga bezavol yetkazish bo’yicha boshlagan ishlarimizni davom ettirish ma’naviy burchimizdir. Shu ma’noda, Ibrat nomidagi ijod maktabida ona tili-miz bilan birga xorijiy tillarni ham puxta o’zlashtirgan, O’zbekistonning kelajagi bo’lgan yuzlab iste’dodli yoshlar kamol topayotgani hammamizni xursand qiladi, albatta.

Sizlar bilan birgalikda amalga oshirgan katta ishlarimiz tufayli bu ulug’ zot umummilliy qahramonga, yoshlarimiz uchun ma’naviy ibrat timsoliga aylandi.

Namanganning yana bir atoqli namoyandasi – yurtimizda birinchi bo’lib “O’zbekiston xalq shoiri” unvoniga sazovor bo’lgan Muhammadsharif So’fizodaning hayoti va faoliyati har tomonlama e’tiborga sazovor. Bu taraqqiyparvar inson 1913-yili Chust shahrida yetim bolalar uchun jadid usulida maktab tashkil qiladi.

Zulm va zo’ravonlik, jaholatga qarshi she’rlar yozgani uchun u quvg’in va ta’qiblarga uchrab, ona yurtidan bosh olib ketishga majbur bo’ladi. So’fizoda ko’p yillar xorijiy mamlakatlarni kezib, ilg’or taraqqiyot namunalari bilan yaqindan tanishadi. Hindistonda muallim, Afg’onistonda maorif vazirining o’rinbosari vazifalarida ishlaydi. Keyinchalik yana Turkistonga qaytib, millatimizning

ko'zini ochish, yoshlarni ilm-ma'rifatdan bahramand qilish yo'lidagi ishlarini davom ettirganini hammangiz yaxshi bilasiz.

Afsuski, butun umr el-yurt tashvishi bilan yashagan So'fizoda 1937-yili "xalq dushmani" degan tuhmat bilan 57 yoshida o'tib tashlandi. Bu ulug' insonning og'ir va mashaqqatli kechgan hayoti bir haqiqatni yana bir bor isbotlaydi – jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish hech qachon oson kechmagan.

Vatanimiz istiqloli, xalqimiz ravnaqi yo'lidagi ulkan xizmatlarini inobatga olib, Namangan viloyati bolalar kutubxonasiga Muhammadsharif So'fizoda nomini bersak, o'ylaymanki, har jihatdan o'rinli bo'ladi.

Namangandan yetishib chiqqan yorqin iste'dod egalari haqida gapirganda, adabiyotimizga chaqmoqdek kirib kelgan otashin shoir Usmon Nosir siymosi ham ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

G'oyat qisqa – bor-yo'g'i o'n yillik ijodiy faoliyati davomida shoirning 5 ta she'riy kitobi, 2 ta dostoni va bir qator dramatik asarlari nashr etilgani, dramalari sahnaga qo'yilgani, Pushkin, Lermontovning mashhur dostonlarini o'zbek tiliga ulkan mahorat bilan tarjima qilgani sizlarga ma'lum albatta.

Usmon Nosir ayni ijodiy kuch-quvvatga to'lgan 25 yoshida qamalib, qatag'on qilindi. Chunki mustabid tuzum bunday millatparvar, vatanparvar insonlarni o'zining eng ashaddiy dushmani deb hisoblar edi. Shuning uchun ham, shoir umrini qamoqxonalarda azob-uqubatda o'tkazib, 1944-yili 32 yoshida vafot etadi.

Usmon Nosir bir she'rida: **"Bargdek uzilib ketsam, unutmam meni bog'im"**, deb yozgan edi. Albatta, u "bog'" deganda, jonajon Vatanimi, bag'rikeng xalqimizni nazarda tutganini anglash qiyin emas.

Kelgusi yili yurtimizda Usmon Nosir tavalludining 110 yilligini munosib nishonlash maqsadida Prezident qarori loyihasi tayyorlanmoqda. Shu munosabat bilan Usmon Nosirning hayoti va ijodini yanada kengroq o'rganish, asarlarini nashr qilish, jumladan,

poytaxtimizdagi Adiblar xiyobonida haykalini hamda Rossiyaning Kemerovo o'lkasidagi shoir dafn etilgan maskanda yodgorlik o'rnatish ko'zda tutilmoqda.

Aziz do'stlar!

Bugungi uchrashuvda men milliy adabiyotimizni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratayotganim bejiz emas, albatta. Chunki atoqli adibimiz Abdulhamid Cho'lponning **“Adabiyot yashasa – millat yashar”** degan hikmatli so'zlari bugun har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Butun dunyoda mafkuraviy kurashlar, keskin raqobat, azaliy qadriyatlarga qarshi tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi globallashuv davrida milliy o'zligimizni saqlab qolish, xalqimizning ong-u tafakkurini yuksaltirish va shu orqali mamlakatimizni izchil taraqqiy ettirish uchun avvalambor ma'naviyatimizning tayanch ustunlaridan bo'lgan adabiyot, madaniyat va san'at sohalarini qo'llab-quvvatlashimiz zarur.

Mana shu haqiqatni aslo unutmasligimizni istardim.

O'zlarining sermazmun ijodiy faoliyati bilan xalqimiz xotirasidan chuqur o'rin egallagan namanganlik Jamolqori G'iyosov, Sora Eshonto'rayeva, Tursunoy Ja'farova, Shahodat Rahimova, Nazira Ahmedova, Kamoliddin Rahimov, Hoshim Arslonov, Mirza Azizov kabi atoqli san'atkorlar, Chustiy, Zafar Diyor, Habib Sa'dulla, Husniddin Sharipov singari taniqli adiblar va ularning bugungi izdoshlari bo'lgan Tohir Qahhor, Ziyovuddin Mansur, Dilbar Haydarova, Jamoliddin Muslim, Xosiyat Rustamova, Mehrinoz Abbosova, Behzod Fazliddin kabi iste'dodli ijodkorlarning nomlarini hurmat bilan tilga olamiz.

Hozirgi paytda O'zbekiston xalq artistlari Yoqub Ahmedov, Matluba Dadaboyeva, Nasiba Qambarova, Zulayho Boyxonova, Mehri Bekjonova, shuningdek, Tojibar Azizova, Mehri Abdullayeva, Jaloliddin Usmonov, Alisher Fayz, Malika Egamberdiyeva, Sardor Mamadaliyev, Bahriddin Zuhridinov, Gulasal Abdullayeva kabi

iqtidorli ijodkorlar san'atimiz rivojiga munosib hissa qo'shmoqda. Muhammad Nuriddinov, Baxtiyor Nazarov, Akmal Nur, Ortiqali Qozoqov singari mohir rassomlar o'z ijodi bilan nafaqat yurtimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan.

Namangan ahli mamlakatimizning ilm-fan sohalarida katta yutuqlarga erishib kelayotgan Abdumavlon Abdullayev, Komiljon Tojiboyev, Ahmadali Asqarov, Ibrohim Abdurahmonov kabi akademiklar, Tursunboy Fayzullayev, Hamid Ahmadxo'jayev, Shavkat Otajonov, Rustam Murodov, Xadicha Qodirova, Sobitxon Turg'unov, Abdulla Rasulov singari taniqli professorlar bilan haqli ravishda faxrlanadi.

Namangan viloyatini rivojlantirish va aholi turmushini farovon qilishga munosib hissa qo'shib kelayotgan Ikromxon Najmiddinov, Muhammadjon Karimov, Latifjon Sultonov, Xadicha Mirzayeva, Oyshaxon Qo'chqorova, Ibrohim Yusupov, Jamolxon Siddiqov, Muxtorxon Hoshimxonov, Haydarali Hojiakbarov, Ummatali Shamsiyev, Raufxon Murtozayev, Abdusattor G'ofurov, Xorunxon Ayubxonov, Botirali Hakimov, Abdulhay Tursunov kabi hurmatli nuroniy va oqsoqollarga alohida tashakkur bildiraman.

Shu o'rinda so'nggi paytlarda koronavirus pandemiyasi va tabiiy ofatlardan jabr ko'rgan yurtdoshlarimizga har tomonlama ko'mak va yordam ko'rsatgan namanganlik ko'plab bag'rikeng, saxovatli tadbirkorlar, mehr-oqibatli insonlar hamda xo'jalik birlashmalarining jamoalariga ham xalqimiz nomidan rahmat ay-tishni o'rinli deb bilaman.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Inson qadrini tiklash va xalqimizni rozi qilish yo'lida amalga oshirib kelayotgan tub islohotlarimiz natijasida, butun mam-lakatimizda bo'lganidek, Namangan viloyatida ham hayot o'zgardi.

Namangan viloyatini rivojlantirishning drayverlari va o'sish nuqtalarini aniqlash bo'yicha ishlarni bundan besh yil oldin bosh-laganmiz va biz bu borada mustahkam fundament yaratdik.

Sababi, tadbirkorlik va ishbilarmonlik vodiy, ayniqsa, Namangan xalqining qoniga azal-azaldan singib ketgan.

Misol uchun, o'tgan besh yilda viloyatda mahalliy sanoat qariyb ikki barobar o'sgani, 277 mingta yangi ish o'rni yaratilgani va bu mamlakatimizda eng yaxshi ko'rsatkichlardan biri ekani fikrimiz isbotidir.

Shu bilan birga, Namangan viloyatidagi eng dolzarb masala – 127 mingdan ziyod aholi ishsiz bo'lib, har yili mehnat bozoriga qo'shimcha 42 ming nafar yoshlar kirib kelmoqda. 27 ming oila doimiy daromad manbaiga ega emas.

Yashash va biznes uchun qulay infratuzilmani yaratish kerak. Masalan, Mingbuloq, Kosonsoy, To'raqo'rg'on. Pop va Chustda ichimlik suvi ta'minoti darajasi juda past, 27 ta mahalla esa markazlashgan ichimlik suvi bilan umuman ta'minlanmagan.

Viloyatda uy-joyga ehtiyoj katta. Birgina Namangan shahri aholisi kelgusi besh yilda bir millionga yetishi hisobiga qo'shimcha 52 mingta uy-joyga ehtiyoj mavjud.

Qishloq va suv xo'jaligida Kosonsoy, Pop, Chust, Yangiqo'rg'on tumanlarida suvsizlik sababli 19 ming gektar qishloq xo'jaligi yerlari ishlatilmayapti.

Sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarida ham hali yechimini kutayotgan masalalar ko'p. Viloyatda 709 ming nafar yoki 25 foiz aholining surunkali kasalligi bor. Namangan, Uchqo'rg'on, Yangiqo'rg'on, Uychi tumanlarida – yurak-qon tomir, Chortoq, Uychi, Pop, Uchqo'rg'on tumanlarida – qandli diabet, Kosonsoy, Norin, Uychi, Chustda nafas yo'llari kasalliklari ko'p uchramoqda.

Namangan shahri, Chortoq va Kosonsoyda maktabgacha ta'lim qamrovi juda past. Ayniqsa, 58 ta mahallada bog'cha umumiy yo'q.

Viloyatdagi 37 ta maktab quvvatiga nisbatan ikki barobar ko'p yuklama bilan ishlamoqda.

Qadrli do'stlar!

Mazkur muammolarni hal etish, Namangan viloyati rivojini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish va aholi hayotini yaxshilash bo'yicha besh yillik dastur ishlab chiqdik.

Namanganning yetakchi tarmoqlarida sanoat klasterlari tashkil etish, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali 400 mingta yangi ish o'rni yaratilib, aholi daromadini kamida ikki baravar oshirish va kambag'allikni ham ikki baravar qisqartirish ustuvor vazifa bo'ladi.

Birinchi yo'nalish – tadbirkorlikni rivojlantirish, oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 4,6 trillion so'm kredit ajratish hisobidan 164 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Masalan, Uychi tumanini "ishsizlikdan xoli hudud"ga aylantirishga to'xtalib o'tsam.

Ayni paytda tumanda 13 ming nafar mehnatga layoqatli aholi ish bilan ta'minlanmagan, 12 ming oila ijtimoiy yordamga muhtoj. Shuningdek, har yili mehnat bozoriga 1 ming 700 nafar yoshlar kirib keladi.

Tumandagi mavjud 56 ta mahallaning 11 tasi "qizil" va 25 tasi "sariq" toifaga kiradi.

Bundan buyon quyi bo'g'inda ijroni tashkil etish uchun tumandagi mahallalarga birlashtiriladigan "hokim yordamchilari" lavozimlari joriy etiladi. Ushbu yordamchilar mahalladagi oilaviy tadbirkorlik doirasida kreditlarni berish, tadbirkorlar loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish bilan shug'ullanadilar. Ular to'morqa, bo'sh yer va binolardan samarali foydalanishni ham tashkil etadilar. Ularning o'z "budget"i bo'lib, ehtiyojmand oilalarga subsidiyalar ajratish, jamoat ishlariga jalb qilish, yoshlarni kasbga o'qitish hamda aholi bilan "ijtimoiy shartnoma" tuzish huquqi beriladi.

Hokim yordamchilari iqtisodiyot va investitsiya idoralari, hokimiyatda ishlaydigan g'ayratli yoshlar orasidan tanlanadi.

Lavozimga qo'yishdan oldin ular ikki oy davomida yangi tizim asosida ishlashga o'qitiladi va ishiga qarab, yaxshi oylik to'lanadi. Ikki-uch yil mahallada ishlab, o'zini ko'rsatganlarini kelgusida hokim va vazir lavozimlariga qo'yamiz. Avvalambor, tumanda umumiy qiymati 5 trillion so'm bo'lgan 658 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish hisobidan 9 mingta ish o'rni tashkil etiladi.

Jumladan, tumanda oltita yangi kichik sanoat zonasi, shundan ikkitasi yoshlar tadbirkorligi zonasi tashkil etish orqali – 3 mingta, mavjud korxonalar faoliyatini kengaytirish hisobidan – 6 mingta, qishloq xo'jaligida – 5 ming 800 ta, jumladan, paxta va g'alladan qisqargan yerlarni aholiga berish orqali – 3,2 mingta, 160 ta xizmat ko'rsatish shoxobchasi, 42 ta yo'l bo'yi servis obyekti qurish, Uychi dehqon bozorini zamonaviy savdo kompleksiga aylantirish orqali – 2,5 mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratiladi.

Hokim yordamchilariga amaliy yordam berish maqsadida iqtisodiy idoralar va tijorat banklari rahbarlari biriktiriladi.

Tumanda faoliyat yuritayotgan Xalq banki, Mikro kredit va Agrobank rahbar va xodimlari "pastga tushib", tadbirkorlar va o'z mijozlari bilan yangi loyihalar ustida "mahallabay" ish olib boradilar.

Ishsizlik yuqori bo'lgan 4 ta mahallada kooperatsiya asosida aholini band qilish uchun yetakchi tadbirkorlarga 10 foizlik kreditlar ajratiladi va bu orqali 8 mingdan ortiq aholining bandligi ta'minlanadi.

Ixtisoslashuvdan kelib chiqib, 9 ta mahallada metallga ishlov berish, quruvchi, mebelsozlik, agronom, zootexnik, texnolog kabi sohalar bo'yicha kasb-hunarga o'qitish maskanlari tashkil etiladi. Uychidagi tekstil korxonalarini negizida "Sanoat maktablari" tashkil etilib, yiliga amaliy ko'nikmalarga ega ming nafar mutaxassis tayyorlanadi.

Bundan tashqari, norasmiy sektorda band bo'lgan 11 mingga yaqin aholiga ro'yxatdan o'tishga ko'maklashib, ijtimoiy imtiyozlardan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Mazkur loyihalarni amalga oshirish natijasida tumanda tadbirkorlik subyektlari soni ikki mingtadan besh mingtagacha ko'payadi va jami 26 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Agar shu yangi tizim orqali ish samarali tashkil etilsa, kelgusi uch yilda nafaqat Uychida, balki viloyatning boshqa hududlarida ham ishsiz odam va kambag'al oila bo'lmasligiga erishish mumkin.

Ikkinchi yo'nalish – kelgusi besh yilda viloyatda “drayver” bo'lgan to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmatsevtika, qurilish materiallari, mebelsozlik kabi sohalarda 7 milliard dollarlik 10 mingdan ziyod investitsiya loyihalari amalga oshirilib, 150 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Avvalambor, investitsiya jalb qilish va eksport hajmini oshirish bo'yicha yangi tizim yo'lga qo'yiladi.

Masalan, Pop tumanida “Loyiha guruhi” tuzilib, uning ishiga Strategik rivojlanish agentligi va investitsiya kompleksiga kiruvchi barcha idoralar jalb qilinadi.

“Loyiha guruhi” tumanning iqtisodiy salohiyati, barcha tabiiy boyliklari, noruda qazilmalari, geografik joylashuvi, eksport bozorlarining yaqinligi va boshqa imkoniyatlarini chuqur tahlil qilib, aniq loyihalarni shakllantiradi.

Shuningdek, kichik geologiya ekspeditsiyasi tashkil qilinib, “Loyiha guruhi” bilan hamkorlikda ishlaydi hamda noruda konlardan foydalanish uchun litsenziya berish tizimi yanada soddalashtiriladi.

Masalan, Pop tumanida noruda qazilmalari zaxiralari asosida shisha, keramogranit, bezak toshlari, bazalt va boshqa qurilish materiallari sanoati loyihalari ishlab chiqariladi.

Har yili tumanda 10–15 ta tadbirkor tanlab olinib, ularning faoliyatini doimiy ravishda qo'llab-quvvatlash orqali kichik tadbirkorlarni yetaklovchi lokomotiv tadbirkorlarga aylantirish choralari ko'riladi.

“Loyiha guruhi” tomonidan ishlab chiqilgan investitsiya loyihalari ushbu tadbirkorlar ishtirokida alohida tashkil qilinadigan “Xolding kompaniyasi” tomonidan amalga oshirilib, loyiha qiymatining 30 foizgacha bo‘lgan qismi O‘zbekiston Respublikasi To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi tomonidan moliyalashtiriladi. Ushbu maqsadlar uchun har bir tumanga Jamg‘arma yiliga 15 million dollar ajratadi.

Eng muhimi – viloyat hududida yer maydonlari tanqisligini inobatga olib, yangi ishlab chiqarish quvvatlari uch-to‘rt yoki undan ortiq qavatli binolarda joylashtiriladi. Ushbu tizim asosida Pop tumanida 10 ming kishi ish bilan band bo‘ladi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 9 barobar oshiriladi, eksport hajmi 120 million dollarga yetkaziladi.

Viloyatning barcha tumanlarida shunday tizim yo‘lga qo‘yilib, har bir tuman bo‘yicha “Investitsiya va eksport strategiyasi” ishlab chiqiladi.

Shuningdek, har bir tuman hokimining investitsiyalar va tashqi savdo masalalari bo‘yicha o‘rinbosari tadbirkorlarni investorlarga aylantirish tizimini yaratish hamda biznes inkubatorlar tashkil qilish orqali tadbirkorlik savodxonligini oshirish uchun mas‘ul va javobgar bo‘ladi.

Ikkinchidan, to‘qimachilik sanoatida Pop, Uychi tumanlari va Namangan shahrida besh yilda 2 milliard dollarlik 1 ming 700 dan ziyod loyihalar ishga tushiriladi.

Jumladan, Namangan shahri, To‘raqo‘rg‘on va Chortoq tumanlarida 313 gektar maydonda “Namangan tekstayl” industrial zonasi tashkil qilinib, 560 million dollarlik 22 ming ish o‘rniga mo‘ljallangan 710 ta loyiha amalga oshiriladi.

Sport kiyimlari, yozgi va qishki ustki kiyim, jinsi kabi eksport-bop mahsulotlarni ishlab chiqarishga yetakchi jahon brendlari jalb qilinadi.

Shuningdek, Namangan muhandislik-texnologiya instituti negizida Italiya, Fransiya, Janubiy Koreya va boshqa rivojlangan davlatlarning ilg'or to'qimachilik oliygohlari bilan birga Namangan to'qimachilik sanoati instituti tashkil etiladi.

Xuddi shuningdek, qurilish materiallari sanoatida 1,7 milliard dollarlik 1 ming 327 ta loyiha amalga oshirilib, 16 mingta doimiy ish o'rni tashkil etiladi.

Mebelsozlik sohasida kelgusi besh yilda Chortoq, To'raqo'rg'on va Namangan tumanlarida jami 180 million dollarlik 512 ta loyiha amalga oshiriladi.

Charm-poyabzal sanoatida 500 million dollarlik investitsiya hisobidan 15 ming ish o'miga mo'ljallangan 131 ta loyiha ishga tushirilib, tayyor charm mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi besh barobar oshiriladi.

Kosonsoy, Pop, Chust va Uychi tumanlari elektrotexnika sanoatiga ixtisoslashtirilib, 420 million dollarlik 127 ta loyiha ishga tushiriladi.

Meva-sabzavotni qayta ishlash sanoatida 833 ta loyiha amalga oshirilib, 650 million dollarlik investitsiyalar o'zlashtiriladi.

Viloyatda qiymati 1,3 milliard dollar bo'lgan 45 ta yirik loyihalar ishga tushirilib, 20 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Xususan, Pop tumanida 120 million dollarlik xorijiy investitsiyalar hisobidan quvvati 150 megavatt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirilishi natijasida jami 100 ming aholi va tumandagi barcha sanoat korxonalari uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlanadi.

Uchinchidan, kelgusi besh yilda eksport hajmi 1,6 milliard dollarga yetkaziladi. Jumladan, to'qimachilik mahsulotlari eksporti to'rt barobar, charm-poyabzal, elektrotexnika, oziq-ovqat mahsulotlari eksporti besh barobar oshiriladi.

Yevropa Ittifoqining maxsus preferensiyalar tizimining (GSP+) benefitsiar mamlakat maqomi qo'lga kiritilishi natijasida viloyat

eksportchilari Yevropa bozorlariga har yili kamida 500 million dollarlik yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlarni yetkazib berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

“Uchqo'rg'on” chegara bojxona posti ochilishi hisobidan qo'shni davlatga yiliga 150 million dollarlik mahsulotlar eksporti amalga oshiriladi. To'raqo'rg'on, Yangiqo'rg'on, Kosonsoy va Chortoq tumanlarida zamonaviy agrologistika komplekslari tashkil etiladi.

Davlatobod tumanida “Namangan ekspo” markazi tashkil etilib, viloyatda har yili to'qimachilik xalqaro forumi va ko'rgazmasi tashkil etiladi.

Tadbirkorlik jamg'armasi tomonidan aylanma mablag'lari uchun olingan kreditlar foiz xarajatlarini 50 foizgacha qoplab berish va kafilliklar taqdim etish amaliyoti nafaqat kichik eksportchi korxonalariga, balki yirik eksportchilar uchun ham joriy etiladi.

Qisqa qilib aytganda, viloyatda eksportni qo'llab-quvvatlash choralari amalga oshirish natijasida eksportchi korxonalar soni olti barobar ko'payib, 3 mingtaga yetadi. Viloyat eksportida yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ulushi hozirgi 42 foizdan 75 foizga yetkaziladi. Eksport geografiyasi hozirgi 54 ta davlatdan 92 ta davlat hisobiga kengayadi.

Uchinchi yo'nalish – xizmatlar sohasining asosiy o'sish nuqtalari – ichki va tashqi turizm, savdo va logistika yo'nalishlari bo'ladi.

Eng avvalo, Namangan viloyatini yiliga o'rtacha 1,5 million nafar sayyohni qabul qiluvchi markazga aylantiramiz.

Bugungi kunda Namanganda barpo etilgan “Afsonalar vodiysi” bog'i, har yili o'tkaziladigan Gullar bayrami nafaqat mamlakatimiz, balki qo'shni davlatlarda ham mashhur bo'lib, minglab sayyohlarni jalb qilmoqda.

Ma'danli suvi bilan mashhur Chortoq shahri dunyoga tanilgan Karlovi-vari, Kislovodsk va Minvodi kurortlaridan hech qolishmaydi.

Shu bilan birga, o'zining pichog'i, do'ppisi, mevalari bilan jahonda shuhrat qozongan Chust tumanining 3,5 ming yillik tarixi bor.

Ushbu tumanni rivojlantirish uchun alohida dastur qabul qilinadi.

Namanganda savdo va ko'ngilochar markazlar, kafe va restoranlar tashkil etilib, shahar nafaqat vodiy, balki butun mamlakatdan va xorijdan turistlar uchun jozibador hududga aylantiriladi.

Endi Namangan shahridagi Gullar bayramini xalqaro festivalga aylantiramiz.

Pop tumanidagi Chodak va Yangiqo'rg'on tumanidagi Nanay qishloqlarida ekoturizm klasteri tashkil etiladi. Chodakda yiliga 250 ming nafar turistga xizmat ko'rsatadigan infratuzilma yaratiladi. Shuningdek, Yangiqo'rg'on tumanida loyiha qiymati 30 million dollar bo'lgan "Nanay-Zarkent-Poromon" turistik zonasi tashkil etiladi. Chustdagi G'ova va Kosonsoydagi Olmazor qishloqlari "turizm qishloqlari"ga aylantiriladi. Natijada ikki ming nafardan ortiq aholi ish bilan ta'minlanadi.

Jami xizmat ko'rsatish sohasida umumiy qiymati 540 million dollar bo'lgan 2 ming 700 dan ziyod katta-kichik loyihalarni ishga tushirish hisobidan 34 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratiladi. Jumladan, Pop tumanidan o'tuvchi A-373 xalqaro avtomobil yo'li yoqasida 150 ta servis obyektlari ishga tushirilib, 1,3 mingta ish o'rni yaratiladi.

Bundan tashqari, barcha shahar va tumanlar markazida umumiy qiymati 800 milliard so'm bo'lgan 700 ta loyiha doirasida tun-u kun ishlaydigan savdo, ovqatlanish, fitnes va boshqa xizmat ko'rsatish ko'chalari barpo etiladi va 5 mingta ish o'rni yaratiladi.

To'rtinchi yo'nalish – qishloq xo'jaligida boshlangan islohotlar davom ettirilib, 80 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratiladi.

Birinchiidan, 11 ming 100 gektar maydon o'rtacha 10–20 sotixdan aholiga ochiq tanlov asosida uzoq muddatli ijaraga beriladi va 50 mingdan ortiq aholi bandligi ta'minlanadi.

Misol uchun, Chust va Pop tumanlarida aholiga 2 ming 300 gektardan yer ajratish hisobiga kamida 10 mingta yangi ish o'zni yaratiladi.

Shuningdek, kelgusi besh yilda kamida 19 ming gektar maydon qayta foydalanishga kiritilib, meva-sabzavotchilik va chorvachilik uchun ochiq tanlov asosida ajratiladi.

Misol uchun, Kosonsoy tumanida Namuna va Qo'qumboylar hududlarida "Kuyukmazor 1-2" nasos stansiyalarini rekonstruksiya qilish hisobiga, ming gektar maydon qayta o'zlashtiriladi.

Umuman olganda, kelgusi besh yilda 20 ming gektarning suv ta'minotini va 35 ming gektarning meliorativ holatini yaxshilash hamda 120 ming gektarda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha alohida dastur amalga oshiriladi.

Bunda 74 ta nasos stansiyasi modernizatsiya qilinib, 2 mingta nasos agregatlari yangilanishi natijasida yiliga 700 million kub metr suv tejiladi.

Ikkinchidan, tomorqalar suv ta'minotini yaxshilash orqali 16 ming aholi bandligi ta'minlanadi.

Masalan, Chortoqda 130 ta kichik quduqlar qazilib, 4 mingta xonadon tomorqasining suv ta'minoti yaxshilanadi. Shuningdek, 24,5 ming xonadonda ming gektar uzumzor barpo etiladi va 10 ming nafar ishsiz aholi uchun ixcham issiqxonalar qurib beriladi.

Aholi xonadonlarida mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida "Tomorqa xizmati" korxonalari soni 57 tadan 80 taga yetkaziladi.

Ushbu korxonalar qoshida "o'quv-maslahat markazlari" tashkil etilib, aholiga bir yilda 2-3 marta hosil olish bo'yicha maslahat berib borish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Chortoq, Yangiqo'rg'on va Kosonsoyda 1 ming 400 gektar maydonda aholi xonadonlariga urug' yetkazib berish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Uchinchidan, Yangiqo'rg'on, Pop, Chortoq, Kosonsoy, Chust tumanlarida 10 ta uzumchilik klasteri tashkil etilib, 15 ming gektarda yangi uzumzorlar barpo etiladi va har bir tumanda bittadan qayta ishlash korxonasi ishga tushiriladi.

Viloyatda qo'shimcha tashkil qilinadigan 10 ta klaster tomonidan 6 ming gektarda intensiv bog' barpo etish orqali meva yetishtirish 3-4 barobar ko'paytiriladi. Shuningdek, ming gektar yerda limonchilik issiqxonalarini tashkil etiladi. Buning uchun uch yillik imtiyozli davr bilan yetti yil muddatga kreditlar ajratiladi.

Viloyatda quvvati 27 ming tonna bo'lgan uchta yirik agrologistika markazi va 50 ming tonna meva-sabzavotni qayta ishlaydigan 40 ta kichik korxonalar ishga tushiriladi.

Yangiqo'rg'on olmasi, Chust va Kosonsoy noklari, Chortoq bodomi o'ziga xos milliy brendga aylanib ulguragan. Olmoslik dehqonlarni qo'shni davlatlarda, hatto Rossiyada ham juda yaxshi bilishadi. Bu tajribalarni respublikamizning barcha hududida ommalashtirish maqsadida To'raqo'rg'on qishloq xo'jaligi texnikumi negizida Agrar universitetining Namangan filiali tashkil etiladi.

To'rtinchidan, chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirishda klaster va kooperatsiya tizimiga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, chet davlatlardan 250 ming bosh echki olib kelinib, shundan 50 ming bosh echki klaster usulida Pop, Chust va Kosonsoy tumanlaridagi uch mingta xonadonga tarqatiladi.

Shuningdek, 17 ming xonadonga 200 boshdan parranda yetkazib beriladi va parranda bosh soni 1,5 barobar oshiriladi.

Intensiv usulda baliq yetishtirish bo'yicha viloyatda 28 ta klaster va 53 ta kooperatsiya tashkil etilib, 3 ming 650 ta xonadonda baliq yetishtirish yo'lga qo'yiladi.

Yangiqo'rg'on, Namangan va Davlatobodda asalarichilikka ixtisoslashgan maxsus kichik sanoat zonalarini tashkil etilishi natijasida asal yetishtirish hajmi besh barobar oshiriladi.

Beshinchi yo'nalish – uy-joy qurish, yo'l-transport va muhandislik infratuzilmasini rivojlantirish.

Eng avvalo, Namangan shahri – aholisining soni million kishidan iborat shaharga aylanadi. Buning uchun Yuksalish massivida 30 ming oila uchun 330 ta ko'p qavatli uylar, maktab, bog'cha, shifoxona, kichik sanoat zonalari, xizmat ko'rsatish obyektlarini qamrab olgan “Yangi Namangan” shaharchasi bunyod etiladi. Shuningdek, shaharchada 95 gektar maydonda “Yangi O'zbekiston” bog'i barpo etiladi. Namangan shahri markazida barcha qulayliklarga ega Xalqaro ishbilarmonlik markazi quriladi.

Bundan tashqari, viloyatda kelgusi besh yilda jami 16 ming xonadonli 700 ta ko'p qavatli uy quriladi. Bu – oldingi yillarga nisbatan 1,9 barobar ko'p degani.

Namangan shahrida 360 ta ko'p qavatli uy va 16 ta ijtimoiy soha obyektlarining issiqlik tizimini modernizatsiya qilishga 15 million dollar yo'naltiriladi.

Namangan shahridagi avtomobil qatnovi tirband bo'lgan beshta ko'chada yo'l o'tkazgichlar quriladi.

Kelgusi besh yilda viloyatda markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 63 foizdan 85 foizga yetkaziladi. Ayniqsa, 250 million dollarlik loyihani amalga oshirish natijasida Namangan shahri, Mingbuloq, Namangan, Pop, Chortoq va Chust tumanlarining 123 ta mahallasida yashovchi 360 ming aholiga ilk bor markazlashgan ichimlik suvi yetib boradi. Buning uchun 850 kilometr ichimlik suvi va 60 kilometr kanalizatsiya tarmog'i, 30 ta suv inshooti hamda 3 ta oqova suv inshooti barpo etiladi.

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida tizimli ishlar davom ettiriladi.

Kuni kecha sharoiti eng og'ir bo'lgan 26 ta mahallaning har biriga obodonchilik, yo'l, elektr va suv tarmoqlarini ta'mirlash uchun budjetdan 3,5 milliard so'mdan mablag' ajratildi.

Kelgusi yilda yana 28 ta ahvoli og'ir mahallaga zarur mablag'lar beriladi. Yangi Namangan, Mingbuloq, Norin, Chortoq, Yangiqo'rg'on tumanlaridagi 177 mingdan ziyod aholi yashaydigan 50 ta mahallani obodonlashtirish, ijtimoiy obyektlarni qurish va ta'mirlash uchun 90 million dollar mablag' yo'naltiriladi.

Shahar va tumanlar markazlarida jami 146 gektar yashil jamoat parklari va yashil maydonlar barpo qilinadi, mahalla, korxonalar, ijtimoiy obyektlar va dala atroflarida jami 74 million tup daraxt ekiladi.

Bundan tashqari, elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash maqsadida kelgusi besh yilda 6,5 ming kilometr tarmoqlar yangidan quriladi va rekonstruksiya qilinadi, ikki mingga yaqin transformator va 12 ta podstansiya yangilanadi.

Shuningdek, 7 ming kilometr avtomobil yo'llari va 252 ta ko'priknini qurish va ta'mirlash uchun kelgusi besh yilda 4 trillion so'm mablag' yo'naltiriladi.

Jamoat transporti yetib bormagan 40 ta aholi punktiga avtobus qatnovlari yo'lga qo'yilib, ushbu maqsadlar uchun 200 dona avtobus xarid qilinadi.

Umuman olganda, kelgusi besh yilda Namangan viloyatini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish uchun davlat hisobidan 40 trillion so'm yo'naltiriladi. Bundan 6,5 trillion so'mi davlat budjeti hisobidan loyihalar aytib o'tilgan dasturlarga yo'naltiriladi. Shuningdek, budjetdan turli yo'nalishlarga yiliga 670 milliard so'm subsidiyalar ham ajratiladi.

Bir narsani aniq tushunib olish lozim. Xalqning pulini adolatli taqsimlash, maqsadli va manzilli ishlatishni tashkil etishimiz zarur. Buning uchun kelgusi yillarda hududni korrupsiyadan xoli qilish bo'yicha Namangan viloyati barchaga namuna bo'lishi uchun alohida dastur qabul qilinadi.

Bunda budjet ajratmalarini ochiq-oshkora sarflash orqali iqtisod qilingan mablag'lar ehtiyojmand oilalar, "ayollar" va "yoshlar" daftarlariga kirganlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi.

Oltinchi yo'nalish – aholi salomatligini saqlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshiriladi.

Avvalo, birlamchi tibbiyot bo'g'inida aholiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat turlarini ko'paytirish va sifatini oshirish choralari ko'riladi. Buning uchun kelgusi ikki yilda 17 ta mahallada oilaviy shifokorlik punktlari hamda Namangan shahrida 5 ta oilaviy poliklinika faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Shu bilan birga, erta o'limning asosiy sababi bo'lgan qon bosimi va onkologik kasalliklarni davolash uchun aholiga eng zarur dori vositalari bepul yetkaziladi.

Buyrak kasalliklarini erta aniqlash maqsadida barcha birlamchi tibbiyot muassasalar ekspress-test vositalari bilan ta'minlanadi.

Onkologik kasalliklarni erta aniqlash uchun 45 yoshdan oshgan 210 ming ayol har yili skrining tekshiruvidan o'tkaziladi.

Uychi, Yangiqo'rg'on va Chustda uchta tumanlararo perinatal markaz tashkil qilinadi. Uchqo'rg'on va Popda ikkita o'tkir qon-tomir kasalliklari markazlari faoliyati yo'lga qo'yiladi. Ularda gemodializ xizmati ham ko'rsatiladi.

Shuningdek, har yili 430 ming nafar bolalar va homilador ayollar vitaminlar bilan bepul ta'minlanadi.

Kosonsoy, Norin, Pop, Uchqo'rg'on, Chust, To'raqo'rg'on, Ming-buloq, Yangiqo'rg'on va Chortoqda urologiya va endokrinologiya, Uchqo'rg'on, Norin, Chortoq, To'raqo'rg'on, Namangan, Ming-buloq, Yangiqo'rg'on, Kosonsoyda nevrologiya va endokrinologiya yo'nalishlari bo'yicha Respublika ixtisoslashgan markazlar viloyat filiallarining tumanlararo bo'limlari tashkil qilinadi.

Yangiqo'rg'on, Davlatobod tumanlari tibbiyot birlashmalari laparoskopik uskunalar bilan ta'minlanib, kaminvaziv operatsiyalar o'tkazish yo'lga qo'yiladi.

Ikkinchidan, aholiga yuqori texnologik tibbiy xizmatlar ko'rsatish ko'lami kengaytiriladi.

Bugungi kunda 350 nafar tug'ma yurak nuqsoni bor bolalar yuqori texnologik operatsiyaga muhtoj. Ularni bepul davolash yo'lga qo'yilib, bunga 14 milliard so'm yo'naltiriladi.

Yuqori texnologik, murakkab jarrohlik operatsiyalar ko'lamini kengaytirish uchun Kardiologiya markazining Namangan filiali 9 million yevrolik tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlanadi. Travmatologiya va ortopediya markazining Namangan filialiga yangi bino ajratilib, moddiy texnik-bazasini yaxshilashga 21 milliard so'm yo'naltiriladi.

Uchinchidan. sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektor jadal rivojlanadi. Viloyatda xususiy sheriklik va to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar hisobidan 42 million dollarlik 8 ta loyiha ishga tushiriladi. Namangan shahrida xalqaro universitet va zamonaviy klinikadan iborat Tibbiyot klasteri tashkil etiladi.

Yettinchi yo'nalish – ta'lim sohasi salohiyatini mustahkamlash. Ushbu maqsadlarda farzandlarimizning ta'lim-tarbiyasini zamon talablari asosida tashkil etish, ularni talab yuqori va raqobatbardosh bo'lgan mutaxassislik va kasb-hunarlariga o'qitish, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

Birinchidan, viloyatda kelgusi besh yilda 52 ta davlat va davlat-xususiy sheriklik, 1 ming 300 ta oilaviy bog'cha tashkil etiladi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lmagan 58 ta mahallada 116 ta oilaviy bog'cha tashkil etilishi natijasida maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 68 foizdan 82 foizga yetkaziladi.

Ikkinchidan, viloyatda 37 ta yangi maktab quriladi, 473 ta maktab rekonstruksiya qilinadi va kapital ta'mirlanadi. Natijada 101 mingdan ziyod qo'shimcha o'quvchi o'rinlari yaratilib, jami 512 mingtaga yetkaziladi. 132 ta maktabda zamonaviy sport zallari quriladi.

Uchinchidan, oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 50 foizga yetkaziladi. Buning uchun Namanganda kelgusi besh yilda 7 ta

oliygo tashkil etilib, oliy o'quv yurtlari soni 10 taga yetkaziladi. Ibrat ijod maktabi negizida Chet tillar oliygo tashkil etiladi.

Talabalarni turar joy bilan ta'minlash maqsadida qo'shimcha 3 ming 600 o'rinli 9 ta yangi yotoqxon qurib bitkaziladi. Natijada talabalar turar joyiga ehtiyoj hozirgi 15 foizdan 54 foizga ta'minlanadi.

To'rtinchidan, Namangan ahlining futbolga bo'lgan ashaddiy qiziqishini nafaqat mamlakatimizda, balki qo'shni davlatlarda ham yaxshi bilishadi. "Navbahor"ning ishqibozlari Angliya, Italiya va Fransiya futbol fanatlaridan sira qolishmaydi.

Namanganliklar Odil Ahmedov kabi iste'dodli, vatanparvar futbolchini yetishtirib bergani bilan har qancha faxrlansa arziydi.

O'ylaymanki, viloyatning shahar va qishloqlarida uning izdoshlari yana ko'plab topiladi. Shu bois, "Navbahor" futbol klubi bazasida futbol akademiyasini tashkil etib, Davlatobod tumanini sport shaharchasiga aylantirsak, nima deysizlar?!

Aziz vatandoshlar, qadrli do'stlar!

Agar kimdir: "Saylovoldi dasturingizning asosiy mazmunini jaydari tilda, sodda qilib tushuntirib bersangiz", deb so'rasa, men bu dastur, eng avvalo, jonajon Vatanimizda tinchlik va xotirjamlik barqaror bo'lishi, ko'pmillatli xalqimiz o'rtasida do'stlik va ahillik bardavomligi, O'zbekistonimiz yanada gullab-yashnashi, inson qadri, inson manfaatini ta'minlash, odamlarning hayotdan, bir-biridan, Xudoyi taoloning bergan ne'matlaridan rozi bo'lib yashashi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etishga qaratilgan, deb javob bergan bo'lar edim.

Bunday ulug' maqsadlarga hammamiz birgalikda halol va fi-dokorona mehnatimiz orqali erishishimiz mumkin. Albatta, bu oson ish emas, qiyin ekanini men yaxshi bilaman.

Biroq atoqli adibimiz Abdulla Qahhor ta'biri bilan aytganda, **"Qiyin" so'zi – "mumkin emas" degan ma'noni anglatmaydi. "Qiyin" – ko'proq mehnat qilish kerak, deganidir.**

Men oddiy ziyoli oilasida ulg'ayganman, inson hayotda o'z maqsadiga erishish uchun tinimsiz harakat qilishi, qiynchilik va muammolardan qo'rqmasligi kerakligini chuqur anglayman.

Men bu borada butun xalqimiz qatorida, namanganlik yuragi toza, oqko'ngil yurtdoshlarimizning ishonchi va yordamiga tayananaman.

So'zimning yakunida barchangizga mustahkam salomatlik, xonadoningizga fayz-u baraka, omad va zafarlar yor bo'lishini tilab qolaman.

Doimo sog'-omon bo'linglar, azizlarim!

E'tiboringiz uchun rahmat!

***Namangan shahri,
2021-yil 27-sentabr***

**FARG‘ONANI CHINAKAM
“OLTIN VODIY”GA
AYLANTIRAYLIK!**

*(Farg‘ona viloyati saylovchilar vakillari
bilan uchrashuvdagi nutq)*

Assalomu alaykum, qadrli yurtdoshlar!

Hurmatli saylovchilar!

Avvalambor, qadimiy va betakror Farg'ona zaminida men uchun qarddon bo'lgan siz, aziz yurtdoshlarim bilan yana bir bor uchrashib, mana shunday ko'tarinki kayfiyatda diydor ko'rishib turganimdan xursandman.

Fursatdan foydalanib, mard va oliyjanob, oqko'ngil va mehmondo'st, samimiy va oriyatli Farg'ona xalqiga o'zimning yuksak hurmat va ehtiromimni, eng ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Aziz do'stlar!

Barchamiz Farg'onani yaxshi ko'ramiz. Uni "Oltin vodiyning gavhari" deb e'zozlaymiz. Bu tabarruk va saxovatli zaminga bir bor qadam qo'ygan odam, unga bir umr maftun bo'lib qoladi.

Men har gal Farg'onaga kelganimda, bu yerda sizlardek qarddonlarim bilan suhbatlashganda, atoqli shoirimiz Hamid Olimjonning:

*"Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi manda", –*

degan samimiy misralari xayolimda takrorlanadi.

Mana, bugun davramizda juda ko'p istarasi issiq insonlarni ko'rib turibman.

Farg'ona ahliga xos go'zal fazilatlarini, bu saxovatli diyordan yetishib chiqqan davlat va jamoat arboblarni, olim-u ulamolar, shoir-u hofizlarni, tadbirkor va ishbilarmon odamlarning nomlarini ta'riflaydigan bo'lsam, suhbatimiz "Farg'ona tong otguncha" ham tugamaydi. O'ylaymanki, bunga zarurat ham yo'q, chunki ularning ezgu ishlarini el-yurtimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi.

Farg'ona viloyatining bugungi rivojida mo'tabar oqsoqollari-miz, kayvoni onaxonlarimizning ham munosib hissalari borligini barchamiz minnatdorlik bilan e'tirof etamiz.

Viloyat "Nuroniylar" jamg'armasiga ko'p yillar rahbarlik qilib kelgan samimiy va jonkuyar inson, senator Topiboldi aka Xoldorovning vafoti ko'pchilik yurtdoshlarimiz qatori meni ham chuqur qayg'uga soldi. Topiboldi aka doimo el-yurt tashvishi bilan yashaydigan, o'zining boy bilim va tajribasi, samarali jamoatchilik faoliyati bilan butun mamlakatimizda katta obro'-e'tibor qozongan dilkash inson edilar.

Fursatdan foydalanib, Topiboldi akaning oila a'zolari va yaqinlariga chin dildan hamdardlik bildiram.

Ayni vaqtda, viloyatda ijtimoiy hayotdagi, yoshlar tarbiyasidagi faol ishtiroki, dono o'g'itlari bilan barchaga o'rnatilgan kelayotgan No'monjon Mo'minov, Lola Murotova, Enaxon Siddiqova, Omonjon Hoshimov, Masturaxon Sayfiddinova, Mahamatali Yunusov, Akramjon Yo'lbarsov, Olimjon Ergashev, Jo'raboymon Karimov, Tur-sunxo'ja Abdurahmonov, Xolmatjon Komilov, Zokirjon Rahmonov singari faxriylarimizga sihat-salomatlik, ishlariga muvaffaqiyat, oilaviy baxt-saodat tilayman.

Hurmatli do'stlar!

Xabaringiz bor, biz shu kunlarda Prezident saylovi munosabati bilan saylovoldi uchrashuvlarni o'tkazib kelayapmiz. Barchangiz yaxshi tushunasiz, oldimizda turgan bu saylov butun el-yurtimiz, jonajon Vatanimiz, yangi O'zbekistonimizning bundan keyingi taqdiri va taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan muhim siyosiy tadbir hisoblanadi.

Barchamiz ko'rib, guvohi bo'lib turibmiz, hozirgi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarmoqda. Globallashuv davrida, insoniyatning taqdiri va kelajagiga tahdid solayotgan xavf-xatarlar, iqtisodiy-moliyaviy inqiroz tobora kuchayib bormoqda. Xalqaro maydonda turli ziddiyat va qarama-qarshiliklar, yangi-yangi muammolar

yuzaga kelmoqda. Shafqatsiz raqobat, manfaatlar to'qnashuvi, savdo urushlari kechmoqda.

Mana shunday keskin va murakkab bir vaziyatda O'zbekistonga rahbarlik qilishdek ulkan mas'uliyatni zimmamga olishga qaror qilgan ekanman, men butun xalqimiz qatorida, siz, aziz Farg'ona ahlining ham, ishonchi va qo'llab-quvvatlashiga tayanaman.

Aziz do'stlar!

Yodingizda bo'lsa, biz sizlar bilan bundan besh yil oldin bo'lib o'tgan saylovoldi uchrashuvimizda ko'plab masalalar qatori Farg'onada ham madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish bo'yicha katta rejalar tuzgan edik. Xususan, xalqimiz ko'nglidan joy olgan ulug' adib va san'atkorlarimiz xotirasiga bag'ishlab go'zal bir maskan barpo etish haqida fikrlashgan edik.

Bugungi kunda Marg'ilon shahrida tashkil etilgan Ijodkorlar bog'i, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi, shoirning memorial muzeyi va muazzam haykali nafaqat Farg'ona vodiysi, balki butun mamlakatimizning adabiy-ma'naviy muhitiga, yoshlar tarbiyasiga beqiyos ta'sir o'tkazmoqda.

Men bugungi fursatdan foydalanib, inson qadrini, ma'naviyat va ma'rifatni doimo ulug'lab yashaydigan Farg'ona ahlini mana shunday ezgu ishlarni davom ettirishga chaqirmoqchiman.

Bu borada o'zbek mumtoz adabiyotining yirik siymolaridan biri – Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqatning hayoti va faoliyati alohida o'rin tutadi.

Barchamiz bu ulug' shaxs siymosida hamisha ilm-ma'rifatga, yangilikka intilgan, taraqqiyparvar inson timsolini ko'ramiz.

Sizlarga ma'lumki, fors, arab, rus, hind, xitoy tillarini puxta egallagan Furqat dunyoning ko'plab yurtlarida bo'lib, jahon ilmfani va sivilizatsiyasining ilg'or yutuqlari bilan yaqindan tanishgan hamda Turkiston xalqiga ularni keng targ'ib etgan.

Furqat 50 yillik qisqa umri davomida mohir publitsist, tadqiqotchi, jahongashta olim sifatida noyob iste'dodini namoyon etganini ham barchangiz yaxshi bilasiz. Furqatning bundan keyingi fojiali

hayoti, musofirlikda qolib, Vatanni sogʻinib yashagani ham sizlarga yaxshi maʼlum.

Furqat – Fargʻona jadidlarining maʼnaviy otasi boʻlgan, desak, oʻylaymanki, yangilishmagan boʻlamiz.

Mana, biz yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga harakat qilyapmiz. Hech shubhasiz, agar mustamlaka tuzumining qatagʻon siyosati boʻlmaganida, ushbu Renessansni maʼrifatparvar jadid bobolarimiz yaratgan boʻlar edi.

Betakror shoir, millatparvar, xalqimizni bir umr ilm-u maʼrifatga, taraqqiyot va yorugʻ kelajakka chorlab oʻtgan shaxs – Zokirjon Furqatning el-yurtimiz oldidagi buyuk xizmatlarini inobatga olib, uning ijodini yanada keng ommalashtirsak, jumladan, Qoʻqon shahri markazidagi Furqat bogʻida shoirning haykalini oʻratsak, oʻylaymanki, bu ishimiz har tomonlama katta ahamiyatga ega boʻladi.

Yaqinda, 21-oktabr kuni barchamiz qutlugʻ sana – Oʻzbek tili bayrami kunini mamlakatimizda keng nishonlaymiz. Ona tilimizni asrab-avaylash, uning ravnaqini taʼminlash uchun kurashgan, hatto shu yoʻlda jonini fido qilgan aziz zotlarning xotirasini hamisha yodda saqlash – muqaddas burchimizdir.

Ana shunday ulugʻ insonlardan biri – yurtimizda ilk bor “Oʻzbek tili” darsligini yaratgan atoqli olim, jumalist va tarjimon, jamoat arbobi Ashurali Zohiriy boʻlganini sizlar albatta yaxshi bilasizlar.

Butun umrini el-yurtini, millatimizni maʼrifatli va madaniyatli qilishga bagʻishlagan, 1937-yili “xalq dushmani” sifatida qatagʻon qurboni boʻlgan bu betakror insonning xotirasini munosib qadrlash, nomini abadiylashtirish uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirsak, oʻylaymanki, tarixiy adolat qaror topadi.

Maʼlumki, Fargʻonadan yetishib chiqqan Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Muhiddin qori Yoqubov, Tamaronim, Mukarrama Turgʻunboyeva, Halima Nosirova, Lutfixonim Sarimsoqova, Nabi Rahimov, Joʻraxon Sultonov, Maʼmurjon Uzoqov, Rahima Mazohidova, Murodjon Ahmedov, Tavakkal

Qodirov singari ulug' san'atkorlar o'zining yuksak san'ati bilan xalqimizning mehrini qozongan.

Hozir ham bu sohada ko'plab umidli yoshlar voyaga yetib kelmoqda.

Shu ma'noda, ulug' san'atkorlarning nomlarini abadiylashtirish maqsadida Marg'ilon shahar "Ijodkorlar bog'i" hududida ularning byustlarini o'rnatib, "San'atkorlar xiyoboni"ni barpo etsak, o'ylaymanki, sizlarga ham manzur bo'ladi.

O'z davrida madaniyat va san'at yo'nalishidagi ta'lim muassasalari ulug' san'atkorlar nomi bilan atalgan edi. Endilikda ularni qayta nomlab, aziz xotiralari o'z o'rniga qo'yiladi.

Yusufjon qiziq Shakarjonov nomini abadiylashtirish hamda Farg'ona vodiysida askiya va qiziqchilik san'ati ta'limida seleksiya ishlari yo'lga qo'yilib, askiya san'ati markazi ochiladi.

Qo'qon shahrida O'zbekiston xalq artisti Rahima Mazohidova ijrochilik maktabini davom ettirish va rivojlantirish maqsadida lapar ijrochilarining an'anaviy ko'rik-tanlovi hamda xonandaning uy-muzeyi tashkil etiladi.

Tobora noyob bo'lib borayotgan milliy dorbozlik va polvonlik an'analarini saqlab qolish hamda targ'ib qilish maqsadida har ikki yilda bir marotaba "Maydon tomoshalari" festivali yo'lga qo'yiladi.

Muhtaram yurtdoshlar!

Hammangizga yaxshi ma'lumki, Yangi O'zbekiston g'oyasi va strategiyasi adolatli demokratik davlat qurishdan iborat.

Adolatli davlatning xususiyati shundayki, u avvalo qonun ustuvorligini qaror toptirishi kerak. Shu bois, biz o'z faoliyatimizning birinchi kunidan **"Xalq davlatga emas, davlat xalqqa xizmat qiladi"**, degan siyosatni, ya'ni, inson qadrini ulug'lash, inson manfaatini ta'minlash tamoyilini eng ustuvor vazifa sifatida belgilab oldik. Ana shu xalqchil siyosatning natijasi sifatida bugungi kunda Farg'ona viloyatining qiyofasi ham, bu yerda yashayotgan odamlarning turmushi, hayotga qarashi ham butunlay o'zgarib bormoqda.

Farg'ona aholisi azaldan mehnatsevar va tadbirkor, ularga faqat imkoniyat yaratib berish, buning uchun har bir mahallani zarur infratuzilma bilan ta'minlash lozim. Bu borada hal qilishimiz zarur bo'lgan qator masalalar mavjud. Bugungi kunda Farg'onadagi eng dolzarb masala – aholi uchun munosib turmush sharoiti yaratish hisoblanadi.

Viloyat aholisi soni va uning o'sish sur'ati bo'yicha mamlakatimizda eng yuqori o'rinlarni egallaydi. Shu bois, bugungi kunda 20 mingga yaqin oila uy-joyga muhtoj. Har yili 30 mingdan ziyod yangi oilalar tashkil bo'lishi ham uy-joyga bo'lgan talabni oshirmoqda.

So'x, Oltiariq, Toshloq, Quvada ichimlik suvi ta'minoti darajasi 50 foizdan past. Rishton, Beshariq, Qo'shtepa, Yozyovon, O'zbekiston tumanlarida ham ahvol qoniqarli emas.

Viloyatda kanalizatsiya va issiqlik ta'minoti tizimlari yetarli rivojlanmagan. Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon va Quvasoy shaharlarining markazlashgan issiqlik ta'minoti tizimi, ko'plab yillar mablag' ajratilmagani oqibatida izdan chiqqan.

Shuningdek, 9 ming kilometr ichki yo'llar ta'mirtalab ahvolda. So'nggi besh yilda viloyatda elektr energiyasi iste'moli 1,3 barobar oshgani bois, elektr tarmoqlari, transformator va podstantsiyalarning 40 foizi ta'mirga muhtoj.

Ayni paytda, aholining bir million nafarida turli xil surunkali kasalliklar mavjud. Xususan, 335 ming nafarida – kamqonlik, 222 ming kishida yurak-qon tomir, 125 ming nafarida – endokrin, 54 ming kishida – nafas yo'llari, 50 ming nafarida esa oshqozon-ichak surunkali kasalliklari aniqlangan. Bu juda katta salbiy ko'rsatkich.

Bundan tashqari, 236 ta maktabning yuklamasi quvvatlaridan ancha yuqori. Kelgusi besh yilda o'quvchilar soni 62 mingga ko'payishi, ushbu masalaning qanchalik dolzarbligini ko'rsatadi.

Yana bir muhim masala – viloyatda 160 mingdan ziyod aholi ishsiz bo'lib, har yili mehnat bozoriga qo'shimcha 50 ming nafar

yoshlar kirib kelmoqda. 110 ming oila doimiy daromad manbaiga ega emas.

Mazkur muammolarni hisobga olib, Farg'ona aholisi hayotini yaxshilash va viloyatni jadal rivojlantirish bo'yicha, besh yillik dastur tayyorladik. Ushbu dasturda quyidagi ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratamiz.

Birinchi yo'nalish – Farg'ona viloyatida elektr, suv, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti va yo'l infratuzilmalarini yaxshilashga 10 trillion so'm yo'naltiriladi.

Avvalo, kelgusi besh yilda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida 150 ta qishloq va 40 ta mahallani obodonlashtirish choralari ko'riladi.

Buning uchun 1 trillion 860 milliard so'm mablag' ajratiladi.

Bundan tashqari, Yozyovon, So'x, Qo'shtepa va Furqat tumanlarining sharoiti og'ir 57 ta mahallasida qishloq infratuzilmasini rivojlantirishga 32 million dollar mablag' ajratiladi.

Shuningdek, kelgusi yildan har bir tuman va shahar budjetining kamida 5 foizi aholi murojaatlariga muvofiq, eng dolzarb muammolarni hal qilishga yo'naltiriladi. Kelgusi yillarda ushbu mablag' yana ko'paytiriladi.

Ikkinchidan, kelgusi besh yilda viloyatda ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 69 foizdan 90 foizga yetkaziladi. Jumladan, kelgusi yilning o'zida So'x tumanida ichimlik suv ta'minoti 30 foizdan 100 foizga yetkaziladi.

Kampirobod suv omboridan quvur tortib, Marg'ilon, Farg'ona va Quvasoy shaharlari, Quva, Toshloq va Farg'ona tumanlaridagi 650 mingdan ziyod aholi toza ichimlik suvi bilan ta'minlanadi.

Buning uchun 6 ming kilometr ichimlik suv tarmoqlari, 532 ta suv inshootlari quriladi va rekonstruksiya qilinadi.

Suv ta'minoti og'ir bo'lgan Rishton, Bag'dod, O'zbekiston tumanlarida budjet mablag'lari hisobidan quduqlar va zovurlar qazish bo'yicha dastur amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, kelgusi besh yilda Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon, Quvasoy shaharlari kanalizatsiya tizimi qamrovi hozirgi 60 foizdan 85 foizga yetkaziladi. Shuningdek, tuman markazlarida kanalizatsiya tizimini yaxshilash bo'yicha 151 million dollarlik loyiha amalga oshiriladi.

Shaharlar va tuman markazlarining issiqlik ta'minotini yaxshilashga 1,2 trillion so'm yo'naltiriladi.

Shuningdek, elektr ta'minotini yaxshilash maqsadida 7 ming kilometr elektr tarmoqlari va 2 mingta transformator yangilanadi. Bunga bir trillion so'mdan ziyod mablag'lar yo'naltiriladi.

Uchinchidan. kelgusi besh yilda jami 30 ming kvartirali 700 ta ko'p qavatli uylar quriladi. Bu – oldingi yillarga nisbatan uch barobar ko'p, degani. Bunda 2,5 mingta uy-joy og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan yolg'iz ayollar, ehtiyojmand oilalar va nogironligi bo'lgan fuqarolarga beriladi.

Shuningdek, kelgusi besh yilda 14 mingdan ziyod oilaga ipoteka krediti bo'yicha 680 milliard so'mlik subsidiya ajratiladi.

Shu bilan birga, viloyat hududlaridagi eskirgan 200 ta 2–3 qavatli uylar o'rnida, renovatsiya dasturlari asosida 7–12 qavatli uy-joylar quriladi.

Bag'dod tumani "Guliston" mahallasida barpo qilingan shaharcha namunasi asosida Yozyovon, Oltiariq va Farg'ona tumanlarida ham kamida 4–5 ming xonadonli "yo'ldosh shaharcha"lar bunyod etiladi.

Qo'qon va Marg'ilon shaharlari qo'shni tumanlar hisobiga kengaytiriladi, 600 gektardan ortiq hududda yirik uy-joy mavzelari va sanoat zonaları tashkil qilinadi.

Farg'ona shahrida 300 gektar maydonda 40 ming aholiga mo'ljallangan zamonaviy "Eko shahar" barpo etiladi. Bunda, 25 qavatgacha bo'lgan uylar, ijtimoiy infratuzilma obyektlari, 70 gektar maydonda "Yangi O'zbekiston" bog'i bunyod qilinadi.

Shaharda har yili bir milliondan daraxt ekib, Farg'onaning "yashil shahar" maqomini qayta tiklaymiz.

To'rtinchidan, kelgusi besh yilda 6 ming kilometr yo'llar quriladi va ta'mirlanadi. Buning uchun 1,8 trillion so'm mablag' ajratiladi.

Ichki yo'llarni ta'mirlash va ulardan foydalanishning yangi tizimi joriy etiladi. Jumladan, har bir tuman va shaharda alohida jamg'arma tuzilib, barqaror moliyaviy manbalar bilan ta'minlanadi. Ushbu jamg'arma mablag'larining 50 foizi jamoatchilik takliflari asosida shakllantirilgan loyihalarga sarflanadi.

Bundan tashqari, "Qo'qon-Namangan-Andijon-Qo'qon" halqa temir yo'li bo'ylab tezyurar elektropoyezdlar yo'lga qo'yiladi.

"Pop-Qo'qon-Marg'ilon-Andijon-Xonobod" temir yo'li to'liq elektrlashtiriladi.

Farg'ona xalqaro aeroporti 43 million dollar mablag' evaziga rekonstruksiya qilinib, xorijiy va xususiy aviakompaniyalar parvozlari yo'lga qo'yiladi. Natijada yo'lovchi va yuk tashish hajmi 5 barobar oshadi.

Ikkinchi yo'nalish – aholi salomatligini saqlash.

Eng avvalo, tibbiyotning birlamchi bo'g'inini kuchaytirish maqsadida 22 ta yangi oilaviy shifokorlik punkti va 10 ta oilaviy poliklinika barpo etiladi va zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlanadi. Shuningdek, viloyatda birlamchi bo'g'inga qo'shimcha 1,5 mingta shtat ajratiladi.

Birlamchi tibbiy xizmatda dori vositalari va tibbiy buyumlar xarid qilish uchun ajratiladigan mablag'lar uch barobar oshiriladi. Buning uchun budjetdan har yili kamida 50 milliard so'mdan ajratiladi.

Viloyatning 40 yoshdan oshgan bir millionga yaqin aholisi o'rtasida yurak-qon tomir va diabet kasalliklari bo'yicha manzilli skrining tekshiruvlari o'tkaziladi. Buning uchun "tibbiyot brigadlari" qondagi glukoza va xolesterin miqdorini o'lchaydigan ekspress-testlar bilan ta'minlanadi.

Bag'dod, Yozyovon tumanlari va Qo'qon shahrida tumanlararo shikastlanishlar va o'tkir qon-tomir kasalliklari markazlari tashkil etiladi.

Farg'ona shahrida 2 ta, Qo'qon, Marg'ilon shaharlari hamda Beshariq tumanida bittadan tumanlararo perinatal markazlar tashkil etiladi va barcha tug'ruq bo'limlari to'liq zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlanadi.

Quva, Buvayda, Oltiariq, Farg'ona, O'zbekiston, Qo'shtepa, Rishton va Toshloq tumanlari tibbiyot birlashmalari laparoskopik uskunalar bilan ta'minlanib, kaminvaziv operatsiyalar o'tkazish yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, 120 o'rin joyga ega bo'lgan Bolalar tibbiy reabilitatsiya markazi tashkil etiladi.

Viloyatning har bir shahar va tuman poliklinikalarida bolalar bo'limlari faoliyati qayta tiklanadi, shifoxonalarda esa bolalar reanimatsiyasi tashkil etiladi.

Ikkinchidan, aholiga malakali, sifatli va yuqori texnologik tibbiy xizmatlar ko'rsatish ko'lamini kengaytirish borasida alohida dastur amalga oshiriladi. Jumladan, Farg'onada vodiya yagona Bolalar kardiokirurgiya markazi tashkil etilib, tug'ma yurak nuqsoni bor, yuqori texnologik operatsiyaga muhtoj bolalarni zamonaviy endovaskular yo'l bilan xirurgik davolash yo'lga qo'yiladi.

Bu borada barcha davolash amaliyotlari budjet hisobidan amalga oshiriladi.

Viloyatda mingdan ziyod bemorlar buyrak yetishmovchiligi bo'yicha nazoratda turganini inobatga olib, Nefrologiya markazining filiali tashkil etiladi va buyrak transplantatsiyasi yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, gemodializ uskunalari ikki-uch barobar ko'paytiriladi. Bundan tashqari, viloyatda Hindiston bilan hamkorlikda Endokrinologiya markazi tashkil etiladi.

Davlat-xususiy sheriklik asosida viloyat ko'ptarmoqli tibbiyot markazi negizida barcha xirurgik xizmatlarni bir joyning o'zida tashkil etuvchi zamonaviy tibbiyot klasteri barpo etiladi. Umuman olganda, viloyat tibbiyot tizimi uchun faqatgina davlat budjetidan kelgusi besh yilda 5 trillion so'm ajratiladi.

Uchinchi yo'nalish – kelgusi besh yilda maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 71 foizdan 90 foizga yetkaziladi.

Buning uchun viloyatda yangi 1 ming 300 ta davlat, xususiy va uy bog'chalari tashkil etiladi, 124 ta davlat bog'chasi rekonstruksiya qilinadi.

Shuningdek, o'rta ta'lim maktablarining quvvati 100 ming o'ringa oshiriladi. Bunda, Farg'ona, Marg'ilon, Qo'qon, Quvasoy shaharlari, Furqat, Yozyovon, Oltiariq tumanlarida maktablar to'liq ta'mirdan chiqariladi.

Ushbu maqsadlar uchun budjetdan 1,5 trillion so'm ajratiladi.

Kelgusi besh yilda oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi hozirgi 23 foizdan 50 foizga yetkaziladi. Yetakchi xorijiy universitetlar bilan birga, 4 ta yangi oliygoh tashkil etiladi. Talabalarni turar joylar bilan ta'minlash maqsadida qo'shimcha 10 ming o'rinli yangi yotoqxonalar qurib bitkaziladi.

Kelgusi yildan So'xdagi yoshlar uchun oliygozlarga kirishda berilgan imtiyoz Rishtonning Cho'ng'ara, Farg'ona tumanining Shohimardon, Yordon va Hosilot mahallalari yoshlari uchun ham tatbiq etiladi.

Umuman olganda, kelgusi besh yilda Farg'ona viloyatini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish uchun davlat hisobidan 40 trillion so'm, shundan 12 trillion so'mi budjetdan ajratiladi. Shuningdek, budjetdan yiliga 800 milliard so'm subsidiyalar ham beriladi.

Agar Farg'onani korrupsiyadan xoli hududga aylantirsak, ushbu mablag'lar hisobidan yanada ko'proq ehtiyojmand aholimiz og'irini yengil qila olamiz. Shuning uchun budjet ajratmalarini ochiq-oshkora sarflash orqali iqtisod qilingan mablag'lar to'lig'icha ehtiyojmand oilalar, "ayollar" va "yoshlar" daftarlariga kirganlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi.

To'rtinchi yo'nalish – ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish, aholi daromadlarini oshirish maqsadida kelgusi besh yilda viloyatda 420 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratiladi. Tadbirkorlik,

xizmatlar va hunarmandchilikni rivojlantirish orqali 120 mingdan ziyod aholi bandligi ta'minlanadi.

Bag'dod misolida, tumanni "ishsizlik va kambag'allikdan xoli hudud"ga aylantirish bo'yicha yangi tizim qanday ishlashini tushuntirib bermoqchiman.

Ayni paytda tumanda 9,5 mingta mehnatga layoqatli aholi ish bilan ta'minlanmagan, 6 ming oila ijtimoiy yordamga muhtoj, har yili mehnat bozoriga 3 ming yoshlar kirib keladi. Tumandagi mavjud 56 ta mahallaning 6 tasi "qizil" va 41 tasi "sariq" toifaga kiradi.

Endi mahallalarda ishlarni tizimli tashkil etishga javob beradigan "hokim yordamchilari" lavozimlari joriy etiladi. Ular mahallada oilaviy tadbirkorlik uchun kreditlar berish, yangi loyihalarni qo'llab-quvvatlash, yoshlarni ishga joylashtirish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, hokim yordamchilariga o'z "budjeti" doirasida joylarda subsidiyalar berish, jamoat ishlarini tashkil etish hamda kasbga o'qitishga mablag' ajratish vakolati beriladi.

Hokim yordamchilariga amaliy yordam berish maqsadida iqtisodiy idoralar va tijorat banklari rahbarlari birlashtiriladi. Tumandagi Xalq banki va Agrobank filiallari ham "pastga tushib", hokim yordamchilari bilan birga "mahallabay" ish olib boradilar.

Avvalambor, tumanda umumiy qiymati 620 milliard so'm bo'lgan 180 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish hisobidan 2,5 mingta ish o'rinlari tashkil etiladi. Jumladan, tumanda 8 ta kichik sanoat zonalarida 90 ta loyihani amalga oshirish orqali – 1,5 mingta; mavjud korxonalar faoliyatini kengaytirish hisobidan – 3,5 mingta; qishloq xo'jaligida paxta va g'alladan qisqargan yerlarni aholiga ijaraga berish orqali – 4 mingta; 140 ta xizmat ko'rsatish shoxobchasi, 65 ta yo'l bo'yi servis obyekti, 10 ta mehmon uylari, zamonaviy megamarket qurish orqali – 1,5 mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratiladi.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan dasturga muvofiq, kelgusi besh yilda tumanda jami 20 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Buning uchun oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida tumanga har yili qariyb 50 milliard so'm imtiyozli kredit ajratiladi.

Oilaviy tadbirkorlik loyihalari hisobiga mahallalarda 4 ming nafar aholi bandligi ta'minlanadi. Jumladan, ishsizlik yuqori bo'lgan uchta mahallada kooperatsiya asosida aholini band qilish uchun yetakchi tadbirkorlarga 10 foizlik kreditlar ajratiladi. Mahallalar limon, qalampir yetishtirish, issiqxonachilik, mebelchilik va boshqa yo'nalishlarga moslashtiriladi.

Tumanning 5 ta mahallasida qandolatchilik, tikuvchilik, sartaoshlik va axborot texnologiyalari sohasiga oid kasblar bo'yicha kasb-hunarga o'qitish maskanlari tashkil etilib, 1 ming 600 ta odam o'qitiladi.

Bundan tashqari, norasmiy sektorda band bo'lgan 4 mingga yaqin aholiga ro'yxatdan o'tishga ko'maklashib, ijtimoiy imtiyozlardan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Yuqoridagi loyihalarni amalga oshirish natijasida tumanda tadbirkorlar soni uch barobar ko'payib, 4,7 mingga yetkaziladi.

Agar shu yangi tizim orqali ish samarali tashkil etilsa, kelgusi uch yilda nafaqat Bag'dodda, balki viloyatning boshqa hududlarida ham ishsiz odam va kambag'al oila bo'lmasligi shart.

Shu bilan birga, So'x tumani, Rishtonning Cho'ng'ara, Farg'ona tumanining Shohimardon, Yordon va Hosilot mahallalaridagi tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlari berilib, ularning ixtiyorida yiliga 25 milliard so'm mablag' qoladi.

Ikkinchidan, hunarmandchilik mahsulotlariga yangi bozor topish, hunarmandlar faoliyati kengayishiga sharoit yaratish orqali 20 mingta ish o'rni yaratiladi.

Masalan, Marg'ilonda mingdan ortiq xonadonda yurtdoshlarimiz adras va atlas, yog'och o'ymakorligi, do'ppi va to'n tikish, misgarlik bilan shug'ullanadi.

Rishtonning kulolchilik, Qo'qonning zargarlik mahsulotlari milliy brendga aylanib ulgurgan. Ularning bozorini kengaytirish maqsadida endi mamlakatimizning barcha davlat xizmatlari

markazlarida doimiy ishlaydigan milliy hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmalari va savdo rastalari yo'lga qo'yiladi.

Qo'qon shahrida milliy hunarmandchilik muzeyi va turizm markazi tashkil etiladi.

Taniqli hunarmandlar o'z internet saytlarini tashkil etish, mahsulotlarini jahon elektron savdo maydonchalariga chiqarishlari va reklama qilishlariga davlat ko'maklashadi. Shuningdek, viloyatda hunarmandchilikni rivojlantirish uchun 20 million dollar ajratiladi.

Uchinchidan, kelgusi besh yilda xizmat ko'rsatish hajmi 2,5 barobar oshadi va 50 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Buning uchun savdo, transport, tibbiy turizm, IT, yo'l bo'yi infratuzilmasi "drayver yo'nalishlar" sifatida belgilanadi.

O'zining ulgurji bozorlari bilan mashhur Qo'qon shahri yagona konsepsiya va zamonaviy infrastruktura asosida vodiyning "savdo va transport-logistika markazi"ga aylantiriladi. Xususan, yangi barpo etiladigan savdo-logistika markazi "Qo'qon" erkin iqtisodiy zonasi korxonalari uchun xizmat qiladi.

Viloyat hududidan o'tuvchi "Toshkent – O'sh" yo'nalishidagi A-373 magistral yo'li bo'yida 300 dan ortiq yangi savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari tashkil etiladi.

So'nggi yillarda xususiy tibbiy xizmatlar uch barobar oshganini hisobga olib, vodiy va qo'shni davlatlar aholisi uchun sifatli xizmatlar ko'rsatadigan Farg'ona tibbiyot klasteri faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Kelgusi besh yilda Rapqon, Chimyon, Qiziltepa qishloqlaridagi ma'danli suv zaxiralari atrofida 20 ta yangi sihatgoh barpo etiladi, mavjud tibbiy kurort va sanatoriylar infratuzilmasi yangilanadi.

Farg'ona shahrida yaponiyalik hamkorlar bilan birga xorijiy tillarni biladigan IT bo'yicha mutaxassislar tayyorlanib, yirik kompaniyalar uchun IT dasturlar ishlab chiqishga buyurtmalar bilan ta'minlanadi.

Beshinchi yo'nalish – kelgusi besh yilda viloyatda 8 milliard dollarlik 11 mingdan ziyod investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Bunda sanoat yo'nalishida qiymati 5,7 milliard dollarlik 2 ming

600 dan ziyod loyihalar hisobidan 115 mingta yangi ish o'rni yaratiladi. Bu borada, avvalo, investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha "pastdan-yuqoriga" tamoyili asosida, yangi tizim yo'lga qo'yiladi.

Har bir tumanda istiqbolli loyihalarni ishlab chiquvchi "Loyiha guruhi" hamda To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi ish-tirokidagi "Xolding kompaniya" tashkil etiladi.

Masalan, kuni kecha Farg'ona shahrida birinchi bunday xolding kompaniya faoliyatini boshladi.

Viloyatning har bir tumani sanoat tarmoqlariga ixtisoslashtiriladi. Xususan, O'zbekiston tumanida – qurilish materiallari, Qo'sh-tepada – to'qimachilik, Uchko'prikda – elektrotexnika, Qo'qonda – charm-poyabzal, Farg'ona tumanida – oziq-ovqat, Bag'dodda – mebel va qog'oz sanoati, Buvaydada – temirchilik, Farg'ona shahrida – neft-kimyano sanoati keskin rivojlantiriladi.

Har bir tumanning salohiyatidan kelib chiqib, yetakchi tarmoqlarga ixtisoslashgan sanoat zonalari va kasbga o'qitish markazlari negizida sanoat maktablari tashkil etiladi. Jumladan, viloyatning lokomotiv sohasi hisoblangan neft va kimyano sanoatida jami 1,5 milliard dollarlik investitsiyalar hisobiga 93 ta loyiha amalga oshirilib, 3 mingta yangi ish o'rni tashkil etiladi.

Misol uchun, "Farg'ona azot"da qiymati 571 million dollarlik 4 ta yirik loyihani o'z ichiga oluvchi "kimyano klasteri" tashkil etilishi natijasida, yiliga 150 million dollarlik import o'rnini bosadigan 180 million dollarlik eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yiladi.

Yana bir "drayver" – to'qimachilik sanoatida besh yilda 1,1 milliard dollarlik investitsiya o'zlashtirilib, Qo'sh-tepa, Toshloq, Qo'qon, Farg'ona va Beshariq tumanlarida 1 ming 127 ta loyiha ishga tushirilib, 45 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Masalan, Toshloq tumanida "Posko Interneyshenl Tekstil", Qo'sh-tepada "Farg'ona Global Tekstil", Quvada "Quva Tekstil", Rishtonda "Rus-O'zbekteks", O'zbekiston tumanida

“Bulut Tekstil” korxonalari tomonidan umumiy qiymati 120 million dollarlik loyihalar amalga oshirilib, yiliga qo‘shimcha 200 million dollarlik eksport imkoniyatlari yaratiladi.

Qurilish materiallari sanoatida O‘zbekiston, Beshariq, Uchko‘p-rik tumanlari va Quvasoy shahrida 808 million dollarlik 508 ta loyiha amalga oshirilib, 13 mingta doimiy ish o‘rni tashkil etiladi.

Misol uchun, O‘zbekiston tumanida “Farg‘ona Vest Interneshnl sement” qo‘shma korxonasi tomonidan qiymati 250 million dollar bo‘lgan sement ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilib, yiliga 70 million dollarlik import o‘rni bosadigan yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Shuningdek, charm-poyabzal sanoatida 252 million dollarlik 198 ta loyiha amalga oshirilib, 15 mingta yangi ish o‘rni tashkil etiladi.

Eng muhimi – tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish uchun avval import qilingan xomashyo va yarim tayyor mahsulotlarni mahalliyashtirish ham yo‘lga qo‘yiladi.

Masalan, Qo‘qon shahrida “Staffing Servis” MCHJ tomonidan qiymati 13 million dollarlik investitsiya hisobidan quvvati 35 ming tonna poyabzal yelimi hamda 45 ming tonna poliyol suyuqligi ishlab chiqarish loyihasi ishga tushiriladi.

Sanoati past rivojlangan Yozyovon, So‘x, Furqat tumanlarining har birida 10 gektardan kam bo‘lmagan maydonda “texnopark”lar tashkil etilib, 300 ta sanoat loyihalari joylashtiriladi va 6 mingta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Beshariq tumanida “Qo‘qon erkin iqtisodiy zona”si uchun “Savdo logistika markazi” faoliyati yo‘lga qo‘yilib, unda alohida soliq, bojxona va huquqiy rejim joriy etiladi.

Shu bilan birga, umumiy qiymati 1,7 milliard dollar bo‘lgan 18 ta megaloyihalar hisobidan 8,3 mingta yangi ish o‘rinlari tashkil etiladi. Jumladan, Farg‘ona tumanida 400 gektar maydonda qiymati 80 million dollarlik yiliga 100 megavatt elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega yangi fotoelektr stansiyasi ishga tushiriladi.

Natijada 600 ming nafar aholi va 2,5 mingdan ziyod korxonalar uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlanadi.

Kelgusi besh yilda viloyat eksporti uch barobar ortib, 2 milliard dollarga, shundan sanoat mahsulotlari eksporti 1,6 milliard dollarga yetkaziladi. Bunda eksport tarkibida qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ulushi 45 foizdan 77 foizga yetkaziladi.

Qo'shni davlatlar bilan chegaradosh Beshariq va Rishton tumanlarida bo'jxona chegara nazorat postlari yaqinida "erkin savdo maydonlari" tashkil qilinadi. Ushbu hududlarda mahalliy eksportchilar va xorijiy xaridorlar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqa o'rnatilib, eksportchilarga mahsulotlarni qulay va vositachisiz sotish imkoniyati yaratiladi.

Yevropa bozorlariga kirish uchun qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlariga "Farg'ona brendi"ni joriy etamiz. Bunda Yevropa bozori talablariga javob beradigan asbob va uskunalar import qilinganda imtiyozli kreditlar bilan birgalikda, yer ajratishda ham alohida yengilliklar taqdim etiladi.

Yaponiya, Janubiy Koreya, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi olis davlatlarga meva-sabzavot mahsulotlarini aviatransport orqali tashishda amalda taqdim etilayotgan kompensatsiya miqdori oshiriladi.

2026-yilga borib, viloyatda eksportchi korxonalar soni o'n barobar ko'payib, 5 mingtaga yetadi.

Oltinchi yo'nalish – qishloq xo'jaligini rivojlantirish orqali 140 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratiladi.

Birinchidan, viloyatda 12 ming 600 gektar ekin maydonlarini aholiga 10 dan 50 sotixgacha ochiq tanlov asosida, uzoq muddatga ijaraga berish orqali 50 mingdan ortiq ish o'rni yaratiladi.

Shuningdek, foydalanishdan chiqib ketgan 25 ming gektar maydon o'zlashtirilib, meva-sabzavotchilik va chorvachilik uchun tanlov asosida ajratib beriladi. Bu 20 ming aholini band qilish imkonini beradi.

Masalan, Beshariq, O'zbekiston, Farg'ona tumanlari va Quvasoy shahrining har birida 3 ming gektargacha qo'shimcha yer maydonlari foydalanishga kiritiladi.

Ikkinchidan, har bir hududning qishloq xo'jaligida "drayver"i bo'lgan sohalarni rivojlantirish bo'yicha alohida dastur qabul qilinadi.

Xususan, Uchko'prik, Beshariq, O'zbekiston, Farg'ona, Rishton, Quva, Oltiariq va Qo'shtepa tumanlari hamda Quvasoy shahrida 20 ming gektar maydonda intensiv bog' va tokzorlar barpo etish hisobidan 15 ming ish o'rni yaratiladi.

Misol uchun, Rishtonda ming gektar, So'xda 1 ming 400 gektarda pista, bodom, yong'oq, Quva tumani va Quvasoy shahrida 3 ming gektarda gilos plantatsiyalari tashkil qilinadi. Qo'shtepa, Farg'ona, Oltiariq tumanlarida 9 ming gektarda xo'raki va sanoatbop tokzorlar barpo etiladi.

Farg'ona shahar aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida shahar hududidagi 1,5 ming gektar g'alla maydoni kooperatsiya asosida sabzavot yetishtirishga ixtisoslashtiriladi.

Farg'ona tumanida 600 gektar maydonda klaster usulida serdaromad bo'lgan malina o'simligini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish yo'lga qo'yiladi. Bag'dod, Dang'ara, Yozyovon, Toshloq, O'zbekiston tumanlarida ming gektar dasht va cho'l yerlarida zamonaviy issiqxonalar ishga tushiriladi.

Bundan tashqari, 300 million dollarlik investitsiya hisobidan 25 ta meva-sabzavotchilik klasteri tashkil etilib, mahsulotni qayta ishlash va eksport qilish hajmini 1,5 barobar oshirish va 30 mingta qo'shimcha ish o'rni yaratish choralari ko'riladi.

Oltiariq tumanining uzumchilik, bog'dorchilik va meva-sabzavotchilikdagi tajribasini inobatga olib, Agrar universitetining "Bog'dorchilik va uzumchilik" fakulteti tashkil etiladi.

Uchinchidan, 400 ga yaqin tik quduqlarni qazish natijasida 37 mingta xonadonning suv ta'minoti yaxshilanib, tomorqada ekin ekish imkoniyati yaratiladi.

Xususan, quduq qazish hisobidan Buvaydaning “Buyuk ipak yo‘li” mahallasida 427 ta, Bag‘dodning “Dasht” mahallasida 425 ta, Farg‘ona tumanining “Novkent” mahallasida 415 ta, Uchko‘priking “Oqsuv” mahallasida 382 ta xonadonga suv yetkazib beriladi.

Shuningdek, Bandlik jamg‘armasidan 25 milliard so‘m ajratilib, 20 ming xonadonda kichik hajmdagi issiqxonalar qurib beriladi.

“Tomorqa xizmati” korxonalari soni 23 tadan 68 taga yetkaziladi va aholi tomorqalariga 12 tadan ortiq xizmatlarni ko‘rsatish yo‘lga qo‘yiladi. Buning uchun Fermerlar kengashi jamg‘armasidan 80 milliard so‘m ajratiladi.

To‘rtinchidan, viloyatda chorva mollari ozuqa zaxirasi uchun foydalanishga kiritiladigan yerlar hisobidan 7 ming gektar maydon yem-xashak yetishtirish uchun ajratiladi.

Shuningdek, Yozyovon va Bag‘dod tumanlarida hosildorlikni oshirish natijasida 3 ming gektar past rentabelli paxta va g‘alla maydonlari chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik uchun beriladi.

Bundan tashqari, har bir tumanda yiliga 2 mingta xonadonga 200 boshdan parranda tarqatilib, alohida mahallalar parrandachilikka ixtisoslashtiriladi.

“Yozyovon suv ombori” atrofidagi 2 ming gektar yer maydonidagi qum-barxanlar o‘rnida suv havzalari tashkil qilinib, baliq yetishtirish yo‘lga qo‘yiladi.

Beshinchidan, 83 ming gektar maydonning suv ta‘minoti va 84 ming gektarning meliorativ holatini yaxshilash, 125 ming gektarda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha alohida dastur amalga oshiriladi.

Masalan, ushbu dastur doirasida So‘x tumanida ikki bosqichli “Qayroq” nasos stansiyasini qurish ishlari kelgusi yilda yakunlanadi. Natijada, qo‘shimcha 1 ming 700 gektar yangi yerlar foydalanishga kiritiladi va bu yerlar ham So‘x aholisiga tanlov asosida bo‘lib beriladi.

Bundan tashqari, kelgusi besh yilda suv ta'minotini yaxshilashga xalqaro moliya institutlaridan 172 million dollar jalb etiladi.

Yettinchi yo'nalish – farg'onaliklarning san'atsevar xalq, bu zaminni haqiqiy iste'dodlar yurti ekanini inobatga olib, madaniyat sohasiga ham alohida e'tibor qaratamiz.

Men so'zimning boshida bu borada amalga oshiriladigan katta-katta loyihalarga batafsil to'xtalib o'tdim.

Ana shu ishlarga qo'shimcha ravishda kelgusi besh yilda 10 ta madaniyat obyektida 87 milliard so'mlik qurilish va rekonstruksiya ishlari olib boriladi.

Hurmatli do'stlar!

Ulug' mutafakkir Abdurauf Fitratning: **"Bu dunyo kurash maydonidir. Bu kurashning quroli sog'lom jism-u tan, o'tkir aql va yaxshi axloqdir"**, degan so'zlarida chuqur ma'no bor.

Farzandlarimizning sog'lom va barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi mening kelgusi faoliyatimda eng muhim masala bo'lib qoladi.

O'zbekistonda yashayotgan har bir o'g'il-qiz davlatimiz va jamiyatimizning e'tibori va amaliy g'amxo'rligidan chetda qolmaydi.

Mana, bugun davramizda Farg'onaning ana shunday navqiron yoshlari ishtirok etmoqda. Men bugun mana shunday azm-u shijoatli o'g'il-qizlarimga murojaat qilmoqchiman:

Siz, aziz yoshlar bugun oldingizda ulkan imkoniyatlar ochilayotgan yangi davrda – yangi O'zbekistonda yashamoqdasiz.

Yoshlik g'ayratingiz, aql-zakovatingizni ishga solib, yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanib mehnat qilsangiz, men ishonaman, marra albatta sizniki, kelajak sizniki bo'ladi!

Qadrli yurtdoshlar!

Biz Farg'onani "oltin vodi" deb atar ekanmiz, asosan uning go'zal tabiatini, saxovatli zaminini o'zimizga tasavvur etamiz.

Lekin, men o'ylaymanki, bu diyorda yashayotgan odamlarning qadr-qimmatini, izzat-hurmatini joyiga qo'ysak, ularning hayotini har

tomonlarni obod va farovon qilishga erisha olsak, shundagina bu chiroyli ta'rifga munosib ish qilgan bo'lamiz.

Biz barchamiz birgalikda, ahil va hamjihat bo'lib, bir yoqadan bosh chiqarib mehnat qilsak, Xudo xohlasa, mana shunday orzu-maqсадlarimizga albatta yetamiz.

Nafaqat Farg'ona, balki butun O'zbekistonimiz tom ma'nodagi "oltin diyor"ga aylanadi.

Mana shunday yuksak va sharafli yo'lda men barchangizga kuch-g'ayrat, omad va muvaffaqiyatlar tilayman.

Hech qachon charchamang!

Oilalaringizga baxt-u saodat, farovonlik yor bo'lsin.

Doimo sog'-omon bo'ling!

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Bag'dod tumani,
2021-yil 28-sentabr*

**ANDIJON O‘ZBEKISTONNING
YUKSAK O‘SISH NUQTASI
BO‘LISHIGA ISHONAMAN**

*(Andijon viloyati saylovchilar vakillari
bilan uchrashuvdagi nutq)*

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

Hurmatli saylovchilar!

Avvalambor, mana shu go'zal va tabarruk zaminda men uchun qadrdon bo'lgan Andijon viloyati vakillari bilan diydor ko'rishib turganimdan xursandman.

Ma'lumki, bugun siz, azizlar bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi munosabati bilan uchrashib turibmiz. Bu saylov barchamiz, butun el-yurtimiz uchun Yangi O'zbekistonni bunyod etishdek yuksak maqsadni ro'yobga chiqarishda burilish pallasi bo'ladi.

Hamisha zamon bilan hamnafas bo'lib, o'z oldiga katta maqsadlar qo'yib yashaydigan Andijon ahli ham ushbu siyosiy jarayonda faol bo'lib, kelajak uchun mas'uliyatni chuqur his qilib ovoz beradi, deb ishonaman.

Qadrli yurtdoshlar!

Andijon to'g'risida ko'p gapirish mumkin, lekin eng lo'nda gap shuki, O'zbekistonning 1 foiz yerida 10 foiz aholisi yashaydi.

Mana shu jiddiy muammoni hal qilish, viloyat xalqiga munosib sharoit yaratish uchun sizlar bilan maslahatlashib, 4 ming gektar maydonda, 130 mingdan ziyod oila yoki 450 ming aholi uchun mo'ljallangan "Yangi Andijon" shahrini bunyod etayotganimizdan barchangiz xabardorsiz.

Andijonda yashashning o'zi odamdan doimiy harakatni, yangilikka intilishni, tadbirkorlikni talab qiladi. Xalqimizning "Izlagan imkon topadi" degan dono hikmati ham, nazarimda, xuddiki sizlar haqingizda aytilganday.

Men Andijon elidagi azm-u shijoat, omilkorlik va mirishkorlikni, taraqqiyotga, yangilikka intilishni ko'rganimda, beixtiyor, o'tgan asr

boshida Andijonda yashab o'tgan Mirkomil Mirmo'minboyevning nomi esimga tushadi.

O'z zamonasining mashhur tadbirkori bo'lgan bu inson ulkan sarmoya egasi bo'lgani, paxtachilik, dehqonchilik, savdo-sotiq sohalarida katta yutuqlarga erishgani, yirik zavod va fabrikalar, banklar, Rossiya va Yevropa mamlakatlarida magazinlar ochganini andijonlik yoshi ulug' oqsoqollar yaxshi bilishadi.

Mirkomilboy xayr-saxovat borasida ham boshqalarga o'nak bo'lgan. O'z hisobidan maktab va madrasalar, masjid, shifoxona, hammomlar qurish, bog' va xiyobonlar tashkil etishga xayriyalar ajratgan. Muhtojlarga yordam qo'lini cho'zgan.

Turkistonda xorijdan avtomashina xarid qilgan birinchi mahalliy xalq vakili ham shu kishi bo'lgan. Bu inson hatto Andijon shahrini qayta qurish, bu yerda tramvay harakatini yo'lga qo'yishga harakat qilgani tarixiy manbalardan yaxshi ma'lum.

Afsuski, mana shunday tadbirkor va saxovatli inson mudhish davrning qurboni bo'lgan. Uning bor mulki, davlati va sarmoyasi bolsheviklar tomonidan tortib olingan. Nihoyatda uddaburro, keng fikrlaydigan, ishning ko'zini biladigan bu insonning qayg'uli qismati istiqbolimizni qadrlashga, bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlardan yanada samarali foydalanishga da'vat etadi.

Mana shunday ishbilarmon ajdodlari bo'lgan Andijon ahli respublikamizda hamma sohalarda yetakchilar qatorida bo'lib kelmoqda. Buning uchun, Andijon xalqiga har qancha rahmat ayt-sak, arziydi.

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

Hammamiz yaxshi bilamiz, Andijon viloyati ko'plab ulug' insonlarga beshik bo'lgan barakali zamin. Qaysi davr yoki qay bir sohani olmaylik, bu diyordan yuzlab mashhur shaxslar – yirik davlat va jamoat arboblari, atoqli olim-u ulamolar, adib va shoirlar, dehqon va fermerlar, ishbilarmon kishilar, taniqli shifokor va pedagoglar, sport yulduzlari yetishib chiqqanini ko'ramiz.

Ular shu qadar ko'pki, nomlarini shunchaki sanab o'tishning o'zi ham juda ko'p vaqtni oladi. Bugun vaqtimiz tig'izligi uchun ba'zi bir nomlarni aytishga ulgurmasam, oldindan uzr so'rayman.

Samarali mehnati va ibratli faoliyati bilan el-yurt hurmatini qozonib, viloyatning bugungi taraqqiyoti, uning shon-shuhrati va obro'siga munosib hissa qo'shib kelayotgan:

Zokirjon Mashrabov, Qobiljon Obidov, Otaxon Alamatov, Nazirjon Saidov, O'ktamjon Oxunov, Hasanboy Qosimov, G'ulomqodir Mamatqodirov, Hamidulla Xalilov, Tursunboy Rustamov kabi hurmatli faxriylarimiz;

Sirojiddin Zaynobiddinov, Abdulla A'zamov, Shuhrat Egamberdiyev, Oybek Yoqubjonov, Rustambek Shamsutdinov, Ibrohimjon Asqarov, Dilmurod Quronov, Ravshan Siddiqov kabi atoqli olimlarimiz;

Shukurjon Mamatqulov, Kamoliddin G'afurov, Ravshanoy Qodirova singari jonkuyar muallimlar;

Muhammad Ali Ahmedov, Qamchibek Kenja, Abduxalil Qoraboyev, Munavvara Usmonova, Zamira Xo'jamberdiyeva, Habib Siddiq, Farid Usmon, Nabi Jaloliddin, Humoyun Akbarov, Xurshida Qo'chqorova, Yulduz O'rmonova kabi iste'dodli shoir va adiblarimiz;

Munojot Yo'lchiyeva, Sherali Jo'rayev, Erkin Komilov, Nuriddin Hamroqulov, Isroiljon Vahobov, Ozodbek Nazarbekov, Habibulla Yunusov, Sanobar Rahmonova, Ravshan Hojiqulov, Sevara Nazarxon, Furqat Ashuraliyev, Elmurod Ahmedov kabi el sevgan san'atkorlar;

Rasuljon Karimov, Rahmatjon Toshpo'latov, Visola Asadullayeva, Muslima Mirzayeva, Nilufar Yo'ldosheva, Abdulaziz Yoqubov, Otabek Abdullayev kabi dastlabki yutuqlari bilan hammamizni quvontirayotgan faol yoshlarimiz nomlarini hurmat bilan tilga olamiz.

Andijon zaminida yashab o'tgan, o'zidan yaxshi nom qoldirgan mashhur ilm-fan, san'at va madaniyat, adabiyot namoyandalarning o'lmas merosi viloyat ahlining bugungi ulkan yutuqlari uchun mustahkam zamin bo'layotgani shubhasiz.

Shu sababli bo'lajak Yangi Andijon shahri markazida "Ma'naviyat xiyoboni" tashkil etib, ularning xotirasiga bag'ishlab yodgorlik o'rnatib, nima deysizlar?

Ana shunday betakror shaxslardan biri – O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi Toshmuhammad Sarimsoqovning nomini barchamiz yaxshi bilamiz.

Toshmuhammad domla topologiya va funksional analiz bo'yicha Toshkent ilmiy maktabining asoschisi, yuzlab shogirdlarning ustozlari edilar. Xalqimiz u kishining hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Oliy ta'lim vazirligida rahbar lavozimlarida respublikamiz taraqqiyoti yo'lida ulkan xizmatlar qilganini hech qachon unutmaydi.

Fidoyi olimning ilmiy merosini chuqur o'rganish va xotirasini abadiylashtirish maqsadida, jurnladan, "Sarimsoqov o'qishlari"ni yo'lga qo'ysak, Andijon davlat universitetining iqtidorli talabalari uchun olim nomidagi stipendiyalar tashkil etsak, olim xotirasiga atab, u kishi tug'ilgan Shahrixon tumanida Toshmuhammad Sarimsoqov nomidagi aniq fanlarga ixtisoslashgan maktab barpo etsak va yodgorlik o'rnatib, o'ylaymanki, har tomonlama adolatli ish bo'ladi.

Ma'lumki, Andijon – kuragi yerga tegmagan polvonlar, butun dunyoga tanilgan mohir sportchilar yurtidir. Ayniqsa, Andijon boks maktabining yorqin vakillari bo'lgan Muhammadqodir Abdullayev, Hasanboy Do'stmatov, Iqboljon Xoldorov, Jasurbek Latipov, og'ir atletika bo'yicha Olimpiada chempioni va rekordchisi Ruslan Nuriddinov singari o'nlab mashhur sportchilar, Mars Qo'chqorov, Aleksandr Razmaxov, Valentin Zolotaryov kabi yuksak malakali murabbiylarning nomlari hammamizga yaxshi tanish.

Viloyatda shakllangan shonli an'analarni yanada rivojlantirish maqsadida Andijon boks akademiyasini tashkil etsak, ayni muddao bo'ladi.

Bu akademiya – men bunga ishonaman – yurtimizni boks bo'yicha chempionlar mamlakatiga aylantirishga katta hissa qo'shadi.

Hurmatli uchrashuv qatnashchilari!

Shu kunlarda barchamiz mamlakatimiz hayotidagi qutlug' sana – O'qituvchi va murabbiylar umumxalq bayramini keng nishonlash uchun katta tayyorgarlik ko'rmoqdamiz.

Bugungi imkoniyatdan foydalanib, dunyodagi eng sharafli va oliyjanob kasb egalari bo'lgan muhtaram ustoz va murabbiylar, domlalarimizni chin qalbidan tabriklab, ularning barchasiga sihat-salomatlik, yangi yutuq va muvaffaqiyatlar tilayman.

Sizlarga yaxshi ma'lumki, hozirgi vaqtda biz ta'lim sohasida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Xususan, ta'lim tizimining mazmun-mohiyatini zamon talablari asosida o'zgartirish, o'quv muassasalarining moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, pedagog xodimlarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim dasturlar hayotga izchil joriy etilmoqda.

Aziz ustoz va murabbiylarimizning jamiyatdagi nufuzi va obro'-e'tiborini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini har tomonlama rag'batlantirish maqsadida sohaning munosib vakillari yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlanmoqda.

Shu borada olib borayotgan ishlarimizni davom ettirish maqsadida, "Yilning eng yaxshi o'qituvchisi" ko'rik-tanlovining g'oliblari, faxriy unvon, orden va medallar bilan taqdirlangan muallimlar, professor-o'qituvchilarning mehnat faoliyatiga bag'ishlab, har yili "Ustozlarga ehtirom" degan nom bilan alohida kitoblar nashr etib, ularni barcha maktab, litsey va kollejlarda, oliy ta'lim muassasalariga, mahallalarga yetkazib berishni yo'lga qo'ysak, o'ylaymanki, bu ishimiz pedagoglar mehnatini munosib qadrlash, yosh yigit-qizlarning ta'lim-tarbiya sohasiga, o'qituvchi va muallimlar

limlik kasbiga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga xizmat qilgan bo'lur edi.

Qadrli do'stlar!

Keyingi yillarda amalga oshirgan islohotlarimiz va ularning samarasi barchamizning, butun xalqimizning ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'lib turibdi. Shu sababli, ularga birma-bir to'xtalib o'tirish shart emas, deb o'ylayman. Biz erishgan barcha yutuqlarning bahosi, ahamiyati va qimmati, avvalo, kundalik hayotimizda ro'y bergan o'zgarishlar bilan o'lchanadi, desam to'g'ri bo'ladi.

Bugun shuni qat'iy ishonch bilan aytish mumkinki, yurtimizda boshlangan islohotlar ortga qaytmas tus oldi. Eng asosiysi, yurtimizda yashayotgan odamlar, ularning tafakkuri, hayotga, atrofda yuz berayotgan barcha voqealarga munosabati o'zgardi.

Bilasizlar, dunyoqarash o'zgarmas ekan, turmush ham, sharoit ham o'zgarmaydi.

Bugun xalqimiz islohotlarga ishonch bilan qarayapti.

Odamlarni rozi qilish – oson ish emas. Shu bois, biz fuqarolarimizga munosib turmush sharoitini yaratish, inson qadr-qimmati va hayotiy manfaatlarini ta'minlash uchun yangi reja va dasturlarni amalga oshirishimiz zarur.

Bu borada biz Andijonda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan dolzarb muammolarni, viloyat rivojiga kuchli turtki bera oladigan mavjud rezerv va imkoniyatlarni har tomonlama o'rgandik.

Bir narsani aniq tushunish zarur. Inson qadrini ulug'lash, uning hayotiy manfaatlarini ta'minlash uchun eng avvalo, odamlarimizning salomatligi va yashash sharoitini yaxshilashimiz kerak. Shundagina, islohotlarimiz amaliy natija berib, har bir fuqaro buni o'z hayotida his qiladi.

Andijon viloyatida ham bu masalalar alohida e'tibor talab qiladigan, eng dolzarb vazifalardan biridir.

Misol uchun, sog'liqni saqlash sohasini oladigan bo'lsak, viloyat aholisining 56 foizida ortiqcha vazn, 46 foizida me'yordan ortiq xolesterin va 31 foizida yuqori arterial qon bosimi mavjud.

Oqibatda, 480 ming nafar yoki viloyatdagi 40 yoshdan oshgan aholining yarmida yurak-qon tomir, gipertoniya, qandli diabet kabi kasalliklar bor. Aholining oʻrtacha umr koʻrish darajasi nisbatan past.

Viloyatda 29 ta oilaviy shifokor punkti, 20 ta oilaviy poliklinika, 10 ta shifoxona taʼmirtalab ahvolda. Tibbiyotning birlamchi boʻgʻinida quvvatlar yetishmaydi.

Misol uchun, Andijon shahridagi 1-oilaviy poliklinikaga 82 ming nafar aholi toʻgʻri keladi.

Shu bilan birga, har bir qarich yeri oltinga teng boʻlgan Andijon sharoitida 20 mingdan ziyod oila uy-joyga muhtoj.

Yiliga 30 mingdan ortiq yangi oilalar tuzilayotganini inobatga olsak, ushbu ehtiyoj yanada oshib borishi ayon boʻladi. Shuningdek, 304 ta mahallaning suv taʼminoti yaxshi emas, 4,5 ming kilometr yoki 40 foiz ichki yoʻllar taʼmirtalab ahvolda.

Yana bir dolzarb muammo aholi bandligi hisoblanadi. Viloyatda 141 ming nafar aholi ishsiz, 123 ming oila daromad manbaiga ega emas. Kelgusi besh yilda mehnat bozoriga 260 mingdan ziyod yoshlar kirib keladi. Bu ham yangi ish oʻrinlariga boʻlgan talabni yanada kuchaytirmoqda.

Shulardan kelib chiqib, biz viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi hayotini yaxshilashga qaratilgan besh yillik dasturni tayyorladik.

Bunda “barcha islohotlarimiz inson qadr-qimmatini oshirish uchun” tamoyilini roʻyobga chiqarish maqsadida quyidagi ustuvor yoʻnalish va vazifalarga alohida eʼtibor qaratamiz.

Birinchi yoʻnalish – odamlarimizning sogʻligʻini asrash va mustahkamlash, sogʻlom turmush tarziga amal qilib yashash boʻyicha Andijonni namunaviy hududga aylantiramiz. Buning uchun, avvalambor, birlamchi tibbiyot boʻgʻinida aholiga xizmat koʻrsatishni tubdan yaxshilash choralari koʻriladi. Xususan, kelgusi ikki yilda shahar va tumanlarda 11 ta yangi oilaviy poliklinika va 29 ta mahallada oilaviy shifokorlik punkti tashkil etiladi.

Viloyatning barcha tibbiyot muassasalari to'liq ta'mirlanib, ular zamonaviy jihozlar bilan ta'minlanadi. Kelgusi besh yilda barcha tumanlarda tez tibbiy yordam mashinalari yangilanadi, jumladan, yangi reanimobillar olib kelinadi.

Salomatligi bo'yicha yuqori xavf guruhiga kiradigan 600 ming aholi skrining ko'rigidan o'tkaziladi, qon bosimi va diabetni davolash uchun zarur dorilar bepul beriladi.

Buyrak xastaliklarini erta aniqlash uchun "tibbiyot brigadalari" e..spress-testlar bilan ta'minlanadi. Onkologik kasalliklarni barvaqt aniqlash uchun 45 yoshdan oshgan 400 ming ayol har yili tekshiruvdan o'tkaziladi. Paxtaobod, Qo'rg'ontepa, Shahrixon va Baliqchi tumanlarida perinatal markazlar tashkil etiladi. Shuningdek, har yili 900 ming nafar bolalar va homilador ayollar 7 turdagi vitaminlar bilan bepul ta'minlanadi.

Tumanlar tibbiyot birlashmalarining xirurgiya bo'limlari zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlanadi. Andijon va Xonobod shaharlari, Asaka, Baliqchi, Jalaquduq, Marhamat, Ulug'nor, Paxtaoboddagi shifoxonalar laparoskop bilan ta'minlanadi. Natijada, yiliga 20 mingdan ziyod aholi uchun oshqozon-ichak, jigar va o't pufagidagi jarrohlik operatsiyalari kaminvaziv yo'l bilan tumanlarning o'zida amalga oshiriladi.

Qo'rg'ontepa va Shahrixonda jarohatlar va o'tkir qon-tomir kasalliklari markazlari tashkil qilinadi hamda gemodializ xizmati yo'lga qo'yiladi.

Yana bir muhim masala – viloyatda eksperiment tariqasida 170 ta birlamchi bo'g'in tibbiyot muassasalarida alohida hamshiralik qabul punktlari tashkil etiladi.

Endi hamshiralarga 12 ta eng ko'p uchraydigan kasalliklar bo'yicha bemorlarni birlamchi tekshiruv va skriningdan o'tkazish va dastlabki tashxis qo'yish vakolati beriladi.

Ushbu yangi tizim bo'yicha kelgusi yilda 700 nafar hamshira maxsus kurslarda o'qitilishi natijasida bemorlarni qabul qilish

navbati qisqarib, shifokor tomonidan bemorga ajratiladigan vaqt ikki barobar oshadi.

Shuningdek, viloyatda aholiga yuqori texnologik tibbiy xizmat ko'rsatish ko'lamini keskin kengaytiramiz. Jumladan, murakkab operatsiyaga muhtoj 1 ming 100 nafar tug'ma yurak nuqsoni bor bolalarni bepul davolash tashkil etilib, buning uchun budjetdan 30 milliard so'm ajratiladi.

Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasi to'liq rekonstruksiya qilinib, uning negizida vodiy aholisi uchun kardiologiya, neyroxirurgiya, ko'z kasalliklari va urologiya yo'nalishlari bo'yicha yiliga 7 mingta murakkab operatsiya o'tkazadigan "tibbiyot markazi" tashkil etiladi.

Shuningdek, xususiy tibbiyot muassasalari soni mingtaga yetkaziladi. Bunda, xorijiy hamkorlar bilan ikkita ko'p tarmoqli zamonaviy klinika barpo etiladi. Shu tariqa Andijon vodiy va qo'shni davlatlar aholisi uchun tibbiy turizm markaziga aylantiriladi.

Umuman, Andijonda tibbiyotni rivojlantirish uchun kelgusi besh yilda davlat tomonidan 1,5 trillion so'm mablag' yo'naltiriladi.

Ikkinchi yo'nalish – aholiga munosib yashash sharoitini yaratish, infratuzilma bilan bog'liq masalalarni hal etish.

Buning uchun, avvalo, kelgusi besh yilda 21 ming xonadonli ko'p qavatli uylar quriladi. Shundan ikki mingtasi ehtiyojmand oilalarga ajratilib, ularga ipoteka krediti bo'yicha subsidiya beriladi.

Hammangiz xabardorsiz, shu yil iyun oyida yaxshi niyat bilan "Yangi Andijon" shahriga tamal toshini qo'ydik.

Ushbu yirik loyihaning birinchi bosqichida 192 ta ko'p qavatli uy qurilib, besh mingdan ziyod oila o'z boshpanasiga ega bo'ladi.

Andijon va Yangi Andijon shaharlarini bog'lovchi 16 kilometrlik tezyurar avtobus yo'nalishi tashkil etiladi. Shuningdek, viloyatda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida har yili kamida 30 ta qishloq va mahalla obodonlashtiriladi va ijtimoiy obyektlar ta'mirlanadi. Shu maqsadda har yili qariyb 500 milliard so'm yo'naltiriladi.

Markazlashgan ichimlik suvi ta'minoti darajasi 82 foizdan 90 foizga yetkaziladi. Buning uchun kelgusi besh yilda 5 ming 700 kilometr ichimlik suvi va 813 kilometr kanalizatsiya tarmoqlari, mingdan ziyod suv inshootlari quriladi va rekonstruksiya qilinadi. Ana shunday ishlar hisobidan viloyatda bir million aholining toza ichimlik suvi ta'minoti yaxshilanadi. Bu maqsadlar uchun 6 trillion so'm ajratiladi.

Viloyatda 5 ming kilometr elektr tarmoqlari, 22 ta podstantsiya, ikki mingta transformator quriladi, mavjudlarini rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari bajariladi. Natijada 350 mingdan ziyod aholi xonadonlari hamda 8,5 mingta ijtimoiy soha va tadbirkorlik obyektlarining elektr ta'minoti barqarorlashadi.

Kelgusi besh yilda 4,5 ming kilometr ichki yo'llar, 286 ta ko'priklarni qurish va ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi. Buning uchun 3 trillion so'mdan ziyod mablag' yo'naltiriladi.

"Andijon–Xonobod" temir yo'li elektrlashtiriladi va shaharlararo yo'lovchi poyezdlar yo'lga qo'yiladi. Andijon aeroporti rekonstruksiya qilinib, aviaqatnovlar soni kamida besh barobar ko'paytiriladi. Viloyatda 79 ta yangi avtobus yo'nalishlari ochilib, 531 ta mahalla jamoat transporti qatnovi bilan qamrab olinadi.

Uchinchi yo'nalish – kelgusi besh yilda 420 mingta yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Avvalo, tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish orqali 170 mingta yangi ish o'rni ochiladi.

Bu ishlarni moliyaviy ta'minlash uchun viloyatga har yili oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 830 milliard so'm imtiyozli kredit resurslari ajratamiz.

Xabaringiz bor, 214 ta sharoiti og'ir mahallada aholi bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish bo'yicha yangi yondashuvlar asosida "Andijon tajribasi"ni boshladik. Buning uchun 40 million dollar ajratdik.

Qisqa muddat ichida ushbu tajriba o'z natijalarini berdi. Jumladan, besh ming fuqaro o'z biznesini boshladi, ikki ming ishsiz

aholi doimiy ish bilan ta'minlandi. Yetakchi tadbirkorlar bilan kooperatsiya asosida 11 ming fuqaro daromad manbaiga ega bo'ldi.

Misol uchun, Shahrixonning "Oq oltin" mahallasida tadbirkor tomonidan 107 ta xonadonga 500 boshdan jo'ja tarqatilib, har oyda ulardan 160 tonna go'sht mahsulotlari sotib olinmoqda. Shu orqali, bir xonadon oyiga o'rtacha 4 million so'mgacha daromad ko'rimoqda.

Endi bu ishlarni yangi bosqichda davom ettirishni Paxtaobod misolida ko'rsatib o'tmoqchiman.

Bugungi kunda Paxtaobodda 9 ming nafar mehnatga layoqatli aholi ishsiz, 3 mingta oila kambag'allik ro'yxatiga kiritilgan. Bundan tashqari, kelgusi besh yilda yana 14,5 ming nafar bitiruvchi mehnat bozoriga kirib kelishi kutilmoqda.

Tumandagi mavjud 67 ta mahallaning 16 tasi "qizil" va 47 tasi "sariq" toifaga kiradi. Bu ahvolni ijobiy tomonga o'zgartirish uchun endi "hokim yordamchilari" lavozimlari joriy etiladi.

Ular mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish va yangi ish joylarini yaratish bo'yicha tizimli ishlarni olib boradi. Ushbu yordamchilar mahalladagi oilaviy tadbirkorlikka kreditlar berish, yangi loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashish bilan shug'ullanadi.

Ular tomorqa, bo'sh yer va binolardan samarali foydalanishni ham tashkil etadi. Ularning o'z "budjet"iga ega bo'lib, ehtiyojmand oilalarga subsidiyalar ajratish, jamoat ishlariga jalb qilish, yoshlarni kasbga o'qitishni tashkil etish huquqiga ega bo'ladi.

Hokim yordamchilari iqtisodiyot va investitsiya idoralari, hokimiyatda ishlaydigan bilimli va shijoatli yoshlar orasidan tanlanadi. Lavozimga qo'yishdan oldin ular ikki oy davomida yangi tizim asosida ishlashga o'qitiladi va ishining samarasiga qarab, yaxshi oylik to'lanadi. Ikki-uch yil mahallada ishlab, o'zini ko'rsatganlarini kelgusida rahbar lavozimlariga qo'yamiz.

Shuningdek, Paxtaobod tumanida sanoat sohasida umumiy qiymati bir trillion so'm bo'lgan 80 ta loyiha amalga oshirilib, besh mingta ish o'rni tashkil etiladi. Buning uchun "Qashqar", "Ma'rifat",

“Guliston past qishloq” va “Hayotbaxsh” mahallalarida 4 ta yangi kichik sanoat zonaları barpo etiladi.

Tadbirkorlik dasturlari doirasida tumanga yillik 10 foiz stavkada har yili 47 milliard so‘m kredit ajratiladi. Shuning hisobidan yetakchi tadbirkorlar bilan kooperatsiyani rivojlantirish orqali 9 ming nafar aholining bandligi ta‘minlanadi.

Ayni vaqtda, mavjud korxonalar faoliyatini kengaytirish hisobidan 5 mingta, 350 ta xizmat ko‘rsatish shoxobchalarini tashkil etish orqali 3 mingta, paxta va g‘alladan bo‘shaydigan yerlarni aholiga ijaraga berish orqali 3 mingta doimiy ish o‘rinlari tashkil etiladi.

Tumanda zamonaviy “Ekobozor” savdo kompleksi tashkil qilinib, mingta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Hokim yordamchilariga amaliy ko‘mak berish maqsadida, iqtisodiy idoralar va tijorat banklari rahbarlari birlashtiriladi. Shuningdek, tumanda faoliyat yuritayotgan Xalq banki, Mikrokredit va Agrobank rahbar va xodimlari hokim yordamchilari bilan birga yangi loyihalar ustida “mahallabay” ish olib boradi.

Tumanning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, 16 ta mahallada parrandachilik, tikuvchilik, qandolatchilik, ayollar uchun “Go‘zallik saloni” xodimi kasblari bo‘yicha kasb-hunarga o‘qitish maskanlari tashkil etiladi.

Mazkur loyihalarni amalga oshirish orqali tumanda tadbirkorlik subyektlari soni 1,5 mingdan 3 mingtagacha ko‘payadi. Umuman, kelgusi besh yilda qayd etilgan tadbirlar natijasida jami 23 ming nafar aholi bandligi ta‘minlanadi.

Agar barcha shahar va tumanlarda ushbu yangi tizim samarali tashkil etilsa, uch yilda Andijonda ishsiz odam va kambag‘al oila qolmaydi.

Ikkinchidan, biz yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘rgatishga ustuvor ahamiyat qaratamiz. Kelgusi besh yilda 45 ming nafar yoshlar tadbirkorlikka, 22 ming nafar yigit-qiz mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarlariga o‘qitiladi.

Yoshlarning tadbirkorlik loyihalari uchun 1,5 trillion kredit ajratilib, 52 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratiladi. Shuningdek, barcha shahar va tumanlarda 20 ta yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari tashkil etilib, 12 ming yigit-qiz ish bilan ta'minlanadi.

Viloyatda nogironligi bor 950 nafar yoshlar tadbirkorlik qilish istagini bildirgan. Ularni qo'llab-quvvatlash uchun har birining biznes loyihalariga 30 million so'mgacha subsidiya berish yo'lga qo'yiladi.

Andijon shahrida "Mumtoz sharq xattotlik markazi" tashkil etilib, yoshlar xattotlik va naqqoshlik kasbiga o'rgatiladi, ular yaratgan mahsulotlarning savdo ko'rgazmalari tashkil etiladi.

Xonobod shahri va Qo'rg'ontepa tumanida "Yoshlar IT laboratoriyalari" barpo etilib, yoshlar grafik dizayner va dasturchi kabi faoliyat turlariga o'rgatiladi.

Uchinchidan, keyingi besh yilda xizmat ko'rsatish sohasida 80 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratilib, xizmatlar hajmi uch barobar oshadi. Jumladan, Bo'ston, Shahrixon, Asaka, Oltinko'l, Andijon, Xo'jaobod tumanlari hududlaridan o'tgan xalqaro avtomagistral bo'yida 160 ta xizmat ko'rsatish va savdo obyektlari tashkil etish hisobiga, 1,5 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Viloyatda keyingi besh yilda turizm sohasini rivojlantirish maqsadida 25 ta mehmonxona, 60 ta ko'ngilochar va dam olish maskanlari tashkil etiladi.

Masalan, Xonobod shahrida "Afsona-2" dam olish maskani, Shahrixon tumanida "Hunarmandlar markazi" tashkil etiladi.

Xonobod shahrini "Vodiy turizm maskani"ga aylantirish uchun Kampirravot mahallasida bo'sh turgan 66 gektar maydonda sun'iy ko'l va dam olish maskani barpo etiladi.

Bu yerda kamida 800 ta ish o'rni tashkil etiladi, yiliga 300 ming aholining dam olishi uchun imkoniyat yaratiladi. Ushbu maskanning infrastrukturasi davlat hisobidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, Xo‘jaobod tumanidagi “Imom ota” turizm qishlog‘i doirasida 20 ta oilaviy mehmon uyi va ekoturizm dam olish maskani tashkil etiladi.

Bularni amalga oshirish uchun alohida dastur ishlab chiqilib, xorijiy turistlar sonini kamida 15 ming, mahalliy sayyohlarni 1,4 million nafarga yetkazish choralari ko‘riladi.

Umuman olganda, kelgusi besh yilda Andijon viloyatini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish uchun davlat hisobidan 40 trillion so‘m ajratiladi.

To‘rtinchi yo‘nalish investitsiya va eksport salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish bilan bog‘liq.

So‘nggi besh yilda amalga oshirilgan samarali islohotlar natijasini Andijon viloyatining tadbirkorlari misolida ko‘rishimiz mumkin.

Bejiz Andijonni “Tadbirkorlar yurti” deb atashmaydi. 2020-yil yakuni bilan Andijon viloyati “Tadbirkorlar va investorlar uchun ishbilarmonlik muhiti” bo‘yicha respublikada eng yaxshi ko‘rsatkichga ega bo‘lgani hamda so‘nggi besh yilda 15 mingdan ziyod yangi tadbirkorlar sinfi shakllangani fikrimizning yaqqol dalilidir.

Shu maqsadda, katta natijalarga erishgan andijonlik ishbilarmonlar ishtirokida “Tadbirkorlar kengashi” tashkil etiladi. Kengash viloyatda bu sohadagi muammo va takliflarni tizimlashtirib, ko‘rib chiqish uchun viloyat hokimiga kiritadi.

Shuningdek, ushbu Kengash Rossiya, Qozog‘iston va boshqa davlatlardagi shu kabi tuzilmalar bilan doimiy aloqalar o‘rnatib, ular ishtirokida har yili “Hududlararo tadbirkorlar forumi” o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yiladi.

Andijon viloyatida investitsiya va eksport yo‘nalishlarida yangi tizim joriy qilamiz.

Misol uchun, Marhamat tumanida qurilish materiallari, to‘qimachilik, ipakchilik, charm-poyabzal va boshqa tarmoqlarni rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud. Shuning uchun, tuman hokimining investitsiyalar va tashqi savdo masalalari bo‘yicha

o'rinbosari qoshida istiqbolli loyihalarni ishlab chiquvchi "Loyiha guruhi" va kichik geologiya ekspeditsiyasi tashkil etiladi.

Tahlillar natijalaridan kelib chiqib, "Loyiha guruhi" tomonidan loyihalar tayyorlanadi hamda ushbu tumanning tadbirkorlari ishtirokida tashkil qilinadigan "Xolding kompaniyasi" tomonidan amalga oshirilishi ta'minlanadi.

To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi mazkur loyihalarning 30 foizigacha qismini moliyalashtiradi.

Ushbu yangi tizimni samarali yo'lga qo'yish uchun Jamg'arma har bir tumanga yiliga o'rtacha 15 million dollarlik mablag'lar ajratadi.

Umuman olganda, kelgusi besh yilda viloyatda 8 milliard dollardan ziyod 4 5 mingta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi.

Viloyat sanoatining yetakchi sohasi hisoblangan to'qimachilik tarmog'ida qiymati 3 milliard dollarlik 1 ming 300 ta loyiha ishga tushirilib, 90 mingta doimiy ish o'rni tashkil etiladi.

Buning natijasida eksport hajmi to'rt barobar oshirilib, yiliga hozirgi 430 million dollardan 1,7 milliard dollarga yetkaziladi.

Misol uchun, Paxtaobod tumanida 55 gektar maydonda "Andijon Tekstil" industrial zonasi tashkil etilishi natijasida umumiy qiymati 90 million dollarlik 35 ta loyiha amalga oshiriladi.

Bunday natijaga qurilish materiallari, elektrotexnika, charmoypoyabzal, farmatsevtika va oziq-ovqat sanoatlarini rivojlantirish orqali ham erishish mumkin. Xususan, sement, ohaktosh, pardozbop toshlar, qurilish toshi va boshqa turdagi mavjud xomashyo zaxiralaridan samarali foydalangan holda, qurilish materiallari sanoatida 1,2 milliard dollarlik 565 ta katta-kichik loyiha amalga oshirilib, 15 mingta doimiy ish o'rni tashkil etiladi.

Masalan, Buloqboshi tumanida 250 million dollarlik xorijiy investitsiyalar hisobidan qurilish materiallari klasteri ishga tushirilib, 1 ming 200 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Natijada qo'shimcha 100 million dollarlik importni qisqartirish va 50 million dollarlik eksport imkoniyatlari yaratiladi.

“Andijon-farm” erkin iqtisodiy zonasi imkoniyatlarini kengaytirish orqali farmatsevtika sohasida 125 million dollarlik 98 ta loyiha amalga oshirilib, 3.5 mingta doimiy ish o‘rni tashkil etiladi. Natijada viloyatda ishlab chiqarilishi o‘zlashtirilgan dori vositalari soni hozirgi 147 tadan 300 taga yetkaziladi.

Charm-poyabzal sanoatida 230 million dollar investitsiya hisobidan 10 ming ish o‘rinli 80 ta loyiha ishga tushiriladi. Ishlab chiqarish va eksport hajmlari olti barobar oshiriladi.

Misol uchun, Qo‘rg‘ontepa tumanida umumiy qiymati 20 million dollarlik tayyor charm-poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi hisobidan 1,2 mingta doimiy ish o‘rni yaratiladi.

Andijon va Xonobod shaharlari hamda Oltinko‘l tumanlarida elektrotexnika sanoatida 170 million dollarlik 181 ta loyiha amalga oshirilib, 4 mingta yangi ish o‘rni tashkil etiladi va yillik 30 million dollarlik eksport imkoniyatlari yaratiladi.

Oziq-ovqat sanoati bo‘yicha 250 ta loyiha amalga oshirilib, 400 million dollar investitsiya o‘zlashtiriladi va 8 mingta ish o‘rni yaratiladi. Xususan, Izboskan, Marhamat, Buloqboshi, Ulug‘nor, Oltinko‘l, Baliqchi, Bo‘ston tumanlari va Xonobod shahrida oziq-ovqat sanoati yo‘nalishida 11 ta sanoat klasterlari tashkil qilinib, yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish quvvatlari yaratiladi.

Viloyatda avtomobilsozlik sohasida kichik biznes bilan kooperatsiya aloqalarini mustahkamlab, mahalliyashtirishni keskin kengaytirishga katta imkoniyat mavjud.

Misol uchun, 2020-yilda avtomobilsozlik uchun butlovchi qismlar importi 1 milliard dollarni tashkil etgan. Shuning uchun, mavjud modellarni mahalliyashtirish darajasini oshirish maqsadida 100 million dollarlik 85 ta loyiha doirasida 1 ming 200 turdagi butlovchi qismlarni ishlab chiqarish o‘zlashtirilib, mahalliyashtirish darajasi 65 foizga yetkaziladi.

Viloyat eksporti to‘rt barobar oshirilib, yillik 2,5 milliard dollarga yetkaziladi. Bunda eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushi 42 foizdan 76 foizga yetkaziladi.

Viloyat eksportining qariyb 70 foizini tashkil etadigan to‘qimachilik mahsulotlari eksportiga alohida e‘tibor beriladi. Buning uchun qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan tayyor to‘qimachilik mahsulotlari eksportida valuta tushumini ta‘minlashda eksportchilarga yengilliklar beriladi.

Andijon viloyatining eksportchilari ishbilarmonligi, ulkan tajriba va ko‘nikmaga ega ekanligini inobatga olib, Eksportni rag‘batlantirish agentligi tomonidan “Eksportchilar maktabi” tashkil etiladi. Ushbu maktabda marketing tadqiqotlari, yangi tashqi bozorlarga chiqish strategiyasi, xalqaro standartlar va boshqa tashqi savdoga oid qoidalar tahlil qilingan holda, tadbirkorlarga eksport faoliyatini boshlashga va kengaytirishga ko‘maklashiladi.

Bundan tashqari, Yevropa va boshqa rivojlangan davlatlar bozorlariga chiqish uchun sertifikatlashtirish organlarining xalqaro akkreditatsiyadan o‘tish bilan bog‘liq xarajatlarini Eksportni rag‘batlantirish agentligi tomonidan qoplab berish tizimi joriy etiladi.

Shuningdek, qo‘shni Qirg‘iziston bilan chegaradosh Paxtaobod, Xonobod va Marhamat tumanlarida tayyor tikuv-trikotaj, charm va boshqa mahsulotlarni eksport qilishga ixtisoslashgan “Taks Fri” tizimi asosida savdo majmuasi tashkil etiladi.

O‘zbekiston–Qirg‘iziston–Xitoy transport koridorida joylashgan “Andijon logistika markazi” foydalanishga topshiriladi. Bu esa, o‘z navbatida, chegaradosh davlat – Qirg‘izistonga eksport hajmlarini ikki barobarga oshirib, 600 million dollarga yetkazish imkonini beradi.

Beshinchi yo‘nalish – qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan unumli foydalanish orqali 80 mingta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Avvalo, 10 ming gektar paxta va g'alla maydonlari qisqartirilib, aholiga ochiq tanlov asosida, o'rtacha 10–20 sotixdan uzoq muddatli ijaraga beriladi. Natijada 30 ming aholi ish bilan band bo'ladi.

Yangi o'zlashtiriladigan 9 ming gektar maydon meva-sabzavot, dorivor va ozuqa ekinlarini yetishtirish uchun klasterlarga tanlov asosida ajratiladi va bu 10 ming aholini band qilish imkonini beradi.

Bunda, elektr tarmog'ini tortish va quduq qazish xarajatlarining 50 foizi budjetdan qoplab beriladi.

Ikkinchidan, tumanlarning tuproq-iqlim sharoiti, suv ta'minotidan kelib chiqib, 15 ming gektarda intensiv bog' va tokzor barpo etiladi hamda qo'shimcha 30 mingga yaqin ish o'rinlari yaratiladi. Xususan, Asaka, Buloqboshi, Jalaquduqda uzumchilik klasterlari tashkil etilib, 9 ming gektarda tokzor barpo qilinadi.

Klaster korxonalariga qulay shart va muddatlarda kredit ajratish, ularning xarajatlarini qoplab berish mexanizmlari yaratiladi. Shuningdek, yangi bog' va tokzorlar uchun yer solig'ini to'lash bo'yicha imtiyozli davr uch yildan besh yilga uzaytiriladi.

Andijon, Asaka, Jalaquduq, Marhamat, Oltinko'l, Xo'jaobod va Qo'rg'ontepa tumanlarida ming gektar maydonda zamonaviy issiqxonalar ishga tushiriladi. Bunda muqobil energiya xarajatlarining bir qismi budjetdan qoplab beriladi.

O'rmon yerlaridan samarali foydalangan holda, 500 gektar maydonda viloyat iqlimiga mos 13 turdagi dorivor o'simliklar plantatsiyalari tashkil etiladi.

Bunda suv chiqarish uchun quduq qazish va nasos stansiyasini qurish xarajatlari ham subsidiya hisobidan qoplab beriladi. Qo'shilgan qiymat yaratish maqsadida Andijon tumanida xalqaro moliya tashkilotlarining 45 million dollar mablag'i jalb qilinib, 410 ming tonna quvvatga ega bo'lgan yirik agrologistika markazi ishga tushiriladi.

Shuningdek, Jalaquduq va Xo'jaobod tumanlarida 10 million dollar sarmoya evaziga logistika markazlari tashkil etilib, qo'shni

Qirg'iziston bilan oziq-ovqat va tovarlarni ayriboshlash imkoni yaratiladi.

Uchinchidan, 22 ming xonadonda yengil konstruksiyali is-siqxonalar qurib beriladi. Shuningdek, "Buloqboshi tajribasi" aso-sida 145 ming xonadonda 2,5 ming gektar uzumzor barpo etiladi.

Aholi tomorqalari suv ta'minotini yaxshilash orqali 5 ming-dan ortiq aholi bandligi ta'minlanadi.

Masalan, Marhamat, Ulug'nor va Bo'ston tumanlarida 60 ta katta hajmdagi quduqlar qazilib, 2,5 ming xonadon tomorqasining suv ta'minoti yaxshilanadi.

To'rtinchidan, yangi o'zlashtiriladigan yerlar hamda Qo'r-g'ontepa, Jalaquduq va Ulug'norda paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hisobidan ozuqa ekinlari maydoni 6,5 ming gektarga kengaytiriladi.

Bundan tashqari, har bir tumanda yiliga ikki mingta xonadonga 100 boshdan, besh yilda jami 14 million bosh parranda tarqatilib, aholining daromadi oshiriladi.

Shuningdek, 6 ta baliqchilik klasterlari tashkil etilib, 2,5 ming gektar suv havzalaridagi hosildorlik 4–5 barobar oshiriladi.

Beshinchidan, 84 ming gektar maydonning suv ta'minoti, 8 ming gektarning meliorativ holatini yaxshilash, 125 ming gek-tarda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha alo-hida dastur qilinadi.

Shuningdek, suv xo'jaligi inshootlarini ta'mirlash va qayta tiklash uchun 21 million dollar mablag' jalb qilinadi.

Navbatdagi ustuvor yo'nalish – barcha bosqichdagi ta'lim sifatini tubdan yaxshilashdan iborat.

Viloyatda kelgusi besh yilda 1 ming 100 ta davlat, davlat-xususiy sheriklik va oilaviy bog'chalar tashkil etish natijasida maktabgacha ta'lim qamrovi 69 foizdan 78 foizga yetkaziladi.

Kelgusi besh yilda 33 ta yangi maktab qurilib, 145 tasi rekonstruksiya qilinadi va kapital ta'mirlanadi.

Shuningdek, 2010-yilda tugatib yuborilgan Andijon davlat chet tillar instituti qayta tashkil etiladi. Bundan tashqari, viloyatda yana 4 ta xususiy oliy ta'lim muassasasi tashkil etiladi. Natijada oliy ta'lim qamrovi 23 foizdan 50 foizga oshadi.

Davlat-xususiy sheriklik asosida 7 ming o'rinli 16 ta talabalar turar joylari barpo etiladi.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida ham bir qator ishlar amalga oshiriladi. Jumladan, budget mablag'lari hisobidan Andijon shahar, Andijon, Marhamat tumanlarida "Madaniyat markazlari" qayta ta'mirlanadi. Bo'ston tumanida zamonaviy "Yoshlar markazi" qurilib, foydalanishga topshiriladi.

Kelgusi besh yilda viloyatdagi 23 ta sport ta'lim muassasalarida qurilish, ta'mirlash va jihozlash ishlari amalga oshiriladi.

Qadrli vatandoshlar!

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamon, yaqin besh yillik uchun mo'ljallagan rejalарimizning miqyosi va ko'lami har bir soat, har bir kundan yuksak unum bilan foydalanishni taqozo etadi.

Biz bugun qanday islohotlarni, qanday o'zgarishlar, qanday yangi loyihalarni rejalashtirayotgan bo'lmaylik, ularning barcha-barchasi yagona va ulug' bir maqsadga qaratilgan. U ham bo'lsa, inson qadrini ulug'lash, inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlash, xalqimiz uchun munosib turmush sharoitini yaratib berish, bir so'z bilan aytganda, el duosini olib, uni rozi qilishdan iborat.

Bu borada buyuk bobomiz Bobur Mirzoning: **"Bori elg'a yaxshilik qilg'il"**, degan hikmatli da'vati biz uchun albatta dasturilamal bo'ladi.

Hammamiz yaxshi tushunamizki, bunday ulug' maqsadlarga o'z-o'zidan, quruq va balandparvoz gaplar bilan erishib bo'lmaydi. Bunday yuksak marralarni faqat tinimsiz izlanish, halol va fidokorona mehnat bilan qo'lga kiritish mumkin.

Men bugungi rejalарimizda belgilangan ustuvor maqsad va vazifalarni amalga oshirishda butun xalqimiz qatorida, mehnatkash va oliyjanob Andijon eliga ishonaman va tayanaman.

Ko'p yillik kuzatuvlarim va tajribamdan kelib chiqib, aytmoqchimanki, shaxsan men Andijon – butun O'zbekistonning eng baland o'sish nuqtasi bo'lishiga ishonaman.

So'zimning yakunida barchangizning ishlaringizga omad, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayz-u baraka tilayman.

Mard va tanti Andijon eli hamisha omon bo'lsin.

Sog'-salomat bo'linglar!

Katta rahmat sizlarga!

*Andijon tumani,
2021-yil 29-sentabr*

**CHO'LDA VATAN YARATAYOTGAN
MARDI MAYDON INSONLAR
UCHUN MUNOSIB TURMUSH
SHAROITI YARATAMIZ**

*(Sirdaryo viloyati saylovchilar vakillari
bilan uchrashuvdagi nutq)*

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

Hurmatli saylovchilar!

Avvalo, mana shu go‘zal va saxovatli Sirdaryo zaminida siz, aziz vatandoshlarim bilan sog‘-omon ko‘rishib, yaxshi kayfiyatda uchrashib turganimdan baxtiyorman.

Men har gal Sirdaryoga kelganimda, ulug‘ mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning qahramonlarini hayotda ko‘rganday bo‘laman.

Viloyatning bir tomoniga qarasaq – Guliston, Baxt, yana bir tarafida – Mehnatobod, bir tomonida – Shirin shahri va el-u yurtga nur ulashayotgan Farhod GESini ko‘ramiz. Hazrat Navoiyning ezgu ideallariga g‘oyatda mos bo‘lgan bunday go‘zal nomlar zamidida teran ma‘no mujassam.

Buyuk ajdodimizning **“Mehnat o‘tidan yorug‘dir har taraf koshonamiz”**, degan ajoyib satrlari bor. Bu so‘zlar shu tabarruk zaminda tomir otib – palak yozib, cho‘lda bo‘ston yaratayotgan mardi maydon insonlar sha‘niga aytilgan, desak, ayni haqiqat bo‘ladi.

Men Sirdaryo ahlidagi kuch-g‘ayratni, hayotga, kelajakka bo‘lgan ishonchni ko‘rib, har safar qalbim tog‘dek ko‘tariladi, sizlardagi azm-u shijoatdan o‘zim uchun katta ma‘naviy quvvat olaman.

Qadrli yurtdoshlar!

Hammamizga yaxshi ma‘lum, Sirdaryo vohasining tarixi necha ming yillar qa‘riga borib taqaladi. Bu o‘lkada miloddan oldingi III–II asrlardayoq o‘ziga xos madaniyat va sivilizatsiya mavjud bo‘lgani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Buyuk ipak yo‘lining asosiy tarmog‘i o‘tgan bu zaminda nene ulug‘ zotlarning izlari qolgan. XV asrda mashhur temuriyzoda hukmdorlar – Shohrux va Ulug‘bek Mirzolar Mirzacho‘lga suv chiqarganini sizlar yaxshi bilasizlar.

Ajdodlarimizning ana shunday ishlarini davom ettirib, viloyat taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan Usmon Yusupov, Sharof Rashidov singari atoqli davlat arboblarning xotirasini bugun minnatdorlik bilan eslashimiz tabiiydir.

Mirzacho'lni o'zlashtirishda o'zini ayamadan mehnat qilgan Sobirjon Siddiqov, Akop Sarkisov, Yusuf Xo'jabekov, Qo'ziboqar Sindorov, Xudoyor Latipov, Elchi Abdusalomov, Sharofat Bozороva, Nazira Yo'ldosheva singari o'nlab mashhur cho'lquvarlarning nomlarini ham ehtirom bilan yodga olamiz.

Yaqin o'tmishda xalqimiz o'zining fidokorona mehnati bilan qush uchsa – qanoti, odam yursa – oyog'i kuyadigan bu dasht-u cho'llarda yangi hayot va madaniyat yaratgani, hech shubhasiz, yuksak jasorat namunasidir.

Bu o'rinda o'zining samarali mehnati va ibratli faoliyati bilan el-yurt hurmatini qozonib, viloyatning bugungi taraqqiyoti, uning shon-shuhrati va obro'siga munosib hissa qo'shib kelayotgan Qo'ziboy O'roqov, Anvar Qurbonov, Mirzaahmad Shoimov, Solijon Qudratov kabi hurmatli faxriylarimiz;

Muhsin Hojiyev, Qozoqboy Yo'ldoshev, Habib Kushiyev, Ravshan Mahmudov, Inobat Shirinova, O'g'iloy Erbo'tayeva, Abduvoit Fozilov singari taniqli olimlar va jonkuyar muallimlar;

Hayotxon Ortiqboyeva, Noriniso Qosimova, Anvar Tog'ayev, Aliqul Xonimqulov, Ali Nosirli, Ibrohim Qosimov, Farhod O'rinov, Sharif Jumayev, Asatilla Xoliqov, Ozoda Abdullayeva kabi iste'dodli shoir va adiblarimiz, el sevgan san'atkorlar;

Lazizbek To'lqinov, Farangiz Abdunabiyeva, Safina Sa'dullayeva, Shahboz Xolmirzayev, Server Ibragimov, Otabek Qo'chqorov singari yurtimiz dovrug'ini taratayotgan sportchilar;

O'tkir Tojiboyev, Maqsudbek Sirojiddinov, Sayfiddin Hayitboyev, Islomjon Xolmatov, Said Galimov, Sitora Naimjonova, Bahodir Qo'shiyev kabi turli sohalarda tengdoshlariga ibrat va namuna bo'lib kelayotgan faol yoshlarimiz nomlarini alohida ta'kidlab o'tamiz.

Mana shunday qahramon insonlar yurti bo'lgan Sirdaryo viloyatining tashkil topganiga 2023-yilda 60 yil to'lad. Shu munosabat bilan mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy hayotida tutgan muhim o'rnini inobatga olib, Sirdaryo viloyatining 60 yillik to'yini munosib nishonlasak, o'ylaymanki, har jihatdan adolatli ish bo'ladi.

Barchamizga ayonki, o'z tarixini unutmagan, ajdodlari xotirasini e'zozlab yashaydigan xalq hech qachon kam bo'lmaydi.

Xabaringiz bor, biz Guliston shahrida O'zbekiston xalq shoirasi Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabini tashkil etdik. Bu dargohda bugun Halima opaning o'nlab izdoshlari ta'lim olmoqda, zamonaviy bilimlarni egallamoqda.

O'z vaqtida Halima Xudoyberdiyeva qatori ko'plab iste'dodli ijodkorlarga ustozlik qilgan O'zbekiston xalq shoiri To'ra Sulaymon Sirdaryoning fidoyi farzandi, haqiqiy kuychisi edi. Nafaqat Sirdaryoda, balki butun mamlakatimizda bu ajoyib insonning nomini eshitmagan odam, uning dilbar she'rlari va qo'shiqlari kirib bormagan xonadon yo'q, desak, ayni haqiqat bo'ladi.

Bu ulkan ijodkorning adabiy merosini chuqur o'rganish, yosh avlodimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy olamini yuksaltirish uchun Mirzaobod tumanidagi To'ra Sulaymon yashab ijod qilgan xonadonda shoirning uy-muzeyini tashkil qilsak, el-yurtimiz, adabiy jamoatchiligimiz bu taklifni qo'llab-quvvatlaydi, deb ishonaman.

Xabaringiz bor, yurtimizda xalq og'zaki ijodiyotining noyob durdonasi bo'lgan baxshichilik san'atini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Termiz va Nukus shaharlarida o'tkazilgan festivallar bu borada muhim ahamiyat kasb etdi.

Sirdaryo vohasi o'zining Akram bulbul, Hamroqul baxshi, Gulmurod baxshi, Saidahmad baxshi kabi ijodkorlari bilan shuhrat qozongan va bu an'analar bugun ham davom etmoqda. Shu o'rinda ko'nglimdagi bir fikrni sizlar bilan o'rtoqlashmoqchiman: navbat-

dagi xalqaro baxshichilik festivalini Guliston shahrida o'tkazamiz, desak, sirdaryoliklar mezbonlik qilishga tayyormi?

Aziz do'stlar!

Mamlakatimizda barcha sohalarni tubdan isloh qilish, insonni qadrlash va xalqimiz hayotini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijasida boshqa hududlar qatori Sirdaryo viloyatida ham sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Xususan, o'tgan besh yilda viloyatda mahalliy sanoat mahsuloti ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmlari qariyb ikki barobar oshgan.

Viloyatga jalb qilingan sarmoyalar hajmi 3,5 barobar, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar esa 9 barobar o'sgan.

Umuman, Sirdaryoda bu kabi o'zgarishlar ko'p, bunga barchamiz guvoh bo'lib turibmiz. Shuning uchun, bugun erishilgan natijalar haqida kamroq gapirib, ko'proq mavjud muammolarni hal etish va xalqimizni rozi qilish, ular uchun munosib turmush sharoitini yaratish to'g'risida fikrlashib olsak, maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylayman.

Bugungi kunda viloyatda 40 ming nafar aholi ishsiz. Bunga qo'shimcha ravishda har yili mehnat bozoriga 15 ming nafar yigit-qiz kirib kelmoqda. 30 ming oila doimiy daromad manbaiga ega emas. Vaholanki, Sirdaryoda qishloq xo'jaligi, sanoat, transport-logistika va xizmat ko'rsatish sohalaridagi imkoniyatlar to'liq ishga solinsa, ishsizlik degan muammo umuman qolmaydi.

Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarning yangi davri Sirdaryodan boshlanganidan xabaringiz bor.

"Xonadonbay" o'tkazilgan xatlovlar natijasida viloyatda 282 ming nafar aholida surunkali kasalliklar aniqlandi. Shundan 25 ming nafar aholida – yurak-qon tomir, 17 mingida – endokrin, 28 mingida – nafas yo'llari, 20 mingida – oshqozon-ichak, 21 ming nafarida buyrak bilan bog'liq surunkali kasalliklar bor.

Bugungi kunda viloyatdagi eng dolzarb masalalardan biri – 5 mingdan ziyod oila uy-joyga muhtoj. Har yili ular safiga yana minglab yangi oilalar qo'shilmogda.

Shuningdek, 136 ta mahalladagi ichimlik suvi ta'minoti talab darajasida emas. Yo'l-transport, kanalizatsiya va boshqa infratuzilmalar bo'yicha ham aholida ko'plab e'tirozlar mavjud.

Viloyatda 83 ta maktab quvvatiga nisbatan 1,5–2 barobar ko'p yuklama bilan ishlamoqda. 8 ta mahallada bog'cha umuman yo'q.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Mazkur masalalarni hisobga olgan holda, biz Sirdaryoni barcha sohalar bo'yicha jadal rivojlantirish va aholi hayotini yaxshilash maqsadida besh yillik dastur loyihasini tayyorladik.

Birinchi yo'nalish – qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ikki barobar oshirish choralari ko'riladi.

Yaxshi bilasizlar, oborotdan chiqqan yerlarni o'zlashtirish tajribasi bundan ikki yil oldin Sirdaryodan boshlangan bo'lib, bugungi kunga qadar 17 ming gektar maydon qayta o'zlashtirildi.

Avvalo, kelgusi besh yilda viloyatda yana 34 ming gektar maydon o'zlashtirilib, meva-sabzavotchilik va chorvachilik uchun tanlov asosida ajratib beriladi va 30 ming nafar aholi band bo'ladi.

Masalan, Mirzaobodda 12 ming gektar, Sardobada 6,5 ming gektar, Xovos tumanida 8 ming 700 gektar qo'shimcha yer maydonlari foydalanishga kiritiladi. Buning uchun elektr tortish va quduq qazish xarajatlarining 50 foizi qoplab beriladi.

Sirdaryoda 286 ming gektar ekin maydonining 30 foizi yuqori darajada sho'rlangan. Bu ko'rsatkichni keskin pasaytirish bo'yicha xorijiy ekspertlar jalb etiladi va ekin yerlar sho'rlanishini pasaytirish va ekinlarni to'g'ri joylashtirish dasturi amalga oshiriladi.

Yerlarning sho'rlanishini pasaytirish choralarini mustaqil amalga oshirgan klaster va fermerlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy qilinadi. Bunda tuproq tarkibini laboratoriya tahlillaridan o'tkazish xarajatlarining 50 foizi budjetdan qoplab beriladi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining Sirdaryo viloyati urug'chilik bo'limi tashkil qilinib, sho'r yerlarda yuqori hosil beradigan yangi g'alla, sabzavot va

ozuqa navlari yaratiladi. Buning uchun Oq oltin va Boyovutda ikki ming gektar maydon ajratiladi. Guliston, Sirdaryo va Sayxunobodda ming gektarda sabzavot va poliz urug'larini yetishtirish poligoni tashkil etiladi.

Ikkinchidan, 16 ming 200 gektar paxta va g'alla maydonlarini ochiq tanlov asosida aholiga bir gektargacha uzoq muddatga ijaraga berish orqali 35 mingga yaqin ish o'rni yaratiladi. Bu loyihalarni amalga oshirish uchun "Loyiha ofisi" tashkil etilib, har bir oilaga yiliga kamida 5 ming dollar daromad olish imkoniyatini beradigan tayyor biznes loyihalari ishlab chiqiladi.

Mirzaobod va Sardoba tumanlarida 10 ming gektar g'alladan bo'shagan maydonda "Oq oltin tajribasi" asosida takroriy ekin sifatida qovun-tarvuz yetishtirish yo'lga qo'yiladi. Bu 15 mingga yaqin aholini daromad bilan ta'minlash imkonini beradi.

Mirzaobod, Sirdaryo va Xovosda 12 ming gektar yerda tokzorlar barpo etiladi. Bunda Italiya, Ispaniya, Turkiya kabi mamlakatlardan investorlar jalb etilib, Xovos tumanida uzumni qayta ishlash va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish klasteri tashkil etiladi.

Shuningdek, Boyovut, Sardoba va Xovosda ikki ming gektar intensiv mevali bog' va Mirzaobodda shuncha gektar qo'shimcha anorzor barpo etiladi.

Anorni saralash, qadoqlash hamda uni qayta ishlash loyihalari ishga tushirilishi natijasida anor eksporti ikki-uch barobar, qo'shilgan qiymat 2,5 barobar ortadi.

Yangi bog' va tokzorlar uchun yer solig'ini to'lash bo'yicha imtiyozli davr uch yildan besh yilga uzaytiriladi.

Boyovut, Sardoba, Mirzaobod, Sirdaryo, Sayxunobod va Xovos tumanlarida qayta o'zlashtiriladigan ming gektar maydonda zamonaviy issiqxonalar ishga tushirilib, besh mingdan ortiq ish o'rni yaratiladi. Bunda muqobil energiya xarajatlarining bir qismi budjetdan qoplab beriladi.

Issiqxonalarni tashkil qilishga uch yillik imtiyozli davr bilan 7 yil muddatga kreditlar ajratiladi.

Viloyat eksport salohiyatini oshirish maqsadida quvvati 30 ming tonna bo'lgan 4 ta yirik agrologistika markazi va 35 ming tonna meva-sabzavotni qayta ishlaydigan quvvatlar ishga tushiriladi.

Misol uchun, Sardoba va Sirdaryo tumanlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'ish, saralash, qadoqlash va eksportini amalga oshirishga ixtisoslashgan ikkita yangi agrologistika markazi ishga tushiriladi. Natijada meva-sabzavot yillik eksporti hajmi 150 million dollarga oshiriladi.

Uchinchidan, viloyatda suv ta'minoti og'ir bo'lgan 43 ta mahallada 450 ga yaqin quduq qazilib, 6,5 ming oilaning tomorqasida daromad olish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, 2 ming 200 ta xonadonda kichik hajmdagi issiqxonalar qurib beriladi.

Mirzaobodagi Dehqonobod, "Turg'un Ahmedov", "Oq oltin" va "Oydin" mahallalari anor yetishtirish va yuqori daromad olish bilan tanilgan. Ushbu tajriba Boyovut va Gulistondagi 5 ming xonadonda ham joriy qilinadi. Buning uchun, 275 ming tup anor ko'chatlari aholiga tekin yetkazib beriladi.

To'rtinchidan, kelgusi besh yilda qoramolchilik, echkichilik, parrandachilik, baliqchilik va boshqa tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha qiymati 7 trillion 670 milliard so'm bo'lgan 390 ta loyiha amalga oshirilib, 15 mingga yaqin ish o'rni yaratiladi.

G'alla maydonlarini qisqartirish hamda foydalanishga kiritiladigan yerlar hisobiga qo'shimcha 20 ming gektar maydon ozuqa yetishtirish uchun ajratiladi.

Shuningdek, kelgusi besh yilda 20 ming xonadonda 100 boshdan parranda tarqatilib, jami ikki million bosh parranda boqish yo'lga qo'yiladi.

Baliqchilik yo'nalishida 11 ta klaster tashkil etilib, 17 ming gektar suv havzalarida hosildorlik 100 ming tonnaga yetkaziladi, baliqni qayta ishlash quvvatlari 1,5 barobar oshiriladi.

Shu bilan birga, Guliston, Boyovut, Xovos tumanlarida 50 gektar maydonlar kooperatsiya shaklida, aholiga 3 sotixdan bo'lib beriladi. Bu orqali 1 sotixdan yiliga o'rtacha 3–4 tonna baliq yetishtirish yo'lga qo'yilib, har bir kooperatsiya a'zosi uchun yiliga 10 ming dollargacha daromad olish imkoniyati yaratiladi.

Beshinchidan, 74 ming gektar maydonning suv ta'minoti va 36 ming gektarning meliorativ holatini yaxshilash, 111 ming gektarda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etish bo'yicha alohida dastur amalga oshiriladi.

Misol uchun, Boyovut va Mirzaobod tumanlaridan oqib o'tuvchi "K-1" kanalining 21 kilometri rekonstruksiya qilinib, 7,5 ming gektar ekin maydonining suv ta'minoti yaxshilanadi.

"Sho'ro'zak" kollektorini rekonstruksiya qilish natijasida Sirdaryo, Sayxunobod va Guliston tumanlaridagi zax suvlar ketkazilib, 12 ming gektar maydonning meliorativ holati yaxshilanadi.

Ikkinchi yo'nalish – viloyatda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, investitsiya va eksport hajmini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Sirdaryo viloyati mamlakatimizning sharqiy, markaziy va g'arbiy viloyatlarini bog'lovchi ko'prik bo'lishi bilan bir qatorda, qo'shni davlatlar o'rtasida tranzit yuk tashish bo'yicha ham katta salohiyatga ega.

Viloyatda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish orqali ishsizlikni bartaraf etish hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud. Shuning uchun, eng avvalo, tadbirkorlarga barcha zarur sharoitlarni yaratib berib, ularni doim qo'llab-quvvatlashimiz lozim.

Har bir tumanda "Loyiha guruhi" hamda ularni moliyalashtiruvchi To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi ishtirokidagi "Xolding kompaniyasi" tashkil etiladi. Ushbu guruh har bir tumaning o'sish nuqtalarini belgilab, aniq loyihalarni o'z ichiga olgan besh yillik strategiyani ishlab chiqadi.

Mazkur strategiyada:

– tadbirkorlikni har bir tuman miqyosida qo‘llab-quvvatlash tizimini yangi darajaga olib chiqish hamda biznes inkubatorlar tashkil qilgan holda, ularning tadbirkorlik savodxonligini muntazam ravishda oshirib borish;

– shahar va tumanlarni investitsion toifalarga ajratgan holda, alohida yondashuv asosida fiskal siyosat, imtiyoz va preferensiyalarni qo‘llash amaliyotini joriy qilish;

– tuman va shaharlarda transport-logistika tizimi va infratuzilmani rivojlantirishga alohida e‘tibor beriladi.

Ushbu guruh tomonidan tumanlar sanoatining “drayver” sohalari bo‘yicha tanlab olingan loyihalarni amalga oshirishda loyiha qiymatining 30 foizidan kam bo‘lmagan qismi moliyalashtiriladi.

Viloyatning har bir tumanidagi 100 nafar tadbirkor har yili aniq mezonlar asosida tanlab olinib, faoliyatini doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlash orqali ularni xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo‘lgan lokomotiv tadbirkorlarga aylantiramiz.

Mirzaobod tumani misolida ushbu tizim qanday tashkil etilishiga to‘xtalib o‘tsam.

Tuzilgan “Loyiha guruhi” tumanning yer osti va yer usti imkoniyatlarini o‘rganib, mavjud resurslardan kelib chiqqan holda, elektrotexnika sanoati bo‘yicha yangi loyiha takliflarini ishlab chiqadi.

Mazkur loyihalar tuman bo‘yicha tanlab olingan ilg‘or tadbirkorlarga taklif qilinib, “Xolding kompaniyasi” tomonidan shu loyihalarni sherikchilik asosida amalga oshirish uchun 50 million dollar ajratiladi.

Xitoylik investorlarning viloyatga qiziqishlari katta. Endi Xitoydagi elchixonamiz hamda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining Xitoydagi vakolatxonasi Sirdaryoga birlashtiriladi.

Shu bilan birga, sanoati past rivojlangan Oq oltin, Xovos, Boyovut, Sardoba va Guliston tumanlari to‘liq “industrial zona”larga aylantiriladi.

O'zimizda ishlab chiqarilmaydigan, faqat o'z sanoati ehtiyojlari uchun foydalaniladigan asbob-uskuna, butlovchi va ehtiyot qismlar uchun bojxona bojlarini to'lashdan uch yilga ozod qilinadi.

Umuman olganda, viloyatda "drayver" bo'lgan energetika, kimyo, to'qimachilik, qurilish materiallari, farmatsevtika va boshqa tarmoqlarda kelgusi besh yilda 5 milliard dollarlik 2 mingta investitsiya loyihalari amalga oshirilib, 60 mingta doimiy ish o'rni yaratiladi. Jumladan, energetika sohasida 2,4 milliard dollarlik loyihalar doirasida quvvati 3 ming 220 megavatt bo'lgan elektr stansiyalari barpo etiladi.

Misol uchun, Saudiya Arabistonining "Akva paur" korxonasi bir milliard dollar investitsiyasi hisobidan 1,5 ming megavattli elektr stansiyasi ishga tushirilib, aholi va korxonalar uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlanadi.

Kimyo sanoatida kelgusi besh yilda qiymati 600 million dollarlik 38 ta loyiha amalga oshirilib, 5 mingta yangi ish o'rni tashkil etilishi natijasida yiliga 200 million dollarlik import o'rnini bosadigan va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Misol uchun, Sirdaryo tumanida 40 gektar maydonda polimer mahsulotlarni ishlab chiqarish "texnoparki" tashkil etilib, 350 million dollarlik 8 ta yirik loyiha amalga oshiriladi va 2 mingta yangi ish o'rni yaratiladi. Shuningdek, texnoparkda jahonga mashhur va mahalliy brendlar bilan kooperatsiya aloqalari o'rnatiladi.

Yana bir "drayver" – to'qimachilik sanoatida 800 million dollarlik investitsiyalar hisobidan 90 ta loyiha ishga tushirilib, 20 mingta yangi ish o'rni yaratiladi. Natijada ip kalavani qayta ishlash darajasi hozirgi 38 foizdan – 75 foizgacha oshirilib, eksport hajmi 200 million dollarga yetkaziladi.

Boyovut, Guliston va Mirzaobod tumanlarida 300 million dollarlik tayyor tikuv-trikotaj, choyshab va kiyim-kechak ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirilishi natijasida 2 mingta yangi ish o'rni tashkil etilib, yiliga qo'shimcha 80 million dollarlik mahsulot eksport qilish imkoniyati yaratiladi.

Qurilish materiallari sanoatida Sirdaryo, Sayxunobod tumanlari, Shirin va Yangiyer shaharlarida 250 million dollarlik 210 ta loyiha amalga oshirilib, 6 mingta doimiy ish o'rnini yaratiladi va 100 million dollarlik import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Xususan, Xovos tumani qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashib, 20 gektar maydonda "maxsus sanoat zona"si tashkil etiladi. Bu yerda qiymati 110 million dollarlik 30 ta loyiha amalga oshirilib, MDF panellar, lak-bo'yoqlar, gipsokarton va boshqa yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Oziq-ovqat sanoatida 180 million dollarlik investitsiyalar o'zlashtirilib, 200 ta loyiha ishga tushiriladi hamda 3,5 mingta yangi ish o'rnini yaratiladi. Natijada viloyatda meva-sabzavotni qayta ishlash darajasi 40 foizga yetadi.

Eksport ikki barobar oshirilib, 150 million dollarga olib chiqiladi. Farmatsevtika sohasida "Sirdaryo-farm" erkin iqtisodiy zonasida 170 million dollarlik 25 ta loyiha amalga oshirilib, 3 mingta doimiy ish o'rnini tashkil etiladi.

Natijada 55 million dollarlik import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqariladi hamda dori vositalari soni hozirgi 48 tadan – 100 taga yetkaziladi.

Shuningdek, viloyatda sanoatning boshqa tarmoqlarida 1 milliard dollardan ziyod 14 ta yirik loyiha ishga tushirilib, 15 mingta yangi ish o'rnini yaratiladi.

Misol uchun, Shirin shahrida Janubiy Koreyaning 60 million dollarlik investitsiyasi hisobidan qishloq xo'jaligi mashinalari va kichik mexanizatsiyalash uchun uskunalar ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilib, yiliga 40 million dollarlik texnikalar ishlab chiqariladi.

Charm-poyabzal sanoatida 150 million dollar investitsiya hisobidan 5 ming ish o'rinli 30 ta loyiha ishga tushiriladi. Ishlab chiqarish va eksport hajmi besh barobar oshiriladi. Jumladan,

Sirdaryo tumanida 15 gektar maydonda umumiy qiymati 40 million dollarlik “Tayyor charm mahsulotlari ishlab chiqarish klasteri” tashkil etilib, 1,5 mingta doimiy ish o‘rni yaratiladi.

Kelgusi besh yilda viloyat eksporti besh barobar ortib, yiliga 1 milliard dollarga, shundan sanoat mahsulotlari eksporti 600 million dollarga yetkaziladi.

Misol uchun, elektrotexnika, qurilish materiallari, charm mahsulotlari eksporti 3 barobardan – 8 barobargacha oshiriladi.

Shuningdek, avval eksport qilinmagan 40 dan ortiq turdagi mahsulotlar tashqi bozorga chiqarilib, tayyor mahsulotlarning eksportdagi ulushi 36 foizdan 56 foizga yetadi.

Oq oltin tumanida Qozog‘iston korxonalari bilan hamkorlikda “Markaziy Osiyo” sanoat-iqtisodiy zonasi tashkil etilib, qo‘shimcha 200 million dollarlik eksport qilish imkoniyati yaratiladi.

Respublikamizning janubiy va markaziy viloyatlarida ishlab chiqariladigan elektrotexnika, to‘qimachilik, charm, qurilish materiallari, oziq-ovqat hamda meva-sabzavot mahsulotlarini Rossiya va qo‘shni davlatlar bozorlariga yetkazib berish uchun Mirzaobod tumanida ularni saqlash, taqsimlash va tashish bo‘yicha “yirik logistika xabi” tashkil etiladi.

Eksportoldi moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida bankdan tashqari kredit tashkilotlari tomonidan ham xizmatlar ko‘rsatish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Buning evaziga mahalliy eksportchi korxonalarni aylanma mablag‘lar bilan tezkor ta‘minlash va qo‘shimcha 100 million dollarlik mahsulot eksport qilishga imkoniyat yaratiladi.

Elektrotexnika sanoati mahsulotlari uchun Yevropa Ittifoqi davlatlarida talab etiladigan standart va sertifikatlar joriy etish xarajatlarini cheklovlarsiz qoplab berish tizimi joriy etiladi. Natijada Germaniya, Polsha, Vengriya, Latviya kabi Yevropa mamlakatlari bozorlariga tayyor mahsulotlar eksporti 100 million dollarga yetkaziladi.

Umuman olganda, ushbu amalga oshiriladigan ishlar natijasida kelgusi besh yilda viloyatdagi eksportyorlar soni o'n barobar ko'payib, 1,5 mingtaga yetadi.

Uchinchi yo'nalish – kelgusi besh yilda 60 mingdan ziyod yangi ish o'rinlarini yaratish va kambag'allikni ikki barobar qisqartirish biz uchun ustuvor vazifa bo'ladi.

Buning uchun, avvalambor, har bir mahalla miqyosida tadbirkorlikni jadal rivojlantirish orqali 20 mingta yangi ish o'rni yaratiladi. Bu ishlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 2,5 trillion so'm imtiyozli kredit resurslarini ajratamiz.

Shu o'rinda Sayxunobod tumani misolida tumanni ishsizlik va kambag'allikdan xoli hududga aylantirish bo'yicha yangi "mahallabay" ishlash tizimiga to'xtalib o'tmoqchiman.

Tumandagi mavjud 19 ta mahallaning ikkitasi "qizil" va 14 tasi "sariq" toifaga kiradi. Hozirgi paytda tumanda 4 mingta mehnatga layoqatli aholi ish bilan ta'minlanmagan. Bunga qo'shimcha ravishda har yili 1,5 ming yigit-qiz mehnat bozoriga kirib keladi. Shuningdek, tumanda 92 ta oila kambag'al toifaga kiritilgan.

"Mahallabay" tizimini bevosita quyi bo'g'inda joriy qilish uchun tumandagi mahallalarga biriktiriladigan "hokim yordamchilari" lavozimlari joriy etiladi. Ular mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish va yangi ish joylarini tashkil etish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etadi.

Ushbu yordamchilarga mahallalarda oilaviy tadbirkorlik kreditlarini berish, yetakchi tadbirkorlar loyihalarini amalga oshirishda ko'maklashish, ehtiyojmand oilalarga subsidiyalar ajratish va ularni jamoat ishlariga jalb qilish, yoshlarni kasbga o'qitish bo'yicha moliyaviy instrumentlar beriladi.

Sayxunobod tumanida 2 trillion so'mlik 141 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish hisobidan 5 mingta ish o'rni tashkil etiladi. Jumladan, tumanda ikkita yangi kichik sanoat zonasini tashkil etish orqali 500 ta; mavjud korxonalar faoliyatini kengaytirish

hisobidan 1,5 mingta; qishloq xo'jaligida 5 mingta, jumladan, paxta va g'alladan qisqargan yerlarni aholiga berish orqali 3 mingta; 70 ta xizmat ko'rsatish shoxobchasi, 40 ta yo'l bo'yi servis obyektini qurish orqali 900 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Hokim yordamchilariga amaliy yordam berish maqsadida iqtisodiy idoralar va tijorat banklari rahbarlari biriktiriladi. Tumanda faoliyat yuritayotgan Xalq banki, Agrobank va Mikrokreditbank rahbar va xodimlari "pastga tushib", tadbirkorlar va o'z mijozlari bilan yangi loyihalar ustida "mahallabay" ish olib boradilar.

Ishsizlik yuqori bo'lgan ikk ta mahallada kooperatsiya asosida aholini band qilish uchun lider tadbirkorlarga 10 foizlik kreditlar ajratish orqali 500 dan ortiq aholining bandligi ta'minlanadi.

Ixtisoslashuvidan kelib chiqib, 5 ta mahallada issiqxona, pazardachilik, sartaroshlik, tikuvchilik kabi sohalar bo'yicha kasbhunarga o'qitish maskanlari tashkil etiladi.

Ushbu yangi tizim viloyatning barcha shahar va tumanlarida joriy etilishi natijasida viloyatda birorta ham ishsiz odam bo'lmasligini ta'minlashimiz kerak.

Shu bilan birga, kelgusi besh yilda xizmat ko'rsatish sohasida qiymati 335 million dollar bo'lgan 600 ta loyiha amalga oshirilib, 8 mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratiladi.

Mirzaobod, Sayxunobod, Sardoba, Oq oltin, Sirdaryo va Xovos tumanlari hududidan o'tgan 253 kilometr xalqaro avtomagistral yo'llari bo'yida 43 gektar bo'sh turgan yerlarni auksionga chiqarish orqali, 100 ta xizmat ko'rsatish obyekti barpo etilib, mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Mirzaobod tumanida A-373 xalqaro magistral yo'li bo'yidagi 14 kilometr uzunlikdagi hududda Ohangaron tumanining pilot konsepsiyasi asosida kompleks xizmat ko'rsatish obyektlari tashkil etiladi.

Guliston va Yangiyer shaharlari markazlarida ko'ngilochar ko'chalar, qolgan barcha tuman va shahar markazlarida 9 ta savdo va ko'ngilochar maskanlar tashkil etiladi.

Sirdaryo tumani va Toshkent viloyati chegarasida zamonaviy “Karvonsaroy” majmuasi ishga tushirilib, hunarmandchilik mahsulotlari bo‘yicha savdo do‘konlari, ovqatlanish va boshqa xizmat ko‘rsatish obyektlari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

To‘rtinchi yo‘nalish – uy-joy qurish, yo‘l-transport va muhandislik infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha ham muhim vazifalar amalga oshiriladi.

Avvalo, kelgusi besh yilda 10 ming xonadonli uy-joylar quriladi. Shundan 1,5 mingdan ziyod uy-joy kam ta‘minlangan oilalarga ajratilib, ularga ipoteka krediti bo‘yicha 60 milliard so‘mlik subsidiyalar beriladi. Jumladan, og‘ir turmush sharoitida yashayotgan 800 nafar ayolga subsidiya ajratiladi, 450 nafariga boshlang‘ich badal puli to‘lab beriladi, 120 nafari bepul uy-joy bilan ta‘minlanadi.

Shuningdek, Guliston shahrining eski dehqon bozori o‘rnidagi 42 gektar maydonda “Guliston siti” barpo etiladi.

Bu yerda 1 ming 700 xonadonli 16 qavatli turar joylar, umumta‘lim va biznes maktablari, ikkita bolalar bog‘chasi, zamonaviy klinika, madaniyat markazi va mehmonxona quriladi.

Ikkinchidan, kelgusi besh yilda markazlashgan ichimlik suvi bilan ta‘minlash darajasi 82 foizdan 90 foizga, kanalizatsiya qamrovi 14 foizdan 40 foizga yetkaziladi.

Buning uchun 1,8 trillion so‘m evaziga, 428 kilometr ichimlik suvi va 57 kilometr kanalizatsiya tarmog‘i, 118 ta suv va 7 ta kanalizatsiya inshootlari barpo etilib, 60 ming nafar aholi suv bilan ta‘minlanadi, 106 ming nafar aholining suv ta‘minoti yaxshilanadi.

Uchinchidan, “Obod qishloq” va Obod mahalla” dasturlari doirasida kelgusi besh yilda 110 ta qishloq va mahallada obodonlashtirish, ijtimoiy obyektlar, ichki yo‘llar va infratuzilmani ta‘mirlashga 1 trillion so‘mdan ziyod mablag‘ ajratiladi.

Bundan tashqari, keyingi uch yilda viloyatdagi 17 ta qishloq infratuzilmasini yaxshilash va rivojlantirishga 10 million dollar yo‘naltiriladi.

Viloyatda elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash maqsadida kelgusi besh yilda 5 ming kilometr past va yuqori kuchlanishli tarmoqlar, 1 ming 100 ta transformator yangidan quriladi va rekonstruksiya qilinadi. Natijada 420 mingdan ortiq aholi yashaydigan maskanlar obod qilinadi.

To'rtinchidan, kelgusi besh yilda 2,6 ming kilometr avtomobil yo'llari va ko'chalar, 141 ta ko'prikn qurish va ta'mirlash ishlari bajariladi. Bunga 2 trillion so'mdan ziyod mablag' yo'naltiriladi.

Jamoat transporti yetib bormagan 22 ta aholi punktiga avtobus qatnovlari yo'lga qo'yiladi.

Viloyatni Tojikiston orqali Farg'ona vodiysi bilan bog'laydigan 4 ta tranzit avtobus yo'nalishlari joriy etiladi.

Beshinchi yo'nalish – ta'lim sohasi salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar izchil davom ettiriladi.

Viloyatda kelgusi besh yilda **31 ta** davlat va davlat-xususiy sheriklik asosida, **209 ta** oilaviy bog'cha tashkil etiladi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lmagan **8 ta** mahallada **60 ta** oilaviy bog'cha ochiladi.

Mirzaobod, Oq oltin, Sardoba va Xovos tumanlari uchun belgilangan ota-onalar to'lovi miqdorini ikki barobar pasaytirish bo'yicha berilgan imtiyoz 2025-yilgacha uzaytiriladi.

Maktabgacha ta'lim qamrovi **80 foizdan 90 foizga** yetkaziladi.

Umuman, kelgusi besh yilda o'rta maktablarni ta'mirlash va rekonstruksiya qilish bo'yicha yangi dastur qabul qilinadi. Dastur doirasida maktab binolarini qurish, jihozlash va sanitar talablari ilg'or xorijiy tajribalar asosida qayta ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, o'quvchilarning kun davomida vaqtini mazmunli o'tkazishlarini nazarda tutadigan alohida o'quv va to'garaklar dasturi ishlab chiqiladi.

Bunda Sirdaryo viloyati namuna bo'ladi.

Buning uchun Sirdaryodagi maktablarni ta'lim va tarbiya klasteriga aylantiramiz. Bu yerda o'quvchilar ta'lim olish bilan birga, sport bilan shug'ullanishi, axborot texnologiyalari va zamonaviy

kasblarni, musiqa va san'atni o'rganishi uchun barcha sharoitlar yaratiladi.

Ushbu yangi tajribani Guliston va Yangiyer shaharlari, Boyovut, Mirzaobod, Oq oltin, Sardoba, Sirdaryo va Xovos tumanlarida yangi quriladigan 22 ta maktabda boshlaymiz.

Shuningdek, kelgusi besh yilda sirdaryolik xotin-qizlar uchun oliygohlarga kirish davlat granti uch barobar oshiriladi.

Oltinchi yo'nalish – viloyatda aholi salomatligini saqlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshiriladi.

Buning uchun, avvalo, birlamchi tizimni profilaktikaga qayta yo'naltirish, skrining tekshiruvlarini ommalashtirish ustuvor vazifa etib belgilanadi.

Barcha tuman va shahar markaziy poliklinikalarida onkonezorat xonalari tashkil etiladi. Onkologik kasalliklarni erta aniqlash uchun 40 yoshdan oshgan 310 ming nafar aholi har yili skrining tekshiruvidan o'tkaziladi.

Shuningdek, ayollar o'rtasida skrining o'tkazishni kengaytirish uchun mobil mammograf ajratiladi.

Viloyatning 93 ta tibbiyot muassasasi to'liq raqamlashtiriladi va respublika markazlari bilan telemeditsina yo'lga qo'yiladi.

Sirdaryo, Oq oltin va Yangiyerda 3 ta tumanlararo perinatal markazlar tashkil qilinadi va to'liq jihozlanadi.

Oq oltin va Sirdaryo tumanlarida jarohatlar va o'tkir qon-tomir kasalliklari markazlari tashkil qilinadi hamda gemodializ xizmati yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, har yili 285 ming nafar bola va 15 ming homilador ayol vitaminlar bilan bepul ta'minlanadi.

Mamlakatimizda ilk bor tibbiy sug'urta tizimi Sirdaryoda tajribasinov tariqasida joriy qilinmoqda.

Bugungi kunda Sirdaryodagi 29 ta davlat tibbiyot muassasalari tomonidan aholiga kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlar va dori vositalari oilaviy shifokor tomonidan beriladigan yo'llanma asosida taqdim etilmoqda.

Eng muhimi, eski, samarasiz moliyalashtirish tizimidan voz kechilib, viloyatda shifoxonalar bajargan ishi va erishilgan natijalar asosida “har bir davolangan holat” uchun mablag‘ olmoqda.

Endi davolash ishlariga viloyatdagi xususiy klinikalar ham jalb etiladi. Ushbu tizim 2023-yildan boshlab mamlakatimizning barcha hududlarida ham joriy etiladi. Kelgusi yilda 6 ta viloyat shifoxonasi birlashtiriladi va tibbiyot klasteri o‘z faoliyatini boshlaydi.

Ushbu klasterga xorijiy davlatlarning eng ilg‘or klinikalari hamkor sifatida jalb qilinadi hamda barcha murakkab va yuqori texnologik amaliyotlarni o‘tkazish yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, mamlakatimizda ilk bor tashkil etilayotgan ushbu klaster va boshqa tibbiyot muassasalarini zamonaviy kadrlar bilan ta‘minlash maqsadida Guliston tibbiyot kolleji negizida Turkiya-ning Sog‘liq bilimlari universiteti filiali tashkil etiladi.

Umuman olganda, kelgusi besh yilda Sirdaryo viloyatini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish uchun davlatdan jami 40,5 trillion so‘m, jumladan, davlat budjetidan 4,4 trillion so‘m yo‘naltiriladi.

Agar Sirdaryoni korrupsiyadan xoli hududga aylantirsak, ushbu mablag‘lar hisobidan yanada ko‘proq ehtiyojmand aholimiz og‘irini yengil qila olamiz. Shuning uchun budjet ajratmalarini ochiq-oshkora sarflash orqali iqtisod qilingan mablag‘lar to‘lig‘icha ehtiyojmand oilalar, “ayollar” va “yoshlar” daftarlariga kirganlarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladi.

Aziz do‘stlar!

Ko‘rib turganingizdek, biz kelgusi besh yil uchun o‘z oldimizga har qachongidan ham katta, o‘ta muhim vazifalarni qo‘ymoqdamiz.

Albatta, ularga erishish oson emas, buniyam ochiq aytish kerak.

Hayotimizning turli sohalarida muammo va kamchiliklar hali yetarli. Byurokратиya, korrupsiya, loqaydlik, beparvolik kabi illatlar oyog‘imizga kishan bo‘lib turgani ham sir emas.

Ishni zamonaviy tashkil etishda bilimi, saviya va malakasi yetishmayotgan, eskicha ishlab, shunchaki kun o‘tkazib yurgan rahbarlar ham borligini odamlar ko‘rib-bilib turibdi.

Shu munosabat bilan men butun jamoatchiligimizga, xalqimizga murojaat qilib aytmoqchiman.

Yangi O'zbekistonni barpo etish, olib borayotgan islohotlarimizning samaradorligini oshirish uchun bugun bizga ma'rifatli boshqaruv – ilm-fan va adolatli qonunlarga asoslangan, oqilona va samarali boshqaruv kerak.

Endi odamlar dardiga beparvo bo'lgan, "aytganim – aytgan, deganim – degan" qabilida ishlaydigan rahbarlarni xalq ham, hayot ham qabul qilmaydi.

Buni hech kim, hech qachon unutmasligi kerak.

Hurmatli do'stlar!

Barchangiz bilasiz, mamlakatimizning barcha hududlari bilan birga, Sirdaryo viloyatini ham har tomonlama rivojlangan hududga – chinakam gulistonga aylantirish mening saylovoldi dasturimning tub mohiyatini tashkil etadi.

Bu borada bizning eng birinchi vazifamiz – yurtimizda yashayotgan, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir insonning qadr-qimmatini ulug'lash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatishdan, xalqimizning kelajakda emas, balki bugun erkin va farovon yashashiga erishishdan iborat. Bu ezgu maqsadga yetish uchun bizda hamma imkoniyat mavjud. Yer osti boyliklarimiz, serhosil yerimiz, saxiy quyoshimiz bor. Eng muhimi, donishmand nuroniylarimiz, mehribon opa-singillarimiz, azamat yoshlarimiz – tog'ni ursa tolqon qiladigan mehnatkash elimiz bor.

Men ko'pmillatli xalqimiz qatorida, ko'pni ko'rgan, irodasi mustahkam Sirdaryo ahli ham yaqinlashib kelayotgan saylovlarda siyosiy va madaniy saviyasini namoyon etib, o'z mas'uliyatini chuqur his qilgan holda, farovon hayot, yorug' kelajak uchun ovoz beradi, deb ishonaman.

Aziz yurtdoshlar, barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Katta rahmat sizlarga.

*Sirdaryo tumani,
2021-yil 7-oktabr*

**KO'HNA SIVILIZATSIYALAR,
BOY TARIX VA MADANIYATDAN
YANGI TARAQQIYOT SARI**

*(Surxondaryo viloyati saylovchilar vakillari
bilan uchrashuvdagi nutq)*

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!

Hurmatli saylovchilar!

Avvalo, siz, aziz yurtdoshlarim bilan mana shunday ko'tarinki kayfiyatda ko'rishib turganimdan g'oyat xursandman.

Fursatdan foydalanib, sizlarga, sizlar orqali butun Surxondaryo viloyati ahliga o'zimning chuqur hurmat-ehtiromim va ezgu tilaklarimni bildiraman.

Tarixga nazar tashlasak, Surxon eli azaldan mardlar yurti sifatida shuhrat qozonganini ko'ramiz. Bu zamindan kuragi yerga tegmagan polvonlar, chavandozlar yetishib chiqqan. Bugun ham bu yurtidan eng vatanparvar askar va zobitlar, mohir sportchilar yetishib chiqmoqda.

Mana, o'zingiz ko'rib-bilib turibsiz, qo'shni Afg'onistondagi murakkab vaziyat barchamizni tashvishga solmoqda. O'zbekiston Afg'onistonning yaqin qo'shnisi sifatida ushbu mamlakatda tezroq tinchlik va barqarorlik o'rnatilishidan manfaatdor. Biz afg'on xalqi bilan qadimdan do'st-birodar bo'lib kelganmiz. Bundan buyon ham afg'on xalqiga qo'limizdan kelganicha yordam beramiz.

Hurmatli uchrashuv qatnashchilari!

Barchangizga yaxshi ma'lumki, Surxon – ko'hna sivilizatsiyalar, boy tarix va madaniyatni mujassam etgan qadimiy zamin. Tarixda Boxtar, Toxariston, Chag'oniyon kabi davlatlar, Kushondek buyuk imperiyalar aynan shu hududda gullab-yashnagan. Fayoztepa, Qoratepa, Dalvarzintepa, Xolchayon kabi arxeologik manzilgohlar bu zamin buddizm markazi sifatida shuhrat qozonganidan dalolat beradi.

Hurmatli olimlarimiz yaxshi biladi, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Tailand, Laos kabi mamlakatlarda buddizmga e'ti-

qod qiladigan millionlab odamlar uchun bunday yodgorliklar hali ochilmagan qo'riq bo'lib turibdi. Shuning uchun ana shu manzilgohlar bo'ylab infratuzilmalar yaratish, turistik marshrutlar tashkil etish borasidagi ishlarimizni davom ettiramiz.

Surxon vohasi muqaddas dinimiz rivojiga beqiyos hissa qo'shgan tabarruk zamin ekanini barchamiz iftixor bilan tilga olamiz. Bu diyordan yetishib chiqqan, shu zaminda yashab ijod qilgan Iso Termiziy, Hakim Termiziy, Varroq Termiziy, Sobir Termiziy, Alouddin Attor, So'fi Olloyor singari buyuk va mashhur olim-u ulamolar, shoir va adiblarning har biri haqida soatlab gapirish mumkin.

Albatta, ana shunday ajdodlarimiz xotirasiga yuksak ehtirom ko'rsatish bo'yicha keyingi yillarda sizlar bilan birga katta ishlarni amalga oshirdik. Jumladan, Imom Termiziy va Hakim Termiziy ziyoratgohlari yangitdan qurildi va obod qilindi, Termizda Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etib, faoliyatini yo'lga qo'ydik.

Oltinsoy tumanida mashhur shoir va ulamo So'fi Olloyor maqbarasi hashar yo'li bilan qisman obod qilingan. Endi bu maskanni yanada obod qilish, unga olib boradigan yo'l va kommunikatsiyalar, ziyoratchilar uchun qulayliklar yaratish – oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir.

Yana bir tabarruk maskan – Sulton Saodat majmuasida qancha sayyid va sayyidzodalar, aziz avliyo zotlar dafn etilganini sizlar yaxshi bilasiz. Bu muborak qadamjoni tubdan obod etishni boshlaganimizdan xabaringiz bor.

Nasib etsa, ana shu qutlug' maskanlar yurtdoshlarimiz, chet ellik mehmonlar uchun ziyoratgohga aylanadi.

Qadrli saylovchilar!

Sizlarga yaxshi ma'lum, bu zamin asrlar davomida azim daryolardan suv ichib kelgan. Lekin bu vohani gullatib-yashnatgan, uni dunyoga tanitgan eng buyuk daryo – bu o'lkaning mehnatkash va saxovatli xalqi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Buning tasdig'ini bu yerda keyingi besh yilda amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar misolida ko'rish mumkin. Mehnatkash va matonatli voaha ahli og'ir iqlim sharoitiga qaramasdan, fidokorona mehnat qilib, turli soha va tarmoqlarda ulkan natijalarga erishayotganini el-yurtimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi.

Bu haqda so'z yuritganda: Surxon vohasining qiyofasi tubdan o'zgarib, ko'plab zamonaviy korxonalar, magistral yo'l va ko'priklar, shinam uy-joylar, ilm-fan, madaniyat, san'at va sport maskanlari barpo qilingani, xalqaro baxshichilik maktabi, o'nlab bog'cha va maktablar, oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari tashkil etilgani, shahar, qishloq va mahallalar tobora obod bo'lib, odamlarning hayot darajasi o'sib borayotganini alohida ta'kidlash lozim.

O'zining halol mehnati, betakror iste'dodi, bilim va tajribasi bilan ana shunday ulkan o'zgarishlarga munosib hissa qo'shib kelayotgan yurtdoshlarimiz haqida, albatta, bugun faxrlanib gapirsak arziydi.

Ayniqsa, O'zbekiston Qahramonlari Ibrohim Fayzullayev, Rahmon Muhammadiyev, Ahmad Narzullayev, Isaxon Bahromov, Yusuf Ziyoyev, muhtaram faxriylarimiz Orziqul Soatov, Himoyiddin Sharofuddinov, Yazzon Hayitqulov, Abdikarim Ahmedov, Muhiddin Abdullayev, Abdumurod Lapasov, Abduxalil Namozov kabi fidoyi insonlarning el-yurtimiz oldidagi xizmatlarini barchamiz yaxshi bilamiz.

Bugun Sherzod Shoymardonov, Bahodir Qodirov, Hayitali Allamurodov, Akbar Husanov, Bahrom Mo'minov, Muqaddas Ismoilova, Chori Cho'tpo'latov, Kamol Saidov, Ahmat Majidov Yo'ldosh Shoymatov kabi taniqli tadbirkorlar, klaster rahbarlari va fermerlarning nomlarini alohida qayd etib o'tmoqchiman.

Surxon zaminidan yetishib chiqqan hurmatli olimlarimiz – akademik Nazar To'rayev, professorlar Sayfulla Tursunov, Ergash To'rayev, Shomat Samadov, yosh olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-Prezidenti Sirojiddin Mirzayev, ma'naviyat fidoyisi Toshtemir Turdiyev va boshqa ziyolilarimizga czgu faoliyatida yutuq va omdalar tilayman.

Ushbu vohada tug'ilib voyaga yetgan Ra'no Uzoqova, Shukur Xolmirzayev, Ro'zi Choriyev, Mengziyo Safarov, Tesha Saydaliyev, Shafolat Rahmatullayev, Tog'ay Murod, Jamila Ergasheva, Nodir Normatov singari marhum ijodkorlarning xotirasiga chuqur hurmat bajo keltiramiz.

Atoqli rassom Ro'zi aka Choriyevni barchamiz yaxshi bilamiz. U kishi o'zining go'zal asarlari, sodda va beg'ubor xarakteri, Surxon zaminiga bo'lgan cheksiz muhabbati va vatanparvarligi bilan hammamizning mehrimizni qozongan edi.

Rahmatli Ro'zi Choriyevning tavallud topganiga bu yil 90 yil to'ldi. Albatta, bu – oddiy sana emas. Bu – biz uchun, ayniqsa, san'atni yuksak qadrlaydigan Surxon ahli uchun o'ziga xos tasviriy san'at bayramidir. Ushbu sana munosabati bilan Ro'zi Choriyev xotirasini abadiylashtirish bo'yicha Termiz shahrida qator ishlar amalga oshirildi.

Surxon vohasidan yetishib chiqqan iste'dod egalari bugun ham milliy adabiyotimiz va san'atimiz rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

Ayniqsa, O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zam, O'zbekiston xalq shoirlari Usmon Azim, Sirojiddin Sayyid, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Mirzo Kenjabek, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimlari Eshqobil Shukur, To'lqin Hayit kabi hurmatli ijodkorlarimizga bu boradagi xizmatlari uchun tashakkur aytamiz.

Ular qatorida O'zbekiston xalq baxshilari Shoberdi Boltayev, Abdinazar Poyonov, Chori Umirov, Xushvaqt Mardonaqulov, Baxshiquil Tog'ayev va Safar Shaydulovga samimiy ehtiromimizni bildiramiz.

Shaxsan men baxshilarning ovozini – yaxshilarning ovozi deb bilaman. Shunday sehrli ovoz Surxon vohasida, butun yurtimizda doimo mag'rur jaranglab tursin!

Surxon vohasining o'ziga xos, go'zal va bebaho san'atiga sayqal berib, uning rivojini yangi bosqichga ko'tarayotgan O'zbekiston

san'at arbobi Mansur Ravshanov, O'zbekiston xalq artistlari Aziza Begmatova, Gulnora Ravshanova, Mahmud Namozov, Samandar Alimov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Sayyora Qoziyeva, Hosila Rahimova singari mashhur san'atkorlarimiz, "Surxon" guruhi, "Shalola" va boshqa ijodiy jamoalarga yanada katta ijodiy yutuqlar tilaymiz.

Surxon vohasi o'z pahlavonlari bilan dunyoda nom qozongan, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Toshtemir Muhammadiyev, Abdulla Tangriyev, Maxtumquli Mahmudov kabi kurash bo'yicha jahon chempionlarimiz va ularning izidan kelayotgan sportchi yoshlarimiz bu fikrni amalda yaqqol tasdiqlab kelmoqda.

Azm-u shijoatli voha yoshlari jahon sport arenalarida chinakam Alpomish avlodi, chinakam pahlavonlar yurti farzandlari ekanlarini o'zlarining yorqin g'alabalari bilan isbotlab kelayotganlari barchamizni quvontiradi.

Yaponiyada bo'lib o'tgan Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida oltin medallarni qo'lga kiritgan Bahodir Jalolov, Guljanoy Naimova, Italiyaning "Roma" jamoasi a'zosi, mashhur futbolchimiz Eldor Shomurodov, jahon va Osiyo chempionlari Muhsin Hisomiddinov, Nodir Egamberdiyev, Jahongir Narziyev xalqaro maydonlarda O'zbekiston bayrog'ini yanada baland ko'taradilar, deb ishonamiz.

Surxondaryodagi ming-minglab bunday fidoyi yurtdoshlarimiz timsolida biz Yangi O'zbekistonni barpo etishda faol ishtirok etayotgan surxondaryolik chinakam vatanparvar insonlarni ko'ramiz.

Doimo sog'-omon bo'linglar, katta rahmat sizlarga!

Hurmatli yig'ilish ishtirokchilari!

Oxirgi besh yildagi tub islohotlarimiz va amaliy ishlarimiz natijasida mamlakatimizning barcha hududlari qatori, Surxondaryoda ham bo'layotgan sezilarli o'zgarishlardan, albatta, sizlar xabardorsiz. Buni har bir Surxon aholisi kundalik turmushida his qilmoqda, o'z mahallasida ko'rib, shukronalik bilan qo'llab-quvvatlamqda, desak, bu ham haqiqat. Shu bois bugun erishilgan natijalarga to'xtalib o'tishni lozim topmadim.

Eng muhimi, odamlarimizning fikr-qarashlari o'zgardi, ularning ertangi kunga ishonchi, islohotlarimizga nisbatan daxldorligi oshdi.

Shuni hisobga olib, bugungi uchrashuvga tayyorgarlik ko'rish jarayonida Surxondaryoda aholi yaqin yillarda qanday o'zgarishlarni kutayotganini, ularni eng ko'p bezovta qilayotgan dolzarb muammo va masalalarni puxta o'rgandik.

Xususan, aholimiz uchun eng muhim masalalardan biri bu – markazlashgan toza ichimlik suvi ta'minoti darajasi bo'yicha viloyat respublikada eng oxirgi o'rinlarda turadi. Jumladan, 144 ta mahallaga ichimlik suvi hali umuman yetib bormagan. Sherobod, Angor, Boysun, Bandixon, Muzrabot, Oltinsoy, Jarqo'rg'on va Denovda ichimlik suvi ta'minoti juda past darajada.

Shuningdek, viloyatda uy-joy, yo'l-transport, elektr ta'minoti kabi masalalar bo'yicha ham aholining ko'plab e'tirozlari mavjud.

Shu bilan birga, viloyatda 115 ming nafar aholi ishsiz. Bunga qo'shimcha ravishda har yili mehnat bozoriga 39 ming nafar yoshlar kirib kelmoqda, 131 ming oila doimiy daromad manbaiga ega emas.

Sog'liqni saqlash va ta'lim sohasida ham hal etishimiz kerak bo'lgan ko'plab kamchiliklar mavjud.

Jumladan, viloyatda 377 ming nafar aholida surunkali kasalliklar bor. Ayniqsa, yurak-qon tomir, qandli diabet, buyrak yetishmovchiligi, nafas yo'llari kasalliklari ko'plab uchraydi. Shunga qaramay, 2 ming 600 nafar shifokor yetishmaydi, yana 2 ming nafari pensiya yoshida.

Eng og'ir muammolardan yana biri bu – maktabgacha ta'limning ahvoli. Bandixon, Denov va Qumqo'rg'onda maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 30 foizga ham yetmaydi. Viloyatda 119 ta mahallada hali bog'cha mavjud emas.

Viloyatda 58 ta maktab quvvatiga nisbatan ikki barobar ko'p yuklama bilan ishlamoqda, 2 mingdan ziyod pedagog ish joylari vakant bo'lib qolmoqda.

Eng achinarli holatlardan birini bugun eslamaslik mumkin emas. Chunki viloyatning shu ahvolga kelib qolishiga ba'zi idoralarda

ildiz otib ketgan adolatsizliklar ham sabab bo'lgan. Odamlar hech narsaga ishonmay qolgandi. Qo'lidan ish keladigan tadbirkorlar nohaq qamalgan yoki qochib ketgandi. Shuning uchun viloyatda tadbirkorlik ham respublikada eng oxirgi o'rinlarda edi. Mana shu sabablar ham viloyat taraqqiyotiga jiddiy to'siq bo'lgan.

Biz bu noma'qulchiliklarni bartaraf qilishda qonun ustuvor va jazo muqarrarligini ta'minlab, barchasini joy-joyiga qo'ydik.

Yuqoridagilarni hisobga olib, biz Surxondaryoda aholi hayotini yaxshilash va inson qadr-qimmatini ta'minlash bo'yicha besh yillik dastur tayyorladik.

Bunda quyidagi ustuvor yo'nalish va vazifalarga alohida e'tibor qaratamiz.

Birinchi yo'nalish – aholining kundalik hayoti va kayfiyatiga katta ta'sir qiladigan yashash sharoitlarini yaxshilash e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Bunda, avvalambor, 2022–2026-yillarni Surxondaryoda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash besh yilligi deb e'lon qilamiz. Buni amalda ro'yobga chiqarish uchun kelgusi besh yilda viloyatda 1 ming 700 kilometr ichimlik suv tarmoqlari va 96 ta suv inshooti barpo etiladi.

Aniq misollar bilan aytadigan bo'lsak, megaloyiha – To'palang suv omboridan Termizgacha 361 kilometr uzunlikdagi magistral suv tarmog'i quriladi. Bunga 138 million dollar ajratamiz.

Shu bilan birga, Muzrabot, Sherobod tumanlarida ichimlik suvi ta'minoti yaxshilanadi, Termiz shahrining oqova suv tizimi rekonstruksiya qilinadi hamda Sariosiyo, Denov, Jarqo'rg'on, Muzrabot, Sherobod, Qumqo'rg'on, Oltinsoy, Sho'rchi tumanlarida oqova suv tizimlari quriladi.

Umuman, markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 57 foizdan 80 foizga yetkazilib, 800 ming aholi ilk bor toza ichimlik suvi bilan ta'minlanadi, 870 ming aholining suv ta'minoti yaxshilanadi, kanalizatsiya xizmati bilan ta'minlanish darajasi 4 foizdan 22 foizga yetadi.

Bu maqsadlarga 5,5 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltiramiz.

Yana bir muhim masala – kelgusi besh yilda 20 ming xonadonli 600 dan ziyod ko‘p qavatli uy-joylar quriladi. Shundan, qariyb 3 mingta xonadon ehtiyojmand oilalarga ajratilib, ularga ipoteka krediti bo‘yicha 120 milliard so‘mlik subsidiya beriladi.

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida 150 ta qishloq va mahallani obod qilish, ijtimoiy soha obyektlari va ichki yo‘llarni qurish-ta‘mirlash ishlariga har yili 500 milliard so‘m yo‘naltiriladi.

Elektr energiyasi ta‘minotini yaxshilash maqsadida kelgusi besh yilda 5,5 ming kilometr past va yuqori kuchlanishli tarmoqlar, 1,5 mingta transformator yangidan quriladi va ta‘mirlanadi. Buning samarasi o‘laroq, 264 mingdan ziyod aholi xonadonlari hamda 6 mingdan ziyod ijtimoiy soha va tadbirkorlik obyektlarining elektr ta‘minoti barqarorlashadi.

Termiz tumanidan Termiz shahriga qo‘shilgan mahallalarni bog‘lash uchun yirik yo‘l o‘tkazgich barpo etiladi.

Shuningdek, kelgusi besh yilda 6 ming kilometr avtomobil yo‘llari va ko‘chalar, 300 ta ko‘prikni qurish-ta‘mirlash ishlari bajariladi. Bunga 2 trillion so‘m yo‘naltiriladi.

Bundan tashqari, “Darband–Denov”, “Toshkent–Termiz” va “Dushanbe–Termiz” yo‘nalishlari bo‘yicha 180 kilometr avtomobil yo‘llarini rekonstruksiya qilishga xalqaro moliyaviy institutlarining mablag‘laridan 380 million dollarlik loyihalar amalga oshiriladi.

Ikkinchi yo‘nalish – viloyatda qishloq xo‘jaligida eksportni eng kamida besh barobar oshirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

So‘nggi uch yilda viloyatda sabzavot maydonlari 35 ming gektarga kengaytirildi va 10 ming gektar yerda intensiv bog‘lar, tokzor va issiqxonalar barpo etildi. Xususan, Termiz, Sariosiyo va Sho‘rchi tumanlarida 150 gektar joyda limon, Sherobodda 3,1 ming gektar yerda anor va Bobotog‘ hududida 2,7 ming gektar joyda pista plantatsiyalari barpo etildi. Natijada viloyatning meva-sabzavotlar

eksporti so'nggi uch yilda ikki barobar oshib, 100 million dollarga yetdi.

Viloyatning salohiyatini to'liq ishga solib, ushbu ko'rsatkichni kamida 500 million dollarga yetkazish lozim.

Birinchidan, viloyatning bebaho tabiatidan foydalanib, ertapishar mahsulotlarni yetishtirish orqali yiliga uch marta hosil olish shart va zarur. Bu viloyat uchun juda katta imkoniyatdir.

Misol uchun, oldingi yillarda Angor tumanida paxta va g'alladan boshqa hech narsa yo'q edi. So'nggi yillarda yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanib, angorliklar 6,5 ming gektarda ertachi ekin sifatida ko'kat, karam, brokkoli, qizil lavlagi, bulg'or qalampiri kabi mahsulotlarni yetishtirmoqdalar. Bundan tashqari, 21 ming aholi xonadonidagi 2,3 ming gektar tomorqada ham ushbu eksportbop ekinlar ekilmoqda.

Natijada Angorning qishloq xo'jaligi mahsulotlari fevral oyidan boshlab nafaqat mamlakatimiz, balki tashqi bozorlarga ham yetkazilib, joriy yilning o'zida qariyb 10 million dollarlik eksport qilingan.

Kelgusi besh yilda Angorda eski bog' va tokzorlar hamda yangi o'zlashtiriladigan yerlar hisobidan ertachi ekinlar maydoni 20 ming gektarga va eksport hajmi yiliga 25 million dollarga yetkaziladi.

Shuningdek, tumanda ming gektar paxta va g'alla maydonlari ochiq tanlov asosida aholiga o'rtacha 50 sotixdan uzoq muddatga ijaraga beriladi va ikki mingga yaqin ish o'rni yaratiladi.

Angor misolida boshqa tumanlarda ham jami 50 ming gektar maydonda ertachi ekinlar yetishtirish yo'lga qo'yilib, eksport hajmi yiliga 100 million dollarga yetkaziladi. Ushbu yetishtirilgan ertachi meva-sabzavot mahsulotlarni tezkor eksportga yuklash tizimini tashkil qilish maqsadida respublika Eksportni rag'batlantirish agentligi qoshida Surxondaryo viloyati uchun alohida Jamg'arma tuziladi va har yili 100 million dollar mablag' yo'naltiriladi.

Aholi tomorqalarida suv ta'minoti og'ir bo'lgan 150 ta mahallada 775 ta quduq qazilib, 23 mingta oila tomorqasida mahsulot

yetishtirish imkoniyati yaratiladi. Viloyatning jami 15 ming gektar paxta va g'alla maydonlari ochiq tanlov asosida aholiga ajratiladi.

Agar bu tajriba tez orada o'z samarasini bersa, yana kamida shuncha paxta va g'alla maydonlari kamaytirilib, meva-sabzavot yetishtirishga ajratiladi.

Shuningdek, 2 ming gektar yerda issiqxona, jumladan, ming gektarda limon yetishtirish yo'lga qo'yiladi va 5 mingdan ortiq aholi bandligi ta'minlanadi. Birgina Qumqo'rg'onda kamida 300 gektar maydonda limon yetishtiriladi.

Ikkinchidan, oborotdan chiqqan 16,5 ming gektar maydon qayta o'zlashtirilib, meva-sabzavotchilik va chorvachilikka ajratiladi va 20 mingga yaqin aholi band qilinadi.

Masalan, Muzrabotda 1,7 ming gektar, Bandixonda 1,5 ming gektar, Qiziriqda 1,3 ming gektar, Qumqo'rg'on va Uzunda ming gektardan qo'shimcha yer maydonlari foydalanishga kiritiladi.

Bundan tashqari, Oltinsoy, Sariosiyo, Uzun, Denov tumanlarida 20 ming gektar uzumzor, Muzrabot, Qiziriqda 7 ming gektar anorzor barpo etilib, 30 mingdan ortiq ish o'rni yaratiladi.

Masalan, Oltinsoyda 1 ming 700 gektar maydonda klaster usulida uzum plantatsiyasi barpo etilib, 3 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratiladi. Uzun tumanida "In-vitro" usulida yiliga 2 million dona meva va uzum ko'chatlarini yetishtirish yo'lga qo'yiladi.

Yangi bog' va tokzorlar uchun yer solig'ini to'lash bo'yicha imtiyozli davr uch yildan besh yilga uzaytiriladi hamda yetti yil muddatga imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Shuningdek, 3 ming gektar o'rmon xo'jaligi yerlarida pista, kavrak va pavloniya plantatsiyalari tashkil qilinadi.

Muzrabotda 20 ming gektar joyda zamonaviy ilm va texnologiyalar asosida sholichilik klasteri tashkil etilib, 90 ming tonna sholini qayta ishlash va saqlash quvvatlari ishga tushiriladi.

Uchinchidan, oborotdan chiqqan yerlarning 6 ming gektarida hamda lalmi maydonlarda chorva uchun ozuqabop ekinlar yetishtiriladi.

Bundan tashqari, kelgusi besh yilda xonadonlarga 6,5 million bosh parranda tarqatilib, ularga qo‘shimcha daromad olish imkoniyati yaratiladi. Qumqo‘rg‘on, Sherobod va Boysun tumanlarida qo‘ychilik klasterlari tashkil etilib, jundan gilam to‘qish yo‘lga qo‘yiladi. Natijada chorvachilik sohasida 17 mingga yaqin aholi bandligi ta‘minlanadi.

Baliqchilik yo‘nalishida 10 ta klaster tashkil etilib, ming gektar suv havzalarida baliq hosildorligi to‘rt-besh barobar oshirilib, mahsulot hajmi 35 ming tonnaga yetkaziladi.

To‘rtinchidan, kelgusi besh yilda oziq-ovqat sanoatida 350 million dollarlik 490 ta katta-kichik loyihalar amalga oshiriladi. Natijada meva-sabzavotlarni qayta ishlash darajasi 40 foizga yetkazilib, 7 mingta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Qiziriqda 250 million dollarlik to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan zamonaviy issiqxona kompleksi barpo etiladi. Uning negizida 65 ming tonna meva-sabzavotni saqlash, qadoqlash va eksport qilish quvvatiga ega bo‘lgan agrologistika kompleksi tashkil etilib, 1,5 mingta ish o‘rni yaratiladi. Shuningdek, Angor, Termiz, Oltinsoy va Sariosiyoda ham agrologistika komplekslari tashkil qilinadi.

Surxondaryo viloyatidan eksport qilinadigan barcha turdagi meva-sabzavot mahsulotlarini tashish xarajatlarining 50 foizgacha qismi qoplab beriladi.

Beshinchidan, ekin yerlar suv ta‘minoti va meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha alohida dastur amalga oshiriladi.

Bunda 115 ming gektar maydonda suv tejaydigan texnologiyalar joriy qilinadi. Shuningdek, 163 million dollar hisobidan 229 ming gektar maydonning suv ta‘minoti va 160 ming gektar ekin yerlarining meliorativ holati yaxshilanadi.

Uchinchi yo‘nalish – viloyatda sanoatni rivojlantirib, eksport va investitsiya hajmini ko‘paytirish orqali iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratiladi.

Mavjud imkoniyatlarga qaramasdan, viloyat yalpi hududiy mahsulotdagi sanoatning ulushi 7,8 foizni tashkil etadi. Bu respublikada past ko'rsatkichlardan biridir.

Bundan tashqari, viloyatning tuman va shaharlarida sanoat bir maromda o'sayotgani yo'q. Bu borada Surxon vohasining Alloh bergan mavjud tabiiy, noruda va qazilma resurslaridan to'liq foydalana olmayapmiz.

Shuning uchun viloyatda investitsion va tadbirkorlik faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida kelgusi besh yilda sanoat tarmoqlarida 6,6 milliard dollarlik 5 mingdan ziyod investitsiya loyihalari amalga oshirilib, 130 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Birinchidan, viloyat uchun asosiy drayver bo'lgan qurilish materiallari, to'qimachilik, ipakchilik, oziq-ovqat, charm-poyabzal kabi sohalardagi loyihalarga alohida e'tibor beriladi. Jumladan, qurilish materiallari sanoatida bir milliard dollarlik 900 ta loyihani ishga tushirish hisobidan 14 mingdan ziyod ish o'rinlari yaratiladi, ishlab chiqarish hajmi besh barobar ko'payib, yiliga 670 million dollarlik import o'rni bosadigan 280 million dollarlik eksportbop mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Buning uchun viloyatda mavjud 64 ta kon to'liq o'zlashtirilib, xususiy sektorga beriladi, shuningdek, bazalt, gips, shisha, keramzit uchun xomashyo, qurilish va pardozbop toshlar va ohaktosh mavjud bo'lgan 75 ta istiqbolli maydonlarda geologiya-qidiruv ishlari yakuniga yetkaziladi.

Sariosiyo, Sherobod, Boysun va Jarqo'rg'on tumanlarida qurilish materiallari ishlab chiqarishga mo'ljallangan "xomashyodan tayyor mahsulotgacha" tamoyili asosida sanoat zonalarini tashkil etiladi.

Ushbu tumanlarda 20 dan ziyod noruda konlari bo'yicha geologiya-qidiruv ishlariga qo'shimcha 100 milliard so'm mablag' ajratiladi.

Bundan tashqari, to'qimachilik sanoatida 250 million dollarlik 42 ta yirik loyihani ishga tushirish natijasida 21 mingta yangi ish

o'zni tashkil etiladi va viloyatdagi ip-kalavanning qayta ishlash darajasi hozirgi 22 foizdan 60 foizga yetkaziladi.

Ipakchilik sohasida 165 million dollarlik 58 ta loyiha ishga tushirilishi natijasida ipak mato ishlab chiqarish hajmi ikki barobar, ipak gilamlari hajmi besh barobar oshirilib, qo'shimcha 18 mingta doimiy va 110 mingta mavsumiy ish o'rinlari yaratiladi.

Charm-poyabzal sohasida 120 million dollarlik 37 ta yangi loyiha ishga tushirilib, hozirgi xomashyo va yarim tayyor mahsulotlardan tayyor eksportbop poyabzal va charm-attorlik mahsulotlarini ishlab chiqarishga o'tiladi. Natijada 5 mingta yangi ish o'zni va 90 million dollarlik qo'shimcha eksport imkoniyatlari yaratiladi.

Ikkinchidan, ushbu investitsiya loyihalarini samarali amalga oshirish maqsadida yangi tizim yaratiladi.

Viloyatning har bir tumanida "Loyiha guruhi" tashkil etilib, kichik geologiya ekspeditsiyasi faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Misol uchun, Sariosiyo tumanining qo'rg'oshin, rux, ko'mir, noruda qazilmalarga, Uzun tumanining misga, Boysun, Termiz, Sho'rchi, Jarqo'rg'on va Qumqo'rg'on tumanlarining neft va gazga, Sherobodning temir rudasi va ko'mirga boy istiqbolli maydonlarida geologiya-qidiruv ishlari olib boriladi.

"Loyiha guruhi" tomonidan tumanning yer osti va yer usti imkoniyatlari tahlil qilinib, har bir tuman bo'yicha investitsiya va eksport strategiyasi ishlab chiqiladi.

Bunda aniq loyihalar tayyorlanib, ular tumandagi salohiyatli tadbirkorlar ishtirokida tuziladigan "Xolding kompaniyasi" tomonidan amalga oshiriladi. To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi loyihalarning 30 foizigacha qismini moliyalashtiradi.

Ushbu yangi tizimni samarali tashkil qilish uchun Jamg'arma har bir tumanga yiliga 15 million dollargacha, sanoati past bo'lgan tumanlarga esa 30 million dollargacha mablag' ajratadi.

Ushbu aytib o'tilgan barcha masalalarni muvofiqlashtirib, tadbirkorlar bilan "yagona darcha" tamoyili asosida ish olib borish uchun viloyatda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirining o'rin-

bosari boshchiligida “Investorlarga ko‘mak markazi” tashkil etiladi. Markazga respublika darajasidagi masalalarni hal qilish vakolatlari beriladi. Ya’ni tadbirkorlik jamg‘armasi hamda eksport jamg‘armasi mablag‘larini ajratish, ruxsatnomalar berish kabi masalalar endi Surxondaryoning o‘zida tezkor hal qilinishi ta’minlanadi.

Uchinchidan, viloyat iqtisodi o‘shishiga turtki beradigan 10 ta megaloyiha ishga tushirilib, jami 5,1 milliard dollar investitsiya o‘zlashtiriladi va 22 mingta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Xususan:

– Angor tumanida 1530 megavatt quvvatga ega yangi bug‘-gaz elektr stansiyasini ishga tushirish uchun Niderlandiyaning “Stoun Siti Enerji” hamda Germaniyaning “Simens” kompaniyalarining 1,2 milliard dollarlik;

– Sherobod tumanida 457 megavatt bo‘lgan fotoelektr stansiyasini qurish uchun Birlashgan Arab Amirlklarining “Masdar” kompaniyasining 260 million dollarlik to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalari o‘zlashtiriladi.

Natijada viloyat va qo‘shni hududlardagi 750 mingta xonadon va 60 mingta sanoat korxonasining elektr energiyaga ehtiyojini to‘liq qoplash imkoniyati yaratiladi.

Xuddi shuningdek, Jarqo‘rg‘on tumanida rossiyalik hamkorlar bilan 150 million dollarlik xorijiy investitsiyalar hisobidan mavjud konlarda neft qazib olish hajmi besh barobar ko‘paytirilib, 250 ming tonnaga yetkaziladi.

Bundan tashqari:

– Sherobod tumanida pokistonlik hamkorlar bilan 150 million dollarlik hamda Boysun tumanida Janubiy Koreya investorlari bilan 100 million dollarlik, jami 2,5 million tonna ishlab chiqarish quvvatiga ega sement korxonasi loyihasi;

– Denov tumanida 30 million dollarlik miniven va kichik yuk avtomobillari ishlab chiqarish loyihasi;

– Angor tumanida 23 million dollarlik tayyor poyabzal va charm-attorlik mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihasi;

– Jarqo‘rg‘on tumanida 45 million dollarlik qurilish materiallarini ishlab chiqarish loyihasi viloyatning sanoat salohiyatini oshirishga o‘z hissasini qo‘shadi.

To‘rtinchidan, viloyat eksporti besh barobar ortib, yillik 1 milliard dollarga, shundan sanoat mahsulotlari eksporti 500 million dollarga yetkaziladi. Bu borada har yili eng salohiyatli 100 ta mahalliy korxonaning tashqi bozorga chiqishiga yo‘l ochish uchun “tadbirkordan eksportchigacha” tamoyili asosida har bir korxonaga uchun alohida dastur ishlab chiqiladi.

Shuningdek, Termiz tumanida “Termiz xalqaro savdo markazi” faoliyati yo‘lga qo‘yilib, eksportchilar uchun tovarlarni tashish va zarur infratuzilmani yaratish orqali qo‘shimcha yillik 200 million dollarlik eksport hajmlari ta‘minlanadi.

Bundan tashqari, Denovda 20 gektar yerda erkin iqtisodiy zona maqomiga ega savdo-ishlab chiqarish hududi tashkil etiladi.

Umuman, viloyatda eksportni tizimli qo‘llab-quvvatlash natijasida kelgusi besh yilda eksportchi korxonalar soni uch barobar oshib, 900 taga yetadi.

Viloyat eksporti tarkibida qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ulushi hozirgi 32 foizdan 65 foizga oshiriladi.

Shuningdek, 150 ta yangi turdagi tayyor sanoat mahsulotlari eksporti o‘zlashtirilib, eksportga chiqarilayotgan mahsulotlar turlari 250 taga yetkaziladi.

To‘rtinchi yo‘nalish – tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kelgusi besh yilda 150 mingta yangi ish o‘rni yaratiladi. Buning uchun, avvalambor, kichik biznes va hunarmandchilikni rivojlantirish orqali 62 mingta yangi ish o‘rni tashkil etiladi. Bu ishlarni moliyaviy ta‘minlash uchun viloyatga har yili oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida bir trillion so‘m imtiyozli kredit resurslari ajratamiz.

Sherobod tumani misolida tumanni ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududga aylantirish bo‘yicha yangi “mahallabay” ishlash tizimiga to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Bugungi kunda Sherobodda 48 ta mahallada 8 ming 700 nafar mehnatga layoqatli aholi ishsiz. Kelgusi besh yilda yana 28 ming yigit-qiz mehnat bozoriga kirib keladi.

Tumanning hozirgi kundagi imkoniyatlari to'liq ishga solinsa, birorta ishsiz qolmasligi kerak.

Misol uchun, "Ayinli", "Boyqishloq", "Bog'obod", "Xo'jaqiya" mahallalarida 850 dan ziyod ishsiz aholi bor. Vaholanki, ushbu mahallalar anorchilikka ixtisoslashgan bo'lib, ikki milliard so'm hisobidan 400 gektar bo'z yerlarni qayta o'zlashtirib, ushbu mahallalar aholisini ish bilan to'liq band qilish mumkin.

Xuddi shu kabi tumanda 2 ming 300 gektar yerni oborotga qaytarish hisobidan kooperatsiya asosida anor plantatsiyalari tashkil etilib, tumanda 4 mingta ish o'rni yaratiladi. Bunda kooperativni tashkil etgan tadbirkor xonadonlar va dehqonlarni anor ko'chatlari, o'g'it va dorilar bilan ta'minlaydi hamda tayyor mahsulotni kafolatli sotib oladi. Bu orqali har bir oila yiliga 100 million so'mgacha daromad olishi mumkin.

Bundan tashqari, tumanning "Kattabog'", "G'urjak", "Oltin voha" va "Sherobod" mahallalarida qo'shimcha 100 gektar maydonda limonchilik yo'lga qo'yilib, 1,7 ming nafar aholi ish bilan ta'minlanadi.

Shu bilan birga, tumanda 700 million tonna sement, 6,5 million tonna ohaktosh, 43 million tonna mineral tuzlar, 2,5 million tonna pardozbop toshlar zaxirasi mavjud.

Shu bois, Sherobod tumanida sanoat sohasida umumiy qiymati 7 trillion so'm bo'lgan 90 ta loyiha amalga oshirilib, 7 mingdan ziyod ish o'rni yaratiladi.

Jumladan, mavjud zaxiralarni qayta ishlashga infratuzilma olib kelinib, "Vandob" mahallasida 200 gektar maydonda industrial zona, "Taroqli" va "Qorabog'" mahallalarida 2 ta kichik sanoat zonasi tashkil etilib, 5 ming aholi ish bilan ta'minlanadi. Shuningdek, mavjud korxonalar faoliyatini kengaytirish natijasida 1,5 mingta ish o'rni yaratiladi.

Bundan tashqari, tuman hududidan o'tgan xalqaro magistral yo'l bo'yidagi yerlar ochiq aukcion orqali savdoga chiqarilib, 160 ta xizmat ko'rsatish obyekti barpo etiladi va 600 ta ish o'rni yaratiladi. Tumanning 7 ta "qizil" mahallasiga tadbirkorlik dasturlari doirasida 10 foizli stavkada 15 milliard so'm kredit ajratilib, 2 ming 100 aholining ish bilan bandligi ta'minlanadi.

Umuman, kelgusi besh yilda qayd etilgan tadbirlar natijasida tumanda 16 ming aholi ishli bo'ladi.

Hurmatli uchrashuv ishtirokchilari!

Yangi tizim to'g'risida sizlar bilan maslahatlashmoqchiman.

Endi har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha "hokim yordamchilari" lavozimlari joriy etiladi. Har bir mahallaning o'z budjeti bo'ladi. Shu orqali ehtiyojmand oilalarga subsidiyalar ajratish, jamoat ishlariga jalb qilish, yoshlarni kasbga o'qitishni tashkil etish vakolatlari hokim yordamchilariga beriladi.

Hokim yordamchilari iqtisodiyot va investitsiya idoralari, hokimiyatda ishlaydigan bilimli va shijoatli yoshlar orasidan tanlanadi. Lavozimga qo'yishdan oldin ular ikki oy davomida yangi tizim asosida ishlashga o'qitiladi. Ikki-uch yil mahallada fidokorona ishlab, o'zini ko'rsatganlarini kelgusida rahbarlik lavozimlariga tayinlaymiz.

Agar ushbu yangi tizim barcha shahar va tumanlarda samarali tashkil etilsa, uch yilda viloyatda ishsizlik va kambag'allikni keskin qisqartirishga erishiladi.

Umuman olganda, kelgusi besh yilda Surxondaryo viloyatini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish uchun davlat hisobidan 50 trillion so'm ajratilib, jami 320 mingga yangi ish o'rni yaratiladi.

Beshinchi yo'nalish – aholi salomatligini yaxshilash.

Eng avvalo, birlamchi tibbiy xizmat turlarini va sifatini oshirish choralari ko'ramiz.

Kelgusi 5 yilda viloyatning birlamchi tibbiy xizmat sohasiga davlat budjetidan ajratiladigan mablag'larni ikki marta oshiramiz.

Natijada, oilaviy poliklinikalar va shifokorlik punktlariga:

– qon bosimi va qandli diabetni davolash uchun dori vositalari bepul beriladi;

– 765 ming bola va 62 ming homilador ayol 7 turdagi vitaminlar bilan bepul ta'minlanadi;

– zarur uskunalar bilan jihozlanib, kasalliklarni erta aniqlash yo'lga qo'yiladi;

– har bir fuqaroning elektron tibbiy kartasi yuritilib, ular bilan manzilli ishlash tashkil etiladi.

Shuningdek, 24 ta oilaviy shifokorlik punkti va 4 ta oilaviy poliklinika yangi ochiladi, 89 ta tibbiyot muassasasi to'liq qayta ta'mirlanadi.

Ikkinchidan, shifoxonalarda amalga oshiriladigan davolash turlari soni 130 tadan 168 tagacha oshiriladi. Jumladan, har bir tuman va shahar kasalxonalarida zamonaviy uskunalar bilan jihozlanib, 20 turdagi eng ko'p uchraydigan operatsiyalarni kaminvaziv usulida amalga oshirish yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, Sariosiyo, Sherobod va Denov tumanlarida jarohatlar va o'tkir qon-tomir kasalliklari markazlari ishga tushiriladi.

Uzun, Oltinsoy, Sho'rchi, Denov va Sariosiyo tumanlariga tibbiy xizmat ko'rsatadigan 150 o'rinli mintaqaviy bolalar shifoxonasi barpo etiladi.

Denov, Boysun, Sherobod va Qumqo'rg'onda perinatal markazlar tashkil etiladi. Tug'ma va orttirilgan yurak nuqsoni bilan 5 ming nafar, infarkt bilan 11 ming nafar, jarrohlikka muhtoj bemorlarni davolash uchun kardiokirurgiya amaliyoti yo'lga qo'yiladi. Buning uchun viloyat ko'ptarmoqli tibbiyot markazini jihozlashga 2 million dollar ajratiladi.

Uchinchidan, kadrlar muammosini hal qilish maqsadida olis qishloqlarga boradigan shifokorlarni qo'llab-quvvatlash dasturi davom ettirilib, bunga qo'shimcha 20 milliard so'm ajratiladi.

Viloyat kardiologiya markazida barcha zamonaviy operatsiyalarni amalga oshirishga imkon beradigan yangi korpus barpo etiladi va bu yerda barcha og'ir jarrohlik amaliyotlari bajariladi.

Xabaringiz bor, qator yillar davomida paydo bo'lgan muammoni hal qilish maqsadida 2018-yilda Toshkent tibbiyot akademiyasining Termiz filiali tashkil etilgan edi. Tibbiyot sohasida kadrlar ta'minotini yaxshilash maqsadida xorijiy hamkor oliygohni jalb etgan holda, ushbu filial alohida mustaqil institut sifatida faoliyat boshlaydi. Institut uchun ming o'rinli o'quv binosi va ko'p tarmoqli klinika barpo etilib, zamonaviy uskunalar bilan ta'minlanadi.

Oltinchi yo'nalish – barcha bosqichdagi ta'lim sifatini tubdan yaxshilashdan iborat.

Surxondaryoda kelgusi besh yilda maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 41 foizdan 62 foizga yetkaziladi. Bu borada joriy yilda maxsus dastur qabul qilindi. Unga muvofiq, Bandixon, Boysun, Denov, Muzrabot, Oltinsoy, Sariosiyo, Uzun, Sherobod, Sho'rchi, Qiziriq, Qumqo'rg'on tumanlarining qishloq joylarida yangi oilaviy bog'chalarga zarur jihozlarni sotib olish uchun 30 million so'mdan subsidiya berilmoqda.

Olis va chekka hududlarda joylashgan davlat-xususiy sheriklik asosidagi bog'chalarda bir nafar tarbiyalanuvchi uchun sarflanadigan xarajatlarning 75 foizi qoplab berilmoqda.

Shu bilan birga, kelgusi besh yilda viloyatda 47 ta davlat va xususiy sheriklik asosidagi 758 ta oilaviy bog'cha ochiladi, 75 ta davlat bog'chasi ta'mirlanadi.

Ushbu ishlarga budjetdan 700 milliard so'm mablag' ajratilib, qo'shimcha 30 ming nafar bolajonlarimizga bog'chaga borish imkoniyati yaratiladi.

Kelgusi besh yilda maktablarni ta'mirlash va rekonstruksiya qilish bo'yicha yangi Milliy dastur qabul qilinadi. Avvalo, maktablar sig'imini oshirish uchun viloyatda 96 ming qo'shimcha o'quvchi o'rni yaratiladi. Buning uchun 21 ta yangi maktab va 358 ta maktabda yangi binolar quriladi, 116 ta maktab mukammal ta'mirlanadi.

Shu orqali Surxondaryoda maktab filiali degan eskilik sarqitidan butunlay xalos bo‘lamiz!

Yoshlarimiz vaqtini samarali o‘tkazish uchun Surxondaryodagi maktablar o‘ziga xos ta’lim va ma’rifat markazlariga aylantiriladi. Bu yerda o‘quvchilar ta’lim olish bilan birga, sport, musiqa va san’at bilan shug‘ullanishi, axborot texnologiyalari va zamonaviy kasblarni o‘rganishi uchun barcha sharoitlar yaratiladi.

Buning uchun Surxondaryo maktablarida 320 ta sport va 311 ta ma’rifat zallari bunyod etilib, to‘liq jihozlanadi. 389 ta kompyuter sinfxonalari, 741 ta texnologiya ustaxonalari va 776 ta maktab kutubxonalari jihozlanib, zamonaviy adabiyotlar bilan ta’minlanadi.

Qumqo‘rg‘on, Oltinsoy, Bandixon tumanlari va Termiz shahrida axborot texnologiyalari, matematika, kimyo-biologiya fanlariga ixtisoslashgan 19 ta maktab tashkil etiladi.

Eng asosiy masala – o‘qituvchilar sifat tarkibini yaxshilash. Shuning uchun viloyatdagi 5 ming nafar o‘rta maxsus ma’lumotli muallimlarning malaka oshirishi uchun pedagogika yo‘nalishida maqsadli qabul kvotalari ajratiladi.

Oliy ta’lim qamrovi 25 foizdan 50 foizga yetkaziladi. Buning uchun viloyatda 3 ta yangi oliy ta’lim muassasasi tashkil etiladi.

Qadrli vatandoshlar!

Mening saylovoldi dasturim, avvalo, inson qadrini ko‘tarishga qaratilgani, har bir fuqaroning qonuniy manfaatlarini ta’minlash, uning bosh maqsadi ekanini, o‘ylaymanki, barchangiz sezib, anglab turibsiz.

Kelgusi besh yilda yurtimizda, jumladan, Surxondaryo viloyatida amalga oshiradigan barcha islohotlarni “inson – jamiyat – davlat” degan mutlaqo yangicha tizim asosida tashkil etamiz.

Islohotlar natijasi, avvalo, har bir inson, har bir oila va mahalla hayotida yaqqol sezilishi uchun barcha imkoniyatlarimizni to‘la safarbar etamiz. Albatta, o‘z qadri, sha’ni va g‘ururini hamma narsadan baland qo‘yib yashaydigan Surxon eli bunday ulug‘ ishlarning ahamiyatini yaxshi tushunadi.

Dunyoda, mintaqamizda vaziyat murakkab bo'lib turgan hozirgi paytda o'z oldimizga qo'ygan marralarga erishish, albatta, oson bo'lmaydi. Lekin biz o'tgan besh yilda katta bilim va tajriba to'pladik. Eng muhimi, bir-birimizga bo'lgan hurmatimiz, ishonchimiz oshdi, yanada hamjihat bo'ldik. Har qanday sinov va qiyinchiliklarni aql-zakovatimiz, samarali mehnatimiz bilan yengib o'tishni o'rgandik.

Amerikalik mashhur ishbiarmon, "Ford" kompaniyasining asoschisi Henri Fordning **"Yo'lingizda qiyinchilikka duch kel-yapsizmi, demak, siz orqaga emas, oldinga qarab boryapsiz"**, degan so'zlarini ko'pchiligingiz eshitgansiz, deb o'ylayman.

Chindan ham, qiyinchilik odamni toblaydi, irodasini mustahkam qiladi, yangi-yangi imkoniyatlarni izlab topib, ularni ishga solishga undaydi.

Ana shunday og'ir va mas'uliyatli yo'lda menga doim tayanch va suyanch bo'lib kelayotgan siz, aziz yurtdoshlarimga, sizlarning yuksak ishonchingizga munosib bo'lish men uchun eng katta baxt, eng katta sharafdir.

Ko'pmillatli Surxon elining bo'lg'usi saylovdagi tanlovi, azm-u qarori jamiyatimizda adolat va haqiqat yanada ustuvor, xalqimiz hayoti obod va farovon bo'lishiga xizmat qiladi, deb ishonaman.

Sizlar bilan birga Yangi O'zbekistonni, go'zal Surxondaryoni, albatta, barpo etamiz.

To'g'risi, bugun baxshilar va polvonlar yurtiga kelib, sizlardek qadrdonlarim bilan ko'rishib, men ham sizlardan ilhom oldim desam, ishoninglar, buyam haqiqat!

So'zimni yuragimning to'ridagi to'rt qator she'r bilan tugatmoqchiman:

*Sizni ko'rsam quvonadi dilim-a,
Nurga to'lar butun o'ng-u so'lim-a,
Alpomishday o'zim qalqon bo'layin,
Omon bo'ling doim, Surxon elim-a!*

Doimo sog'-omon bo'linglar azizlarim!

*Termiz shahri,
2021-yil 8-oktabr*

**FIDOKORONA MEHNATIMIZ,
TINIMSIZ INTILISH VA IZLANISH
BILAN EZGU MAQSADLARGA
ERISHAMIZ**

*(Qashqadaryo viloyati saylovchilar vakillari
bilan uchrashuvdagi nutq)*

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

Hurmatli saylovchilar!

Avvalo, siz, aziz yurtdoshlarim bilan sog‘-omon ko‘rishib, yaxshi kayfiyatda uchrashib turganimdan benihoya xursandman.

Qashqadaryo – qadimiy va tabarruk zamin, mard va bag‘rikeng, mehnatkash va lafzi halol, g‘ururi baland insonlar yurtidir.

Bu voha o‘zining noyob tabiiy boyliklari, ulkan sanoat salohiyati bilan yurtimizning bugungi ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga beqiyos hissa qo‘shib kelayotgani el-yurtimizga yaxshi ma‘lum.

2700 yillik tarixga ega Shahrisabz va Qarshi shaharlari bilan butun xalqimiz faxrlanadi. O‘rta asrlarda Nasaf, ya‘ni bugungi Qarshi Islom sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgani uchun “Madina” degan oliy maqomga sazovor bo‘lgan. Bunday yuksak maqomga Islom olamida faqat 8 ta shahar loyiq ko‘rilgan.

“Ilm va din qubbasi” nomini olgan Shahrisabzdagi Oqsaroy, Dorus-saodat, Dorut-tilovat kabi me‘moriy obidalar Temuriylar Renessansi davrining buyuk namunalari sifatida beqiyos ahamiyatga ega. Ispaniya Qirolligidan Amir Temur bobomiz huzuriga elchi bo‘lib kelgan Klavixoning: “Parijning eng nozik didli zodagonlari ham Oqsaroyini ko‘rganida hayratdan lol qolar edi”, degan so‘zlari ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Mana, yaqinda Shahrisabzda “Amir Temur – dunyo olimlari va adiblari nigohida” deb nomlangan xalqaro konferensiyani yuqori darajada o‘tkazdik. O‘ylaymanki, ushbu anjumanni har ikki yilda o‘tkazib borsak, o‘rinli bo‘ladi.

Bu borada dunyo miqyosidagi tadqiqotlarni umumlashtirib, yangi izlanishlarga yo‘l ochadigan “Temuriylar davri Renessansi” ilmiy-ma‘rifiy markazini tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, Yakkabog‘ tumanidagi Sohibqiron Amir Temur tug‘ilgan Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ini obodonlashtirib, zamonaviy infratuzilmalar yaratsak, ulug‘ ajdodlarimiz oldidagi farzandlik burchimizni bajargan bo‘lar edik.

Shahrisabzda Xalqaro maqom festivalini o‘tkazish an‘anasini yo‘lga qo‘yganimiz – maqom san‘atimiz bilan birga, ushbu go‘zal shaharning shuhratini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Men nufuzli xalqaro sammitlarda, jumladan, Hindiston va Pokiston davlatlarining rahbarlari bilan uchrashuvlarda Xusrav Dehlaviy, Abdulqodir Bedil, Mirzo G‘olib singari buyuk Sharq shoirlarining tarixiy Vatani Kesh shahri bo‘lganini faxr bilan tilga olaman.

Turli davrlarda Nasaf shahrida yashab faoliyat ko‘rsatgan 400 nafardan ziyod – takror aytaman – 400 nafardan ziyod islomshunos olimlarning ilmiy merosini chuqur o‘rganish, asarlarini bugungi tilimizda, keng jamoatchilikka tushunarli qilib nashr etish muhim vazifamizdir. Xususan, Abul Muin Nasafiy, Najmiddin Nasafiy, Aziziddin Nasafiy, Barokat Nasafiy, Xiromiy, Sayido Nasafiy, Xayoliy singari ulug‘ allomalarning ma‘naviy merosi bugun ham beqiyos ahamiyatga ega.

Ayniqsa, buyuk vatandoshimiz Abu Muin Nasafiy bundan ming yil oldin jaholatga berilgan kimsalarni o‘z asarlari orqali to‘g‘ri yo‘lga boshlagani tarixdan yaxshi ma‘lum.

Albatta, sizlar bilan birgalikda Qarshi tumanida ulug‘ ajdodimizga bag‘ishlab muhtasham yodgorlik majmuasini bunyod etganimiz ezgu va xayrli ish bo‘ldi. Men bugun ushbu majmuani ziyorat qilib, ko‘nglim taskin topdi.

Shu ishlarning davomi sifatida Qarshi davlat universiteti qoshida Abu Muin Nasafiy nomida ilmiy markaz tashkil etsak, allomalari-miz merosini xalqimizga, yoshlarimizga keng tanitishda yana bir muhim qadam qo‘ygan bo‘lamiz.

Hurmatli uchrashuv qatnashchilari!

Biz bugun Yangi O‘zbekistonning tayanchi va suyanchi bo‘lgan yuksak iqtidorli, ma‘naviy barkamol, vatanparvar yoshlarni

tarbiyalashda, avvalo, muhtaram nuroniylarimizga, ularning boy tajribasiga tayanamiz.

Men qachon bu vohaga kelsam, mana shunday insonlarning duolarini olishga harakat qilaman. Ular shu tabarruk yoshda ham ibratli faoliyati bilan barchaga o‘mak bo‘lmoqda.

Shu o‘rinda Yanvar Inoyatov, Esonboy Rajabov, Shodiyor Xo‘janazarov, Elmurod Boymurodov, Bo‘ron Ro‘ziyev, Abdimurot Bozorov, Suyun Abdiyev va boshqa ko‘plab hurmatli faxriylarimizga alohida rahmat aytishni o‘z burchim deb bilaman.

Qashqadaryodagi mashhur G‘ilon qishlog‘ini hammamiz yaxshi bilamiz. Ma‘lumotlarga qaraganda, mana shu qishloqda keyingi besh yilda bironta ham oilaviy ajrim qayd etilmagan. Biz buni qishloq ahlining o‘zaro hamjihatligi, mahalla faollari, ayniqsa, nuroniylarimizning jonkuyarligi natijasi deb bilamiz. Bunday ijobiy tajribani butun el-yurtimizga ibrat qilib ko‘rsatsak, albatta, arziydi.

Men Qashqadaryoda tug‘ilib voyaga yetgan qahramon shoirimiz Abdulla Oripov bilan yaqin do‘st, ijodining chinakam muxlisi bo‘lganimdan doimo faxrlanaman. Ulug‘ shoirimiz: **“Toleyimga bitgan Qashqadaryomsan”**, deb tug‘ilgan yurtini cheksiz ardoqlar edi.

Xalqimiz: **“Oltin konlaridan hamisha oltin chiqadi”**, deb bejiz aytmagan. Bundan keyin ham Qashqadaryo vohasining shahar va qishloqlaridan, xususan, Qarshi shahridagi atoqli shoirimiz nomi bilan ataladigan ijod maktabidan Abdulla Oripov, Jumaniyoz Jabborov, Normurod Narzullayev, Muhammad Rahmon, Samar Nur, Ismoil To‘xtamishev, Chori Avaz, Nazar Shukur kabi iste‘dodli shoir va yozuvchilarning munosib izdoshlari yetishib chiqadi, deb ishonaman.

Ayni paytda Ne‘mat Arslon, Ikrom Otamurod, Sharofat Ashurova, Lola O‘roqova, Nazar Eshonqul, Luqmon Bo‘rixon va boshqa ko‘plab yozuvchi va shoirlarimiz o‘zlarining ijodi bilan milliy adabiyotimiz rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotganini alohida ta’kidlash joiz.

Shu o'rinda milliy san'atimizning ravnaqi yo'lida unutilmas xizmat qilib, xalqimiz qalbidan chuqur joy egallagan Ikroma Boltayeva, Farog'at Rahmatova, Tojiddin Murodov, Omon Beganjiyev, Rustam Ma'diyev, O'lmas Saidjonov kabi atoqli san'atkorlarning xotirasini katta ehtirom bilan tilga olamiz.

Yaqinda 90 yillik tarixga ega Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri to'liq ta'mirlangani, Ma'naviyat va ma'rifat maskani qurib foydalanishga topshirilgani viloyat madaniy hayotida katta voqea bo'ldi.

Hozirgi paytda o'zbek san'atining peshqadam vakillari hisoblanadigan Beknazar Do'stmurodov, Zamira Suyunova, O'ktam Ahmedov, Isoq To'rayev, Nasiba Sattorova singari mohir aktor va hofizlarimizga yangi ijodiy yutuqlar tilaymiz.

Qachonki, qadimiy baxshichilik san'ati haqida so'z borganda, qashqadaryolik ko'plab noyob iste'dod egalarini ham eslashimiz tabiiydir.

Barcha yurtdoshlarimiz Qodir baxshi Rahimov, Shomurod baxshi Tog'ayevlarning doston va termalarini hali-hanuz katta hayajon bilan tinglaydilar. Bugungi kunda ularning izdoshlari – O'zbekiston xalq baxshilari Qahhor va Abdumurod Rahimovlar hamda Mahmatmurod Rajabov, Boyqo'chqor Ahmedov va boshqa ko'plab mohir ijrochilar bu boradagi an'analarni munosib davom ettirayotgani quvonchlidir.

Kelgusi yili Qodir baxshi Rahimov tavalludining 85 yillicini yurtimizda har tomonlama munosib nishonlasak, o'ylaymanki, bu – xalqimizning dilidagi ish bo'ladi.

Voha ahli mamlakatimizda ilm-fan sohalarini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shgan Asqar Xolmurodov, Karim Shoniyozov, To'liqin Bekmurodov, Ubaydulla Uvatov, Begali Qosimov, Muhsin Qodirov, Anvar Choriyev, Poyon Ravshanov singari marhum olimlar hamda bugungi kunda samarali faoliyat olib borayotgan Qalandar Abdurahmonov, Jumanazar Beknazarov, Anatoliy Sa'dul-

layev, Abdurahim Erkayev singari taniqli ilm-fan namoyandalari bilan haqli ravishda faxrlanadi.

Aziz do'stlar!

Biz keyingi yillarda inson qadrini ulug'lash masalasiga alohida e'tibor qarataётganimiz bejiz emas. Chunki mustabid tuzum davrida xalqimizning qadr-qimmatini, insoniy sha'ni va g'ururi oyoqosti qilingani hech kimga sir emas.

Misol uchun, o'sha davrda Qarshi shahridagi qadimiy Odina masjidi qamoqxonaga aylantirilganini qanday baholash mumkin?

Hozir bu yerda Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyini – katta tarbiya maskanini tashkil etayotganimiz, albatta, tarixiy adolatni tiklashga xizmat qiladi.

Biz ma'rifatparvar jadid bobolarimiz haqida doimo armon va chtirom bilan gapiramiz. Jadidchilik harakatining yetakchisi bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiyning xoki shu zaminda ekani, Qarshi shahri bir muddat shu ulug' insonning nomi bilan atalganini, afsuski, ko'pchilik bilmaydi.

Qarshi shahridagi markaziy ko'chalardan biriga Behbudiy nomini bersak, bu ham adolatdan bo'ladi, deb o'ylayman.

Hurmatli saylovchilar!

Hammangiz yaxshi bilasiz, bugun mamlakatimiz muhim siyosiy voqea – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi arafasida turibdi. Albatta, ushbu saylov barchamiz, butun xalqimiz uchun juda katta ahamiyatga ega ekanini yaxshi tushunamiz.

Biz kelgusi besh yilda jonajon Vatanimizni har tomonlama rivojlantirish, inson qadri va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan Yangi O'zbekiston strategiyasini ishlab chiqdik. O'ylaymanki, sizlar uning asosiy mazmun-mohiyatidan yaxshi xabardorsiz.

Biroq Qashqadaryo to'g'risida o'ylaganimda, bugungi Sizlar bilan uchrashuvga tayyorgarlik ko'rganimda, meni eng ko'p qiy-nagan, bezovta qilayotgan masala – bu hudud aholisiga munosib hayot, to'kin dasturxon va doimiy daromad manbalarini ta'minlab berishdir.

Afsuski, viloyatda tabiiy boyliklar, yer resurslari ko'p bo'lishiga qaramasdan, bu yetarlicha natija bergani yo'q, aholining yashash sharoitlari respublikaning boshqa hududlariga nisbatan pastligicha qolmoqda. Bu muammolarga yechim topishda davlat idoralari, mutasaddi rahbarlar tomonidan haligacha tizimli ish olib borilayotgani yo'q.

Viloyatda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha muhit to'liq shakllanmagan. Shu bois bugungi kunda viloyatda 150 mingdan ziyod aholi ishsiz. Kelgusi besh yilda 280 mingga yaqin yoshlar mehnat bozoriga kirib kelishi ham ish o'rinlariga ehtiyojni oshiradi.

Shuning uchun bugun Sizlar bilan kelgusida Qashqadaryo viloyati rivojiga kuchli turtki berish, bu yerda yashayotgan aholiga munosib ish o'rinlari va turmush sharoitini yaratish bo'yicha eng muhim vazifalar haqida fikrlashib olsak, o'ylaymanki, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu maqsadda tayyorlangan besh yillik dasturimizning **eng asosiy maqsadi** 400 mingta ish o'rni yaratishga qaratiladi.

Avvalo, tadbirkorlik muhitini shakllantirish va biznesni qo'llab-quvvatlash kerak. Buning uchun yirik korxonalar infratuzilmasi va salohiyatidan samarali foydalanishimiz shart.

Jumladan, viloyatdagi yirik sanoat korxonalari yonida 75 ta yangi kichik sanoat zonalari barpo etiladi va ularda 1 mingdan ziyod loyihalar amalga oshirilib, 25 mingta doimiy ish o'rinlari yaratiladi.

Shuningdek, Qarshi aeroporti yonidagi barcha infratuzilmaga ega 120 gektar maydonda sanoat texnoparki tashkil etiladi va 10 mingta ish joyi yaratiladi.

Urgutdagi ijobiy tajribadan kelib chiqib, Kitob tumanida Urgut erkin iqtisodiy zonasining filiali ochiladi. Nishon, Kitob, G'uzor va Yakkabog' tumanlarining sanoat gaz tarmoqlari modernizatsiya qilinadi va ushbu hudud tadbirkorlari barqaror energiya bilan ta'minlanadi. Ushbu maqsadlarga davlat tomonidan 600 milliard so'm ajratiladi.

Shuningdek, Chiroqchi, Mirishkor, Dehqonobod va Shahrisabzda tadbirkorlik infratuzilmasi uchun har yili qo‘shimcha 150 milliard so‘m ajratiladi.

Bundan tashqari, tadbirkorlarga 300 ta davlat obyektlari ochiq savdo orqali sotiladi. Shu bilan birga, yangi tashkil etilayotgan korxonalar uchun yangicha fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash zarur.

Ikkinchidan, Qashqadaryoda ishsizlar va yoshlarni kasb-hunarga o‘qitishning mutlaqo yangi tizimi joriy etiladi.

Bunda neft-gaz sohasining viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan 5 ta yirik korxonasi mutaxassislari tajribasidan foydalanamiz. Endi hududdagi barcha kasb-hunar markazlari ikkita eng yirik bo‘lgan Sho‘rtangazkimyo majmuasi va Muborak gazni qayta ishlash zavodiga birlashtiriladi.

Bu degani, shu korxonalar mutaxassislari:

– talab yuqori bo‘lgan mutaxassislarni viloyat bo‘yicha tayyorlash rejalarini belgilaydi;

– o‘quv dasturlar va metodikasini amaliyotdan kelib chiqib, qayta ko‘rib chiqadi;

– har bir yosh o‘quvchi o‘qish jarayonida o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha amaliyot o‘tashini tashkil etadi.

Yangi ochilgan monomarkazda IT, murakkab uskuna operatori va boshqa yuqori texnologik mutaxassisliklar o‘rgatiladi.

Shuningdek, har bir tumanda kamida beshtadan, viloyatda jami 90 ta kasbga o‘qitish maskanlarida tumanning ixtisosligidan kelib chiqib, yoshlar va ishsizlar kasbga bepul o‘qitiladi. Shu tizim orqali kelgusi besh yilda 150 mingdan ziyod ishsizlar va yoshlar tadbirkorlik va kasb-hunarga o‘qitiladi. Bundan tashqari, Shahrisabz, Kitob, Kasbi hamda Qarshi shahrida hunarmandchilik markazlari qurilib, 15 mingdan ziyod yoshlar shogirdlikka olinadi.

Uchinchidan, tumanlarda aholini tadbirkorlikka jalb qilish va yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha yangi “mahallabay” tizimi qanday bo‘lishini Kasbi tumani misolida tushuntiraman.

Kasbi tumani paxta yetishtirish hajmi bo'yicha respublikada birinchi o'rinda. Lekin iqtisodiyotning boshqa sohalari e'tibordan chetda qolib ketgan edi. Shu bois bugungi kunda tumanda 9 ming 400 nafar mehnatga layoqatli aholi ishsiz, 1 ming 200 ta oila kambag'al toifaga kiritilgan. Bundan tashqari, kelgusi besh yilda yana 10 ming nafar bitiruvchi mehnat bozoriga kirib keladi.

Bundan buyon yangi tizim sifatida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish, ishsizlikni kamaytirish va kambag'allikni qisqartirish uchun "hokim yordamchilari" lavozimlari joriy etiladi. Ular kredit va subsidiya berish, mahalladagi tomorqa va bo'sh yerlardan samarali foydalanish, kooperatsiyalar tashkil qilish bo'yicha aholiga ko'maklashadi. Ularning o'z "budjet"i bo'lib, ehtiyojmand oilalarga subsidiyalar ajratish, jamoat ishlariga jalb qilish, yoshlarni kasbga o'qitishni tashkil etish huquqlari beriladi.

Imtiyozli kredit va subsidiya oladigan aholi va ishsiz fuqarolar bilan kambag'allikdan chiqish va ko'proq daromad olishga undaydigan "ijtimoiy shartnoma" tuzishga hokim yordamchilari mas'ul bo'ladi.

Masalan, hokim yordamchilari tumandagi 41 ta mahallada 10 tadan ehtiyojmand xonadonga 6 sotixli issiqxonalar tashkil qilishga bosh-qosh bo'ladi. Bunga imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ajratiladi.

Yoki Maymanoq qishlog'ida aholi xonadonlarida 200 gektar maydonda bog' tashkil qilinib, 600 nafar fuqaro ishli bo'ladi.

Hokim yordamchilari tumanning "Maymanoq", "Denov", "Qamashi" va "Yuksalish" mahallalarida tashkil etiladigan 4 ta kichik sanoat zonalarida 90 ta loyihalarni joylashtiradi va ming nafar aholi bandligini ta'minlaydi.

Yoshlarni "hokim yordamchisi" lavozimiga qo'yishdan oldin 2 oy davomida yangi tizim asosida ishlashga o'qitamiz, 2-3 yil mahallada ishlab, o'zini ko'rsatganlarini kelgusida rahbarlik lavozimlariga qo'yamiz.

Ushbu tizimlar orqali kelgusi besh yilda Kasbi tumanida jami 21 ming nafar aholi doimiy daromad manbaiga ega bo'ladi.

Umuman olganda, viloyatda:

– oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida yiliga 1 trillion so'm;

– kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha 100 million dollar;

– viloyatdagi tadbirkorlarga kredit foiz to'lovlarini kompensatsiya qilishga qo'shimcha 100 milliard so'm ajratiladi.

Shuningdek, Chiroqchi, Dehqonobod, Kasbi, Mirishkor va Nishonda yangi tashkil etiladigan tadbirkorlik subyektlari uchun 2025-yil 1-yanvarga qadar foyda solig'i stavkasi 50 foizga pasaytiriladi hamda yer, mol-mulk, aylanmadan soliqlar to'lashdan ozod etiladi.

To'rtinchidan, Qashqadaryoda aholini tadbirkorlikka jalb qilishda eng katta rezerv – bu 56 ming gektar tomorqalardan samarali foydalanish hisoblanadi.

Hozirgi kunda viloyatda har bir xonadonga o'rtacha 10 sotix tomorqa to'g'ri kelib, uning bor-yo'g'i 20–25 foizidan foydalanilmoqda.

Agar ushbu tomorqalardan yiliga 3–4 marta hosil olish yo'lga qo'yilsa, qo'shimcha 100 ming gektar yerning o'rnini bosadi. Misol uchun, Qarshi tumani "Tallikuron" mahallasida ko'kat yetishtirilib, 5 martagacha hosil olib, har bir xonadon yiliga 40–50 million so'm daromad ko'rmoqda.

Shahrisabzdagi "Sinabog'" mahallasida esa limon va qator orasiga qo'shimcha ekinlar ekish orqali bitta xonadonning yillik daromadi 80 million so'mgacha yetmoqda.

Shu bois alohida dastur doirasida viloyatda 27 ming gektar ekin maydonlari tanlov asosida 60 mingga yaqin aholiga 50 sotixdan ajratib beriladi.

Xabarim bor, Shahrisabz tumanining tog'oldi "Hisorak", "Sayyod", "Suvtushar", "Boshqoq", "Beshbek", "Sarchashma" va

“Ommag‘on” qishloqlari aholisi dehqonchilik qilish uchun ushbu yerlarning ajratilishiga katta umid bog‘lamoqdalar.

Shuningdek, 15 mingta xonadonda kichik hajmdagi issiqxonalar qurish uchun imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratiladi. Suv ta‘minoti og‘ir bo‘lgan 771 ta mahalladagi tomorqalar uchun 4 mingta quduq qazib beriladi.

Mana, sizlarga bandlik va aholi daromadi bo‘yicha aniq hisob-kitob.

Ikkinchi yo‘nalish – Qashqadaryoda 40 foiz aholining daromadi, ularning dasturxonini qishloq xo‘jaligiga bog‘liq, bu ham haqiqat.

Agar viloyatda kambag‘allikni keskin qisqartirmoqchi bo‘lsak, aynan agrar sohada islohotlarni chuqurlashtirib, uni mutlaqo yangi darajaga olib chiqish talab etiladi.

Buning uchun, **avvalambor**, paxta va g‘alla yetishtirish bo‘yicha yetakchi bo‘lgan Qashqadaryoda ishlab chiqarish hajmini kamida 30 foizga oshirish choralari ko‘riladi.

Bunda urug‘lik tayyorlash tizimi yangicha tashkil qilinib, 8 ta tumanda 22 ming gektar maydonda xususiy sheriklik asosida urug‘lik yetishtirish, tayyorlash, sertifikatlash va sotish korxonalarini tashkil etiladi.

Viloyatda paxta urug‘chiligi markazi tashkil qilinib, xorijiy ekspertlar bilan birga, qurg‘oqchilikka chidamli, yuqori hosil beradigan yangi navlar yaratiladi. Bundan tashqari, yuqori hosil beradigan navlarni chetdan olib kelish va erkin joylashtirishga ham ruxsat beramiz.

Qashqadaryoda eng achinarli holatlardan biri, bu – viloyat aholisi haligacha paxtani bukilib, qo‘l mehnati bilan terib kelmoqda. Shuning uchun kelgusi besh yilda 40 foiz qishloq xo‘jaligi texnikalari yangilanib, mexanizatsiya darajasi 90 foizga, jumladan, mashinada paxta terimi 15 foizdan 60 foizga yetkaziladi. Bunda paxtani mashinada terish xarajatining 30 foizini budjetdan qoplab berish yana uch yilga uzaytiriladi.

Shuningdek, import qilinadigan texnika, butlovchi va ehtiyot qismlar bo'xona to'lovlaridan ikki yil muddatga ozod qilinadi. Qishloq xo'jaligi texnikasi xaridi uchun subsidiyalar ko'lami ham ko'paytiriladi.

Ikkinchidan, viloyatning eng og'riqli nuqtalaridan yana biri – bu qishloq xo'jaligi yerlarini barqaror suv bilan ta'minlash hisoblanadi.

Masalan, Qarshi magistral kanalidan suv olib kelish uchun birgina elektr energiyasi sarfiga yiliga 100 million dollarga yaqin mablag' talab qilinadi. Ya'ni 1 gektar paxtani sug'orishga 2,5 million so'm xarajat qilinmoqda. Lekin suvdan samarasiz foydalanish tufayli ushbu mablag'larning 30 foizi isrof bo'lmoqda. Shu bois kelgusi besh yilda 118 ming gektarda innovatsion suv tejoychi texnologiyalar joriy qilinadi.

Shuningdek, 93 ming gektar maydonni lazerli tekislash orqali, shunga alohida ahamiyat bering, yiliga 130 million kub metr suv iqtisod qilinadi. Buning uchun 25 milliard so'm subsidiya beramiz.

Bundan tashqari, 105 million dollar hisobidan Qarshi nasos stansiyalari kaskadi rekonstruksiya qilinib, 400 ming gektar yer maydonining suv ta'minoti yaxshilanadi. G'uzor, Qamashi, Qarshi, Koson va Yakkabog'da 33 million dollar hisobidan 16 ta nasos stansiyasi modernizatsiya qilinib, 40 ming gektar yerlar qayta foydalanishga kiritiladi. "Sechanko'l" kollektorini ta'mirlab, Mirishkor va Muborakda 51 ming gektar maydonning meliorativ holatini yaxshilaymiz.

Shuningdek, ekin maydonlarining holatidan kelib chiqib, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini yaxshilash uchun kelgusi besh yilda budjetdan 1 trillion so'm ajratiladi.

Uchinchidan, azal-azaldan Qashqadaryo "chorvadorlar yurti" bo'lib kelgan. Shu bois Kasbi, Mirishkor, Nishon va Kosonda klaster tizimi asosida 1 ming boshdan kam bo'lmagan yirik chorvachilik komplekslari tashkil qilinadi. Ushbu tumanlarda 40 ming gektar maydonlar chorva ozuqasini yetishtirish uchun ajratiladi.

Kosonda "Chorvadorlar amaliy o'quv markazi" tashkil qilinadi. Markaz yirik chorva komplekslari bilan birga, aholi xonadonlaridagi chorva naslini yaxshilashga ham ko'maklashadi.

Kelgusi besh yilda 300 ming gektar yaylov yerlarni qayta tiklash va hosildorligini oshirish choralari ko'riladi. Bu davrda mayda shoxli qoramollar soni 2 barobarga oshirilib, 1 million boshga yetkaziladi hamda ularning nasli yaxshilanadi.

Umuman, Qashqadaryoda chorvachilikni rivojlantirish uchun xalqaro moliya tashkilotlaridan 150 million dollar mablag' jalb qilinadi. Kerak bo'lsa, ushbu mablag'larni yanada ko'paytiramiz.

To'rtinchidan. 30 ming gektar oborotdan chiqqan maydon o'zlashtiriladi va oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish yo'lga qo'yiladi. Bu orqali 25 mingga yaqin aholi bandligi ta'minlanadi.

Qamashi, Chiroqchi, Shahrisabz, Kitob va Yakkabog' tumanlarida 15 ming gektar uzumzorlar, Kitob, Shahrisabz va Yakkabog' tumanlarida 3 ming gektar intensiv bog', Kitobda 2 ming gektar yangi anorzor, Qamashi, Chiroqchi, Yakkabog', Dehqonobod tumanlarida 4 ming gektar pista plantatsiyalari barpo etiladi. Bularning hisobidan 30 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Koson va Qamashi tumanlarida 10 ming gektar lalmi maydonda poliz yetishtirish hisobidan 12 mingdan ortiq aholi bandligi ta'minlanadi. Mirishkor, Qamashi, Kasbi, Koson, Qarshi va Muborakda 2 ming gektarda zamonaviy issiqxonalar ishga tushirilib, 25 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratiladi.

Uchinchi yo'nalish – tadbirkorlikni rivojlantirish orqali investitsiya va eksport salohiyatini yangi bosqichga olib chiqiladi.

Kelgusi besh yilda sanoat tarmoqlarida qariyb 10 milliard dollar bo'lgan 2 mingdan ziyod katta-kichik loyihalar amalga oshiriladi va 150 mingta yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Qashqadaryo viloyati mamlakatimizda neft-gaz va energetika sohasining asosiy tayanchi bo'lib, kelgusi yillarda ularni rivojlantirish iqtisodiy dasturimizda muhim o'rin egallaydi.

Bu borada neft-gaz sanoatida 5 milliard dollar bo'lgan 5 ta investitsiya loyihalari amalga oshiriladi hamda 7 mingga yaqin ish o'rnini yaratiladi.

Misol uchun, qariyb 2 milliard dollar investitsiyalar hisobidan Sho'rtan gaz-kimyoy kompleksining quvvati 3 barobarga kengaytiriladi. Ushbu kompleksda "GTL" zavodida hosil bo'ladigan 430 ming tonna nafta qayta ishlanib, undan yiliga qo'shimcha 280 ming tonna polietilen va 100 ming tonna polipropilen, jami 500 million dollarlik mahsulot ishlab chiqariladi.

Shuningdek, yangi kimyoy sanoati klasteri tashkil etilib, unda 2,7 milliard dollarga teng 12 ta loyiha amalga oshiriladi.

Natijada mahsulot ishlab chiqarish 10 trillion so'mga oshirilib, import o'rnini bosuvchi yangi turdagi 23 ta kimyoy mahsulotlari ishlab chiqariladi. Eksport 425 million dollarga yetadi.

Energetika sohasida kelgusi besh yilda umumiy qiymati 1,3 milliard dollarlik, jami quvvati 1 ming 250 megavatt bo'lgan loyihalar amalga oshiriladi.

Jumladan, G'uzor tumanida 200 million dollarlik to'g'ridan to'g'ri xorijiy sarmoyalar hisobidan quvvati 300 megavatt bo'lgan quyosh elektr stansiyasi barpo etiladi. Tallimarjon issiqlik elektr stansiyasida 1 milliard dollar xorijiy investitsiya hisobidan qo'shimcha 900 megavatt quvvatlar ishga tushiriladi. Shuningdek, 500 million dollarlik to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya hisobidan Muborak issiqlik elektr stansiyasi modernizatsiya qilinadi.

Energetika vazirligi huzurida yirik tarmoq loyihalari uchun infratuzilma barpo etish maqsadida maxsus jamg'arma tashkil etilib, unga 200 million dollar mablag' ajratiladi.

Viloyatda 300 ga yaqin foydali qazilma konlari mavjud. Jumladan, neft, gaz, oltingugurt, rangli metallar, kaliy, dolomit, kvars, sement, gips, keramzit, grafit, kvarsit, tabiiy pardozbop va devorbop toshlar hamda boshqa zaxiralari aniqlangan. Bu zaxiralarni o'zlashtirish va yangi konlarni ochish maqsadida geologiya-qidiruv va qazib olishga kamaytirilgan soliq stavkalari joriy qilindi. Agar

loyiha 20 million dollardan yirik bo'lsa, tashqi infratuzilma olib kelishni davlat o'z zimmasiga oladigan bo'ldi.

Bundan tashqari, To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi ushbu loyihalarda o'z ulushi bilan qatnashadi. Shuningdek, geologiya-qidiruv ishlariga 2 trillion so'm ajratiladi. Kelgusi besh yilda 100 tadan ortiq konlar ochiq tanlov orqali investorlarga taklif etiladi.

Shu bilan birga, viloyatning iqtisodiyoti yirik neft-gaz korxonalariga bog'lanib qolmasligi uchun mahalliy sanoat tarmoqlari bo'yicha ham yirik loyihalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Shu bois kelgusi besh yilda viloyat uchun "drayver" bo'lgan – to'qimachilik, elektrotexnika, charm-poyabzal, oziq-ovqat, mebel-sozlik hamda qurilish materiallari sohaslariga faol investitsiyalar jalb qilinib, eksportbop va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlari keskin oshiriladi.

Buning uchun, har bir tumanda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi:

- istiqbolli loyihalarni ishlab chiquvchi "Loyiha guruhleri"ni tashkil etadi;

- tumanning ilg'or tadbirkorlari bilan "Xolding kompaniyalari" tuzadi;

- eng istiqbolli mahalliy sanoat loyihalariga To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi 30 foiz ulush bilan kiradi;

- Jamg'arma tomonidan har bir tumanga yiliga kamida 20 million dollardan, sanoati past bo'lgan tumanlarga esa 30 million dollargacha mablag'lar ajratiladi.

Viloyat mahalliy sanoatidagi eng katta rezerv – bu to'qimachilik sohasi. Hozirda paxta tolasining atigi 21 foizi viloyatning o'zida qayta ishlanadi. Shu bois Nishon, Kasbi, Mirishkor va Yakkabog' tumanlarida 1,2 milliard dollarlik 182 ta tekstil loyihasi amalga oshiriladi va 35 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Shuningdek, sun'iy tola ishlab chiqarish bo'yicha 580 million dollar investitsiyalar hisobidan 4 ta innovatsion loyiha amalga

oshirilib, sun'iy tola ishlab chiqarish hajmi 150 ming tonnaga yetkaziladi.

Bundan tashqari, Kasbi va Nishon tumanlarida qiymati 225 million dollarlik ip-kalava va mato ishlab chiqarish bo'yicha "mega" loyiha amalga oshiriladi.

Viloyatda to'qimachilik sohasida faoliyat yuritadigan tadbirkorlarga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish maqsadida xorijiy banklardan 500 million dollarlik imtiyozli va uzoq muddatli kreditlar jalb qilinadi. Shuningdek, davlat tomonidan ushbu maqsadlarga 100 million dollar kreditlar ajratiladi. Natijada Qashqadaryoda to'qimachilik mahsulotlari yillik eksporti 5 barobarga ko'payib, 450 million dollarga yetkaziladi.

Qurilish materiallari sanoatida ham juda katta imkoniyatlar mavjud.

Oddiy misol, hozirgi kunda viloyatdagi mavjud 148 ta noruda konlardan 51 tasi bekor turibdi. Shu bois sohada kelgusi besh yilda 740 million dollarlik 430 ta loyiha amalga oshiriladi, 12 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratiladi. Kitob, Qamashi, Dehqonobod va Chiroqchi tumanlarida marmar va ohaktosh plitalari, gips, gipsokarton va tabiiy pardozbop toshlar kabi qurilish materiallari ishlab chiqaradigan sanoat klasterlari tashkil etiladi.

Hududda katta xomashyo bazasiga ega bo'lgan charm-poyabzal sanoatiga ixtisoslashgan Mirishkor, Kitob tumanlari va Qarshi shahrida 185 million dollarlik 42 ta yangi loyihalar ishga tushiriladi.

Masalan, Qarshi shahrida 20 million dollarlik loyihalar ishga tushirilib, "xomashyodan tayyor mahsulotgacha" tamoyili asosida tayyor charm, poyabzal va attorlik buyumlari ishlab chiqaradigan klaster tashkil etiladi.

Tarmoqni jadal rivojlantirish uchun tadbirkorlarga qo'shimcha imtiyozlar beriladi. Jumladan:

– import qilinayotgan furnitura, yelim, bo'yoq, poyabzal tagliklari va boshqa yordamchi mahsulotlarni viloyatning o'zida ishlab

chiqarish loyihalari uchun kredit foiz to'lovlarining 10 foizgacha qismi qoplab beriladi;

– zamonaviy oqova-suv tozalash inshootlarini barpo etish xarajatlari soliq bazasidan chegirib tashlanadi.

Ushbu tarmoqdagi loyihalar ishga tushirilishi natijasida 25 mingta yangi ish o'rinlari tashkil qilinib, 110 million dollarlik eksport ta'minlanadi.

Elektrotexnika sanoatida 127 million dollarlik 10 ta investitsiya loyihasi ishga tushiriladi hamda ishlab chiqarish hajmlari 105 million dollarga oshiriladi.

Jumladan, Qarshi shahrida 30 million dollarlik xorijiy investitsiya hisobidan quyosh panellarini, Shahrisabz tumanida 18 million dollarlik mis quvurlarini ishlab chiqarish loyihalari ishga tushiriladi.

Mebel sanoatini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Shahrisabz shahri va Qarshi tumanida mebelchilik klasterlari tashkil etilib, 110 million dollarlik 49 ta loyiha amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligini yangi bosqichga olib chiqish hisobidan oziq-ovqat sanoatida ham qo'shimcha imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Bunda yuqori salohiyatga ega bo'lgan go'sht va sutni qayta ishlashga katta e'tibor qaratamiz. Jumladan, Chiroqchi, Nishon va Koson tumanlari bu yo'nalishga ixtisoslashadi va alohida Qashqadaryo brendi yaratiladi.

Kelgusi besh yilda oziq-ovqat sanoatida qiymati 320 million dollarlik 185 ta loyiha amalga oshirilib, 10 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari tashkil etiladi.

Viloyatda eksportni qo'llab-quvvatlash maqsadida Eksport agentligi tomonidan Qashqadaryo viloyati uchun dastlabki bosqichda 50 million dollar yo'naltiriladi.

Amalga oshiriladigan islohotlar natijasida viloyatda eksport hajmi 1,1 milliard dollarga yetkaziladi yoki hozirgiga nisbatan 5 barobarga oshadi.

Muxtasar aytganda, kelgusi besh yilda Qashqadaryo viloyatini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish uchun davlat hisobidan 60 trillion so‘m ajratiladi.

To‘rtinchi yo‘nalish – aholi va tadbirkorlar uchun qulay infratuzilma yaratish.

Avvalambor, aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash ham viloyatdagi eng og‘ir masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda 521 ta mahallada yashaydigan 1,8 millionga yaqin aholi markazlashgan ichimlik suvi bilan ta‘minlanmagan. Ayniqsa, Koson, Dehqonobod, Qamashida bu ko‘rsatkich juda past. Qarshi shahri kanalizatsiya inshootidagi tozalash uskunalarning 60 foizi yaroqsiz ahvolda bo‘lgani bois oqova suv tozalanmasdan ochiq suv manbalariga chiqarib tashlanmoqda.

Bundan tashqari, viloyatdagi mavjud 14 ta kanalizatsiya nasos stansiyalarining barchasi ta‘mirga muhtoj. Shu bois kelgusi besh yilda markazlashgan toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash darajasi 47 foizdan 80 foizga yetkaziladi.

Bunda 4 ming 300 kilometr ichimlik suvi va 360 kilometr kanalizatsiya tarmoqlari, 237 ta ichimlik suv va 2 ta oqova suv inshootlari barpo etiladi. Jumladan, Koson, Muborak, Qamashi, G‘uzor tumanlari, Qarshi, Shahrisabz, Kitob shaharlarida ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha umumiy qiymati 260 million dollar bo‘lgan 4 ta loyiha amalga oshiriladi.

Natijada ilgari ichimlik suvi yetib bormagan G‘uzor, Koson, Dehqonobod, Qamashi, Qarshi, Kasbi, Muborak va Mirishkordagi 342 ta mahallaning 1,5 million aholisi toza ichimlik suvi bilan to‘liq ta‘minlanadi. Ushbu ishlarga jami 3 trillion so‘m mablag‘ ajratiladi. Ichimlik suvi tanqis bo‘lgan G‘uzor, Nishon, Kasbi, Mirishkor tumanlarining yer osti sho‘rlangan suvlarini qayta ishlab, iste‘molga yo‘naltirish loyihasi amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, 5 ming kilometrdan ziyod avtomobil yo‘llari va ichki ko‘chalar, 130 ta ko‘prik va sun‘iy inshootni qurish-

ta'mirlash uchun qariyb 4 trillion so'm yo'naltiriladi. Xususan, kelgusi yilda "G'uzor-Chim-Ko'kdala" avtomobil yo'lining 35 kilometr qismida rekonstruksiya ishlari yakuniga yetkaziladi. "Toshkent-Termiz" M-39 avtomobil trassasining 60 kilometr qismi xalqaro moliya tashkilotlari mablag'lari hisobidan rekonstruksiya qilinadi.

Shuningdek, ichki yo'llarni ta'mirlash va foydalanishning yangi tizimi joriy etiladi. Jumladan, har bir tuman va shaharda alohida jamg'arma tashkil etilib, barqaror moliyaviy manbalar bilan ta'minlanadi.

Ushbu jamg'arma mablag'larining 50 foizi jamoatchilik takliflari asosida shakllantirilgan loyihalarga sarflanadi. Chiroqchida 471, Dehqonobodda 385, Qamashida 353, Mirishkorda 226, Kosonda 277, Qarshi tumanida 284 kilometr ichki yo'llar ta'mirlanadi.

Shuningdek, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog' va Qamashining 1 million aholisiga qulay sharoitlar yaratish maqsadida Qashqadaryoni Samarqand bilan bog'lovchi dovon davlat-xususiy sheriklik asosida qayta ta'mirlanadi, shuningdek, tunnel qurilishining iqtisodiy samaradorligi ham o'rganib chiqiladi.

"Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida kelgusi besh yilda 140 ta qishloq va mahallada keng ko'lamli obodonlashtirish va qurilish-ta'mirlash ishlari bajarilib, bunga 1,6 trillion so'm mablag' yo'naltiriladi.

Viloyat aholisini qiynab kelayotgan eng dolzarb muammolardan yana biri – uy-joy bilan ta'minlash masalasidir. Shu yilning o'zida uy-joy masalasida Xalq qabulxonalariga 6 ming nafar fuqaro murojaat qilgan bo'lib, bu respublikada eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi.

Joriy yildan boshlab, "Bag'dod tajribasi" asosida uy-joylar, ishlab chiqarish, sanoat va ijtimoiy infrastruktura obyektlarini o'z ichiga olgan Yangi O'zbekiston massivlari barpo etiladi.

Birinchi bosqichda viloyatning Chiroqchi, Shahrisabz va Koson tumanlarida, ikkinchi bosqichda Yakkabog', Qarshi va G'uzor tumanlarida ehtiyojga qarab qurilishlar davom etadi. Yangi mas-

sivlar ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan tayyor holda foydalanishga topshiriladi.

Aholini doimiy ish bilan ta'minlash maqsadida massivlar hududida 7 ta kichik sanoat zonalari tashkil etiladi. Har bir massivda 20 gektardan iborat "Yoshlar issiqxona majmualari" qurilib, u yerdagi 14 ming oilaga 10 sotixdan taqsimlab beriladi.

Shuningdek, Qarshi va Chiroqchi tumanlarining 5 ming gektar qir-adirlarida "Yangi O'zbekiston massivi" barpo etilib, 8 ming kvartirali 300 ta ko'p qavatli uy, maktab, bog'cha, shifoxona, savdo markazi va boshqa obyektlar quriladi.

Umuman olganda, kelgusi besh yilda viloyatda jami 30 ming kvartirali qariyb 1 mingta ko'p qavatli uylar va 2,5 mingta yakka tartibdagi uylar barpo etiladi.

Bundan tashqari, 6 ming kilometr elektr uzatish tarmoqlari, 1,7 ming dona transformator va 13 ta podstantsiyada qurilish va rekonstruksiya ishlari amalga oshiriladi. Natijada 729 ta mahalladagi 319 ming aholining elektr energiya ta'minoti yaxshilanadi.

Yana bir masala – Chiroqchi tumani hududi 2,8 ming kvadrat kilometr bo'lib, viloyatning salkam yarim million aholisi ushbu tumanda yashaydi.

Xalq qabulxonalariga kelib tushgan murojaatlarga ko'ra, odamlar o'zining kundalik muammolarini hal qilish, davlat idoralariga borish uchun 2–3 soatlab vaqt sarflaydi. Tuman ichida jamoat transporti rivojlanmagani oqibatida odamlar markazga kelish uchun bir nechta transportdan foydalanishi, bunga 50 ming so'mgacha xarajat qilishga majbur.

Shu bilan birga, o'z paytida tuman Chiroqchi va Ko'kdala hududlariga bo'lingan edi. Shu bois ko'plab aholining murojaatlarini inobatga olib, ushbu tuman negizida Chiroqchi va Ko'kdala tumanlarini tashkil etsak, nima deysizlar?

Bundan tashqari, Shahrisabz tumani markazi haligacha Shahrisabz shahrida qolib ketdi. Bu holat tumanning rivojlanishini cheklamoqda.

Shuni inobatga olib, Shahrisabz tumani markazini Chorshanba shaharchasiga koʻchirib, uni rivojlantirish boʻyicha alohida dastur qabul qilishni taklif etaman.

Eng muhim yoʻnalish – aholi salomatligi, ayniqsa, onalar va bolalarimiz sogʻligʻini muhofaza qilish hisoblanadi.

Avvalambor, bu borada mamlakatimizda ilk bor Qashqadaryoda mutlaqo yangi tizim – “Ona va bola tibbiyot klasteri”ni tashkil etishni taklif qilaman.

Bunda viloyatdagi bolalar koʻp tarmoqli tibbiyot markazi, perinatal, skrining va reproduktiv salomatlik markazlari hamda tugʻruq kompleksi birlashtiriladi. Loʻnda qilib aytganda, qizlarimizni onalikka tayyorlashdan boshlab, bolaning tugʻilishi va 18 yoshga yetguncha koʻrsatiladigan barcha tibbiy xizmatlar bir joyda tashkil etiladi.

Shu bilan birga, klasterda 200 dan ortiq turdagi murakkab va yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari oʻtkaziladi.

Shahrisabz shahri, Qamashi, Chiroqchi va Kosonda perinatal markazlar tashkil qilinib, “Ona va bola tibbiyot klasteri”, Respublika perinatal va Bolalar milliy markazlari bilan integratsiya qilinadi.

Shuningdek, har yili 730 ming nafar bolalar va 90 ming nafar homilador ayollar vitaminlar bilan bepul taʼminlanadi.

Qashqadaryoning olis va chekka hududlarida istiqomat qiladigan 20 ming nafar aholi uchun oilaviy poliklinikalarda kecha-yu kunduz sifatli tibbiy xizmat koʻrsatish tizimi yoʻlga qoʻyiladi.

Misol uchun, viloyat markazidan 210 kilometr va tuman markazidan 70 kilometr uzoqlikda joylashgan Shahrisabz tumani-ning “Koʻl” qishlogʻidagi oilaviy poliklinika yangidan qurilib, bepul statsionar davolanishga sharoitlar yaratiladi.

Bunday olis qishloqlarni malakali shifokorlar bilan taʼminlash maqsadida bu yerdagi yoshlarga tibbiyot oliygohlariga kirishlari uchun maqsadli kvotalar ajratiladi.

Shuningdek, viloyatda kelgusi ikki yilda 21 ta mahallada oilaviy poliklinika va shifokorlik punktlari tashkil etiladi. Qon bosimi va

diabet kasalliklarini davolash uchun aholiga eng zarur dori vositalari bepul yetkaziladi. Buyrak kasalliklarini erta aniqlash maqsadida barcha birlamchi tibbiyot muassasalari ekspress-test vositalari bilan ta'minlanadi. Onkologik kasalliklarni erta aniqlash uchun 40 yoshdan oshgan 132 ming ayol har yili skrining tekshiruvidan o'tkaziladi.

Shahrisabz, G'uzor va Kasbida jarohatlar va qon-tomir kasalliklari markazlari tashkil etilib, ularda gemodializ xizmati ham yo'lga qo'yiladi.

Oltinchi yo'nalish – maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 62 foizga yetkaziladi. Buning uchun 40 ta davlat va 38 ta xususiy, mingta oilaviy bog'cha tashkil etiladi. Koson va Shahrisabz pedagogika kollejlari bazasida "Maktabgacha ta'lim klasteri" faoliyati yo'lga qo'yiladi. Bunga Qarshi davlat universiteti va pedagogika instituti bosh-qosh bo'ladi.

Qashqadaryoning olis va tog'li hududlaridagi barcha farzandlarimiz maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinadi. Dehqonobod, Kasbi, Kitob, Mirishkor, Qamashi, Chiroqchi, Nishon, Yakkabog' va G'uzorda bog'cha to'lovi miqdori 2 barobarga kamaytiriladi.

Viloyatda maktabgacha ta'limni rivojlantirishga 1 trillion so'mdan ziyod mablag'lar yo'naltiriladi.

Bugungi kunda hududda 101 ta maktab 3 smenada ishlaydi, 380 ta maktabda sport zali yo'q, 809 ta maktab toza ichimlik suvi, 169 ta maktab zamonaviy isitish tizimi bilan ta'minlanmagan.

Shularni hisobga olgan holda, kelgusi besh yilda 22 ta yangi maktab quriladi, 400 tasi to'liq ta'mirlanadi. Natijada 140 mingta qo'shimcha o'quvchi o'rni yaratiladi.

Viloyatdagi 10 ming o'rta maxsus ma'lumotli muallimlarga oliygohlarda o'qish uchun kvota ajratiladi.

Qashqadaryoga kelib, futbol haqida gapirmaslik mutlaqo mumkin emas. Viloyatda bugungi kunda oliy ligada ishtirok etadigan "Nasaf", "Sho'rtan", "Mash'al" hamda Osiyo va Yevropada tanish bo'lgan ayollarning "Sevinch" professional futbol klublari faoliyat yuritmoqda. Ushbu klublarning Otabek Shukurov va Azizjon

G'aniyev singari tarbiyalanuvchilari bugungi kunda O'zbekistonimiz nufuzini butun dunyoga taratmoqda.

Shuni hisobga olib, viloyatda futbolni yanada ommalashtirish va rivojlantirish bo'yicha katta ishlarni amalga oshiramiz. Jumladan, Shahrisabz shahrida bolalar va o'smirlar futbol mahorati maktabi tashkil etilib, unda 154 nafar iqtidorli yosh futbolchi tayyorlanadi. Qarshi shahridagi bolalar va o'smirlar futbol mahorati maktabi uchun zamonaviy sport bazasi barpo etiladi. Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi, Chiroqchi tumanlaridagi stadionlar to'liq ta'mirlanadi.

Yoshlarning futbol bilan muntazam shug'ullanishi uchun sport maktablari, futbol mahorat maktablari, futbol akademiyalari, umumta'lim maktablari sifatli inventarlar bilan jihozlanadi.

Aziz vatandoshlar, qadri do'stlar!

Men Qashqadaryo viloyatini har jihatdan jadal rivojlantirishga qaratilgan eng asosiy reja va dasturlarimiz haqida qisqacha to'xtalib o'tdim. Hech shubhasiz, bunday ulug' maqsadlarga siz, azizlar bilan birgalikdagi halol va fidokorona mehnatlarimiz, tinimsiz intilish va izlanishlarimiz orqali erishishimiz mumkin.

Bunday sharaffi yo'lda siz, muhtaram Qashqadaryo ahlining yuksak ishonchi hamda samimiy qo'llab-quvvatlashi menga katta kuch bag'ishlaydi.

Ishonchim komil, buyuk Amir Temur bobomizning:

“Hamisha azm-u jazm bilan ish tutdim.

Biron ishga qo'l ursam, butun zehnim, vujudim bilan bog'lanib, uni oxiriga yetkazmagunimcha tinmadim”, degan hikmatli so'zlarini barchamiz yaxshi bilamiz.

Xalqimiz, ota-bobolarimiz qaysi sohada bo'lmasin, o'z oldiga biron-bir maqsad qo'ysa, albatta, unga yetmaguncha aslo harakattan to'xtamaganlar.

Bugun sizdek mard va tanti yurtdoshlarim, navqiron o'g'il-qizlarimiz oldida, Amir Temurdek jahongir zotlar, Nasafiyardek buyuk allomalar ruhi kezib yurgan ushbu tabarruk zaminda turib bir fikrni aytmoqchiman:

Xudoning marhamati bilan barchamiz birgalikda Yangi O‘zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ulug‘ maqsadlarimizga, albatta, yetamiz.

Mana shunday ezgu yo‘lda barchangizga sihat-salomatlik, shaxsiy hayotingiz va faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar, oilaviy baxt-saodat, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

E‘tiboringiz uchun rahmat!

***Qarshi shahri,
2021-yil 11-oktabr***

**BILIM VA MA'RIFAT,
AZM-U SHIJOAT VA
QAT'IYAT – BUXORONING
TARAQQIYOT YO'LIDIR**

*(Buxoro viloyati saylovchilar vakillari
bilan uchrashuvdagi nutq)*

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

Hurmatli saylovchilar!

Avvalambor, Buxoroyi sharifdek tabarruk zaminda siz, azizlar bilan diydor ko‘rishib turganimdan baxtiyorman. Fursatdan foydalanib, siz, qadrdonlarimga, sizlar orqali butun Buxoro ahliga, o‘zining chuqur hurmat-ehtiromim va ezgu tilaklarimni bildiraman.

Hammamiz yaxshi bilamiz, ko‘hna va boqiy Buxoro insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi. Bu qutlug‘ diyorda o‘tmishda 400 ga yaqin madrasa, jumladan, 33 ta oliy madrasa, ya‘ni oliy o‘quv yurti faoliyat yuritgani bugun ham odamni hayratga soladi.

Buxoro – Imom Buxoriydek buyuk hadisshunos olimlar, Muhammad Narshaxiydek ulug‘ tarixchilar, Ibn Sinodek tibbiyot ilmining piri bo‘lgan tengsiz allomalar, qadri baland insonlar yurti. Buxoro – “Yetti pir” nomi bilan ma‘lum va mashhur bo‘lgan aziz-avliyolar xoki poklari yotgan muqaddas zamindir.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, Buxoroyi sharifdan bugungi kungacha uch mingdan ziyod mashhur olim va adiblar, siyosat va jamoat arboblari, madaniyat namoyandalari yetishib chiqqan.

Ramziy ma‘noda aytsak, birinchi va ikkinchi Renessans ravnaqiga mislsiz hissa qo‘shgan Buxoroning uch mingdan ziyod allomalari, ilm va ma‘rifat osmonini yulduzlar kabi yoritib turibdi. Ularning bebaho merosini bugungi avlodga yetkazish maqsadida “Buxoroning buyuk allomalari merosi” nomli ko‘p jildli kitoblar turkumini nashr etsak, men o‘ylayman, o‘rinli bo‘ladi.

Bu haqda gapirganda, eng avvalo, jahon tibbiyot ilmining sultoni, buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sino nomini faxr bilan tilga olishga

haqlimiz. Bu ulug' olim ilm-fanning turli sohalarida 400 dan ziyod nodir asarlar yozgani ma'lum.

Shu ma'noda, buyuk ajdodimizning bebaho merosini chuqur o'rganish, mamlakatimiz va jahon miqyosida keng targ'ib qilish maqsadida "Abu Ali ibn Sino va Sharq Rennessansi" mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazish an'anasini yo'lga qo'yishni taklif etaman.

G'oyat qiyin va og'ir davrlarda ham ezgulik bayrog'ini baland ko'tarib maydonga chiqqan buxorolik Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Abduvohid Burhonov singari fidoyi zotlar el-yurt dardi va taqdirini o'ylab yashagan buyuk insonlar edi.

Ayniqsa, Turkiston jadidchilik harakatining dohiylaridan bo'lgan yetuk davlat va jamoat arbobi, iste'dodli adib, birinchi o'zbek professori Abdurauf Fitratning bu boradagi xizmatlari tahsinga sazovordir.

O'tgan asrning 20-yillarida turkistonlik 70 nafar yigit-qizni Germaniyaga o'qishga yuborishda bu ulug' siymoning qanday katta rol o'ynaganini sizlar, albatta, yaxshi bilasiz. Fitrat chet elga jo'nab ketayotgan talabalarni Samarqanddagi Amir Temur maqbarasi oldida Vatan manfaatlariga sodiq bo'lish haqida qasamyod qildiradi. Qarang, qanday vatanparvarlik, fidoyilik namunasi bu!

Ulug' allomaning ona tilimiz, tarix va musiqa sohalarini rivojlantirishdagi beqiyos xizmatlarini e'tiborga olib, Buxoro shahrida Abdurauf Fitrat nomidagi o'zbek tili va xorijiy tillarni o'qitishga ixtisoslashgan ijod maktabi barpo etsak, nima deysizlar?

O'zbek xalqining yana bir buyuk farzandi, atoqli davlat va siyosat arbobi Fayzulla Xo'jayevning ezgu ishlarini el-yurtimizda bilmaydigan inson topilmaydi, albatta.

Nihoyatda murakkab va suronli yillarda u dastlab to'rt yil Buxoro jumhuriyatiga, keyin 13 yil O'zbekiston hukumatiga raislik qilgan. Afsuski, shunday ulug' inson 1938-yili qatag'on qurboni bo'lgan.

Bir paytlar Buxoro shahrida tashkil etilgan yodgorlik majmuasini “Fayzulla Xo‘jayev uy-muzeyi” deb qayta nomlab, uning yangi ekspozitsiyasini yaratsak, bu ham adolatdan bo‘ladi.

Muhtaram yurtdoshlar!

Xabaringiz bor, Islom hamkorlik tashkilotining ta‘lim, fan va madaniyat bo‘yicha tuzilmasi – ISESCO Buxoroni 2020-yilda Islom madaniyati poytaxti, deb e‘lon qildi. Hech shubhasiz, bu yuksak e‘tirof milliy merosimizni tiklash va o‘rganish, muqaddas qadamjolarini obod etish borasida mustaqillik davrida, xususan, keyingi besh yilda bu yerda amalga oshirgan ishlarimizga berilgan haqqoniy bahodir.

Shu bilan birga, amalga oshirishimiz zarur bo‘lgan vazifalarimiz hali juda ko‘p. Masalan, hadis ilmining sultoni Imom Buxoriyning ustoz, yurtimizda islom huquqshunosligi faniga asos solgan buyuk alloma Abu Hafs Kabir Buxoriy hazratlarining muborak nomini abadiylashtirish, ilmiy merosini xalqimizga yetkazish burchimizdir.

2023-yilda Kabir Buxoriy bobomiz tavalludiga 1255 yil to‘ladi. Ushbu sanani munosib nishonlash bo‘yicha maxsus qaror qabul qilamiz.

Biz bundan uch yil muqaddam Mir Arab madrasasini oliy diniy ta‘lim muassasasi sifatida qayta tiklaganimizdan sizlar xabardorsiz. Kelgusi yili ushbu mo‘tabar dargohning faoliyat boshlaganiga hijriy yil hisobi bo‘yicha 500 yil to‘ladi. Shu muhim sanani xalqaro miqyosda nishonlasak, o‘ylaymanki, ayni muddao bo‘lur edi.

Ma‘lumki, Buxoro – milliy san‘atimiz va madaniyatimizning qadimiy markazlaridan biri. Maqom san‘atining gultoji bo‘lmish “Shashmaqom”ning olamshumul shuhrat topishida ushbu zaminning hissasi beqiyosdir.

Navbatdagi Xalqaro maqom san‘ati festivalini Buxoroda o‘tkazsak, dunyo maqom ustalari shu yerda jamuljam bo‘lsa, bu, albatta, go‘zal va tarixiy anjuman bo‘ladi.

Hurmatli uchrashuv qatnashchilari!

Buxoro ahli o'zining halol mehnati va salohiyati bilan turli soha va tarmoqlarda ulkan natijalarga erishmoqda.

Bugun ana shu jarayonda faol ishtirok etib kelayotgan buxorolik O'zbekiston Qahramonlari Muyassar Temirova, Martiya Rahmatova, Azim Latipov, To'ra Narziyev, Muhammad Ahmedov, muhtaram faxriylarimiz Behbud Jumayev, Ubaydulla Nosirov, Samoydin Husenov, Farmon Aminov, Sayitquli Oqqiyev, Alisher Narzulayev va boshqa nuroniylarimizga fidokorona mehnatlari uchun rahmatlar aytamiz.

O'zbekiston xalq o'qituvchilari Munavvara Fayziyeva, Muso Tolibov, Guloyim Jalliyeva, Hakim Tohirov, Abdurashid Hasanov, usta fermer va tadbirkorlar, klaster rahbarlari Sanam Jumayeva, Gulbahor Sharapova, Dilbar Ahmedova, Rustam Payziyev, Ibrohim Hamroyev, Azamat Sultonov, Nurmuhammad Ochilov, Mansur Mahmudov, Botir Usmonovning nomlarini alohida hurmat va ehtirom bilan tilga olamiz.

Og'ir zamonlarda ilm-fanimiz va ma'naviyatimiz rivojiga munosib hissa qo'shgan akademiklar Ibrohim Mo'minov, To'ra Mirzayev, Said Shermuhammedov, O'zbekiston xalq yozuvchisi Ne'mat Aminov, atoqli shoirlar Omon Muxtor, Tilak Jo'ra, Sadridin Salim Buxoriy va boshqa fidoyi insonlar xotirasiga hurmat bajo keltiramiz.

Buxoroga xos ilmiy-ijodiy an'analarni davom ettirib kelayotgan taniqli professorlar Fayzulla Mo'minov, Ibrohim Haqqulov, Sulaymon Inoyatov, Qahramon Rajabov, Baqo Umarov, O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimlari Sultonmurod Olimov, Bobur Bobomurod, Salomat Rahmonova kabi ijodkorlarning nomlarini minnatdorlik bilan qayd etamiz.

Buxoro zamonaviy o'zbek san'atining butun bir avlodini yetishtirib bergan zamin sifatida ham qadrlidir. O'zbekiston xalq artistlari, atoqli kino va teatr ustalari Razzoq Hamroyev, Maryam Yoqubova, Omina

Fayozova, Olim Xo'jayev, taniqli kompozitorlar Muxtor Ashrafiy, Mutavakkil Burhonov, O'lmas Rasulov shu zamin farzandlaridir.

O'zbekiston san'at arbobi Mustafo Bafoyev, O'zbekiston xalq artistlari Baxtiyor Ixtiyorov, Tessa Mo'minov, Ubaydulla Omon, O'zbekiston xalq hofizi Soyibjon Niyozov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Qursiya Esonova, Yo'ldosh Kenjayev, Yulduz Turdiyeva, Mohichehra Shomurodova, Ilyos Arabov kabi taniqli san'atkorlarimiz yorqin iste'dodi bilan xalqimizga astoydil xizmat qilib kelmoqda.

Jahon va qit'amiz chempionlari Abbas Atoyev, Rishod Sobirov, Shahobiddin Zoirov, Shahram G'iyosov, yozgi olimpiya o'yinlarida 8 marta ishtirok etib, Ginnesning rekordlar kitobidan o'rin egallagan Oksana Chusovitina kabi sportchilarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Bu zaminda iste'dodli o'g'il-qizlarimizning ko'pligi tufayli joriy yilda oliygozlarga kirish bo'yicha Buxoro viloyati yetakchi bo'ldi. Bu borada Qorako'l tumani yanada baland ko'rsatkich bilan mamlakatimiz tuman va shaharlari orasida birinchi o'rinni egallagan e'tiborga sazovordir.

O'zbekiston xalq o'qituvchisi, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi, marhum To'xtamurod Jumayev asos solgan "Qorako'l metodikasi"ni barchamiz yaxshi bilamiz. Endi ushbu tizim imkoniyatlarini yanada yuqori bosqichga olib chiqish uchun Qorako'l xalqaro matematika maktabi negizida IT klasteri barpo etiladi. Shu orqali sohada ta'limdan ishlab chiqarishgacha bo'lgan yaxlit zanjir yaratiladi.

Qadrli do'stlar!

Buxoroga kelishdan oldin men viloyat tadbirkorlari, partiya-doshlarim bilan maslahatlashdim, aholi murojaatlarini o'rgandim. Viloyatning asosiy ko'rsatkichlari ham chuqur tahlil qilindi.

Hamangiz guvohsiz, o'tgan besh yilda Buxoroda ko'plab yangi korxonalar, uy-joylar, ta'lim va tibbiyot muassasalari, yo'llar

va boshqa muhandislik obyektlari qurildi. Shahar va tumanlar markazlari, qishloq va mahallalar tobora obod bo'lmoqda.

Shu bilan birga, viloyatda o'z yechimini kutayotgan qator masalalar borligi ham haqiqat. Bugungi kunda viloyatda 100 mingdan ortiq aholi ishsiz. Joriy yilning o'zida viloyat aholisidan ish o'rinlari bo'yicha 6 mingdan ziyod hamda 8 mingdan ortiq ijtimoiy yordam to'g'risida Xalq qabulxonalariga murojaatlar kelib tushgan.

Shu bois Buxoro viloyatini rivojlantirish uchun barcha idora va tarmoqlar birgalikda rejalarini belgilab, tinimsiz ishlashimiz kerak. Yuqoridagilarni inobatga olib, Buxoro viloyati iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va ijtimoiy muammolarni hal qilish bo'yicha besh yillik dasturni ishlab chiqdik.

Birinchi yo'nalish. Viloyatning salohiyati, mavjud resurslarini qayta ishlash imkoniyatlarini inobatga olib, kelgusi yillar Buxoroda sanoatda keskin burilish davri bo'ladi.

Jumladan, jami 8 milliard dollarlik 5 mingta loyiha amalga oshirilib, 100 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Bunda, eng avvalo, sanoatning strategik tarmoqlarida xomashyoni chuqur qayta ishlashga qaratilgan 5 ta "mega loyiha" amalga oshiriladi.

Xususan, Qorako'l tumanida qiymati 2,7 milliard dollarlik, yiliga 1,3 milliard kub metr gazni qayta ishlaydigan gaz-kimyo kompleksini barpo etish loyihasi boshlanadi. Bu loyiha doirasida eng zamonaviy texnologiyalar asosida yiliga 770 ming tonna polimerlar ishlab chiqariladi.

Ushbu korxonaning atrofida sanoat klasteri tashkil etilib, unda qurilish materiallari, kimyo, yengil sanoat, elektrotexnika, avtomobilsozlik va boshqa mahalliy sanoat tarmoqlari uchun 100 dan ortiq mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Shu orqali Qorako'l, Olot, Jondor va Peshko' tumanlarida 3 mingta doimiy ish o'rni yaratilib, yiliga 110 million dollarlik mahalliy sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Bugungi kunda viloyatda elektr energiyasi ishlab chiqarish manbalari mavjud emas. Shuning uchun 1,6 milliard dollar to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya hisobidan 4 ta shamol, quyosh va issiqlik elektr stansiyalari barpo etiladi. Ushbu stansiyalar yiliga 6,3 milliard kilovatt soat yoki viloyat ehtiyojiga nisbatan ikki barobar ko'p elektr energiyasi ishlab chiqaradi.

Jumladan, 2023-yilda Peshko' va G'ijduvonda jami quvvati 1 ming megavatt bo'lgan 2 ta shamol elektr stansiyasi quriladi.

Shu bilan birga, aholini yuqori daromadli ish o'rinlari bilan ta'minlaydigan mahalliy sanoat ravnaqiga alohida e'tibor qaratiladi. Bu borada, eng avvalo, to'qimachilik sanoatida jami 450 million dollarlik 180 dan ziyod yirik va o'rta loyihalar ishga tushirilib, 40 mingta ish o'rni yaratiladi.

Shu o'rinda aytish joizki, islohotlarimiz natijasi sifatida paxtani yetishtirishdan boshlab, tayyor kiyimgacha bo'lgan va ishlab chiqarishning barcha sikllarini qamrab olgan klaster tizimi Buxoroda o'z samarasini ko'rsatdi. Ushbu ishlarimizni davom ettirib, viloyatda kelgusi besh yilda paxta tolasi va ip-kalavani qayta ishlash darajasini 35 foizdan 100 foizga yetkazish va eksportni 4 barobarga ko'paytirish choralarini ko'ramiz.

Masalan, Romitanda 135 million dollar, Vobkentda 156 million dollar investitsiya jalb qilinib, yiliga 45 ming tonna ip-kalavadan tayyor kiyimlar ishlab chiqarish loyihalari ishga tushiriladi. Shuningdek, sun'iy tola ishlab chiqarish quvvatlari 36 ming tonnaga yetkazilib, ulardan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

Hudud uchun salohiyati yuqori bo'lgan yana bir tarmoq – qurilish materiallari sanoati ham yangi bosqichga olib chiqiladi.

Buning uchun viloyatdagi 78 ta kon uchastkasi auksionga chiqariladi, 37 ta istiqbolli maydonda geologiya-qidiruv ishlari amalga oshiriladi. Qorovulbozor va Peshko' tumanlarida qurilish materiallari klasterlari tashkil etilib, 10 trillion so'mlik 282 ta loyiha amalga oshiriladi.

Jumladan, xuddi G'ozg'ondagi kabi Peshko'da ham barcha infratuzilmaga ega, marmar-granitni qayta ishlash hisobidan yiliga 200 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqaradigan klaster tashkil etiladi.

Charm sanoatida terini qayta ishlash darajasi 70 foizga yetkaziladi. Buning uchun Vobkent, G'ijduvon, Romitan, Shofirkon, Qorako'l, Jondor va Kogonda eksportbop tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha 400 milliard so'mlik 42 ta loyiha amalga oshiriladi va 8 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Shuningdek, "G'ijduvon" erkin iqtisodiy zonasi hududi 430 gektarga kengayadi va temir yo'l tarmog'i o'tkaziladi, barcha tumanlarda jami 30 ta yangi kichik sanoat zonalari va 15 ta "Yoshlar sanoat zonalari" tashkil etiladi. Ularning infratuzilmasiga 300 milliard so'm yo'naltiriladi.

Endi har yili "yoshlarning eng zo'r biznes g'oyalari"ga yiliga 50 milliard so'm mablag' ajratiladi.

Viloyatda O'zbekiston–Abu-Dabi investitsiya kompaniyasi tomonidan "Biznes maktab" tashkil etiladi.

Shu bilan birga, mahalliy loyihalarga ko'maklashish uchun Buxoro sanoatini rivojlantirish jamg'armasi tuziladi. Ushbu jamg'armaga dastlabki bosqichda mahalliy budjetdan 200 milliard so'm, Osiyo taraqqiyot bankidan 500 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi.

Hududda mahalliy sanoatni rivojlantirish maqsadida har bir tumanda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi:

- istiqbolli loyihalarni ishlab chiquvchi "Loyiha guruhlari"ni tashkil etadi;

- tumanning ilg'or tadbirkorlari bilan "Xolding kompaniyalari" tuzadi;

- eng istiqbolli mahalliy loyihalarga To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi 30 foiz ulush bilan kiradi;

- Jamg'arma tomonidan har bir tumanga yiliga kamida 15 million dollardan mablag'lar ajratiladi.

Kuni kecha qo‘shnimiz Turkmaniston bilan Olot tumanidagi chegaradosh hududda “Chegara oldi savdo zonasi” tashkil etish bo‘yicha muhim kelishuvga erishdik.

Umuman, viloyatning eksport salohiyati keyingi besh yilda ishga tushadigan loyihalar hisobidan 3,5 barobarga oshib, 570 million dollarga yetkaziladi.

Ikkinchi yo‘nalish. Kam xarajat bilan eng ko‘p ish o‘rinlari yaratadigan, ayniqsa, qishloq joylardagi aholimizning asosiy daromad manbai bo‘lgan agrar sohani rivojlantirish navbatdagi ustuvor yo‘nalishimiz bo‘ladi.

Bu borada oldimizda turgan **eng asosiy masala**, bu – ekin yerlaridan samarali foydalanish hisoblanadi. Hozirgi kunda viloyatda qishloq xo‘jaligi yerlarining 80 foizi sho‘rlangan bo‘lib, sho‘r yuvish uchun har bir gektarga 5 ming metr kub suv sarflanmoqda.

Shu bois endi har yili 65 ming gektar sho‘rlangan yerlarda chuqur yumshatish va lazerli tekislash amalga oshirilib, suv sarfi 20–25 foizga kamaytiriladi. 8 ming kilometr kanal va kollektorlar ta‘mirlanadi, 126 ming gektarda suv tejoyvchi texnologiyalar joriy qilinadi.

Bundan tashqari, 30 million yevro hisobidan Qorako‘l, G‘ijduvon va Buxoro tumanlaridagi nasos stansiyalari modernizatsiya qilinishi natijasida 150 ming gektar ekin maydonlarining suv ta‘mini yaxshilanadi.

Shuningdek, Peshko‘, Romitan va Jondor tumanlaridagi 12 ming gektar maydonning meliorativ holatini yaxshilash choralari ko‘riladi.

Ikkinchidan, kelgusi besh yilda viloyatda 200 ming gektar ekin maydonlarini foydalanishga kiritish bo‘yicha alohida dastur qabul qilinadi.

Shundan 100 ming gektar yerlar meva-sabzavot yetishtirishga ajratiladi. Jumladan, Qorako‘l, Peshko‘, Shofirkon, Romitan, G‘ijduvonda 25 ming gektarda tokzorlar, Buxoro, Kogon, Jondor va Vobkent tumanlarida 15 ming gektarda intensiv bog‘ barpo etiladi. Shuningdek, 2 ming gektar yerda zamonaviy issiqxonalar quriladi.

Bu maqsadlar uchun dastlab 150 million dollar mablag' jalb etiladi. Talabga qarab, bu mablag'lar ko'paytiriladi.

Shu o'rinda qishloq aholisi kutayotgan yana bir muhim masalaga to'xtalmoqchiman.

Hozirgi kunda viloyatdagi tomorqadan foydalanishda yetarli tajriba to'plagan 76 ta mahallada 36 mingta xonadon aniq turdagi mahsulot yetishtirishni yo'lga qo'ygan.

Masalan, Romitaning "Qo'rg'on" mahallasida anor, Vobkentdagi "Anjirbog'"da anjir, Buxoro tumanidagi "Yangi turmush"da uzum, Peshko'dagi "Afshona"da limon yetishtirish rivojlangan. Bu kabi xonadonlarga qo'shimcha yer ajratilsa, mahsulot yetishtirish hajmini keskin oshirish hamda bandlik masalasini hal qilish imkoniyati yaratiladi.

Shuning uchun kelgusi yildan 15 ming gektar paxta, g'alla va boshqa ekin maydonlari qisqartirilib, ochiq tanlov asosida aholiga 50 sotixgacha ijaraga beriladi. Shu bilan birga, 14 mingta xonadonda kichik issiqxonalar qurib beriladi va 35 milliard so'm subsidiya ajratiladi.

Qolaversa, 110 ta mahallada 530 ta quduq qazish hisobidan 10 mingga yaqin xonadonning suv ta'minoti yaxshilanib, tomorqada ekin ekish imkoniyati yaratiladi. Tomorqalarda mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun 100 milliard so'm imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Uchinchidan. o'zlashtiriladigan maydonlar hisobidan 60 ming gektar yer ozuqa yetishtirish uchun ajratiladi va ozuqa ishlab chiqarish hajmi 5 barobarga oshiriladi.

Qo'ychilik klasterlari tomonidan 250 ming gektar yaylov yerlarini qayta tiklash va hosildorligini oshirish hamda qo'ylar sonini 1,5 barobarga ko'paytirib, 500 ming boshga yetkazish choralari ko'riladi.

Shofirkon, Qorako'l, Peshko' tumanlarida aholi bilan kooperatsiya yo'lga qo'yilib, junni qayta ishlash 2 barobar, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish 3 barobar ko'payadi.

Uchinchi yo'nalish. Yuqorida aytganimdek, Buxoro azal-azaldan tadbirkor va hunarmandlar yurti sifatida shuhrat qozongan. Bu salohiyatni ishga solish uchun aholiga zarur sharoitlar yaratib, odamlarni kasbga o'rgatsak va ozgina ko'mak bersak, bemaolol 90 ming aholining bandligini ta'minlasa bo'ladi.

Bu ishlarni "mahallabay" tashkil etish uchun har bir mahallada "hokim yordamchilari" faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Hokim yordamchilari mahallada:

– tadbirkorlikni rivojlantirish va yangi ish joylarini yaratishga mas'ul bo'ladi;

– yer, kredit, infratuzilma, kasbga o'qitish va boshqa zaruriy ko'mak berish tizimini yo'lga qo'yadi;

– aholi tomorqasidan samarali foydalanish hamda ekinlarni ekishda ko'chat, o'g'it, issiqxona, suv masalalarini hal etishga ko'maklashadi;

– ularning o'z "budjet"i bo'lib, ehtiyojmand oilalarga subsidiyalar ajratish, jamoat ishlariga jalb qilishni tashkillashtiradi.

Buxoro viloyati misolida aytadigan bo'lsak, hokim yordamchilari oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida har yili ajratiladigan 700 milliard so'm kreditni 544 ta mahallaga berilishini ta'minlaydilar. Ya'ni har bir mahallada kamida 1 milliard so'mdan mablag' bo'ladi.

Hokim yordamchilari iqtisodiyot, investitsiya, hokimiyat idoralarida ishlaydigan bilimli va shijoatli yoshlar orasidan tanlanadi hamda 2 oy davomida yangi tizim asosida ishlashga o'qitiladi.

Ushbu yangi tizimni Shofirkon misolida tushuntirib bermoqchiman.

Tumanda 8 ming 200 nafar mehnatga layoqatli aholi ishsiz. Bundan tashqari, kelgusi besh yilda yana 13 ming 200 nafar yoshlar mehnat bozoriga kirib keladi.

Shularni hisobga olib, hokim yordamchilari bu davrda kamida 25 ming aholini band qilishga mas'ul bo'ladi.

Jumladan, tumanda:

– 50 ta mahallaning 5 ming nafar aholisini kasb-hunarga o'qitishga 4 milliard so'm subsidiya ajratiladi hamda ularning biznesini boshlashga kreditlar beriladi;

– Sharof Rashidov mahallasi – chorvachilik, “Bog'iafzal” va “Savrak” – kashtachilik, “Pashmon” – tunukasozlikka ixtisoslashib, 1 mingga yaqin aholi bandligi ta'minlanadi;

– “Vardonze”, “Mingchinor”, “Jo'robot”, “Yangi qishloq” mahallalarida kooperatsiya usulida 600 gektar maydonda uzum yetishtirish yo'lga qo'yilib, 1 ming 800 nafar aholining bandligi ta'minlanadi;

– “Tezguzar”, “Jilvon”, “Sultonobod”, “Bobur”, “Orif” mahallalarida 5 ta kichik sanoat zonasi tashkil etilib, 60 ta loyiha doirasida 1 ming 300 nafar yangi doimiy ish o'rni yaratiladi;

– 3,5 mingta xonadonda ixcham issiqxonalar tashkil etish orqali 7 ming nafar aholi bandligi ta'minlanadi;

– ehtiyojmand oilalarga 10–15 sotixdan, jami 420 gektar maydon 10 yilga ijaraga berilib, 5 ming nafar fuqaro band bo'ladi;

– 350 ta yengil konstruksiyali xizmat ko'rsatish shoxobchasini tashkil etish hisobidan 700 dan ziyod yangi ish o'rni yaratiladi.

Suv ta'minoti og'ir bo'lgan “Jo'ynav” va “Iskogare” mahallalarida quduq qazib berish orqali 700 ta oila tomorqasida ekin ekish imkoniyati yaratiladi va 2 ming nafar aholi band qilinadi.

Ushbu yangi mahallabay tizimni boshqa tumanlarda ham samarali tashkil qilsak, Buxoroda ishsizlik va kambag'allik keskin qisqaradi, odamlarimiz bizdan rozi bo'ladi.

To'rtinchi yo'nalish. Buxoro dunyo madaniyatining eng qadimiy manzillaridan biri ekani hech kimga sir emas. Viloyatdagi 829 ta madaniy yodgorlikdan 287 tasining tarixi ming yilliklarga borib taqaladi. Shu bois, Buxoroda turizmni jadal rivojlantirish bo'yicha alohida dastur amalga oshiriladi.

Natijada xorijiy va mahalliy turistlar soni 5 million nafarga, eksport hajmi esa 600 million dollarga yetkaziladi.

Yaqinda UNESCO tomonidan Buxoroning yana 7 ta qadimiy obidasi Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi. Ularni hamda viloyatdagi yana 800 dan ziyod tarixiy boyligimiz bo'lgan madaniy obyektlarni birma-bir restavratsiya qilishni boshlaymiz.

Bunga dastlab 300 milliard so'm ajratilib, mahalliy va xorijiy olimlar, restavratorlar va boshqa eng nufuzli mutaxassislar jalb qilinadi.

Ayniqsa, "Ark qo'rg'oni"ning bundan 100 yil oldin vayron qilingan qismlari qayta tiklanadi.

Shuningdek, buyuk bobokalonimiz, ulug' alloma Abu Ali ibn Sino tug'ilib o'sgan Afshona qishlog'ini turizm shaharchasiga aylantirishni taklif qilaman.

Buxoro shahrida zamonaviy jihozlangan tarix muzeyi tashkil etiladi va unda viloyatdagi mavjud 130 mingdan ziyod eksponatlar orasidan Buxoro tarixining eng noyob durdonalari joylashtiriladi.

Buxoro shahrida Arxeologiya institutining filiali, Buxoro davlat universitetida alohida kafedra tashkil etiladi.

Qorako'l tumanidagi "Poykent – osmon ostidagi muzey" arxeologik parki tashkil etiladi. Shuningdek, viloyatning turizm infratuzilmasi ham kengaytiriladi.

Buxoro aeroporti orqali xalqaro aviaqatnovlar soni 5 barobarga oshiriladi.

Kelgusi besh yilda viloyatda katta-kichik 255 ta mehmonxona barpo etiladi, 60 ta yangi turizm marshrutlari tashkil qilinadi.

Turizm bilan bir qatorda, unga yondosh bo'lgan boshqa xizmatlarni ham rivojlantirishga alohida e'tibor qaratamiz. Bu sohada jami 50 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Xususan, xalqaro avtomobil yo'llari bo'yida 2 ta yirik savdo majmuasi barpo etiladi. Shuningdek, qiymati 200 million dollarlik 500 ta loyiha amalga oshirilib, 15 mingga yaqin ish o'rni yaratiladi. Shuningdek, G'ijduvonda hududlararo ulgurji savdo markazi quriladi.

Umuman olganda, kelgusi besh yilda Buxoro viloyatini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish uchun davlat hisobidan 50 trillion so'm ajratiladi va jami 280 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Beshinchi yo'nalish. Buxoro ahli uchun uy-joy, elektr, tabiiy gaz, toza va sifatli suv ta'minoti, ichki yo'llar, oqova suv tizimini yaxshilash navbatdagi muhim vazifamiz bo'ladi.

Bugungi kunda 10 mingdan ziyod oila yashash sharoitini yaxshilashga muhtoj. Har yili 16 mingdan ziyod yangi oila qurilmoqda. Shu bois kelgusi besh yilda 20 mingdan ortiq xonadonli uy-joylar quriladi.

Joriy yildan boshlab, "Bag'dod tajribasi" asosida uy-joylar, ishlab chiqarish, sanoat va ijtimoiy infrastruktura obyektlarini o'z ichiga olgan "Yangi O'zbekiston" mavzolari barpo etiladi.

Birinchi bosqichda viloyatning G'ijduvon va Buxoro tumanlarida, ikkinchi bosqichda Romitan, Vobkent, Kogon va Qorako'l tumanlarida qurilishlar amalga oshiriladi.

Bunda ehtiyojmand oilalarga boshlang'ich va foiz to'lovlari uchun yiliga 120 milliard so'm subsidiya ajratiladi.

Buxoro shahri hududi atrof tumanlari hisobidan 3,5 ming gektarga kengayadi.

Viloyatdagi 620 ta ko'p kvartirali uylar ta'mirlanadi va shu orqali 146 ming nafar aholining turmush sharoiti yaxshilanadi.

Buxoro uchun eng dolzarb bo'lgan aholini markazlashgan toza ichimlik suvi bilan ta'minlash qamrovi hozirgi 62 foizdan kamida 90 foizga yetkaziladi. Buning uchun 600 million dollar mablag' jalb qilinib, 2 ming kilometr ichimlik suvi, 600 kilometr kanalizatsiya tarmog'i, 110 ta suv inshootlari quriladi va ta'mirlanadi.

Eng muhimi, 700 mingdan ziyod aholi ilk bor toza ichimlik suvi bilan ta'minlanadi, 165 mingdan ziyod aholining oqova suv xizmatini yaxshilashga erishiladi.

Buxoro viloyati aholisi murojaatlari ichida yo'llarni ta'mirlash masalasi eng dolzarb o'rinlarda turadi. Shu bois keyingi besh yilda 3,5 ming kilometr avtomobil yo'llari va ichki ko'chalar, 412 ta ko'p-rikni qurish-ta'mirlash uchun qariyb 3,5 trillion so'm yo'naltiriladi.

Shuningdek, 6 ming kilometr elektr tarmoqlarini ta'mirlash va yangi liniyalar tortish, 1,5 ming dona yangi transformatorlarni

o'rnatish ishlari amalga oshiriladi. Natijada 334 ta mahalla aholisining elektr ta'minoti yaxshilanadi. Bu o'tgan besh yilga nisbatan ikki barobar ko'p deganidir.

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida kelgusi besh yilda 130 ta qishloq va mahallada keng ko'lamlı obodonlash-tirish va qurilish-ta'mirlash ishlari bajarilib, bunga 1,2 trillion so'm mablag' yo'naltiriladi.

Bir ijobiy tajribaga e'tibor qiling. Buxoroda o'tgan yildan buyon aholi takliflari asosida “Fuqarolar budjeti” tizimi yaratilib, eng dolzarb bo'lgan maktab, ichki yo'l va ko'cha yoritish kabi loyihalarga 30 milliard so'm yo'naltirilgan.

Eng asosiysi, bu loyihalar 5 mingdan ziyod aholi takliflari asosida shakllangan. Bu ishlarni izchil davom ettirib, fuqarolar tashabbusi asosidagi loyihalarga kelgusi besh yilda 600 milliard so'm yo'naltiriladi.

Oltinchi yo'nalish. Buxoro viloyatiga har safar kelganimda odamlar salomatligi, ularga malakali va sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatish ahvoli doim diqqat markazimda bo'ladi.

Viloyatda 422 ming nafar aholining surunkali kasalligi bor. Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini tubdan oshirish maqsadida Buxoro shahrida ilmni amaliyot bilan birga olib boradigan “tibbiyot shaharchasi” tashkil etiladi.

Bunda viloyatning 10 ta tibbiyot muassasasi bilan birga, Buxoro tibbiyot institutining eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan klinikasi barpo etiladi. Bu yerda neyroxirurgiya, onkologiya va kardioxirurgiya yo'nalishlarida maxsus bo'limlar ochiladi hamda mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yiladi.

Homilador ayollar va chaqaloqlarga yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish uchun esa G'ijduvon, Romitan va Qorako'lda perinatal markazlari faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Birlamchi bo'g'inda 40 yoshdan oshgan 500 mingdan ziyod aholi diabet, yurak-qon tomir va onkologik kasalliklar bo'yicha manzilli tibbiy ko'riklardan o'tkaziladi.

Kelgusi besh yilda yana 14 ta oilaviy shifokorlik punkti va 6 ta oilaviy poliklinika tashkil etiladi, 100 ta tibbiyot muassasasi to'liq ta'mirlanadi.

Yettinchi yo'nalish. Ta'lim tizimida ham qator islohotlarni amalga oshiramiz.

Eng avvalo, kelgusi besh yilda maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lmagan 22 ta mahallada 507 ta oilaviy bog'cha tashkil etiladi. Shuningdek, qamrov ko'rsatkichi past bo'lgan hududlarda 92 ta davlat va davlat-xususiy sheriklik, 586 ta oilaviy bog'cha tashkil etiladi. Natijada viloyat bo'yicha maktabgacha ta'lim qamrovi 91 foizga yetkaziladi. Buxoro viloyatida bu borada o'ziga xos tajriba shakllangan.

2026-yilga borib maktab yoshidagi o'quvchilar soni 390 ming nafarga yetishini inobatga olib, viloyatda 50 mingga yaqin yangi o'quvchi o'rni yaratiladi. Buning uchun 24 ta yangi maktab quriladi, 262 tasi rekonstruksiya qilinadi va kapital ta'mirlanadi.

Kelgusi besh yilda viloyatda yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 50 foizdan oshiriladi va qo'shimcha 17 mingdan ortiq yoshlar oliy ta'limga qabul qilinadi.

Muhtaram Buxoro ahli!

Ulug' bobomiz, naqshbandiya tariqatining yirik rahnamosi Xoja Ahror Valiyning **“Shunchaki orzu bilan ish bitmaydi, maqsadga yetish uchun g'ayrat va himmat kerak”**, degan so'zlarida chuqur ma'no bor.

Men avval ham aytganman: bugun biz intilayotgan yangi O'zbekistonni, Uchinchi Rennans poydevorini bunyod etish – bu shunchaki orzu emas. Bu – aniq strategik maqsad va umum-xalq harakatiga aylanib borayotgan buyuk amaliy jarayondir.

Men ishonaman, bunday buyuk jarayonning natijasi ham, albatta, ulkan bo'ladi.

Bugun taqdim etilayotgan bizning saylovoldi dasturimizda – Yangi O'zbekiston strategiyasida kelgusi besh yildagi maqsad va vazifalar, ularga erishish yo'llari aniq ishlab chiqilgan.

Bu strategiyaning ko‘lami va miqyosi g‘oyat keng bo‘lib, uni amalga oshirish uchun bizga, avvalo, vaqt kerak, islohotlarning davomiyligini ta‘minlash zarur.

Asrlar davomida yurtimizda kechgan ulug‘ va shonli jarayonlarda doimo oldingi safda bo‘lib kelgan Buxoro ahli bu yo‘lda ham barchaga o‘rnak bo‘ladi, deb ishonaman.

Men bu oliyjanob harakatda sizlar kabi ko‘pni ko‘rgan, hayot sinovlarida toblangan mard va fidoyi vatandoshlarimga tayanaman.

Buxoroyi sharif ahli – o‘z so‘zi va ahdida qat‘iy, niyatlari ulug‘ xalqdir. Bu zamin yoshlari – azm-u shijoatli, botir va g‘ayratli yoshlardir.

Biz bunga tarixda ham, hozirgi kunda ham takror va takror guvoh bo‘lib kelyapmiz.

Barchangizga sihat-salomatlik, mehnatda, o‘qishda va oilaviy hayotda ulkan baxt va omadlar tilayman.

Ezgu ishlarimizda Yaratganning o‘zi madadkor bo‘lsin!

Jonajon O‘zbekistonimizga, Buxoromizga ko‘z tegmasin!

Katta rahmat sizlarga.

*Qorako‘l tumani,
2021-yil 12-oktabr*

**ZAMONAMIZ FARHODLARI –
NAVOIY ELI YANADA RAVNAQ
TOPSIN!**

*(Navoiy viloyati saylovchilar vakillari bilan
uchrashuvdagi nutq)*

Assalomu alaykum, muhtaram vatandoshlar!

Hurmatli saylovchilar!

Avvalambor, bugun siz, aziz yurtdoshlarim bilan mana shunday ko'tarinki kayfiyatda uchrashib turganimdan g'oyat xursandman.

Fursatdan foydalanib, sizlarga, sizlar orqali Navoiy viloyatining ko'pmillatli xalqiga o'zimning chuqur hurmat-ehtiromim va ezgu tilaklarimni bildiraman.

Navoiy viloyati deganda bir tomoni cho'l, bir tomoni ko'l, bir yoni ulkan tog'lar, bir tarafi bepoyon dalalardan iborat betakror tabiatni, ulkan sanoat mintaqasini tasavvur etamiz.

Ushbu hududdagi Navoiy, Zarafshon, Uchquduq kabi zamonaviy shaharlarning dovrug'i butun dunyoga taralgan.

Biz viloyatni noyob va qimmatbaho qazilmalarning mo'l zaxirasiga, konchilik, metallurgiya, energetika, kimyo, qurilish materiallari, oziq-ovqat sohasidagi zamonaviy korxonalariga ega bo'lgan voha sifatida barchamiz yaxshi bilamiz.

Bu o'lkaning tuprog'i – oltin, deymiz. Lekin aslida uning mard va matonatli, bag'rikeng xalqi oltindan ham qimmatli boyligimiz, desak, ayni haqiqat bo'ladi.

Дорогие друзья!

Навоийская область – поистине благодатный край. Её недра полны огромных богатств, и мы, безусловно, гордимся этим.

Но самое большое, действительно бесценное богатство – это, конечно, люди, представители около 100 наций и народностей, живущие здесь в мире и согласии.

Многонациональный Навои – яркий пример отношений дружбы и взаимопонимания между разными народами, формировавшихся в крае на протяжении тысячелетий.

Узбеки, казахи, каракалпаки, таджики, русские, корейцы, представители многих других этно-культурных общностей живут на этой прекрасной и щедрой земле единой семьей и все вместе вносят достойный вклад в развитие области.

Сегодня в регионе действуют 8 национальных культурных центров, для них созданы все условия. Обучение в школах ведётся на 7 языках. В этом плане Навоийская область также является примером.

Как вы знаете, 30 июля в нашей стране установлено Днём дружбы народов. В нынешнем году он был широко отмечен в Ташкенте.

Предлагаю в следующем году отметить этой светлый праздник большим торжеством в Навоийской области, провести также международную конференцию по данной тематике и много других замечательных и интересных мероприятий.

Мы также планируем 2022 году построить в городе Навои Парк дружбы как символ единства нашего многонационального народа.

Qadrli do'stlar!

Bugun Navoiy viloyatining shuhratini oshirishga munosib hissa qo'shib kelayotgan Komil Ibragimov, Anatoliy Panin, Serikboy Sagatov, Farhod Soyibov, Quvondiq Sanaqulov kabi O'zbekiston Qahramonlari, Nasriddin Atoyev, Tohir Rahimov, Ra'no Valiyeva, Anora Bobomurodova, Serob Isun, Ibodulla Mustafoyev, Abdulla Kerembayev kabi muhtaram nuroniylarimizga alohida minnatdorlik bildiramiz.

Oydin Hojiyeva, Odil Hotamov, Ashurali Jo'rayev, Vafo Fayzullo, Salima Umarova, Irina Kenjayeva, Bahriddin Sadriddinov kabi iste'dodli shoir va adiblarimiz, Saodat Bozorova, Bahodir Muhiddinov, To'liqin Nurmurodov, Nigora Safarova, Gulchehra Sattorova, Zoya Baxranova singari fidoyi olim va pedagoglarimiz, Farhod Saidov, Mehriddin Rahmatov, Qodir Jo'raqulov, Serijan Janaxmetov,

Muhiddin Kenjayev kabi el sevgan san'atkorlarga yangi yutuqlar tilaymiz.

Ma'lumki, Navoiy viloyati, ayniqsa, Nurota, Xatirchi, Tomdi, Uchquduq, Konimex kabi tumanlar azaldan mashhur baxshilar, oqin va jirovlar yurti sifatida ham mashhurdir. Bugun viloyatda bu sohada G'anisher Narzullayev, Nurlibek Taskarayev, Mardonqul Jumayev, Maksat Xalbayev singari iqtidorli yoshlar yetishib chiqayotgani barchamizni quvontiradi.

Ulug'bek Fayziyev, Baxtiyor Hamroyev, Sherzod Jumayev, Shavkat Xolnazarov, Azamat Xoliqov, Baxriddin Mo'minov kabi ishning ko'zini biladigan tadbirkorlar, Larisa Kim, Elbek Sultonov, Kumushxon Fayzullayeva, Davlat Bobonov kabi iqtidorli sportchi va murabbiylarning ibratli faoliyatini alohida ta'kidlaymiz.

Turli sohalarda o'z tengdoshlariga o'rnak va namuna bo'lib kelayotgan Jamshid Xodjayev, Shohrux Sharopov, Ibrohim G'afforov singari faol yoshlarimizni o'z faoliyatidagi dastlabki yutuqlari bilan qutlaymiz.

Aziz yurtdoshlar!

Bu yil buyuk Alisher Navoiy bobomiz tavalludining 580 yilligi yurtimizda keng nishonlanayotganidan yaxshi xabardorsiz.

Ulug' bobomiz hayoti va ijodini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish bo'yicha boshlagan ishlarimizni yuqori bosqichga ko'tarishda Navoiy ahli, viloyat ziyolilari yanada faollik ko'rsatadilar, deb ishonaman.

Ma'lumki, Navoiy viloyati katta ilmiy, texnik va intellektual salohiyatga ega.

Sizlar yaxshi bilasiz, Xatirchi tumanida mashhur "Tamabahrin" mahallasi bor. Mahallada joylashgan 22-maktab viloyatning eng ilg'or ta'lim maskanlaridan biri hisoblanadi.

Bu yil Navoiy viloyati maktab bitiruvchilari oliygohlarga kirish bo'yicha mamlakatimizda birinchi o'rinni egallashida ushbu jamoaning alohida hissasi bor.

Bu yerda faoliyat yuritayotgan fidoyi ustozlar mehnatini munosib rag'batlantirish maqsadida ushbu maktab negizida aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internat tashkil etsak, o'ylaymanki, barchangiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaysiz.

Muhtaram do'stlar!

Xabaringiz bor, hozirgi vaqtda mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirishga katta e'tibor qaratyapmiz.

Shu ma'noda, ulug' avliyo, mavlono Orif Deggaroniy nomi bilan ataladigan me'moriy majmuani restavratsiya qilish hamda uni sayyohlik marshrutiga kiritish muhim vazifamizdir.

Shuningdek, Karmana tarixini har tomonlama chuqur o'rganish, bu shaharning yoshini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish zarur.

Navoiy viloyatida azaldan sangtaroshlik, gilamdo'zlik, kashtachilik, kulolchilik va boshqa ko'plab amaliy san'at turlari keng rivojlangan. Ayniqsa, Nurota kashtachilik maktabi betakror an'analari bilan shuhrat qozongan.

Shuni e'tiborga olib, Nurota shahrida "Kashtachilik markazi"ni tashkil etsak, nima deysizlar?

Hammamiz yaxshi bilamiz, viloyatda haligacha bironta teatr mavjud emas.

Shu bois Navoiy shahrining ko'rkam massivlaridan birida zamonaviy talablarga javob beradigan drama teatrini barpo etsak, o'ylaymanki, viloyat ahlining ko'nglidagi ish bo'ladi.

Aziz vatandoshlar!

Sarmishsoydagi ikki ming yillik tarixga ega nodir qoyatosh suratlari UNESCO tomonidan insoniyat nomoddiy merosi ro'yxatiga kiritilgani sizlarga yaxshi ma'lum.

Yaqinda To'dako'l suv havzasi dunyoning 170 dan ortiq davlati a'zo bo'lgan Ramsar konvensiyasi ro'yxatiga kiritildi. Umumiy maydoni qariyb 32 ming gektarni tashkil etadigan ushbu ko'l va uning bebaho sohillari butun dunyodan qushlar uchun muhim to'xtab o'tish joyi hisoblanadi.

Shuning uchun viloyatda, ayniqsa, To'dako'l hududida eko-turizmni rivojlantirish bo'yicha alohida dastur tuzib, uni amalga oshiramiz.

Qadrli do'stlar!

Barchangiz yaxshi bilasiz, bundan besh yil oldingi saylovoldi uchrashuvimizda va har yillik tashriflar davomida Navoiy viloyatini rivojlantirish, aholi muammolarini hal etish bo'yicha qator ustuvor vazifalarni belgilab olib, ularni izchil amalga oshirib kelmoqdamiz.

Yaqinda "Navoiyazot"da ammiak va karbamid ishlab chiqaradigan yangi kompleks, azot kislotasi zavodi, "Navoiy kon metallurgiya kombinati"ning 7-gidro metallurgiya zavodi, yurtimizdagi 100 megavattli birinchi quyosh foto elektr stansiyasi kabi 1,5 milliard dollarlik loyihalarni ishga tushirdik.

Mazkur loyihalar iqtisodiyotimiz uchun katta ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga, Navoiy viloyatini rivojlantirish uchun ham keng imkoniyatdir. Bu – yuqori malakali ish o'rinlari, mahalliy sanoat korxonalari va infratuzilmani rivojlantirish uchun yangi marralar, viloyatda ishlab chiqarilgan har xil turdagi mahsulot va xizmatlar uchun kafolatlangan bozor, degani.

Shu bilan birga, yangi korxonalar barqaror ishlashi uchun ularga kadrlar tayyorlash tizimini tubdan qayta tashkil etish, ishchilarni uy-joy bilan ta'minlash, yashash sharoitini yaxshilash va infratuzilmani rivojlantirish talab etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz Navoiy viloyatidagi mavjud ulkan rezerv va imkoniyatlarni to'liq ishga solgan holda, tuman va shaharlar, qishloq va mahallalarni rivojlantirish, aholiga munosib turmush sharoitini yaratish bo'yicha besh yillik dastur ishlab chiqdik.

Dastur doirasida quyidagi ustuvor yo'nalishlar e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Birinchi yo'nalish. Eng avvalo, Navoiydagi sanoat tarmoqlari ehtiyojini qondirish uchun kasbga o'rgatish tizimini zamon talablariga mos ravishda qayta ko'rib chiqishimiz kerak.

Kelgusi besh yilda viloyatda 12 ming oliy, 40 ming o'rta ma'lumotli mutaxassislarga talab bo'ladi.

Shu sababli Navoiy viloyatini muhandis mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha respublika markaziga aylantirish dasturini amalga oshiramiz.

Buning uchun Navoiy konchilik instituti negizida qariyb 15 ming talabani o'qitadigan politexnika universiteti tashkil etiladi. Ushbu oliygohda nufuzli xorijiy universitetlar bilan qo'shma dasturlar, zamonaviy laboratoriyalar, jahonning yetakchi olimlari ishtirokida amaliy-innovatsiya markazlari faoliyat olib boradi.

Shuningdek, Navoiy davlat pedagogika instituti quvvatlari qo'shimcha 6 ming o'ringa kengaytiriladi. Natijada viloyatda 20 ta yangi yo'nalishlar ochilib, oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 37 foizdan 60 foizga yetadi.

Aholini kasb-hunarga o'qitishning ham mutlaqo yangi tizimi tashkil etiladi. Viloyatdagi 60 ta kasb-hunar maktabi va markazlari, o'rta bo'g'in mutaxassislarni tayyorlaydigan monomarkaz Navoiy kon-metallurgiya kombinati va "Navoiyazot"ga birlashtiriladi.

Endi ushbu korxonalarining rahbarlari va tajribali mutaxassislari viloyatda tog'-kon, metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari sanoati va ularga bog'liq bo'lgan yo'nalishlar uchun kadrlar tayyorlash rejalarini belgilaydi. Shuningdek, kasb-hunarga o'qitish maskanlarining o'quv dasturlari va o'qitish metodikasini zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqadi. O'qish jarayonini ishlab chiqarish bilan bog'lab, har bir o'quvchining o'z mutaxassisligi bo'yicha bevosita korxonalarda amaliyot o'tashini tashkil etadi.

Viloyatdagi monomarkazda yoshlar murakkab uskuna operatori, texnolog, konchi, laborant va yuqori texnologiyalar sohasidagi boshqa yo'nalishlarga o'qitiladi.

Bundan tashqari, Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan "Biznesga ko'maklashish markazi" tashkil etilib, tadbirkorlar biznes yuritishga o'rgatiladi.

Umuman, viloyatda kelgusi besh yilda 60 mingga yaqin ish-sizlar va yoshlar kasb-hunar va biznes ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Ikkinchi yo'nalish. Viloyat aholisiga munosib yashash sharoiti yaratilib, infratuzilma bilan bog'liq masalalar hal etiladi.

Hozirgi kunda viloyatda uy-joyga bo'lgan talab yuqoriligi barchamizga ma'lum. Ayniqsa, ushbu masala Navoiy va Zarafshon shaharlarida o'ta dolzarb.

Kelgusi besh yilda Navoiy aholisi kamida 150 ming nafarga oshadi. Shundan kelib chiqib, Navoiy shahrida yangi mavze barpo qilinadi va 4 ming xonadonga mo'ljallangan ko'p qavatli uylar, maktab, bog'cha va boshqa ijtimoiy obyektlar barpo etiladi.

Shuningdek, Zarafshon shahri hududi kengaytirilib, qo'shimcha 30 ming aholi yashashi uchun zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan "Sanoatchilar shaharchasi" quriladi.

Boshqa tumanlarda ham 14 ming xonadonli 400 ta ko'p qavatli uy-joylar barpo etiladi.

Bunda:

– joriy yildan boshlab, Karmana tumanida "Bag'dod tajribasi" asosida uy-joylar, ishlab chiqarish, sanoat va ijtimoiy infrastruktura obyektlarini o'z ichiga olgan Yangi O'zbekiston mavzelari barpo etiladi;

– 2 mingta xonadon ehtiyojmand oilalar uchun ajratilib, ularga 100 milliard so'm subsidiya beriladi.

Navoiy sharoitida eng dolzarb masalalardan biri – aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash hisoblanadi. Shu bois besh yilda viloyatda 1 ming kilometrdan ziyod ichimlik suvi va 90 kilometr kanalizatsiya tarmoqlari quriladi.

Shuningdek, 32 milliard so'mlik gidrogeologik tadqiqotlar olib borilib, Zarafshon shahri, Uchquduq, Xatirchi va Tomdi tumanlarining jami 70 mingdan ortiq aholisi, yer osti zaxirasi hisobidan ichimlik suvi bilan ta'minlanadi. Natijada 2026-yilga borib, 163 ming nafar aholiga ilk bor ichimlik suvi yetkazib beriladi va yana 200 ming aholining suv ta'minoti yaxshilanadi.

Viloyatda markazlashgan ichimlik suvi ta'minoti darajasi 69 foizdan 84 foizga oshiriladi.

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida kelgusi besh yilda 100 ta qishloq va mahalla obod qilinadi. Bunga budjetdan har yili kamida 600 milliard so‘m yo‘naltiriladi.

Shuningdek, kelgusi besh yilda 5 ming kilometr elektr tarmog‘i, 1 mingdan ziyod transformatorlar yangidan quriladi. Bu o‘tgan besh yilga nisbatan 2 marta ko‘p.

Viloyatda 6 ming kilometr avtomobil yo‘llari, 186 ta ko‘prik quriladi va ta‘mirlanadi. Bu maqsad uchun 3 trillion so‘mga yaqin mablag‘ yo‘naltiriladi.

Navoiyning og‘ir iqlim sharoitida ishlab kelayotgan odamlarimiz salomatligini asrash maqsadida viloyatda “yashil hududlar”ni ko‘paytirish ishlari izchil davom ettiriladi.

Jumladan, barcha shahar va tumanlar markazida jami 500 gektar yashil maydonlar va jamoat parklari tashkil etiladi.

Uchquduq tumani, Navoiy va Zarafshon shaharlarida har yili kamida 100 ming tupdan mevali va manzarali daraxtlar ekiladi hamda “yashil belbog‘” yaratiladi. Konimex, Tomdi va Uchquduqda jami 100 ming gektar maydonda “yashil qoplamalar” barpo qilinadi.

Shu bilan birga, Tomdida 55 ming gektar maydonda “Oqtog‘”, Uchquduqda 1,2 million gektar maydonda “Markaziy Qizilqum” qo‘riqxonalari tashkil etiladi.

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida ekologik barqarorlikni saqlash, keyingi besh yillikda ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘lib qoladi. Mazkur ko‘llar tizimida yillik suv yo‘qotish 3 milliard kub metrni tashkil etib, suv sathi 2,5 metrgacha pasayib ketgan, suvdagi tuzlar miqdori 2 barobar oshgan. Ushbu ko‘llar tizimini tiklash bo‘yicha alohida dasturni amalga oshiramiz.

Shuningdek, 800 gektargacha bo‘lgan qirg‘oq bo‘ylarida ihotazorlar tashkil etiladi.

Sanoat korxonalarining atmosfera havosiga zararli ta‘sirini kamaytirish maqsadida alohida dastur qabul qilib, amalga oshiramiz.

Bu ishlar uchun 600 dan ortiq chang tozalash uskunalari o'rnatiladi va modernizatsiya qilinadi. Bu orqali havoga chiqarilayotgan chiqindilar 25 foizga kamaytiriladi.

Uchinchi yo'nalish. Kelgusi besh yilda viloyatda 9 milliard dollarlik 2,2 mingta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, 75 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Avvalambor, bu:

– Navoiy kon-metallurgiya kombinatidagi 1,7 milliard dollarlik 5 va 6-gidro metallurgiya zavodlarini qurish, “Pistali” konini o'zlashtirish va “Muruntov” konini kengaytirish;

– qiymati 3,4 milliard dollar bo'lgan 28 ta yangi loyihani qamrab olgan zamonaviy gaz-kimyxo texnologik klasterini tashkil etish;

– umumiy quvvati 2,8 ming megavatt bo'lgan qariyb 3 milliard dollarlik 7 ta elektr stansiyasini ishga tushirish kabi “mega loyihalar”ni amalga oshiramiz.

Shuningdek, tog'-kon sanoatida 450 million dollarlik 52 ta loyiha doirasida 7,5 mingta yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Viloyatdagi istiqbolli maydonlarda geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun 124 ta loyihalar doirasida 3,5 trillion so'm yo'naltiriladi.

Shu bilan birga, viloyatdagi imkoniyatlarni to'liq ishga solib, mahalliy sanoat jadal rivojlantiriladi, investitsiyalar va eksport keskin ko'paytiriladi.

Natijada viloyatda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 40 foizga, jumladan, hududiy sanoat 2 barobarga oshadi. Buning uchun viloyatda investitsiyalarni jalb qilish va mahalliy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha yangicha tizim yaratiladi.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hududda mahalliy sanoatni rivojlantirish maqsadida har bir tumanda istiqbolli loyihalarni ishlab chiquvchi “Loyiha guruhleri”ni tashkil etish, tumaning ilg'or tadbirkorlari bilan “Xolding kompaniyalari”ni tuzish ishlarini amalga oshiradi.

To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi Eng istiqbolli mahalliy loyihalarga 30 foiz ulush bilan kiradi. Jamg'arma tomonidan har bir tumanga yiliga kamida 15 million dollardan mablag' ajratiladi.

Yana bir masala – hududda yirik sanoat korxonalari bilan kichik biznes o'rtasida kooperatsiyani kuchaytirish bo'yicha katta imkoniyatlar mavjud.

Misol uchun, Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan o'tgan yili 410 million dollarlik mahsulotlar import qilingan. Vaholanki, joriy yilda o'tkazilgan sanoat yarmarkasida kooperatsiya asosida kombinat tuzgan shartnomalar hisobiga 10 dan ortiq mahalliy sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmi bir necha barobar oshirildi.

Shuning uchun viloyatda mahalliyashtirish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqiladi. Ushbu dastur asosida 52 ta loyiha doirasida 7,5 mingta yangi ish o'rni yaratiladi va yiliga 310 million dollarlik mahsulot ishlab chiqariladi.

Jumladan, Navoiy shahrida 70 million dollarlik investitsiyalar hisobidan hozirda 32 million dollarlik import qilinayotgan grafit mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

Endi Navoiyda har yili Xalqaro sanoat va kooperatsiya forumi o'tkaziladi.

Mahalliy sanoat loyihalari uchun viloyatda 13 ta yangi sanoat hududi tashkil etiladi. Mahalliyashtirish loyihalari uchun kredit foizlarining 10 foizgacha qismi qoplab beriladi.

Qurilish materiallari sanoatida 577 million dollar investitsiyalar hisobiga 235 ta loyiha amalga oshiriladi va 15 mingta yangi ish o'rni tashkil etiladi.

G'ozg'on shahrida 2 yil davomida amalga oshirilgan ishlar natijasida 14 ta korxonalar ishga tushirilib, 1 mingta ish o'rni yaratildi. Endilikda ushbu klaster kengaytirilib, 20 million dollarlik loyihalar amalga oshiriladi va mahsulot ishlab chiqarish hajmi qariyb 2 barobarga oshadi.

Bu loyihalarni elektr energiyasi bilan ta'minlash maqsadida budjetdan 50 milliard so'm mablag' ajratilib, yangi elektr tarmoqlari tortiladi va podstansiyalar quriladi.

Pardozbop toshlar eksportidagi transport xarajatlarining 50 foizigacha qismini qoplab berish joriy etiladi.

Shuningdek, Karmanada 80 ming tonna bazalt xomashyosidan tola va armatura ishlab chiqarish bo'yicha 50 million dollarlik loyiha ishga tushiriladi.

Bu orqali qurilish materiallari sanoatida yiliga 180 million dollarlik import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqariladi.

To'qimachilik sanoatida kelgusi besh yilda 290 million dollar bo'lgan 120 ta yirik loyiha ishga tushirilib, 27 mingta ish o'rinlari tashkil etiladi.

Qiziltepa, Navbahor va Xatirchida 55 million dollarlik to'qimachilik korxonalari ishga tushirilib, mato va tayyor kiyim-kechak mahsulotlari ishlab chiqariladi. Natijada gazlama mato ishlab chiqarish 10 barobarga, trikotaj mato 3 barobarga va tayyor to'qimachilik mahsulotlari 2 barobarga oshiriladi.

Shuningdek, viloyatda 30 ming tonnadan kam bo'lmagan hajmda sun'iy tola ishlab chiqarish uchun tadbirkorlarga tayyor biznes-reja va moliyaviy resurslar taqdim etiladi.

Amalga oshirilgan islohotlar hisobiga to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3,2 barobarga ko'payib, 560 million dollarga yetkaziladi.

Elektrotexnika sanoatida 192 million dollar bo'lgan 19 ta loyiha amalga oshiriladi va 1,5 mingta ish o'rnini yaratiladi.

Bu yo'nalishda ishlab chiqarish hajmi 5 barobarga ko'payib, 450 million dollarlik elektrotexnika mahsulotlarini tayyorlash yo'lga qo'yiladi.

Charm-poyabzal sanoatida 110 million dollarlik 68 ta loyiha doirasida 13 mingta yangi ish o'rnini tashkil etiladi. Natijada poyabzal ishlab chiqarish quvvatlari 3 barobarga, charm-attorlik mahsulotlari va charmdan kiyim ishlab chiqarish hajmi 2 barobarga oshiriladi.

Charm-poyabzal sanoati uchun xomashyo bazasini kengaytirish maqsadida cho'l hududlardagi 20 ming gektar yaylov yoshlarga taqsimlanadi va zarur suv quduqlari qazib beriladi.

Shuningdek, yoshlarga qorako'l qo'ylari yetkazib beriladi hamda undan olinadigan teri va junni sotib olish, qayta ishlash tizimi yo'lga qo'yiladi.

"Navoiy" erkin iqtisodiy zonasi hududida 1 milliard dollarlik 83 ta investitsiya loyihasi doirasida 12 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Navoiy xalqaro logistika markazi faoliyati kengaytirilib, nufuzli xalqaro kompaniya boshqaruviga beriladi va 400 million dollarlik mahsulot eksporti yo'lga qo'yiladi.

Umuman, kelgusi besh yilda ishga tushiriladigan quvvatlar hisobidan hududiy eksport hajmi 6 barobarga ko'payib, 900 million dollarga yetkaziladi.

To'rtinchi yo'nalish. "Mahallabay" ishlash asosida har bir tuman va shaharda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi.

Avvalambor, viloyatda kelgusi besh yilda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash orqali 70 mingta yangi ish joyi yaratiladi.

Bu ishlarni Navbahor tumanining 41 ta mahallasi misolida, yangi joriy etiladigan "hokim yordamchilari" tomonidan qanday tashkil etilishini tushuntirib o'tsam.

Ushbu yordamchilar mahallada oilaviy tadbirkorlik loyihalarini ishlab chiqish, kredit berish, ishsiz fuqarolarni kooperatsiya tashkil etish orqali biznesga jalb etish ishlarini amalga oshiradi.

Misol uchun, ishsizlik yuqori bo'lgan "Ko'hron", "Uchtut", "Arabsaroy", "Navbahor" mahallalarida kooperatsiyalar tashkil etish uchun tadbirkorlarga 10 foizlik imtiyozli kreditlar ajratiladi. Shu orqali 500 ta oila daromad manbaiga ega bo'ladi.

Yana 4 ta mahallada yoshlarni kosibchilik, chorvachilik, asal-arichilik, agronomlik, tikuvchilik, zardo'zlik, mebelsozlik yo'nalishlari bo'yicha kasb-hunarga o'qitish tashkil etiladi.

Ayollar va yoshlar o'rtasida ishsizlik yuqori bo'lgan 6 ta mahallada 720 nafar fuqaro kasbga o'qitiladi hamda ularga o'z biznesini boshlash uchun 6 milliard so'm imtiyozli kredit va sub-sidiya ajratiladi.

Bu ishlarni moliyalashtirish uchun hokim yordamchilarining o'z "budjet"i bo'ladi. Umuman, hokim yordamchilari tadbirkorlar bilan birgalikda tumanda 634 ta loyihani amalga oshirish hisobidan 9 ming 200 ta yangi ish o'rni tashkil etishga bosh-qosh bo'ladi.

Shuningdek, tumanda kichik sanoat zonasida yangi loyihalarni amalga oshirish orqali 500 ta, mavjud korxonalar faoliyatini kengaytirish hisobiga 1 ming 200 ta, qishloq xo'jaligida 7 mingdan ortiq, shundan, paxta va g'alladan qisqargan yerlarni aholiga berish orqali 3,5 mingta ish o'rni yaratiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan ishlar orqali Navbahor tumanida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni kamida 2 barobar ko'payib, 17 ming nafar aholining bandligi ta'minlanadi.

Viloyatning 307 ta mahallasidagi hokim yordamchilari ushbu tizimni samarali tashkil etsa, viloyatda ishsizlik va kambag'allik 3 barobar qisqartiriladi.

Shu bilan birga, sharoiti "og'ir" bo'lgan Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nurota tumanlarida tashkil etiladigan yangi tadbirkorlik subyektlari foyda, yer, suv, mol-mulk, aylanmadan olinadigan soliqlardan ozod etiladi.

Shuningdek, viloyatda barcha infratuzilmaga ega 48 ta kichik sanoat zonasi tashkil etilib, ularda 600 ta loyiha amalga oshiriladi va 10 mingta ish o'rni tashkil etiladi.

Oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida har yili 500 milliard so'mdan ziyod mablag' ajratiladi.

Beshinchi yo'nalish. Mavjud rezervlarni ishga solish hisobidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmini 2 barobarga oshirish choralari ko'riladi.

Birinchiidan, kelgusi besh yilda foydalanishdan chiqqan 50 ming gektar yer o'zlashtirilib, meva-sabzavotchilik va chorva-

chilik rivojlantiriladi. Bu qariyb 35 ming aholini band qilish imkonini beradi. Bunda elektr tortish va quduq qazish xarajatlarning 50 foizi budjetdan qoplab beriladi.

Qiziltepa, Karmana, Navbahor va Xatirchida 14 ming gektarda yangi tokzorlar hamda 5 ming gektarda intensiv bog'lar barpo etiladi. Natijada, 20 mingdan ortiq aholi band bo'ladi.

Shuningdek, viloyatda 1 ming gektarda zamonaviy issiqxonalarining ishga tushirilishi va 3 ming xonadonda ixcham issiqxonalar qurilishi natijasida 7 mingdan ortiq aholi bandligi ta'minlanadi.

Shu bilan birga, 20 ming gektar, shundan 5,5 ming gektar paxta va g'alla maydonlarini ochiq tanlov asosida aholiga 1 gektargacha uzoq muddatga ijaraga berish orqali 20 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Masalan, Karmananing "Hazora" hududi aholisi anorchilik bilan shug'ullanib, gektaridan o'rtacha 35–40 tonna hosil yetishtirib kelmoqda. Ushbu hududdagi 200 gektar paxta maydoni to'liq anorchilik uchun ajratiladi va anorni qayta ishlash yo'lga qo'yiladi.

Ikkinchidan, viloyatda 9 million gektarga yaqin yaylovlar mavjud bo'lib, chorvachilikni rivojlantirish uchun juda katta imkoniyat bor.

Konimex, Tomdi va Uchquduq hududidagi yaylovlarda yaroqsiz 120 ta quduqlar budjet hisobidan tiklanadi. Tomdida 3 ming boshga mo'ljallangan tuyachilik, Uchquduqda 4 ming bosh yilqichilik komplekslari ishga tushiriladi.

Xabarim bor, Konimex irrigatsiya tarmoqlarining oxirida joylashgani sababli ekinlarni sug'orishda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Shuning uchun tumandagi 2 ming 300 gektar paxta va g'alla maydonlari qisqartirilib, qoramol soni 500 boshdan kam bo'lmagan yangi chorvachilik loyihalariga tanlov asosida beriladi.

Viloyatda baliq yetishtirish hajmi 3 barobarga ko'paytirilib, 40 ming tonnaga yetkaziladi. Misol uchun, "To'dako'l" suv omborida 10 million dollar investitsiya hisobidan yiliga 15 ming tonna baliq yetishtiriladi.

Uchinchidan, kelgusi besh yilda 57 ming gektar maydonning suv ta'minoti va 45 ming gektar yerning meliorativ holatini yaxshilash choralari ko'riladi. Suv ta'minoti og'ir bo'lgan 58 ta mahallada 2 mingta quduq qazib beriladi.

Shuningdek, 106 ming gektar maydonda suv tejoyvchi texnologiyalar joriy qilinadi va 109 ming gektar ekin yerlarini lazerli tekislash yo'lga qo'yiladi. Bu ishlar 500 million kub metr suvni iqtisod qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, 51 million dollar hisobiga viloyatda 20 ta nasos stansiyasi modernizatsiya qilinadi.

Oltinchi yo'nalish. Tibbiy va ta'lim xizmatlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqamiz.

Afsuski, bugungi kunda viloyatda 294 ming nafar yoki 30 foiz aholining surunkali kasalliklari bor.

Shuning uchun tibbiyotning birlamchi bo'g'ini moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kasalliklarni erta aniqlash va davolash imkoniyatlari kengaytiriladi. Jumladan, keyingi yilda 20 ta yangi oilaviy poliklinika va shifokorlik punktlari tashkil etiladi.

Oilaviy shifokorlik punktlarida diabet va qon-tomir kasalliklarini erta aniqlaydigan ekspress-diagnostika usullari joriy etilib, har yili 300 ming nafar aholi manzilli skriningdan o'tkaziladi. Kasallik aniqlanganda, zarur dorilar bepul beriladi.

Bundan tashqari, 40 yoshdan oshgan 148 ming nafar ayollar har yili onkologik skrining tekshiruvidan o'tkaziladi.

Viloyatning hududi kattaligini inobatga olib, Xatirchi, Navbahor tumanlari va Zarafshonda perinatal markazlar, shuningdek, Zarafshonda o'tkir qon-tomir kasalliklari va jarohatlarga ixtisoslashgan tibbiy markaz tashkil qilinadi.

Barcha tibbiy xizmatlarni bir joyda ko'rsatish va sifatini oshirish uchun Navoiy shahrida "tibbiyot klasteri" tashkil etiladi. Bunda viloyat ko'p tarmoqli markazi hamda endokrinologiya, onkologiya, oftalmologiya, urologiya va travmatologiya shifoxonalari birlashtirilib, 600 o'rinli markaz barpo etiladi.

Viloyatda katta yoshli aholi uchun 150 o‘rinli yuqumli kasalliklar shifoxonasi quriladi.

Nogironligi bo‘lgan va tibbiy reabilitatsiyaga muhtoj bemorlar uchun mintaqaviy reabilitatsiya markazi barpo etilib, barcha zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlanadi.

Maktabgacha ta‘lim va umumiy o‘rta ta‘lim tizimi sifatini yaxshilash bo‘yicha ham izchil chora-tadbirlarni amalga oshiramiz.

Kelgusi besh yillikda ushbu xayrli ishlarni davom ettirib, bog‘chalar soni yetarli bo‘lmagan hududlarda 17 ta davlat bog‘chasi, 26 ta xususiy sheriklik, 466 ta oilaviy bog‘cha tashkil etiladi.

Aholi tarqoq yashovchi, olis va tog‘li hududlar – Xatirchi, Nurota, Navbahor va Konimex tumanlarida mobil bog‘chalar faoliyatini yo‘lga qo‘yib, maktabgacha ta‘lim xizmatini bepul amalga oshirish imkonini yaratamiz.

G‘ozg‘on shahri, Tomdi, Uchquduq, Konimex va Nurota tumanlari uchun bog‘cha to‘lovi 2 baravarga kamaytiriladi. Natijada viloyat bo‘yicha maktabgacha ta‘lim qamrovi 95 foizga yetkaziladi.

Shuningdek, kelgusi besh yilda viloyatda 8 ta yangi maktab qurish, 62 tasini ta‘mirlash hisobidan maktablar quvvati 22 ming o‘quvchi o‘rniga oshirilib, 182 mingga yetkaziladi.

Umuman olganda, kelgusi besh yilda Navoiy viloyatini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish uchun davlat hisobidan 40 trillion so‘m ajratiladi va jami 180 mingga yangi ish o‘rni yaratiladi.

Hurmatli uchrashuv ishtirokchilari!

Bugun sizlar bilan Navoiy viloyatida yashab mehnat qilayotgan insonlar hayotini yanada farovon qilishga qaratilgan aniq reja va maqsadlarimiz haqida batafsil fikrlashib olganimizdan behad xursandman.

Men hayot mashaqqatlarida, turli sinovlarda toblangan, mard va oliyanob Navoiy elini zamonamiz Farhodlari deb bilaman va barchangizga yana bir bor chuqur hurmat va ehtiromimni bildiraman.

Hammingiz ko‘rib-bilib turibsiz, shiddatli va murakkab zamonda yashayapmiz.

Bugun – doimiy harakat zamoni, chinakam kurash zamoni. Ana shu kurashda biz, albatta, g‘oliblar safida bo‘lishimiz shart.

Agar ana shunday ulug‘ ishonch bilan yashasak, ishlasak, albatta, natija bo‘ladi. Jonajon O‘zbekistonimiz, albatta, eng rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi.

Ana shunday buyuk maqsadlar yo‘lida men butun xalqimiz qatori Navoiy ahliga suyanaman.

O‘z yurtiga fidoyi, Vatanimizga cheksiz muhabbati va sadoqati bilan barchaga o‘rnak bo‘lib kelayotgan bu el shu yo‘lda doimo oldingi saflarda bo‘lishiga qat’iy ishonaman.

Mening umidim shuki, hammamiz jonajon O‘zbekistonimiz, jumladan, Navoiy viloyati ravnaqi yo‘lidagi ezgu orzu-niyatlari-mizga yetaylik!

Bu yo‘lda barchangizga baxt va omad, oilalaringizga fayz-u baraka tilayman.

Doimo sog‘-omon bo‘linglar!

Katta rahmat sizlarga!

*Navoiy shahri,
2021-yil 13-oktabr*

**KO'PMILLATLI, BAG'RIKENG
DIYOR AHLINING TARAQQIYOTI
VA BAXT-SAODATI UCHUN**

*(Toshkent viloyati saylovchilar vakillari
bilan uchrashuvdagi nutq)*

Assalomu alaykum, muhtaram vatandoshlar!

Hurmatli saylovchilar!

Avvalambor, mana shu go'zal va betakror zaminda siz, azizlar bilan ko'tarinki kayfiyatda uchrashib turganimdan benihoya xursandman. Sizlarga, sizlar orqali butun viloyat ahliga o'zimning chuqur hurmat va ehtiromimni izhor etaman.

Hamмамiz yaxshi bilamiz, Toshkent viloyati o'zining so'lim tabiati, ko'hna va boy tarixi, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy salohiyati bilan mamlakatimiz taraqqiyotida alohida o'rin tutadi.

Viloyatning oltin, kumush, mis, marmar, ko'mir, qo'rg'oshin, aluminiy kabi o'nlab qimmatbaho va noyob qazilmalarga boy konlari, energetika, mashinasozlik, kon-metallurgiya, kimyo, oziq-ovqat, qurilish materiallari, to'qimachilik tarmoqlaridagi yirik korxonalari sanoatimiz rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu diyorning eng asosiy boyligi – aslida uning mehnatkash, bag'rikeng, ko'pmillatli xalqidir. Bugungi kunda viloyatda yuzdan ortiq millat va elat vakillari ahillikda yashab, bahamjihat mehnat qilmoqdalar.

Shu borada e'tiborga loyiq bir hayotiy misolni keltirmoqchiman.

Piskent tumanining "Oqtepa" mahallasida istiqomat qiladigan Jonsaidovlar oilasi haqida eshitgan bo'lsangiz kerak. Tojik ota, qozoq onaning yetti nafar kelini – o'zbek, qozoq, rus, uyg'ur, gruzin, chechen millatlariga mansub bo'lib, ular ahil hayot kechirmoqda.

Mana sizga bag'rikenglik namunasi, mana sizga totuvlikning yorqin ifodasi!

Hurmatli do'stlar!

So'nggi yillarda amalga oshirayotgan tub islohotlarimiz va xalqning ichiga kirib, amaliy ishlar boshlangani natijasida viloyat-

dagi shahar va tumanlarga, olis qishloq va mahallalarga yangi hayot, yangi taraqqiyot kirib kelmoqda. Eng muhimi, odamlarda ertangi kunga ishonch ortmoqda.

Sizlar yaxshi bilasizlar, Toshkent viloyatining tashkil topganiga 80 yildan oshiq vaqt o'tgan bo'lsa-da, o'zining ma'muriy markaziga ega emas edi. Bu, albatta, hududni kompleks rivojlantirish, aholining mehnat qilishi va munosib yashashi uchun jiddiy muammolarni tug'dirib kelardi.

Sizlar bilan maslahatlashgan holda, Nurafshon shahri deb nom olgan viloyat markazini yangidan barpo etishga kirishdik.

Nurafshon shahrida boshqa inshootlar bilan bir qatorda, viloyat ahlining munosib dam olib, ma'naviy hordiq chiqarishi uchun zamonaviy istirohat bog'i, san'at saroyi, tarix muzeyi, ma'naviyat va ma'rifat maskanini ham barpo etamiz. Sizlar bilan birgalikda, yaqin yillarda Nurafshon shahrini o'z nomiga mos, Vatanimizning eng zamonaviy shaharlaridan biriga aylantiramiz.

Nasib etsa, go'zal Nurafshonni bunyod etganimizdan hammamiz faxrlanib yuramiz!

Muhtaram uchrashuv qatnashchilari!

Toshkent viloyati qadimdan ilm-fan, hunarmandchilik, madaniyat yuksak taraqqiy etgan makonlardan biri bo'lgani sizlarga ma'lum. O'rta asrlarga oid tarixiy manbalarda bundan ming yil avval Shosh viloyatida 40 ga yaqin obod shaharlar bo'lgani yozib qoldirilgan.

Amir Temur bobomiz hozirgi Oqqo'rg'on tumani hududidagi mo'g'ullar vayron qilgan qadimiy shaharni qayta tiklab, o'g'lining nomi bilan Shohruhiya deb atagani ham buyuk Sohibqironning bu o'lkaga mehri o'zgacha bo'lganidan dalolatdir.

Ushbu tabarruk diyori – Shayx Umar Bog'istoniy, Xoja Ahror Valiy, Abu Sulaymon Banokatiy singari aziz avliyolarga beshik bo'lganidan hammamiz iftixor tuyamiz.

Zangiota me'moriy majmuasi butun mintaqada ma'lum va mashhurdir. Ushbu tabarruk ziyoratgohni obod qilish bo'yicha qator savobli ishlar amalga oshirilganidan barchangiz xabardorsiz.

Toshkent viloyatida kamol topgan Badriddin Chochiy, Gulshan, Almaiy, Sidqiy Xondayliqiy, Muzayyana Alaviya singari o'nlab yetuk ijodkorlar, o'z davrida viloyat rivojiga munosib hissa qo'shgan Hamroqul Tursunqulov, Jo'ra Xonnazarov, Sulton Segizboyev, Kim Pen Xva, Tursunoy Oxunova kabi taniqli insonlarning nomlarini chuqur hurmat bilan yodga olamiz.

Xumson qishlog'ida tug'ilib o'sgan taraqqiyparvar olim, shoir va tarjimon Elbek **“Millatning najoti – maktabda, muallimda”**, deb bilgan. Abdulla Avloniyning shogirdi bo'lgan adib yangi usuldagi maktablar uchun ko'plab darslik va qo'llanmalar yaratgan.

Mustabid tuzum davrida qatag'onga uchragan istiqloq fidoyisi-ning nomini abadiylashtirish maqsadida Nurafshon shahrida ko'rkam va zamonaviy kutubxona barpo etib, uni Elbek nomidagi viloyat markaziy kutubxonasi deb atasak, sizlar nima deysizlar?

Shuningdek, bugungi axborot va yangiliklarga talab tobora kuchayib borayotgan bir paytda Toshkent viloyatining ham o'z teleradiokanalini tashkil etish vaqti keldi, deb hisoblayman.

Aziz yurtdoshlar!

Toshkent viloyati bir vaqtlar o'zining noyob bog'dorchilik maktabi bilan nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham shuhrat qozongan.

Viloyatdan yetishib chiqqan “Rizamat” uzum navining muallifi Rizamat Musamuhammedov, limonning o'ndan ortiq serhosil navlarini yaratgan Zayniddin Faxriddinov, “Yusupov” nomli mashhur pomidor navining muallifi Karim Yusupov, bog'dorchilik ilmining haqiqiy jonkuyari, akademik Mahmud Mirzayev, atoqli sohibkor, O'zbekiston Qahramoni Tojiboy Rizayev singari zahmatkash insonlarning mehnatlari xalqimiz uchun bugungi kunda ham o'z mevasini bermoqda.

Xususan, Rizamat ota Musamuhamedovning uzumchilik sohasidagi natijalari Fransiya, Bolgariya, Vengriya, Italiya kabi ko'plab davlatlarda ham bugun keng qo'llanayotgani barchamizga iftixor bag'ishlaydi.

Ana shunday usta sohibkorning xotirasini abadiylashtirish maqsadida Parkent tumanida Rizamat Musamuhamedov nomidagi Uzumchilik ilmiy-amaliy markazini tashkil qilsak, har yili xalqimiz, xorijiy mehmonlar va sayyohlar ishtirokida Uzum sayli o'tkazish an'anasini yo'lga qo'ysak, har tomonlama to'g'ri bo'ladi. Bu taklif ham sizlarga ma'qulmi?

Bugungi kunda viloyat hayotida o'zining samarali mehnati va ibratli faoliyati bilan el-yurt hurmatini qozongan Saydali Rahmonov, Alim To'ychiyev, Jonsaid Turdiyev, Aleksandr Farmonov singari Qahramonlarimiz, Abduhoshim Mutalov, Turop Xoltoyev, Ummatqul Mirzaqulov, Zokirjon Almatov, Sayfulla Asatov, Abdumajid Shodiyev, Alinazar Egamnazarov, Viktor Pak, Farida Ibragimova, Usmon Jo'rayev kabi muhtaram faxriylarimiz Toshkent viloyatining shon-shuhrati va obro'sini oshirishga munosib hissa qo'shib kelayotganini alohida ta'kidlamoqchiman.

Fursatdan foydalanib, Abdusattor Abdukarimov, Temurjon Nosirov, Akmal Saidov, O'ktam Pratov, Abdurashid Hasanov, G'afurjon Muhamedov, Zahro Ahmedova, Ra'no Fozilova, Valeriya Mardiyeva, O'rish Safarov, Sa'dulla Lutfullayev kabi zahmatkash olim va pedagoglar, Barot Isroil, Abdulla Sher, Asad Asilov, Mahmud Toir, Sharifa Salimova, Zarifa Eraliyeva, Kumush Abdusalomova kabi shoir va yozuvchilarga yangi yutuq va zafarlar tilaymiz.

Aziz birodarlar!

O'tgan asrning o'ttizinchi-qirqinchi yillarida Yangiyo'l shahridagi teatrda Yunus Rajabiy, Habibiy, Yetim Bobojonov, Qunduz Mirkarimova, Sattor Yarashev, Farog'at Rahmatova singari taniqli san'atkor va adiblar faoliyat ko'rsatganini ko'pchilik nuroniylarimiz yaxshi eslaydilar, albatta.

Keyinchalik mazkur ijodiy jamoa Muqimiy teatriga qo'shib yuborilgan. Shundan buyon Toshkent viloyatida teatr mavjud emas.

Voha ahlining ko'p yillik orzusi bo'lgan yangi teatrni ham tashkil etish vaqti keldi, deb o'ylayman. Agar sizlar qo'llab-quvvatlasangiz, Nurafshon shahrida yangi teatr barpo etamiz.

Toshkent viloyati folklor an'analari, o'ziga xos milliy ohanglari va boy san'ati bilan ham alohida ajralib turadi.

Shu o'rinda lirik qo'shiqchilik maktabining yirik vakili, qibraylik atoqli san'atkor, O'zbekiston xalq hofizi Faxriddin Umarov nomini alohida eslab o'tishni istardim.

Bu ulug' san'atkor o'tgan asrning 30-yillarida Ukrainaga surgun qilinganini ko'pchilik yoshlarimiz bilmaydi. Yuksak insoniy tuyg'ularni avj pardalarda kuylagan atoqli xonandaning ijrochilik an'alarini davom ettirish maqsadida viloyat markazida Faxriddin Umarov nomidagi san'at ijod maktabini tashkil qilsak, nima deysizlar?

Toshkent viloyatining farzandlari bo'lgan Zulfiqor Musoqov, Zuhra Ashurova, Toshpo'lat Matkarimov, Ozoda Nursaidova, Jahongir Ahmedov, Abdurashid Yo'ldoshev singari taniqli san'atkorlar xalqimiz mehriga sazovor bo'lib kelmoqda.

Keyingi yillarda yuksak marralarni qo'lga kiritayotgan Fazliddin G'oyibnazarov, Akbar Jo'rayev, Islom Aslanov, Vadim Menkov, Doston Yoqubov, Elmurat Tasmuradov, Tursunoy Rahimova, Rinata Boymetova, Svetlana Osipova, Sanjar Tursunov, Elnur Abduraimov singari mashhur sportchilar ham mana shu zamindan yetishib chiqqani barchamizga g'urur bag'ishlaydi.

Toshkent viloyati dongdor chavandozlar va polvonlar yurti ekanini ham yaxshi bilamiz. Viloyatda bugun milliy g'ururimiz bo'lgan ot sportini yanada rivojlantirish uchun juda katta imkoniyatlar bor. Bu boradagi milliy an'alarimizni davom ettirib, Ohangaron va Bo'stonliq tumanlarida Xalqaro otchopar va chavandozlik maktabini tashkil qilish taklifini bildirsam, o'ylaymanki, sizlar ham qo'llab-quvvatlaysizlar.

Hurmatli saylovchilar!

Yangi O'zbekistonni qurishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, Toshkent viloyati bo'yicha ham oldimizga yanada katta marralarni

belgilashimiz kerak. Ayniqsa, sanoat salohiyati, qulay geografik joylashuvi, boy tabiiy resurslari, malakali va mehnatkash aholisi yetarli bo'lgan poytaxt viloyatini eng rivojlangan hududga aylantirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud.

Shu bilan birga, Toshkent shahri bilan birgalikdagi uyg'un rivojlanishi ham viloyat uchun keng va ulkan imkoniyatdir. Shunday bo'lsa-da, ishsizlik darajasi, aholining salomatlik ko'rsatkichlari, toza ichimlik suvi ta'minoti, qishloq xo'jaligi samaradorligi bo'yicha viloyat mamlakatimizning boshqa hududlariga nisbatan ancha orqada qolmoqda.

Misol uchun, viloyatda 130 ming aholi ishsiz, kelgusi besh yilda 270 ming yoshlar mehnat bozoriga kirib keladi.

Viloyat ichimlik suvi manbalarining "boshida" tursa-da, salkam 1 million aholi toza ichimlik suviga muhtoj.

Oliy ta'lim, maktab va kasb-hunar tizimlaridagi o'qitish sifati, maktabgacha ta'lim qamrovi bo'yicha ham viloyat respublikadagi ko'rsatkichlardan pastda turadi.

Jumladan, ayni paytda viloyatda 8 ming nafar malakali pedagog, 11 ming muhandis va texnolog, 3 ming agronom va veterinar, 7 mingdan ziyod IT, geologiya va qurilish-loyihalash sohalarida kadrlar yetishmaydi.

Toshkent viloyatining xizmatlar, savdo, turizm, logistika borasidagi salohiyati 50 foizga ham ishga solinmagan, desak, bu ham haqiqat.

Shu bois, kelgusi besh yilda viloyatda iqtisodiyot qanday rivojlanadi, aholining hayoti qanday o'zgaradi, odamlarimiz uchun nimalar qilib beramiz, uy-joy, daromad, ish o'rinlari nimaning hisobiga bo'ladi, shular to'g'risida bugun sizlar bilan maslahat qilib olmoqchiman.

Umuman, viloyatdagi keng ko'lamli islohotlarimizning tayanch nuqtasi, bu – inson qadrini ulug'lash, aholining kelajakka ishonchini yanada mustahkamlash bo'ladi.

Shuning uchun, bugun ko'rib chiqiladigan besh yillik dastur markazida viloyatning 100 mingdan ortiq yoshlarini eng zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish, barcha sohalarda kamida 450 ming yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadini kamida 2 barobarga oshirib, kambag'allikni keskin qisqartirish, har bir mahalla va qishloqda aholimiz uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish kabi muhim masalalarni o'zida qamrab oladi.

Hurmatli saylovchilar!

Mamlakatimizning yangi sanoat siyosatini amalga oshirishni, birinchi bo'lib Toshkent viloyatidan boshlaymiz.

Bu – mavjud tabiiy resurslar negizida yirik, eng zamonaviy jihozlangan korxonalarni tashkil etish, sanoat zonalarida koope-ratsiya asosida talab yuqori bo'lgan va raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, o'zaro bog'liq bo'lgan tarmoqlar o'rtasida ilm-fan, innovatsiya, injiniringni qamrab oladigan sanoat klasterlarini tashkil etish, sanoatning barcha tarmoqlari uchun zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, malakali kadrlarni tayyorlash va tanlash tizimini yo'lga qo'yish kabi muhim vazifalardan iborat.

Viloyatda kelgusi besh yilda umumiy qiymati 20 milliard dollar bo'lgan 8 mingta yirik, o'rta va kichik investitsiya loyihalari amalga oshirilib, 180 mingdan ziyod doimiy ish o'rinlari yaratiladi.

Birinchi navbatda, Olmaliq, Chirchiq, Angren, Bekobod, Ohangaron va Yangiyo'l shaharlari "sanoatning tayanch shaharlari"ga aylantiriladi. Xususan, Olmaliq, Angren va Ohangaronda "yirik mis klasteri" korxonalari tashkil etiladi.

E'tiboringizga bir raqamni keltirmoqchiman. Nufuzli xalqaro kompaniyalar bilan olib borilgan geologik izlanishlar natijasida Olmaliqda mis va boshqa xomashyoning 45 million tonnadan ortiq yoki 700 milliard dollarlik yalpi zaxirasi aniqlandi. Bu aniqlangan zaxiralar bo'yicha biz dunyodagi eng yetakchi davlatlar qatoridan o'rin egalladik.

Shu bois, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati tomonidan qiy-mati qariyb 8 milliard dollar bo'lgan loyiha doirasida 3- va 4-mis boyitish fabrikalari, karer va mis eritish zavodi qurilib, yiliga 160 million tonna rudani qayta ishlash va 400 ming tonna mis, oltin, kumush, molibden ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, Angrenda 160 gektar maydonda yirik sanoat zonasi barpo etiladi. Unda 200 ming tonna mis qayta ishlanib, mis folgasi, akkumulator, quyosh va shamol energetikasi, elektromobillar uchun butlovchi qismlar hamda tog'-kon sanoati uchun asbob-uskunalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi va 3 mingta ish o'rni yaratiladi. Bu "mis mega klasteri"da ishlab chiqarish hajmi 13 milliard dollarni tashkil etib, mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi qariyb 10 foizga yetadi.

Ushbu sanoat shaharlarida yiliga 10 ming yoshlarni bevosita klaster korxonalariga bog'lagan holda kasbga o'qitish va ish bilan ta'minlash tizimi yo'lga qo'yiladi.

Bunda oliy ta'lim va kasb-hunarga o'qitish ishlari Olmaliq kon-metallurgiya kombinati va klaster korxonalari buyurtmasi asosida tashkil etiladi. O'quv maskanlariga malakali xorijiy ekspertlar, eng zamonaviy laboratoriya, IT texnologiyalari hamda o'quv qo'llanmalari olib kelinib, o'quv dasturlari to'liq yangilanadi.

Ohangaron va Piskent tumanlarida rangli metallar zaxiralarini aniqlash va ko'paytirish bo'yicha 35 ta geologik izlanishlar amalga oshirilib, bu ishlar uchun 2 trillion so'm mablag' ajratiladi.

Shuningdek, Chirchiq va Olmaliq shaharlarini innovatsion kimyo sanoati markaziga aylantiramiz. Xususan, "Ximgrad" iqtisodiy zonasi tashkil etilib, xorijiy investorlar bilan birgalikda 500 million dollarlik 35 ta loyiha amalga oshiriladi. Olmaliq shahrida 1 milliard dollar investitsiya evaziga "yashil texnologiyalar" asosida ammiak, karbamid va ammos fosfor ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushiriladi.

Ulug‘bek shaharchasida 8 ming talabaga mo‘ljallangan 3 ta oliy-goh, ya‘ni Rossiyaning Mendeleyev kimyo universiteti, Vengriya-ning Debretsen universiteti va Toshkent kimyo texnologiyalari insti-tuti, nufuzli ilmiy tashkilotlar va laboratoriyalarni o‘z ichiga olgan kimyo sanoati ilmiy klasteri tashkil etiladi.

Shuningdek, Chirchiq shahrida yiliga 7 ming dona traktor, kombayn va boshqa qishloq xo‘jaligi texnikalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan klaster o‘z faoliyatini boshlaydi.

Bundan tashqari, Bekobod shahri qora metallurgiya markaziga aylantiriladi va “O‘zbekiston metallurgiya kombinati”ning quv-vatlari kamida 2 barobarga oshiriladi. Jumladan, qiymati 770 mil-lion dollarlik quyuv-prokat majmuasini ishga tushirish orqali ishlab chiqarish hajmi 2,3 million tonnaga yetkaziladi.

Shuningdek, Parkent tumanidagi mavjud 27 million tonna temir rudasini o‘zlashtirish boshlanadi.

Bekobod shahrida sanoat zonasi tashkil etilib, qurilish, sanoat, uy-ro‘zg‘or uchun metall mahsulotlari ishlab chiqaradigan 100 dan ortiq loyihalar amalga oshiriladi.

Olmalik kombinati va O‘zmetkombinat tomonidan kichik biznes bilan kooperatsiya asosida elektrodvigatellar, filtrlar, moy va podshipnik kabi mahsulotlar va xizmatlar uchun keyingi yilda 250 milliard so‘mlik, 2026-yilga borib esa 1 trillion so‘mlik bozor yaratiladi.

Sanoat korxonalari va aholi tomonidan elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojni inobatga olib, Chotqol va Pskom daryolarida jami quvvati 621 megavatt bo‘lgan 3 ta yangi gidro elektr stansiyasi quri-ladi. Bunga 1,2 milliard dollar investitsiya yo‘naltiriladi. Qibrayda 450 million dollar to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya hisobidan jami quvvati 710 megavatt bo‘lgan 3 ta issiqlik elektr stansiyasi qurila-di. Natijada viloyatda iste‘molchilarga 21 milliard kilovatt soat yoki hozirgidan 2 barobar ko‘p elektr energiyasi yetkazib berish imkoni-yati yaratiladi.

Hurmatli saylovchilar!

“Yangi sanoat siyosati” doirasida viloyatning eng katta zaxirasi, bu – shahar va tumanlarning salohiyatidan kelib chiqib, mahalliy sanoat imkoniyatlarini to‘liq ishga solish hisoblanadi.

Masalan, bugungi kunda to‘qimachilikda ip-kalavanning 30 foizi, oziq-ovqat sanoatida esa 10 foizdan kam mahsulotlar qayta ishlanadi, xolos.

Mahalliy sanoatdagi rezervlarni to‘liq ishga solish uchun viloyatda sanoat loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha yangicha tizim joriy etiladi. Bunda tuman va shaharlar aniq bir sanoat tarmoqlariga ixtisoslashadi.

Har bir tumanda loyihalarni ishlab chiquvchi “Loyiha guruhi” hamda tadbirkorlar ishtirokidagi “Xolding kompaniyasi” tashkil etiladi. Ushbu loyihalarning 30 foizgacha qismi To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi tomonidan moliyalashtiriladi. Shu maqsadda, har bir tumanga yiliga 20 million dollar mablag‘ ajratiladi.

Misol uchun, Ohangaron, Yuqori Chirchiq va O‘rta Chirchiq tumanlari qurilish materiallari sanoatining tayanch hududiga aylantirilib, qiymati 1,3 milliard dollarlik 150 ta loyiha amalga oshiriladi.

Birgina Ohangaron tumanida “xomashyodan tayyor mahsulotgacha” tamoyiliga asoslangan klaster tashkil etilib, qo‘shimcha 4,2 million tonna sement ishlab chiqarishning yo‘lga qo‘yilishi natijasida temir-beton va qurilish qorishmalarining tannarxi 25 foizga arzonlashadi.

Shuningdek, O‘rta Chirchiq va Piskentda mebelsozlik “drayver” soha bo‘lib, qiymati 180 million dollar bo‘lgan 90 ta loyiha amalga oshirilib, 7 ming nafar aholining bandligi ta‘minlanadi.

Xususan, O‘rta Chirchiqda Turkiyaning “Ostim” sanoat zonasi bilan birga laminat DSP, furnitura va tayyor mebellar ishlab chiqarish bo‘yicha zamonaviy klaster tashkil etiladi. Bu loyihalar uchun To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasidan 35 million dollar yo‘naltiriladi.

Farmatsevtika sanoati Bo'stonliq, Parkent va Zangiota kelgusi besh yilda ustuvor tarmoqqa aylanib, 750 million dollarlik 30 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi.

Jumladan, Zangiota qiymati 300 million dollar bo'lgan farmatsevtika klasteri tashkil etiladi. Unda 6 ta yirik korxonalar, ilmiy-tadqiqot va ekspertiza markazlari, zamonaviy laboratoriya hamda Xalqaro farmatsevtika oliygohi tashkil etiladi.

Elektrotexnika sanoati mis klasteri ishlab chiqarish zanjirining davomi bo'lib, Angren, Ohangaron va Chirchiq shaharlarida qiymati 300 million dollar bo'lgan 40 ta loyiha amalga oshiriladi. Ularda ishlab chiqarilgan 13 turdagi kabel, maishiy texnika mahsulotlari hamda kuchlanishli uskunalari va texnik qurilmalarga mo'ljallangan ehtiyot qismlar Toshkentdagi "Texnopark", "Elektroapparat", Chirchiqdagi "Transformator zavodi"ga, shuningdek, avtomobil sanoati korxonalari va boshqa ishlab chiqaruvchilarga yetkazib beriladi.

To'qimachilik sanoatida ham umumiy qiymati 420 million dollar bo'lgan 90 ta loyiha amalga oshirilib, 31 mingdan ziyod ish o'rni tashkil etiladi. Buning natijasida Bo'ka, Bekobod, O'rta Chirchiq, Quyi Chirchiq, Chinozda ip-kalavani chuqur qayta ishlash ko'rsatkichi 100 foizga yetkaziladi.

Zangiota, Parkent, Toshkent tumanlarida esa 50 ming tonna sun'iy tola va aralash mato ishlab chiqarish uchun tadbirkorlarga tayyor biznes-rejalar hamda moliyaviy resurslar ajratiladi.

Ohangaron va boshqa tumanlarning chorva xomashyo bazasidan samarali foydalanib, charm sanoatida 190 million dollarlik 62 ta loyiha ishga tushiriladi. Xususan, Ohangaron tumanida charm-poyabzal industrial zonasi tashkil etiladi va viloyatdagi eksport hajmi 5 barobar oshirilib, 60 million dollarga yetkaziladi.

Viloyatda jami 35 ta sanoat zonasi tashkil etilib, ularni inf-ratuzilma bilan ta'minlashga kelgusi yilning o'zida 250 milliard so'm ajratamiz. Zarur bo'lsa, ushbu mablag' yana ko'paytiriladi.

Mahalliy sanoat korxonalari uchun muhim bo'lgan 64 turdagi xomashyo importi uchun bojxona imtiyozlari yana besh yilga uzaytiriladi.

Viloyatda amalga oshiriladigan yangi loyihalar hisobidan kelgusi besh yilda eksport hajmi 2,2 barobarga o'sib, 2,6 milliard dollarga yetkaziladi. Bunda eksport geografiyasi hozirgi 60 ta davlatdan 100 ta davlatga kengaytiriladi.

Hurmatli do'stlar!

Aytish joizki, Toshkent viloyati shaharlar soni bo'yicha mamlakatimizda birinchi o'rinda turadi. Kelajakda ushbu shaharlar mamlakatimiz poytaxti bilan uzviy bog'langan holda rivojlanadi.

Avvalambor, Nurafshon shahri yaqin 10 yilda kamida 200 ming aholi yashaydigan, zamonaviy va aholi uchun qulay, ta'lim, tibbiyot va biznes markazi bo'lgan shaharga aylantiriladi.

Buning uchun shaharda 30 ming aholiga mo'ljallangan zamonaviy "Yangi O'zbekiston" turar joy mavzesi barpo etilib, unda 5 ta maktab, 12 ta bog'cha, 2 ta oilaviy poliklinika va jamoat parki quriladi. Shuningdek, 15 ming talabaga mo'ljallangan Nurafshon davlat universiteti tashkil etiladi. Davlat-xususiy sheriklik asosida 150 million dollarlik zamonaviy ko'p tarmoqli tibbiyot markazi barpo etiladi.

Nurafshon shahridan poytaxtga olib boruvchi yo'llar kengaytirilib, alohida yo'lakda tezyurar elektrobuslar qatnovi tashkil etiladi. Bu orqali 2 ta shahar o'rtasida ish va o'qishga qatnaydigan aholi uchun qulay va muntazam transport qatnovi yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, Olmaliq, Chirchiq, Angren, Bekobod, Ohangaron va Yangiyo'l shaharlari hududi kengaytirilib, har birida "Yangi O'zbekiston" uy-joy mavzelari, ijtimoiy obyektlar va "yashil maydonlar" barpo etiladi.

Bugungi kunda Chirchiq shahrining "Iftixor" mahallasida barcha zarur qulayliklar va ijtimoiy infratuzilmaga ega yangi turar joy mavzesi bunyod etilib, 2,5 ming xonadonli 39 ta ko'p qavatli

uy qurilmoqda. Keyingi bosqichda bu yerda yana 3,5 ming oilaga mo'ljallangan, 56 ta zamonaviy uylar barpo etiladi. Ushbu tajribani viloyatning boshqa shaharlarida ham davom ettiramiz.

Poytaxtdan bu shaharlarga 120 kilometr tezlikda yuradigan zamonaviy elektropoyezd harakati yo'lga qo'yiladi. Buning uchun 10 ta elektropoyezd xarid qilinib, ularda poytaxt bilan yagona bilet tizimi joriy etiladi.

Ushbu shaharlardagi 800 dan ziyod ko'p qavatli uylarning markazlashgan issiqlik ta'minotini yaxshilashga yarim trillion so'm mablag' ajratamiz. Shuningdek, renovatsiya dasturi doirasida 6 ta shahardagi 45 ta eskirgan ikki qavatli uylar o'rniga, zamonaviy ko'p qavatli uylar quriladi.

Viloyat tumanlarida ham kelgusi besh yilda 25 ming kvartirali ko'p qavatli uylar barpo etiladi. Kelgusi besh yilda 220 ta qishloq va mahallada "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari amalga oshiriladi. Bu maqsadlar uchun 2 trillion so'm yo'naltiramiz.

Markazlashgan ichimlik suvi ta'minoti 68 foizdan 90 foizga, kanalizatsiya qamrovi esa 17 foizdan 40 foizga yetkaziladi. Buning uchun 6 trillion so'm yo'naltirilib, 3 ming 800 kilometr ichimlik suvi va kanalizatsiya tarmoqlari, 106 ta suv inshootlari barpo etiladi.

Natijada Quyi Chirchiq, Yuqori Chirchiq, O'rta Chirchiq, Bekobod, Bo'ka, Oqqo'rg'on, Zangiota, Toshkent va Chinoz tumanlari hamda Nurafshon shahridagi 1 millionga yaqin aholi toza ichimlik suvi bilan to'liq ta'minlanadi.

Shuningdek, 6 ming kilometr elektr tarmoqlari va 1,5 mingdan ortiq transformatorlar yangilanadi.

Eng muhimi, viloyat tumanlarini o'zaro va poytaxt bilan bog'laydigan Jamoat transportini rivojlantirish dasturi qabul qilinadi. Dastur doirasida 20 ta yangi yo'nalishlar ochiladi, 120 dan ziyod yangi bekat quriladi, 13 ta avtostansiya barpo etiladi.

Kelgusi besh yilda Toshkent viloyatida 3,5 ming kilometr avtomobil yo'llari va 232 ta katta-kichik ko'priklarni qurish-

ta'mirlash ishlari bajarilib, bu ishlarga 4 trillion so'm yo'naltiriladi. Jumladan, poytaxtdan Ulug'bek shaharchasi orqali Chirchiqqa olib boradigan yangi avtomobil yo'li barpo etiladi.

Shuningdek, viloyat "Infratuzilmani rivojlantirish jamg'ar-masi"ga qo'shimcha 100 million dollar ajratiladi.

Qadrli yurtdoshlar!

Toshkent viloyati betakror va xilma-xillikka boy tabiati bilan nafaqat mamlakatimiz aholisi, balki xorijliklarni ham o'ziga mah-liyo etib keladi. Haqiqatan ham, mamlakatimizda qishki va yozgi turizm uchun cheksiz imkoniyatga ega bo'lgan eng qulay hudud – Toshkent viloyati hisoblanadi.

Birgina misolga ahamiyat bering, poytaxtning o'zidan viloyat-ga haftasiga 200–250 ming nafar aholi chiqadi, bu oyiga qariyb 400 milliard so'mlik tushum degani.

Shu bois, viloyatda turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha alohida dasturni amalga oshiramiz. Avvalambor, Amirsoy va Chimyon turistik majmualarida, Chorvoq suv ombori va "Toshkent dengizi" atrofida, Ohangaron, Angrendagi tog'li hududlarda qo'shimcha turistik zonalar va dam olish maskanlari barpo etilishiga 1 milliard dollar investitsiyalar jalb etilib, 80 ming ish o'rinlari yaratiladi.

Parkent tumanini turizm markaziga aylantirish maqsadida "Yangi O'zbekiston" bog'idan Parkentning so'lim go'shalariga eltuvchi 30 kilometr uzunlikda yangi magistral yo'l quriladi. Toshkent shahridan Parkentga tezyurar avtobuslar qatnovi tashkil etiladi. Shuningdek, tuman infratuzilmasini rivojlantirish uchun 100 milliard so'm mablag' ajratilib, mazkur hududda turizm uchun maxsus soliq rejimi joriy qilinadi.

Bunda tadbirkorlar uch yil davomida aylanmadan olinadigan soliq va ijtimoiy soliqni 1 foiz stavkada, mol-mulk, yer, suv soli-q-larini hisoblangan summaning atigi 1 foizini to'laydi. Yo'l bo'y-larida savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish obyektlari

barpo etilib, kamida 3 mingta yangi ish o'ri tashkil etiladi. Buning uchun 200 milliard so'm kreditlar ajratiladi.

Angren, Bo'stonliq, Parkent, Ohangaronda kamida 100 gektardan qir-adir yerlari dam olish maskanlari, dala hovlilar va yakka tartibdagi uy-joylar qurish uchun ochiq auksionga chiqariladi.

Ohangarondagi "Ertoshsoy" va "Ovjazsoy" qishloqlariga "turizm qishlog'i" maqomi berilib, infratuzilma bilan to'liq ta'minlanadi.

Shu o'rinda viloyatning xizmatlar sohasida to'liq ishga solinmagan yana bir yo'nalishi haqida to'xtalib o'tmoqchiman.

Bugungi kunda Toshkent shahriga kuniga 130 ming tonna yuklar katta hajmli mashinalarda kirib chiqadi. Bu poytaxt ko'chalarida tirbandlik, yo'llar sifati va havoning tozaligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu – viloyatda logistika xizmatlarini keng yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyat demakdir. Shu bois, O'rta Chirchiq, Yuqori Chirchiq, Quyi Chirchiq va Toshkent tumanlarida xususiy investorlar tomonidan yuklarni taqsimlaydigan 4 ta yirik ulgurji savdo logistika markazlari quriladi.

Misol uchun, 200 million dollar to'g'ridan to'g'ri investitsiya hisobidan O'rta Chirchiq tumanidagi 150 gektar maydonda yirik sanoat parki va logistika markazi barpo etiladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va yetkazib berish uchun 60 ming tonna quvvatga ega bo'lgan 2 ta yirik agrologistika majmuasi tashkil etiladi. Natijada viloyatda ishlab chiqariladigan sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari uchun ham kafolatlangan bozor ta'minlanadi.

Shuningdek, viloyat hududidan o'tuvchi barcha xalqaro avtomobil yo'llari atrofida xorijiy loyihachilarni jalb etgan holda Yo'lbo'yi infratuzilmasini rivojlantirish dasturi amalga oshiriladi. Bu orqali kelgusi besh yilda kamida 3 mingta loyiha amalga oshiriladi.

Eng muhimi, ushbu dastur doirasida yer maydonlari emas, tayyor loyihalar ochiq auksionga chiqariladi.

Boshqa yoʻnalishlarda ham shu kabi ishlar amalga oshirilib, Tojikiston bilan chegaradosh Bekobod tumanida savdo zonasi, Qozogʻiston bilan chegaradosh Chinoz tumanida erkin sanoat zonasi, Qibray tumanida qurilish materiallari va qishloq xoʻjaligi mahsulotlari savdosi zonasi tashkil etiladi.

Umuman, viloyatda xizmatlarning boshqa sohalarida qiymati 7 trillion soʻm boʻlgan loyihalar amalga oshirilib, 50 mingdan ziyod ish oʻrni tashkil etiladi.

Hurmatli vatandoshlar!

Toshkent viloyatida kichik va oʻrta biznesni rivojlantirish uchun ham zarur infratuzilma, moliyaviy resurs hamda aholida yetarli tadbirkorlik salohiyati mavjud. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun yoshlarni yangi biznes koʻnikmalariga oʻrgatish, mahallalarda ishlarni tizimli tashkil etish zarur.

Saylovoldi dasturi doirasida men har bir viloyatga borganimda yangi “mahallabay” ishlash tizimini tushuntirib kelayapman.

Toshkent viloyati bu borada, yaʼni, “mahallabay” ishlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha namuna boʻlishi shart.

Buning uchun har bir mahallada joriy etilayotgan hokim yordamchilari lavozimiga koʻzi yonadigan, ishbilarmon, yangiliklarni joriy etishdan qoʻrqmaydigan, shashti baland yoshlarni tanlab olamiz va oylik maoshini munosib qilib beramiz. Ularda zarur mablagʻ, vakolat va mexanizmlar boʻladi.

Hokim yordamchilari, avvalo, mahallada uyushmagan yoshlar, ishsizlar, boʻlajak tadbirkorlar roʻyxati va ehtiyojlarini aniqlaydi, ularni kasb-hunarga oʻqitishni tashkil qiladi va pulini toʻlab beradi, oʻz ishini boshlayotganlarga zarur uskunalar olishga koʻmaklashadi. Banklar bilan birgalikda aholiga oilaviy tadbirkorlik loyihalarini ishlab chiqish, kredit olish va ishga tushirish boʻyicha yordam beradi.

Masalan, ushbu yangi tizimni Chinoz tumanining 55 ta mahallasida qoʻllaydigan boʻlsak, 3 ming nafar yoshlarni kasb-

hunarga o'rgatib, 12 ming nafar yoshlar bandligi ta'minlanadi. Buning uchun 20 milliard so'm yo'naltiriladi. Oilaviy tadbirkorlik loyihalari uchun har yili 50 milliard so'm imtiyozli kredit va 20 milliard so'm subsidiya beriladi.

Bundan tashqari, yiliga 300 ta oilaga tanlov asosida oilaviy tadbirkorlik loyihalarini boshlash uchun subsidiyalar ajratiladi. Kooperatsiya asosida 2 mingta aholi xonadonida intensiv usulda baliq yetishtirish yo'lga qo'yiladi. Bu orqali har mavsumda bitta oila o'rta 50 million so'mgacha daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ushbu tadbirlar hisobidan tumanda kelgusi besh yilda 20 ming aholining barqaror daromad manbai yaratiladi.

Viloyatda kichik biznes loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash ishlari keskin oshiriladi. Jumladan, oilaviy tadbirkorlik dasturlari uchun har yili 1 trillion so'm imtiyozli kredit resurslari ajratiladi. Xalqaro moliya tashkilotlaridan 60 million dollar jalb qilinadi. Tadbirkorlarga kredit foizini kompensatsiya qilish uchun yana qo'shimcha 100 milliard so'm ajratiladi. Ushbu mablag'lar loyihalar amalga oshirilishiga qarab, har yili ko'paytirib boriladi.

Ishsizlik yuqori bo'lgan Bo'ka, Piskent, Oqqo'rg'on, Bekobod tumanlarida yangi tadbirkorlik subyektlari uchun 2025-yil 1-yanvargacha qadar:

- yer, mol-mulk, aylanmadan olinadigan soliqlar 1 foiz;
- foyda solig'ining amaldagi stavkasining 50 foizi miqdorida belgilanadi.

Bekobod va Oqqo'rg'on tumanlarini rivojlantirish dasturlari qabul qilinib, ularga budjetdan yiliga 100 milliard so'm ajratiladi.

Qadrli uchrashuv qatnashchilari!

Viloyatda ilmiy-innovatsion yondashuv asosida qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilib, mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2 barobarga oshiriladi.

Xabaringiz bor, joriy yilda yer munosabatlarida yangi davr boshlandi. Ochig'ini aytadigan bo'lsak, shu kunga qadar yerdan

foydalanishda tadbirkorlar, fermerlar va dehqonlarning ertangi kunga ishonchi yo‘q edi. Bunday holatda dehqon yer unumdorligini oshirish, qo‘shilgan qiymatni yaratish, yangi texnologiyalarni joriy etishdan manfaatdor emas edi.

Shuning uchun, yer ajratish va olib qo‘yish bo‘yicha hokimlarning vakolatlari bekor qilindi. Bundan buyon barcha yerlar faqat ochiq elektron tanlov asosida ajratiladi. Bu orqali Toshkent viloyatida ildiz otib ketgan korrupsiyaviy holatlarga, “yer oldi-sotdisi”ga, yerni o‘zboshimchalik bilan egallashga barham berilmoqda.

Yangi tartib asosida viloyatda 14,5 ming gektar paxta va g‘alla hamda samarasiz bog‘-tokzorlar maydonlari qisqartirilib, aholiga 50 sotixgacha uzoq muddatga ijaraga beriladi va 30 mingdan ortiq ish o‘rinlari yaratiladi. Bu maydonlarda mahsulot ishlab chiqarish kooperatsiya asosida tashkil qilinadi. Buning uchun 100 milliard so‘m ajratiladi.

Eng muhimi, ishlab chiqarishni tizimli tashkil qilgan holda, hosildorlik paxtada 60–65 sentnerga, g‘allada 80–90 sentnerga yetkaziladi. Buning uchun, birinchi navbatda, viloyatda 30–40 yil davomida ekib kelinayotgan eski g‘o‘za va g‘alla navlari yuqori hosildor hamda ertapishar yangi navlarga almashtiriladi.

Shuningdek, 65 ming gektar paxta va 50 ming gektar g‘alla maydonlarida suv tejovchi texnologiyalar joriy qilinadi hamda yiliga 20 ming gektar maydonda lazerli tekislash yo‘lga qo‘yiladi. Bu ishlarga kelgusi besh yilda jami 1 trillion so‘mga yaqin subsidiya mablag‘lari ajratiladi.

O‘rta Chirchiq, Quyi Chirchiq, Ohangaron, Oqqo‘rg‘on, Bo‘ka, Piskent tumanlarini kafolatli suv bilan ta‘minlash maqsadida Ohangaron suv ombori sig‘imi 100 million metr kubga oshiriladi. Shuningdek, 80 million dollar jalb qilinib, 38 ta nasos stansiyasi modernizatsiya qilinadi.

Bundan tashqari, paxtachilikda mexanizatsiya darajasini oshirishga ham alohida e‘tibor qaratiladi.

Esimda, paxta yig'im-terimini tashkil qilishda "Toshkent texnologiyasi" degan tajriba bo'lar edi. O'sha paytlarda paxtaning asosiy qismi mashinalarda terib olingan.

Kelgusi besh yilda bu tizim qayta tiklanib, kamida 70–80 foiz paxta hosili mashinalar yordamida terib olinadi. Bunda mashina terimi xarajatlarining 30 foizi budjetdan qoplab beriladi.

Intensiv texnologiyalarni qo'llash va hosildorlikni oshirish hisobidan, meva-sabzavot ishlab chiqarish hajmi kamida 2 barobar ko'paytiriladi. Xususan, Zangiota, Qibray va Toshkent tumanlarida 2 ming 700 gektar g'alla va Yuqori Chirchiqda 4 ming gektar paxta maydonlari bosqichma-bosqich qisqartirilib, meva-sabzavotchilik hududlariga aylantiriladi. Bu tumanlarda 50 ta klaster korxonalari tashkil qilinib, kooperatsiya usulida eksportbop mahsulotlar yetishtirish yo'lga qo'yiladi.

Sabzavotchilikda eng asosiy masala – urug' tayyorlash tizimini to'g'ri yo'lga qo'yib olishimiz shart. Buning uchun yuqoridagi tumanlarda 200–300 gektardan yer maydonlari ajratilib, alohida urug'chilik klasterlari faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Toshkent viloyatining ilmiy salohiyatidan to'g'ri foydalangan holda, hududdagi ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda har bir klaster qoshida ilmiy markaz tashkil etiladi. Bunday klasterlarga ishlab chiqarilgan urug'likni eksport qilishga ham ruxsat beriladi.

Parkent, Qibray, Piskent, Yuqori Chirchiq, Yangiyo'l, Ohangaron, Bo'stonliq tumanlarida 50 ming gektar bog' va tokzorlarning iqtisodiy samarasiz bo'lgan 60 foizi to'liq yangilanadi. Shuningdek, yangi o'zlashtiriladigan va lalmi yerlar hisobidan ushbu tumanlarda 20 ming gektar maydonda intensiv bog' va tokzorlar barpo etiladi.

Bog'dorchilik ilmiy-tadqiqot instituti va Agrar universitetning "in-vitro" laboratoriyalaridan samarali foydalangan holda Toshkent, Parkent va Qibray tumanlarida yiliga 5 million dona meva va tok

ko'chatlarini yetishtirish yo'lga qo'yiladi. Buning uchun 10 million dollar ajratiladi.

Misol uchun, xorijdan keltirilgan 20 ta namuna asosida uzumning eksportbop bo'lgan danaksiz navlari yaratiladi.

Umuman, viloyat sharoitida har bir gektardan olinadigan o'rtacha daromadni 5 ming dollarga yetkazish choralari ko'rilishi shart.

Yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlarining eksport hajmini oshirish maqsadida 200 million dollarga yaqin mablag' jalb qilinib, 1 million tonna quvvatga ega bo'lgan 12 ta agrologistika markazi tashkil qilinadi.

Vohada o'rmonchilik sohasida ham katta imkoniyatlar mavjud. Bugungi kunda 500 ming gektar o'rmon yerlarining faqat 20 foizi o'rmon bilan qoplangan. Kelgusi besh yilda kamida 50 ming gektar maydonda o'rmonlar barpo etish ishlari amalga oshiriladi.

Buning uchun "Burchmulla" va "Ohangaron" o'rmon xo'jaliklarida yiliga qo'shimcha 5 million dona ko'chat yetishtirish yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, Bo'stonliq va Ohangaron tumanlarida 6 ming gektar maydonda yong'oq, bodom va pista plantatsiyalari barpo qilinadi.

Bo'stonliq tumanida 4 ming gektar o'rmon xo'jaligi yerlari tog' va tog' oldi hududlarida yashovchi aholiga qo'shimcha daromad olish uchun ko'p yillik ijaraga beriladi.

Chorvoq suv ombori atrofidagi hududlarda 55 milliard so'm hisobidan kamida 1 ming gektar maydonda iqlim sharoitiga mos daraxt turlaridan himoya o'rmonlari barpo etiladi.

Shuningdek, 80 milliard so'm ajratilib, Toshkent – Bo'stonliq avtomobil yo'li chetlarini ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Ohangaron, Quyi Chirchiq, Bo'ka va Bekobod tumanlarida chorvachilik sohasida boshlagan ishlarimizni davom ettirib, 70 ming bosh qoramolga mo'ljallangan 45 ta yirik chorvachilik komplekslari quriladi. Ohangaronda kooperatsiya asosida 15 ming

gektar yaylov yerlar aholiga qo'y va echki boqish uchun ajratib beriladi. Ushbu tumanda qo'ychilik va echkichilik yo'nalishida genetika markazi tashkil qilinib, yangi zot yaratish va naslni yaxshilash choralari ko'riladi.

Zangiota, Yuqori Chirchiq, O'rta Chirchiq, Yangiyo'l va Parkentda parrandachilik klasterlari tashkil qilinib, yiliga qo'shimcha 40 ming tonna parranda go'shti ishlab chiqariladi. Shuningdek, aholi xonadonlarida parranda boqishni tashkil etish orqali 20 mingta oila qo'shimcha daromad olish imkoniga ega bo'ladi.

Jumladan, Quyi Chirchiqda kurkachilikni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar borligini inobatga olib, 2 mingta oilada 50 boshdan jami 100 ming bosh kurka boqish tashkil etiladi.

Baliqchilik bo'yicha xonadonlarda intensiv baliq yetishtirishni ko'paytirish choralari ko'riladi, shuningdek, 10 ta baliqchilik klasteri faoliyati yo'lga qo'yilib, viloyatda baliq yetishtirish hajmi 60 ming tonnaga yetkaziladi.

Aziz do'stlar!

“Inson qadri uchun” tamoyilining muhim bo'g'ini – barcha uchun sifatli ta'lim olishga imkoniyat va shart-sharoitlar yaratishdir. Lekin, viloyatdagi maktab ta'limi bu talablarga to'liq javob ber-yapti, deb ayta olmaymiz.

Misol uchun, joriy yilgi bitiruvchilarning bor-yo'g'i 16 foizi oliygoohlarga qabul qilingani ham buning isbotidir.

Oliy ma'lumot va toifaga ega bo'lmagan o'qituvchilar ulushi 54 foizni tashkil etadi. Bu – respublikada eng past ko'rsatkichlardan biri. Chirchiq, Nurafshon, Olmaliq, Yangiyo'l shaharlari, Bekobod, Toshkent va Yangiyo'l tumanlaridagi 70 foiz maktablar ikki smenada, ayrim maktablar hatto uch smenada ishlamoqda.

Shu bois, Toshkent viloyatini maktab ta'limi islohotlarining namunasiga aylantirish bo'yicha alohida dastur amalga oshiriladi.

Avvalambor, “Yangi O'zbekiston ustozlari” dasturi amalga oshirilib, ta'lim sifati past bo'lgan 60 ta maktabga boshqa hudud-

lardan kamida 150 nafar malakali o'qituvchilar jalb qilinadi. Ularga maxsus ustama to'lanadi, 15 million so'm bir martalik to'lov beriladi, yashash joyining ijara puli qoplanadi.

Keyingi uch yilda 25 ming nafar yoki 70 foiz o'qituvchilarning malakasi oshirilib, xalqaro va milliy sertifikat olishi ta'minlanadi. Ushbu ishlarga xususiy ta'lim tashkilotlari ham faol jalb qilinadi.

Toshkent viloyati uchun malakali pedagog kadrlarni tayyorlash kvotalari 2 barobarga oshiriladi. Kelgusi besh yilda budget hisobidan 20 ta yangi maktab quriladi, 260 tasi rekonstruksiya qilinadi va kapital ta'mirlanadi.

Viloyatda maktablarni qurish va foydalanishning yangi tizimi yo'lga qo'yiladi. Jumladan, Qibray, O'rta Chirchiq, Zangiota va Toshkent tumanlarida xususiy kapitalni jalb qilgan holda, 12 ta zamonaviy tipdagi maktablar qurilib, foydalanishga topshiriladi. Ushbu maktablar uchun to'lovlar lizing asosida budget hisobidan 25 yil davomida amalga oshiriladi.

O'z navbatida, ta'limning beshigi bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlar davom ettirilib, qamrov darajasi 80 foizga yetkaziladi. Buning uchun 96 ta davlat bog'chalari quriladi va rekonstruksiya qilinadi, 800 ta xususiy va oilaviy bog'chalar tashkil etiladi.

Qibrayda imkoniyati cheklangan bolalar uchun reabilitatsiya markazi tashkil etilib, har yili 2 ming nafar bolalar bepul sog'lomlashtiriladi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishida qabul kvotalari 2 barobarga oshirilib, oliy ma'lumotli pedagog kadrlar ulushi 50 foizga yetkaziladi.

Pedagog kadrlarning malakasini uzluksiz oshirib borish maqsadida kelgusi yildan O'rta Chirchiq, Bo'ka, Ohangaron, Yuqori Chirchiq tumanlarida "Maktabgacha ta'lim klasteri" faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Hurmatli saylovchilar!

Men uchun eng bebaho narsa – bu xalqimizning sog‘lig‘idir. Bu borada Toshkent viloyatida o‘z yechimini kutayotgan ko‘plab masalalar to‘planib qolgan.

Eng ko‘p uchrayotgan surunkali kasalliklarni barvaqt aniqlash, davolash va profilaktika qilish, sifatli va malakali tibbiy xizmatlarni yo‘lga qo‘yish uchun viloyatning barcha oilaviy shifokorlik punktlari va oilaviy poliklinikalar to‘liq yangi qiyofaga keltiriladi va jihozlanadi, zarur reaktiv va dori vositalari bilan ta‘minlanadi. Qo‘shimcha 30 ta oilaviy poliklinika va shifokorlik punktlari ochiladi. Chirchiq, Olmaliq, Angren, Bekobod kabi yirik sanoat korxonalari joylashgan hududlardagi barcha aholi onkologik skriningdan majburiy o‘tkaziladi.

Piskom, Chimyon, Yusufxona, Takayong‘oq, Burchmulla, Yakkatut kabi tog‘li hududlarda maxsus tez tibbiy yordam brigadalari, Chorbog‘ – Chimyon turistik zonasida shoshilinch yordam bo‘limi va sanitar aviatsiya xizmati faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Shuningdek, har yili 500 ming ayol uchun manzilli skrining tekshiruvlari tashkil etiladi. Yiliga 800 ming nafar bolalar va 70 ming nafar homilador ayollar turli vitaminlar bilan bepul ta‘minlanadi.

Viloyat uchun eng og‘riqli masalalardan biri – bu tibbiy muassasalarining 40 foizi Toshkent shahrida, qolganlari tuman va shaharlarda tarqoq joylashgani hisoblanadi.

O‘ylab ko‘ring, Bekobod shahridagi homilador ayol Chirchiq shahridagi perinatal markazga 165 kilometr yo‘l bosib kelishi qanchalik to‘g‘ri? Yoki bemor endokrin kasalliklari bo‘yicha Yuqori Chirchiqqa, yurak bezovta qilganda esa O‘rta Chirchiqdagi dispanserga murojaat qilishi kerak. Shu bilan birga, bugungi kunda 2,5 ming shifokor o‘rinlari vakantligi ham aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Bu masalalarni hal qilish uchun, eng avvalo, viloyatdagi 14 ta ixtisoslashgan shifoxona Nurafshon shahriga ko‘chirilib, yagona

tibbiyot kompleksi va nufuzli xorijiy universitet bilan birga tibbiyot oliygohi tashkil etiladi. Viloyat markaziga ko'chirilgan shifoxonalar o'mida ularning filiallari tashkil etiladi.

Shuningdek, viloyat hokimligida maxsus jamg'arma tashkil etilib, har yili tibbiyot oliygohlarining yuqori kurs talabalaridan 100 nafariga kontrakt pullari to'lab beriladi. Ushbu talabalar bilan shartnoma tuzilib, viloyatning eng og'ir Bo'stonliq, Bo'ka, Ohangaron va Yangiyo'l tumanlariga ishlash uchun yuboriladi va ularga qo'shimcha ustama to'lanadi. Viloyatning 500 dan ziyod yosh shifokorlari eng ilg'or xorijiy klinikalarda malaka oshirishga davlat hisobidan jo'natiladi.

Aholiga yuqori texnologik tibbiy xizmatlar ko'rsatishni tumanlarning o'zida yo'lga qo'yamiz. Buning uchun barcha tuman va shahar shifoxonalarida yangi 30 turdagi xirurgiya, 15 turdagi endokrinologiya va 12 turdagi kardiologiya davolash amaliyotlari yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, Angren, Bekobod, Bo'stonliq va Chinoz tumanlarida jarohatlar va o'tkir qon-tomir kasalliklari markazlari, Yangiyo'l, Olmaliq, Bekobod shaharlari, Toshkent va Oqqo'rg'on tumanlarida "Perinatal markazlar" barpo etiladi. Ushbu maqsadlar uchun kelgusi besh yilda budjetdan 1,5 trillion so'm mablag' ajratiladi.

Aziz do'stlar!

Biz o'tgan besh yil davomida yaxshi niyatda sizlar bilan, butun xalqimiz bilan o'z yo'limizni tanlab oldik. Albatta, o'tgan davr mobaynida ko'plab sinovlarni boshimizdan o'tkazdik. Lekin, qanday qiyin bo'lmasin, islohotlar yo'lidan ortga qaytmadik.

Biz bugun qanday o'zgarishlar, qanday yangi loyihalarni rejalashtirayotgan bo'lsak, ularning barchasi yagona va ulug' maqsadga – xalqimizning sha'ni, g'ururi va qadr-qimmatini yanada yuksaltirishga, odamlarni rozi qilish, har bir insonning erkin va farovon, baxtli va saodatli hayot kechirishini ta'minlashga qaratilgan.

Hammaniz yaxshi tushunamiz, bunday yuksak marralarga o'z-o'zidan, quruq va balandparvoz gaplar bilan erishib bo'lmaydi. Buning uchun tinimsiz harakat qilishimiz, ko'zlangan maqsad yo'lida ahil va hamjihat bo'lib, fidokorona ishlashimiz kerak.

Men bugun tilga olingan ustuvor rejalarimizni amalga oshirishda, avvalo, xalqimizga, uning fidoyi, jonkuyar va faol vakillariga, katta mehnat va hayot tajribasiga ega bo'lgan Toshkent viloyati ahliga tayanaman.

Zamon bilan hamohang bo'lib, jonajon Vatanimizga yuksak sadoqat bilan yashayotgan viloyat ahli hamisha omon bo'lsin!

Barchangizga mustahkam sog'lik-salomatlik, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Yana bir bor katta rahmat sizlarga!

*Yuqori Chirchiq tumani,
2021-yil 16-oktabr*

**TOSHKENTNI ILM-FAN VA
INNOVATSIYALAR, MADANIYAT
YUKSAK DARAJADA RIVOJLANGAN
ZAMONAVIY SHAHARGA
AYLANTIRAMIZ**

*(Toshkent shahri saylovchilar vakillari
bilan uchrashuvdagi nutq)*

Assalomu alaykum, aziz yurtdoshlar!

Hurmatli saylovchilar!

Avvalambor, mana shu go'zal va betakror zaminda men uchun qadrdon bo'lgan Toshkent shahri vakillari bilan yaxshi kayfiyatda diydor ko'rishib turganimdan xursandman. So'zimning avvalida barchangizga, sizlar orqali ko'pmillatli Toshkent ahliga o'zimning samimiy hurmat-ehtiromim va ezgu tilaklarimni bildirishga ruxsat bergaysiz.

Albatta, qadim va navqiron poytaxtimiz Toshkenti azimning noyob xususiyat va alomatlari haqida juda ko'p gapirish mumkin.

Toshkent – saxovat, mehr-oqibat, rizq-u baraka manbai bo'lgan tabarruk zamin ekaniga har birimiz o'z taqdirimiz, ajdodlarimiz hayoti misolida ishonch hosil qilganmiz.

Nafaqat yurtimiz, balki dunyoning turli hududlaridan kelib, Toshkentning non-tuzidan bahramand bo'lib, ne-ne ulug' siymolar kamolga yetganlar.

Shu ma'noda, **“Toshkent – non shahri”**, degan gap shunchaki chiroyli ta'rif emas. **“Toshkentning tarig'ini yegan chumchuq Makkatillodan ham qaytib keladi”**, degan so'zlar zamirida juda katta hayotiy haqiqat bor.

Azaldan Toshkent shahri – milliy davlatchiligimizning yuksak taraqqiy etgan markazlaridan biri bo'lgan, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Qariyb uch ming yillik Shoshtepa, 2200 yillik tarixga ega Mingo'rik yodgorliklaridan topilgan noyob eksponatlar ham shundan dalolat beradi.

Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy singari ulug' mutafakkirlar asarlarida Shosh, ya'ni Toshkent eli mard, jasur, o'z

yurti himoyasiga hamisha tayyor, qo'li ochiq va saxiy insonlar sifatida ta'riflangan.

Toshkent o'zining ko'p asrlik tarixi davomida hamisha ilm-fan, ma'rifat, ziyo va zakovat maskani sifatida butun Sharq olamida mashhur bo'lganini hammamiz yaxshi bilamiz.

Bu zaminda tavallud topgan Shoshiy, Toshkandiy taxalluslari bilan faoliyat ko'rsatib, bebaho asarlar yaratgan yuzlab ulug' zotlar dunyoviy va diniy ilmlar bo'yicha o'z zamonasining tengsiz olimlari hisoblangan.

Mana shunday buyuk ajdodlarimiz xotirasiga yuksak hurmat ifodasi sifatida poytaxtimizda tabarruk qadamjolar, masjid va madrasalarni obod qilib, Suzuk ota maqbarasi kabi muhtasham majmualar bunyod etayotganimiz, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini qurayotganimizdan barchangiz yaxshi xabardorsiz.

O'tgan asrning boshida Toshkent butun Turkiston hududida ma'rifatparvarlik harakatining bosh markaziga aylangan edi. Milliy matbuotimizning ilk namunalari, hozirgi Milliy teatrimizning tamal toshini qo'ygan Turon truppassi, yoshlarni dunyoning eng ilg'or oliy ta'lim muassasalariga yuborgan xayriya jamiyatlari o'tgan asrning boshlarida dastlab Toshkent bag'rida tug'ilgani ham, albatta, bejiz emas.

Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Ubaydulla Xo'jayev, Shokirjon Rahimiy, Tavallo, G'ulom Zafariy singari jadidchilik harakatining toshkentlik yetakchilari yurtimizda milliy uyg'onishning yangi davrini yaratishga kirishgan edilar.

Mustabid tuzum bu fidoyi zotlarni jismonan yo'q qilgan bo'lsa-da, ularning hurriyat va ma'rifat haqidagi orzu-umidlari xalqimiz qalbida hamisha barhayot yashamoqda.

Xabaringiz bor, yaqinda O'zbekiston Oliy sudi hay'ati tomonidan o'z vaqtida milliy ozodlik uchun kurashgan 115 nafar vatandoshimizning pok nomlari oqlandi.

Jadid bobolarimiz orzu qilgan, ular intilgan ezgu g'oyalar yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi yuksak maqsadlarimiz bilan to'la hamohang ekani barchamizga ma'naviy ruh va shijoat bag'ishlaydi.

Milliy istiqlol yo'lida halok bo'lgan jasur ota-bobolarimizning xotirasini abadiylashtirish, ularning merosini chuqur o'rganish maqsadida boshlagan keng ko'lamlı ishlarimizni albatta izchil davom ettiramiz.

Ma'lumki, Toshkent azaldan tinchlik, do'stlik va hamkorlik shahri bo'lib keladi. Bu yerda bo'lib o'tgan va o'tayotgan nufuzli xalqaro sammitlar, turli uchrashuv va anjumanlar dunyo xalqlari o'rtasida tinchlik va barqarorlikni, insonparvarlik va ezgulik g'oyalarini mustahkamlashga katta hissa qo'shib kelmoqda. Aynan shu sababli jahon siyosat maydonida **“Toshkent ruhi”** degan mashhur ibora paydo bo'lgani, albatta, bejjiz emas.

Mintaqamizning ilm-ma'rifat markazi bo'lmish Toshkentda o'z davrida Muxtor Avezov, Mirzo Tursunzoda, Xidir Deryayev, Sotim Ulug'zoda, Ibroyim Yusupov kabi qardosh xalqlarning ko'plab yetuk adib va shoirlari, olim va arboblari ham tahsil olganlar.

Bugun mintaqa xalqlari o'rtasidagi azaliy do'stlik aloqalari yangi bosqichga ko'tarilayotganini inobatga olib, yaqinda Toshkent shahrida Markaziy Osiyo xalqaro institutini tashkil etganimizdan albatta xabardorsiz.

Biz bundan buyon ham qardosh qo'shni davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni, jumladan, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratamiz.

Toshkent ahlining mardligi va matonati Ikkinchi jahon urushi yillarida yana bir bor yorqin namoyon bo'lganini butun dunyo yaxshi biladi. Ularning yuzdan ziyod mard vakillari Qahramon unvoniga sazovor bo'ldi.

Xalqimizning urush davridagi jasorati va bag'rikengligi ramzlari – Sobir Rahimov haykali, Shoahmad ota Shomahmudov

oilasiga bag'ishlangan yodgorlikni avvalgi joyiga o'rnatganimiz xalqimizning dilidagi ish bo'ldi. Shuningdek, yangi bunyod etilgan "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi yoshlarimiz uchun haqiqiy ibrat darsxonasiga aylandi.

Bugungi kunda Toshkent – azim poytaxtimiz, bundan o'ttiz yil avval dunyoga milliy mustaqilligimiz e'lon qilingan siyosiy markaz sifatida ham ko'p ming yillik tariximizdan shonli o'rin egallaydi.

Toshkent – qanchadan qancha olim-u fuzalolar, davlat va jamoat arboblari, shoir-u adiblar, buyuk san'at namoyandalarini yetishtirgan azim shahardir.

Respublikamizda zamonaviy fan va texnika taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan, har biri o'z sohasida ilmiy maktab yaratgan mashhur ilm-fan arboblari, atoqli akademiklarimiz xususida, ularning ishini munosib davom ettirayotgan sadoqatli shogirdlarining ibratli faoliyati haqida juda uzoq gapirish mumkin.

Bugun ushbu zalda butun umrini ilm-fan sohasidek mashaqqatli va sharafli ishga bag'ishlagan, minglab yuqori malakali kadrlarga ustozlik qilgan ana shunday insonlarning munosib vakillarini ko'rib turganimdan behad mamnunman. El-yurtimiz siz, azizlarning Vatanimiz ravnaqi yo'lida qilayotgan g'oyat muhim va oliyjanob mehnatingizni yaxshi biladi va doimo yuksak qadrlaydi.

Fursatdan foydalanib, barchangizga o'z nomimdan, xalqimiz nomidan samimiy minnatdorlik bildirib, ilmiy faoliyatingizga yangi-yangi yutuqlar tilashga ijozat bergaysiz.

Zamonaviy o'zbek adabiyoti tarixida alohida o'ringa ega bo'lgan Oybek, G'afur G'ulom, Mirkarim Osim, Zulfiya, Said Ahmad, Ozod Sharafiddinov, O'lmas Umarbekov, O'tkir Hoshimov, Tohir Malik kabi ko'plab shoir va adiblarimiz xalqimizning faxri va iftixori hisoblanadi.

Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Yunus Rajabiy, Mannon Uyg'ur, Abror Hidoyatov, Shukur Burhonov, G'ani A'zamov, Nabi G'aniyev, Zikir Muhammadjonov, Ikrom Akbarov, Botir Zokirov,

Turg'un Alimatov, Orif Alimaxsumov singari madaniyatimiz namoyandalari o'zbek san'atining dovrug'ini dunyoga tanitdilar.

Bu aziz insonlarning barchasi xalqimizning, Toshkent elining qalbida barhayot yashamoqda. Shular qatorida og'ir mustabid tuzum sharoitida din-u diyonatimiz, boy ma'rifiy merosimizni asrash borasida katta xizmatlar qilgan Eshon Boboxon, Abduvohid qori, Ziyovuddin va Shamsiddin Boboxonovlar, Anvar qori Tursunov singari yetuk din peshvolarimizning nomlarini minnatdorlik bilan eslashimiz tabiiydir.

Shu o'rinda o'zining fidokorona mehnati bilan Toshkent shahriining bugungi taraqqiyotiga, aholining dard-u tashvishlarini, ijtimoiy muammolarini yechishga munosib hissa qo'shib kelayotgan muhtaram faxriylarimizga alohida rahmat aytib, ularning serqirra faoliyatiga muvaffaqiyatlar tilaymiz.

O'zbekiston Qahramonlari Erkin Alimuhamedov, Toir Dadaxonov, Xolidjon Komilov, Ibrohim G'afurov, Turg'un Azlarov, Shavkat Ayupov singari muhtaram yurtdoshlarimizning nomlarini hurmat bilan tilga olamiz.

Poytaxtda tug'ilib, kamol topgan elimizning yuzlab sevimli san'atkorlari bilan barchamiz albatta faxrlanamiz.

O'zining ko'p yillik samarali mehnati, ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki, boy bilim va tajribasi bilan nafaqat poytaxtimiz, balki butun mamlakatimiz ravnaqiga ulkan hissa qo'shib kelayotgan toshkentlik ishlab chiqarish sohasining taniqli xodimlari, tadbirkor va ishbilarmonlar, injener-texnik mutaxassislar, bunyodkor quruvchilar, jonkuyar shifokorlar, akademik va professorlar, mohir va fidoyi pedagoglar, adabiyot, san'at va sport olamining ko'zga ko'ringan namoyandalari, jasur harbiylarimizning har biri haqida soatlab gapirish mumkin.

Afsuski, vaqtimiz tig'izligi bunga imkon bermaydi, lekin, menga qolsa, ularning barchasini birma-bir, nomma-nom sanab chiqqan bo'lar edim.

Toshkentni azim Toshkent qilib kelayotgan bunday ajoyib insonlarga, ayniqsa, o'zining azm-u shijoati, izlanuvchanligi, navqiron salohiyati bilan barchaga o'rnak bo'layotgan poytaxtimiz yoshlariga bugungi fursatdan foydalanib, yana bir bor o'zinning samimiy hurmat-ehtiramini bildiraman.

Muhtaram vatandoshlar!

Qadimda Toshkentning 12 ta mashhur darvozasi bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz. Bu darvozalar faqat dushmanga yopiq bo'lgan, xolos. Karvon to'la yuk bilan, qo'lida kitob va soz bilan, qalbida pok niyati bilan bu shaharga qadam qo'ygan mehnatkash, oqil va oliyjanob insonlar uchun bu darvozalar xuddi Toshkent xalqining qalbiday hamisha ochiq bo'lgan.

Biz bugun xalqimizning ezgu an'alarini davom ettirib, poytaxtimizda ulkan bunyodkorlik ishlarini olib bormoqdamiz.

Men Toshkent shahrida barpo etilayotgan yangi-yangi inshoot va maskanlarni, ta'bir joiz bo'lsa, Yangi O'zbekistonning yangi darvozalari, deb atagan bo'lardim.

Mana, poytaxtimizning kunchiqar tomonida barpo etilgan yangi O'zbekiston bog'i va muhtasham Mustaqillik monumenti, uning yonida qad ko'tarayotgan xalqaro aeroport, shahar markazidagi osmono'par Toshkent-Siti – bularni bunyodkorlik darvozalari, deb atasak, ayni haqiqat bo'ladi.

Talabalar shaharchasi, yangi-yangi bog'chalar, maktablar, institut va universitetlar – bular xuddi kelajakka ochilgan darvozalar kabi poytaxtimizga salobat va fayz bag'ishlab turibdi.

Ayni paytda shahardagi o'nlab zamonaviy korxonalar, IT parklar – bamisoli taraqqiyot darvozalari bo'lib, milliy iqtisodiyotimiz rivojiga xizmat qilmoqda.

Adiblar xiyoboni, G'alaba bog'i, Navro'z bog'i singari muazzam maskanlar – ezgulik va qadriyat darvozalaridir.

Bunyod etilayotgan muhtasham turar joylar – yangi hayot darvozalari orqali ming-minglab odamlar qalbiga quvonch kirib kelayotganiga hammamiz guvohmiz.

Ana shunday ulug'vor ishlarimizning davomi sifatida O'zbekiston Milliy bog'i hududida Alisher Navoiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O'zbekiston Milliy kutubxonasi, O'zbek milliy akademik drama teatri va O'zbekiston davlat san'at muzeyini o'z ichiga olgan yangi, ulkan majmua – Ma'naviyat shaharchasini bunyod etayotganimizdan sizlar albatta xabardorsiz.

Mana shunday yangi qurilishlar, obod maskanlar, ilm-fan, ta'lim, tibbiyot, madaniyat va sport markazlari Toshkent shahri uchun, xalqimiz, jondan aziz farzandlarimiz uchun taraqqiyot sari katta yo'l ochib bermoqda.

Biz – dunyoga, dunyo – bizga ochiq bo'lishi kerak. Bugungi hayot, bugungi taraqqiyotning talabi aslida shu. Va biz mana shu hal qiluvchi tamoyilni hayotimiz qoidasiga aylantiramiz.

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

Hammangizga yaxshi ma'lum, bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim sohasini rivojlantirishga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Vatanimizga yetuk malakali mutaxassislar tayyorlab berishga xizmat qiladigan oliy ta'lim tizimida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Biz oxirgi besh yilda oliy ta'limga qamrov darajasini 9 foizdan 28 foizga yetkazdik. Mening saylovoldi dasturimda bu ko'rsatkichni yaqin kelgusida 50 foizga yetkazish ko'zda tutilgan.

Bu o'rinda, mavjud oliy ta'lim muassasalarining asosiy qismi Toshkent shahrida joylashganini alohida ta'kidlash lozim.

Albatta, biz yoshlarimizga oliy ta'lim berishni kengaytirish maqsadida yana yangi oliy o'quv maskanlarini tashkil qilamiz. Lekin ularni bitirgan farzandlarimiz ertaga qayerdan ish topadi, degan hayotiy savol hammamizni o'ylantirishi kerak.

Bugungi shiddatli zamonda, global miqyosda raqobat kuchayib borayotgan murakkab vaziyatda yuksak intellektual salohiyatga ega kadrlarga hamma joyda ehtiyoj bor. Agar biz yoshlarimizga munosib daromadli, qulay sharoitli ish topib bera olmasak,

ular chetdan bo'ladigan takliflar haqida o'ylaydi. Albatta, hozir hamma erkin, xohlagan mamlakatida ishlashi mumkin.

Lekin men shu yurtning non-tuzini yeb, shu yerda kamol topgan har bir mutaxassis avvalo shu yurt manfaati uchun xizmat qilishini xohlardim. Chunki biz chet davlatlar uchun mutaxassislar tayyorlab berishni maqsad qilmaganmiz.

Biz yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessansni xorijda emas, jonajon Vatanimizda bunyod etmoqchimiz. Buning uchun har tomonlama kuchli mutaxassislarimizga, iqtidorli o'g'il-qizlarimizga ularning ehtiyoj va qiziqishlariga mos ish topib berishimiz, o'z navbatida, ular o'zlarining bor bilim va salohiyatini mamlakatimiz ravnaqi uchun sarflashi zarur. Shundagina, biz tashkil qilayotgan yangi-yangi institutlar, universitet va akademiyalar o'zini oqlaydi.

Hurmatli saylovchilar!

Sizlar bilan bu galgi uchrashuvimiz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlari munosabati bilan bo'lib o'tayotganini ham-mangiz yaxshi bilasiz.

Saylov – bu tanlash degani. Bu xalqimizning tanlov imkoniyatidir.

Men bu muhim siyosiy jarayonda ko'pmillatli xalqimiz bilan birga, barchamiz uchun aziz va qadrlig' bo'lgan Toshkent ahli ham munosib ishtirok etib, boshqalarga o'rnak va namuna bo'ladi, deb ishonaman.

Hech kimga sir emas, biz bu buyuk shahar timsolida O'zbekistonimizning bugungi ozod va obod qiyofasini, nurafshon kelajagini ko'ramiz. Shu bois, mening saylovoldi dasturimda insonning qadr-qimmatini ulug'lash, xalqimizning farovon hayotini ta'minlash, mamlakatimizning barcha hududlari qatorida Toshkent shahrini ham har tomonlama taraqqiy ettirish, uni yanada go'zal va obod shaharga – dunyoning yirik megapolislaridan biriga aylantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Bugun sizlar bilan bu borada oldimizda turgan eng muhim vazifalar haqida fikrlashib, maslahatlashib olsak, maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylayman.

Hurmatli hamshaharlar!

Respublikamizning barcha hududlarida bo'lgani kabi o'tgan besh yil ichida poytaxtimizda ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Toshkent shahri iqtisodiyotini izchil rivojlantirish borasida amalga oshirilgan choralar natijasida so'nggi besh yilda yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 2016-yildagi 15 million so'mdan 40 million so'mga yetdi.

Men bugun erishilgan yutuqlar haqida gapirib o'tmoqchi emasman. Chunki bu natijalar barchamizning ko'z o'ngimizda, kundalik hayotimizda namoyon bo'lmoqda.

Albatta, hali oldimizda qilinadigan ishlar ko'p. O'z yechimini kutayotgan qator muammolar borligini ham inkor etib bo'lmaydi.

Tahlillarga ko'ra, 2026-yilga borib poytaxt aholisi 3,2 million nafardan ortishi kutilmoqda. Yana yarim milliondan ziyod odam kuniga shaharga kelib ketadi. Bu, o'z navbatida, shahar infratuzilmasi, ta'lim, tibbiyot, jamoat transporti, uy-joy kommunal va boshqa barcha sohalarga yuklamaning ancha oshishiga olib keladi.

Shularni inobatga olib, kelgusi besh yilda Toshkent shahrini rivojlantirish bo'yicha takliflar tayyorlandi.

Jumladan, kelgusi besh yilda:

- "Toshkent yashash uchun qulay yashil shahar";
- "Biznes uchun ulkan imkoniyatlar shahri";
- "Mintaqaviy investitsiyalar markazi";
- "Raqamli poytaxt";
- "Bilim va innovatsiyalar shahri";
- "Poytaxt – madaniyat va ma'rifat bulog'i";
- "Sog'lom turmush va sifatli tibbiyot" dasturlarini amalga oshirish bo'yicha rejalarimizni bugun Siz – aziz saylovchilar bilan

maslahatlashib olmoqchiman. Eng avvalo, kelgusi besh yilda “Toshkent yashash uchun qulay yashil shahar”ga aylanishi bo‘yicha barcha sharoitlar yaratiladi.

Xabaringiz bor, shahar hududi joriy yilda 8 ming gektarga kengaytirildi. Poytaxtning arxitekturasi va qiyofasini saqlab qolish maqsadida ushbu hududda “Yangi Toshkent” konsepsiyasi amalga oshiriladi va bosqichma-bosqich shahar sharqiy yo‘nalishga qarab kengaytiriladi. Jumladan, Bektemir tumanida 20 ming xonadonli zamonaviy mavze barpo etilib, bog‘cha, maktab, tibbiyot muassasasi va dam olish markazlari quriladi.

Yangihayot tumanida infratuzilmaga yaqin hududda, yirik mavze shaklida 200 ta ko‘p qavatli uylar qurilib, 10 mingdan ortiq oilaning turmush sharoiti yaxshilanadi.

Toshkent shahriga qo‘shilgan hududlarni yashash uchun har tomonlama qulay qilish maqsadida alohida dastur qabul qilinib, bu yerda istiqomat qilayotgan 100 mingdan ziyod aholining yashash sharoiti yaxshilanadi. Shuningdek, ushbu hududlarda yangi korxonalar, sanoat zonalari, aholi dam olish maskanlari, iqtisodiy va ijtimoiy obyektlar quriladi.

Shu bilan birga, shahar hududidagi avariya holatiga kelgan, 60–70 yil avval qurilgan ko‘p qavatli uylar o‘rniga zamonaviy turar joylarni barpo etish bo‘yicha “renovatsiya dasturi” amalga oshiriladi. Bunda ushbu uylarda yashaydigan aholini rozi qilib, ularga yangi uylardan maqbul takliflar berilishi shart.

Misol uchun, Yangihayot tumanining “Sputnik” mavzesidagi yashashga yaroqsiz holga kelib qolgan 400 dan ziyod 2 qavatli yog‘och uylar o‘rnida yangi ko‘p qavatli uylar qurilib, 4,5 ming oila yangi zamonaviy xonadonlar bilan ta‘minlanadi.

Toshkent shahrida mavjud ko‘p qavatli uy-joylar orasidagi bo‘sh yerlarda har qanday qurilishlar qilishga chek qo‘yiladi. Ko‘p qavatli uy-joylarga tutash hududlar faqatgina ushbu uy mulkdorlariga doimiy foydalanish uchun birlashtiriladi.

Umuman, kelgusi besh yilda poytaxt aholisi uchun 100 ming xonadonli ko'p qavatli, energiya tejamkor uylar quriladi.

Uy-joyga muhtoj oilalar uchun 14 trillion so'mdan ortiq ipoteka kreditlari ajratilib, dastlabki badal va foiz to'lovlarini qoplash uchun 5 ming nafar oilaga subsidiya beriladi. Ularning xohishiga qarab, ikkilamchi bozordan uylarni sotib olishlariga ham ruxsat beriladi.

Bir masalaga e'tibor bering. Toshkentda havoda chang miqdori belgilangan me'yorlardan 2 barobar ko'p. Shu bois, qurilish maydonlarida changni bostiruvchi zamonaviy usullar va texnologiyalar keng joriy qilinishi shart va zarur bo'ladi.

Bundan buyon shaharda "yashil hudud"larni ko'paytirish ustuvor vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi. Kelgusi yilda har bir tumanda sayilgoh hamda shahar bo'yicha 25 ta "yashil hudud" va alleyalar tashkil etiladi. Shahar hududidan oqib o'tuvchi 28 ta kanalning 111 kilometr qirg'oqlari mustahkamlanadi va sayilgohlar tashkil etiladi. Shuningdek, poytaxtning 60 kilometr kanal bo'ylari, 250 kilometr piyoda yo'laklari atrofiga manzarali daraxtlar ekiladi.

Toshkent katta halqa yo'lining atrofida manzarali daraxtlar ekilib, ihotazorlar tashkil etish orqali "yashil belbog'" yaratiladi hamda piyoda yo'laklari va veloyo'laklar tashkil etiladi.

Chirchiq daryosining shahardan o'tuvchi 16 kilometr qismini obodonlashtirish hisobidan jami 306 gektar maydonda rekreatsion zona, piyoda yo'laklari, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarini qamrab olgan "Daryo bo'yi" majmuasi barpo etiladi. Natijada shahardagi "yashil maydonlar" ulushi hozirgi 16 foizdan 30 foizga yetkaziladi.

Poytaxt aholisi va ularning daromadlari oshib borayotgani bois, so'nggi yillarda shaxsiy avtotransportlar 2-3 barobar ko'payib, kuniga shahar ko'chalarida 700-800 mingdan ziyod transport harakatlanmoqda. Bu tirbandliklarni keltirib chiqarish bilan birga, ekologiya, piyodalar va yo'lovchilar xavfsizligiga salbiy ta'sir

ko'rsatmoqda. Poytaxtning jamoat transporti va yo'l infratuzilmasi bu muammolarga javob bera olmayapti.

Shaharda yer osti va yer usti piyoda o'tish yo'laklari, avtoturargohlar yetishmaydi. Shuningdek, poytaxtda 500 dan ziyod katta chorrahalar mavjud bo'lib, ularning 200 tasida transport vositalarini o'tkazish darajasi past.

Jamoat transportidan bor-yo'g'i 33 foiz yo'lovchi foydalanmoqda. Ayni vaqtda, 80 ta yo'nalishdagi avtobuslarning intervali tig'iz paytlarda 30 minutgacha kechikishi aholi noroziligiga sabab bo'lmoqda.

Shu bois, kelgusi besh yilda shaharda o'zaro uzviy bog'langan barcha transport turlarini rivojlantirish dasturi qabul qilinadi.

Ushbu dastur asosida yer usti transporti va metro yo'nalishlari kesishuvida 16 ta yirik avtostansiyalar, Chilonzor, Yunusobod va Yashnobod tumanlaridagi shaharga olib kiruvchi 6 ta metro bekati atrofida avtoturargohlar, markaziy ko'chalarda 40 ming avtomobil uchun mo'ljallangan 80 ta ko'p qavatli avtoturargohlar, tirbandlik yuqori bo'lgan ko'chalarda 21 ta yo'l o'tkazgichlar quriladi. Yer usti halqa metropoliteni yo'lining 7 ta bekatdan iborat 13 kilometr uzunlikdagi "Qo'yliq-Qipchoq" uchastkasi qurilishi yakuniga yetkaziladi.

Shuningdek, yo'l harakatini "aqlli tartibga solish" tizimi joriy etilib, bunga shaharning 500 ta yirik chorrahasi ulanadi, 200 ga yaqin muntazam avtobus yo'nalishlari tashkil etiladi. Jamoat transporti parkini yangilash uchun 400 ta zamonaviy avtobus, 700 ta elektrobuses olib kelinadi. 90 ta yangi zamonaviy metro poyezdlari xarid qilinib, yo'lovchilar tashish quvvati 2 barobarga oshiriladi.

Avtobuslar qatnovini subsidiyalash tizimi ham qayta ko'rib chiqiladi. Endi tashuvchilarga subsidiyalar yo'lovchi soni bo'yicha emas, balki yo'nalish va qatnovlar soniga qarab beriladi. Shuningdek, kundan kunga hayotimizga kirib kelayotgan yangi texno-

logiyalarni inobatga olib, elektromobillardan foydalanish hamda ularga xizmat ko'rsatish maqsadida 50 ta quvvatlash stansiyasi va boshqa infratuzilmalar yaratiladi.

Bundan tashqari, 1,8 ming kilometr avtomobil yo'li va ichki ko'chalarni ta'mirlashga 3 trillion 200 milliard so'm mablag'lar yo'naltiriladi.

Toshkent shahrida kommunal sohani rivojlantirish borasida ham bir qator yirik loyihalar amalga oshiriladi.

Xabaringiz bor, joriy yilda ko'p qavatli uylarga boshqaruv-servis kompaniyalarini jalb qilishni boshladik. Bu yangi tajriba Yunusobod tumanida o'z samarasini berdi. Kelgusi besh yilda barcha ko'p qavatli uylar, tutash hududlarda joylashgan ijtimoiy obyektlarga shartnoma asosida xususiy boshqaruv kompaniyalari xizmat ko'rsatadi.

Ichki hududlarni obodonlashtirish ham ushbu kompaniyalarga yuklatiladi. Bunda xizmatlar narxi oshib ketmasligi, aholiga ortiqcha yuk tushirmaslik maqsadida, obodonlashtirish bilan bog'liq xarajatlarni budjetdan qoplab bersak, bu sizlarga ma'qulmi?

Toshkent shahrining ichimlik suv ta'minotini yaxshilash loyihasiga umumiy qiymati 185 million yevro miqdorida investitsiya yo'naltiriladi. Bularning hisobidan Toshkent shahrida markazlashgan ichimlik suvi qamrovi hozirgi 95 foizdan 100 foizga yetkaziladi.

“Salar” va “Bektemir” oqova suv inshootlarini shahar hududidan chiqargan holda, sutkalik quvvati 1 million kub metr bo'lgan zamonaviy oqova suv tozalash inshooti quriladi. Shuningdek, 37 million dollar investitsiya hisobidan “Bo'zsuv” va “Qodiriya” ichimlik va oqova suv inshootlari zamonaviy uskuna va jihozlar bilan ta'minlanadi.

Bundan tashqari, shahardagi yomg'ir suvlari va drenaj tarmoqlarini qayta tiklash dasturi qabul qilinib, barcha “yashil hududlar” shu manbalar hisobidan sug'oriladi.

Kelgusi yilda 11 million dollar mablag' evaziga Sergeli va Yangihayot tumanlarida 830 ta ko'p qavatli uy-joylarning tashqi va ichki issiqlik tarmoqlarini qayta tiklash ishlari amalga oshiriladi.

Davlat-xususiy sheriklik asosida qiymati 1,4 milliard yevrolik investitsiyalar hisobidan poytaxtning issiqlik ta'minoti tizimi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinadi. Natijada 440 mingta xonadon va 3,5 mingta ijtimoiy obyektlarning issiqlik ta'minoti yaxshilanadi.

Bulardan tashqari, 1,5 trillion so'm mablag'lar hisobidan 4,5 ming kilometr elektr tarmog'i, 1 ming 200 ta transformator modernizatsiya qilinadi, 4 ta yuqori kuchlanishli yangi podstantsiya quriladi.

Shuningdek, 30–40 yil oldin qurilgan ko'p qavatli uy-joylardagi 3 mingdan ortiq yaroqsiz liftlar yangisiga almashtiriladi, 5 mingdan ziyod ko'p qavatli uylarni ta'mirlash, 284 ta mahallalarda 480 ta bolalar maydonchasi qurishga 1 trillion so'm mablag' yo'naltiriladi.

Aytish joizki, joriy yilda poytaxt aholisi bilan uchrashganida, ular mahallalarni obod qilish bo'yicha oldinga ko'plab muam-molarni ko'tarib chiqishdi. Bularni hal qilish uchun har bir mahallaga 2 milliard so'm berilgani, mablag'lar jamoatchilik takliflari va ularning bevosita nazorati ostida sarflanayotgani o'z samarasini berdi.

Ushbu tajribani tizimli davom ettirib, ajratilayotgan mablag'larni yanada ko'paytiramiz. Buning uchun 575 ta mahallani rivojlantirish bo'yicha shahar hokimligi qoshida alohida jamg'arma tashkil etiladi hamda har bir mahallaga 10 milliard so'mdan ajratiladi.

Bu shahar bo'yicha qariyb 600 million dollar mablag' deganidir. Ushbu mablag'larning 5 milliard so'mi aholi takliflari asosida, ochiq va shaffof "Fuqarolar budjeti" tizimidan foydalanib, eng dolzarb bo'lgan ijtimoiy va kommunal loyihalarga sarflanadi.

Yana 5 milliard so'mi esa mahallada bandlikni ta'minlash, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi. Ushbu mablag'dan samarali foydalanishga yangi ish boshlaydigan hokim yordamchilari mas'ul bo'ladi.

Toshkent shahri hokimiyatida poytaxt iqtisodiyoti va urbanizatsiya masalalari bilan tizimli shug'ullanadigan ilmiy markaz ochiladi. Ushbu markaz aholi orasida doimiy so'rovlar o'tkazib, mavjud muammolarning ilmiy yechimlarini ishlab chiqadi.

Hurmatli saylovchilar!

“Toshkent – biznes uchun ulkan imkoniyatlar shahri” dasturini amalga oshirish orqali kelgusi besh yil ichida yalpi hududiy mahsulot hajmi 200 trillion so'mga yetkazilib, qariyb 2 barobarga o'sishi ta'minlanadi.

Kelajakda Toshkent shahrini ilg'or innovatsion va investitsion hududga aylantiramiz. Shaharda joylashgan og'ir sanoat korxonalarini poytaxt tashqarisiga bosqichma-bosqich ko'chiriladi. Poytaxtda yuqori texnologiyali innovatsion tarmoqlar – elektronika va elektrotexnika, IT injiniring, biotexnologiya korxonalarini joylashadi.

“O'zekspomarkaz” hududida Toshkent xalqaro moliyaviy markazi barpo etiladi va unda faoliyat yuritadigan xalqaro banklar, moliyaviy institutlar, yuridik, konsalting va investitsion kompaniyalarga qulay sharoitlar yaratiladi.

Ushbu Markaz nafaqat O'zbekiston, balki mintaqamiz uchun Investitsiyalar xabiga aylanadi. Buning uchun shaharda alohida ilg'or loyihalar va injiniring markazi ochiladi.

Shuningdek, kadrlar zaxirasini yaratish maqsadida “ta'lim – ilm – tadqiqot” tamoyili asosida har bir oliygohning o'quv dasturlari “yashil” va “raqamli” iqtisodiyotga yo'naltirish uchun transformatsiya qilinadi. Ushbu tizimning o'zagi Yangi O'zbekiston universiteti bo'ladi.

Har bir tumanda Innovatsiya va texnologiya markazi hamda “loyiha guruhlari” tashkil etilib, ularda davlat-xususiy sheriklik asosida alohida texnopark va IT maktabi faoliyat yuritadi.

Istiqbolli loyihalarga To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi 30 foiz ulush bilan kiradi va bunga 200 million dollar ajratiladi.

Yangi tashkil etiladigan O'zbekiston taraqqiyot banki tomonidan Toshkent shahri tadbirkorlariga qulay shartlarda uzoq muddatli kreditlar ajratish uchun 1 milliard dollar resurslar tijorat banklari orqali emas, balki to'g'ridan to'g'ri yo'naltiriladi.

Poytaxtga investitsiya va ilg'or texnologiyalarni hamda eng nufuzli xalqaro kompaniyalarni keng jalb qilish maqsadida, kelgusi yili "Toshkent xalqaro investitsiya forumi" o'tkaziladi. Bu orqali qo'shimcha 10 milliard dollar investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati yaratiladi.

Umuman, Toshkent shahrida keyingi besh yilda 14 milliard dollarlik 2 mingga yaqin investitsiya loyihasi amalga oshirilib, 250 mingta yangi ish o'rni tashkil etiladi.

Toshkent shahri atrofida "sanoat belbog'i" tashkil qilinib, Bektemir, Sergeli, Yashnobod va Yangihayot tumanlari yuqori daromad keltiruvchi sanoat tarmoqlariga moslashtiriladi. Ushbu tumanlarda 4 ta texnopark tashkil etiladi va 5 milliard dollarlik loyihalar doirasida 80 mingta yangi ish o'rinlari yaratiladi. Xususan, Yangihayot tumanida industrial texnoparkda qiymati 600 million dollarlik 119 ta loyihalar doirasida 18 mingta yangi ish o'rni tashkil etiladi. Misol uchun, PVXdan yo'l to'siqlari va yo'l qurilishi mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi doirasida 500 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Yashnobod tumanida "Texnopark" faoliyati kengaytirilib, o'quv va ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etiladi. Elektronika va elektrotexnika yo'nalishida 750 million dollarlik 55 ta istiqbolli loyihalar ishga tushiriladi. Bu orqali 15 mingta yangi ish o'rni yaratiladi. Birgina ushbu loyihalar doirasida 1 milliard dollarlik elektrotexnika mahsulotlari eksport qilinishiga erishiladi hamda yiliga budjetga qo'shimcha 400 milliard so'mdan ortiq tushum ta'minlanadi.

Yunusobod va Olmazor tumanlarida farmatsevtika sohasida 800 million dollar investitsiyalar hisobidan 21 ta loyiha ishga tushiriladi. Misol uchun, Yunusobodda 50 million dollarlik to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar asosida 31 ta yangi turdagi dori vositalari ish-

lab chiqariladi. Olmazorda qon kasalliklarini davolash vositalarini ishlab chiqarishga mo'ljallangan 30 million dollarlik loyiha amalga oshirilib, 250 ta yuqori daromadli yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Olmazor, Uchtepa, Chilonzor va Yangihayot tumanlarida oziq-ovqat sanoatida jahonga mashhur brendlar bilan hamkorlikda 550 million dollarlik 140 ta loyiha amalga oshiriladi. Natijada yiliga 2,2 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqariladi, 150 million dollarlik eksport yo'lga qo'yiladi, 10 ming aholi ish bilan ta'minlanadi.

To'qimachilik sohasida asosiy e'tibor dizayn ishlab chiqish hamda yirik investitsiyalar talab etadigan mato, furnitura va tikuvchilik uchun boshqa yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarishga qaratiladi. Bu borada Sergeli, Yangihayot, Uchtepa va Yashnobod tumanlarida 1 milliard dollarlik 68 ta loyiha amalga oshirilib, 8 mingta yangi ish o'rni yaratiladi. Shu bilan birga, poytaxtimizda xalqaro darajada ko'rgazmalar o'tkazish imkoniyatini beruvchi Savdo va ko'rgazma parki, alohida modalar ko'chasi tashkil etiladi.

"Sanoat belbog'i"ga kiradigan texnopark va yirik korxonalar atrofida logistika markazlari, bojxona terminallari tashkil etiladi. Jumladan, Yangihayot tumanidagi 200 gektar maydonda 1 million tonna quvvatga ega "Quruq port" tashkil etiladi. Barcha transport turlarini o'zaro bog'laydigan ushbu portda yuklarni to'plash, saqlash, rasmiylashtirish va jo'natish xizmatlari ko'rsatiladi. Shuningdek, mazkur "quruq port" Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi 248 ta "quruq port"ni birlashtiruvchi yagona tizim doirasida ishlaydi. Biz yaqinda bu bo'yicha xalqaro bitimga qo'shildik. Bu orqali tashqi savdo doirasida yuk tashish xarajatlarining 20 foizga arzonlashishiga erishiladi.

Shahar hududida joylashgan barcha bojxona yuk omborlari poytaxt tashqarisiga chiqariladi. Ishga tushiriladigan loyihalar hisobidan shahar eksporti 2 barobarga oshirilib, yiliga 2,5 milliard dollarga yetkaziladi. Eksportchi korxonalar soni 3 barobarga oshadi

hamda yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlarning eksportdagi ulushi hozirgi 42 foizdan 60 foizga yetkaziladi.

Hurmatli do‘stlar!

Mamlakatimizning eng yirik biznes, savdo, ta‘lim, tibbiyot va transport markazi bo‘lgan Toshkentda xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha ishga solinmagan juda katta zaxiralar mavjud. Bu – ham daromad manbai, ham tez tashkil etiladigan ish o‘rinlari hamda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish degani.

Yaqinda, 20-avgust kuni tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan “ochiq muloqot”da ko‘plab biznes vakillari soliq, bojxona, ro‘yxatdan o‘tish, infratuzilmaga ulanish kabi masalalar amalda yechilganini ta’kidlashdi.

Lekin, xabarim bor, shahar tadbirkorlarini eng qiynayotgan masala – bu yer uchastkasi va bino olish. Shu bois, shahardagi yer bilan bog‘liq masalalarni hal qilish maqsadida kelgusi yillarda 4 mingdan ortiq yer uchastkalari onlayn auksion savdolariga chiqariladi. Misol uchun, 67 kilometrlik Toshkent avtomobil halqa yo‘li bo‘yida barcha sharoitlarga ega zamonaviy xizmat ko‘rsatish obyektlari tashkil etiladi. Shuningdek, 300 dan ziyod davlat mulki obyektlari tadbirkorlarga sotiladi.

Davlat korxonalari faoliyatini transformatsiya qilish hamda shahar hududiga qo‘shilgan yerlarni rivojlantirish jarayonida bu imkoniyatlar yanada kengayadi.

O‘tkazilgan “ochiq muloqot” barchamiz uchun juda katta tajriba bo‘ldi. Bundan buyon har oyda shaharda tadbirkorlar bilan “muloqot haftaligi” o‘tkaziladi va bu doimiy amaliyotga aylanadi. Hukumat a‘zolari, respublika, shahar va tuman darajasidagi barcha rahbarlar tadbirkorlar bilan uchrashib, ularning muammolarini o‘rganadi hamda hal etish choralarini ko‘rib boradi.

Bu – har yili 20-avgustda o‘tkaziladigan ochiq muloqotga tayyorgarlik uchun o‘ziga xos “platforma” bo‘lib xizmat qiladi.

Xabaringiz bor, saylovoldi dasturida har bir tumanda Tadbirkorlar kengashini tashkil qilish eʼlon qilingan edi. Ushbu tajribani Toshkent shahridan boshlaymiz. Bunda har bir tumandan eng obroʻli, ilgʻor tadbirkorlar orasidan Kengash aʼzolari saylanadi. Bosh vazir qabulxonasi ushbu Kengashning ishchi organiga aylanadi.

Ular “tadbirkorlarning ovozi” boʻlib, hokim va tumanning boshqa rahbarlari oldiga aniq masalalar qoʻyadi, “muloqot haftaligi”ni tashkillashtirib, ijrosini nazorat qilib boradi. Bu, avvalo, biznes va tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlaydigan xizmatlar koʻlamini keskin oshiradi.

Xizmatlar sohasida Yunusobod va Mirobodda – biznes va moliya, Yakkasaroyda – turizm, Uchtepada – savdo, Mirzo Ulugʻbekda – taʼlim va IT, Shayxontohurda – turizm va sogʻliqni saqlash sohalari rivojlantirilib, 9 milliard dollarlik loyihalar amalga oshiriladi. Yunusobodda qiymati 220 million dollar boʻlgan biznes markaz va mehmonxona kompleksi ishga tushirilib, 2 mingta yangi ish oʻrni yaratiladi.

Kelgusi besh yilda xorijdan keladigan mehmonlarni 3 million nafarga yetkazib, turizm xizmatlari hajmini 1 milliard dollarga olib chiqish boʻyicha barcha imkoniyatlar bor.

Savdo sohasining iqtisodiyotdagi oʻrnini oshirish, boshqa tarmoqlar uchun “drayver”ga aylantirish uchun eng katta masala – bu savdo maydonlarining yetarli emasligidir. Misol uchun, soʻnggi ikki yilda shaharda savdo maydonlari 2 barobarga oshgan boʻlsa-da, ularning hajmi yirik megapolislarga nisbatan 10–15 baravarga past. Shuning uchun kelgusi besh yilda shahardagi savdo maydonlari 10 barobarga oshiriladi.

Buning uchun 44 ta yirik savdo va koʻngilochar markazlari ishga tushiriladi, har bir tumanda tun-u kun faoliyat koʻrsatadigan savdo va koʻngilochar koʻchalar barpo etiladi, yangi qurilayotgan uy-joylar va biznes markazlarining pastki qavatlarini xizmat koʻrsatish va savdo sohasiga ixtisoslashtiriladi.

Savdo va xizmatlar sohasidagi tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida yangi mehmonxonalar va 5 ming kvadrat metrdan katta savdo komplekslari besh yil davomida mol-mulk solig'ini 2 barobar past stavkada to'laydilar. Qurilgan binolarning amortizatsiya xarajatlarini ikki yil davomida to'liq qoplash orqali ularga foyda solig'ini kamaytirish imkoniyati yaratiladi.

Shahar mahallalarida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga yiliga 1 trillion so'm yo'naltiriladi. Aholini kasb-hunarga o'qitib, tadbirkorlikka jalb qiladigan mikrokredit tashkilotlariga 100 milliard so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratiladi. Shahar yoshlarini yuqori daromad keltiruvchi kasblarga o'rgatish maqsadida 11 ta kreativ texnologiyalar markazi ochiladi. Ularda veb-ishlanmalar, grafik dizayn, robototexnika, raqamli media kabi yo'nalishlar bo'yicha yiliga 5 ming nafar yoshlarimiz zamonaviy kasblarga tayyorlanadi.

Bu islohotlar natijasida yangi tadbirkorlar soni kamida 3 barobarga oshiriladi, 510 mingta yangi ish o'rinlari yaratiladi hamda o'zini o'zi band qilish tizimi orqali qo'shimcha 250 ming nafar aholi bandligi ta'minlanadi.

"Ijtimoiy reyestr"ga kiritilgan oilalarga har yili 400 milliard so'm ajratiladi.

Kelgusida mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish va yangi ish joylarini yaratish uchun mas'ul bo'lgan, tumandagi mahallalarga birlashtiriladigan hokim yordamchilari lavozimlari joriy etiladi. Ularning o'z "budget"i bo'lib, ehtiyojmand oilalarga subsidiyalar ajratish, jamoat ishlariga jalb qilish, yoshlarni kasbga o'qitish hamda aholi bilan ijtimoiy shartnoma tuzish huquqi beriladi. Shuningdek, ular har bir mahallaga ajratiladigan 10 milliard so'm mablag'larni maqsadli va samarali ishlatilishini tashkillashtiradi.

Umuman olganda, kelgusi besh yilda poytaxtning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga davlat hisobidan 70 trillion so'm ajratiladi.

Hurmatli saylovchilar!

Tez rivojlanib borayotgan shahrimizni raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bugungi kunda shahrimizda deyarli har bir voyaga yetgan inson uyali telefondan keng foydalanmoqda, har bir xonadonga Internet jadal kirib bormoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni yanada kengaytirish – davr talabi.

Kelgusi besh yilda shaharda Internet tezligini 5 barobarga, raqamli xizmatlar hajmini 3 barobarga oshirish rejalashtirilgan. Shu maqsadda “Raqamli Toshkent” va “Aqlli shahar” dasturlari amalga oshiriladi. Mazkur dasturlar doirasida shaharda quriladigan har bir ko'p qavatli uy-joy, ta'lim, tibbiyot, madaniyat va boshqa obyektlarning yuqori tezlikdagi Internet tarmog'i bilan jihozlanishi shartligi belgilab qo'yiladi.

Mavjud 2 mingta tibbiyot tashkilotlari, bog'cha, maktab, oliy-goh va mahalla idoralari yuqori tezlikdagi Internet tarmog'iga ulanadi. Shuningdek, barcha metro stansiyalari, avtobus bekatlari va boshqa jamoat joylari simsiz Internet tarmog'i bilan ta'minlanadi. Davlat xizmatlari va pensiya tizimi to'liq raqamlashtiriladi. Shahar aholisi uchun yagona tibbiy karta, tibbiy sug'urta va elektron retsept axborot tizimlari ishga tushiriladi.

Barcha tumanlarda “Xavfsiz shahar” tizimi joriy etilib, sun'iy intellekt qurilmalaridan keng foydalangan holda aholi gavjum joylar, dam olish maskanlari, vokzal va aeroportlar hamda chorahalarda shaxsni identifikatsiya qilish imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, Mirzo Ulug'bek tumanida “IT park” foydalanishga topshirilib, raqamli mahsulotlar hajmi 100 million dollarga yetkaziladi.

Bunda zamonaviy moliyaviy texnologiyalar, telemeditsina, elektron tijorat, transport va logistikada masofaviy boshqaruv, onlayn ta'lim kabi raqamli xizmatlar keng joriy etiladi. Bu orqali axborot texnologiyalari sohasida 21 mingta yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Hurmatli yurtdoshlar!

Shahar sog'liqni saqlash tizimida bir qator muammolar yig'ilib qolgani aholimizning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda. Mavjud 76 ta poliklinikaning yarmida diagnostika uskunalari 20–30 yildan beri ishlatib kelinadi. Shuningdek, 74 ta shifoxonadan 35 foizi kam quvvatli, 5 tasi ko'p tarmoqli tibbiy xizmatlarni ko'rsata oladi, xolos. Sergeli va Yangihayot tumanlarida birorta shifoxona yo'q. Mirobod, Yakkasaroy, Yunusobod va Bektemir tumanlarida esa tug'ruqxona mavjud emas.

Yakkasaroydagi 3-sonli bolalar yuqumli kasalliklari shifoxonasi, Shayxontohurda joylashgan bolalar kardio-revmatologiyasi, Yunusobodagi 7-sonli shifoxonalardagi sharoitlar ayniqsa ayanchli ahvolda.

Shu bois, Toshkent shahrida "Sog'lom turmush va sifatli tibbiyot" dasturini amalga oshiramiz.

Avvalambor, birlamchi bo'g'inda:

– poytaxtning 575 ta mahallasida "tibbiyot brigadalari" tashkil etilib, ular tomonidan diabet, ayollar onkologiyasi, homila nuqsoni, kamqonlik va parazitar kasalliklar bo'yicha skrining tekshiruvlari amalga oshiriladi;

– 13 ta yangi oilaviy poliklinika quriladi, 25 tasi to'liq ta'mirlanib, eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlanadi;

– barcha bolalar shifoxonalari va tug'ruqxonalar ta'mirlanib, jihozlanadi;

– ayollar onkologiyasi, ko'z va sil kasalliklarini barvaqt aniqlash maqsadida 5 ta tibbiy diagnostika avtobusi orqali shahar mahallalari va yirik korxonalarda muntazam skrining tadbirlari yo'lga qo'yiladi;

– kelgusi yilda 50 ta va keyinchalik yana 100 ta tez tibbiy yordam mashinasi olinadi, shu orqali chaqiruvga kechikish holatlariga barham beriladi.

Mirobod, Yakkasaroy, Yunusobod va Yangihayot tumanlarida poliklinika, diagnostika markazi, zamonaviy laboratoriya,

tug'ruqxona va ko'p tarmoqli shifoxonani o'zida qamrab olgan tibbiyot klasterlari tashkil etiladi. Natijada shahar shifoxonalarida 30 turdagi xirurgiya, 15 turdagi endokrinologiya va 12 turdagi kardiologiya yangi davolash amaliyotlari joriy etiladi. Bu – respublika ixtisoslashgan tibbiyot markazlariga murojaatlarni 4 barobarga kamaytiradi.

Ushbu maqsadlar uchun kelgusi besh yilda budjetdan 2 trillion so'm mablag' ajratiladi. Shu bilan birga, kelgusi ikki yilda poytaxt aholisi uchun davlat tibbiy sug'urta tizimini joriy etish boshlanadi.

Yana bir masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Xalq orasida "Yangi ToshMI" deb tanilgan Toshkent tibbiyot akademiyasining 1,1 ming o'rinli klinikasi 40 yildan beri biror marta kapital ta'mirlanmagan. Ushbu klinikani kelgusi besh yilda tibbiyot tizimining "flagman"iga aylantirish dasturi amalga oshiriladi. Shuningdek, tutash hududda eng ilg'or xorijiy texnologiyalar asosida Respublika onkologiya va radiologiya tibbiyot markazi barpo etiladi.

Hurmatli do'stlar!

Yangi O'zbekiston kelajagi sifatli ta'lim tizimi bilan bevosita bog'liq. Kelajakda har bir soha va tarmoqning xalqaro miqyosda raqobatdosh bo'lishi uchun, avvalambor, ta'lim tizimida keskin o'zgarishlar qilishimiz zarur. Shuning uchun "Bilim va innovatsiyalar shahri" dasturi amalga oshiriladi.

Bugungi kunda 117 ta mahallada bog'cha mavjud emas. Mazkur muammoni hal qilish va poytaxtliklarning ehtiyojidan kelib chiqqan holda, ushbu mahallalarda maqbul yer uchastkalari ajratilib, bog'cha qurish uchun auksionga chiqariladi. Shuningdek, 200 ta davlat bog'chasi rekonstruksiya qilinib, to'liq jihozlanadi. Natijada maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 80 foizdan 100 foizga yetkaziladi.

Ko'p bora ta'kidlaganimizdek, **"Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi"**. Kelgusi besh yilda barcha yangi uy-

joy mavzellarida maktablar quriladi va mavjud 180 ta maktab rekonstruksiya qilinadi.

Shahardagi aholining daromadlarini inobatga olib, xususiylar ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirishni qo'llab-quvvatlaymiz. Buning uchun shaharda aholi talabi asosida 100 ta qulay yer tanlanib, maktab barpo etish uchun auksion orqali tadbirkorlarga maqsadli ravishda beriladi.

Ayrim shahar maktablarida bitta sinfda 45–50 tagacha bolajonlarimiz o'qiyotganidan yaxshi xabardorman. Davlat bog'chasiga farzandini beraman deb oylab, hatto yillab navbat kutayotgan oilalar ham bor. Shu bois, farzandlarini xususiylar bog'cha va maktabga bergan ota-onalar yengilliklar berishimizni kutayapti.

Endi xususiylar maktab va bog'chalar uchun oylik 3 million so'mgacha to'lovdan daromad solig'i olinmaydi. Bu – har bir farzand to'lovidan oyiga 400 ming so'mgacha mablag' ro'zg'orda qoladi, degani.

Qancha qurilish kerak bo'lsa, qilib beramiz, lekin meni bezovta qilayotgan asosiy masala, bu – poytaxt maktablaridagi ta'lim sifati va bolalarimiz tarbiyasi. Misol uchun, Olmazor, Uchtepa, Shayxontohur, Bektemir tumanlarida oliygohlarga kirish darajasi respublikadagi o'rtacha ko'rsatkichdan past. Ayniqsa, Shayxontohurda 5 ta va Olmazorda 4 ta maktab bitiruvchilarining bor-yo'g'i 5–6 foizi oliygohlarga kira olgan. Shu bilan birga, poytaxt maktablarida o'quvchilarga kasb-hunar berish ishlari hali tizimli yo'lga qo'yilgani yo'q. Bundan tashqari, 23 ming nafar pedagoglarning yarmidan ko'pi malaka toifasiga ega emas.

Shularni hisobga olgan holda, poytaxtda ta'lim sifatiini yaxshilash maqsadida Toshkent tajribasi yaratiladi. Buning uchun har bir tumanga xorijdan malakali mutaxassislarni jalb qilib, "Ilg'or ta'lim" pedagoglarni o'qitish markazi tashkil qilinadi. Shuningdek, eng zamonaviy metodikalar va dasturlar asosida 23 mingdan ziyod pedagoglarning malakasi oshiriladi. Barcha

xorijiy tillar va IT o'qituvchilari kelgusi uch yilda xalqaro sertifikatlarga ega bo'lishi uchun zarur choralar ko'riladi.

Bugungi kunning muhim talablaridan biri shuki, o'quvchilar maktabni kamida bitta kasb-hunarni egallagan holda tamomlashlari shart. Shu maqsadda maktablarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishga ko'maklashadigan alohida lavozim kiritiladi. Ular kasbga o'rgatishning yangi tizimi asosida 9–11-sinf o'quvchilarini turli korxonalarda 3 oy davomida ish o'rganishini tashkillashtiradi. Bunda kasb o'rganayotgan o'quvchilarga ish haqi davlat tomonidan to'lanadi.

Bugungi kundagi yana bir dolzarb masala – bu bola tarbiyasi. Shu bois, o'quvchilarning kun davomida vaqtini mazmunli o'tkazishni nazarda tutuvchi alohida o'quv va to'garaklar dasturi ishlab chiqiladi. Bu masalada ota-onalar bilan maktab o'rtasida “o'zaro majburiyatlar shartnomasi” tuziladi. Unda ota-ona bolaning ta'lim-tarbiyasi uchun nimaga javob beradi-yu, muallimlar qanday majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi, bularning barchasi aniq-aniq belgilab qo'yiladi.

Har bir maktab atrofida joylashgan mahalla, oliygoh va korxon vakillaridan iborat “ziyolilar guruhlari”ning ishi faollashtiriladi.

Bugungi kunda poytaxt oliygohlarida 250 ming talaba ta'lim olmoqda. Kelgusi besh yilda bu ko'rsatkich 2 barobarga oshadi. Shundan kelib chiqib, “Yoshlar shaharchasi”ning quvvatlari kengaytiriladi va uning infratuzilmasi yangilanadi. Yangi O'zbekiston ko'chasi bo'ylab, bir nechta oliygohlarni bog'lagan holda, 25 ming o'rinli kampuslar tashkil etiladi. Kamida 20 ta oliygohning ta'lim dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o'tkaziladi. Milliy universitet va Texnika universiteti jahonning nufuzli reytinglariga kirishi bo'yicha alohida dastur qabul qilinadi.

Shuningdek, kelgusi besh yilda nufuzli xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda zarur bo'ladigan yangi kasblar bo'yicha kamida 10 ta yangi oliygoh tashkil etilib, poytaxtdagi jami oliy o'quv

yurtlari soni 31 taga yetadi. Shuningdek, magistraturada ta'lim olish uchun Toshkent shahridagi xorijiy va nodavlat oliygohlarga 200 ta hamda xotin-qizlar uchun davlat oliygohlariga 500 ta davlat granti beriladi. Har bir talabaga oyiga 5 Gigabayt bepul internet berish tizimi ham joriy qilinadi.

Yoshlarning yangi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Yangi O'zbekiston" bog'i atrofida "Zakovat" klubining binosini hamda "Intellectual o'yinlar shaharchasi"ni barpo etamiz.

Ma'lumki, Mingo'rik, Binkat, Choch, Shosh, Toshkent nomlari bilan atalgan azim poytaxtimiz doimo Markaziy Osiyoning bepoyon hududlarida nafaqat davlatchilikning markazi, balki ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat gurkirab rivojlangan shahar bo'lgan. E'tibor qiling, shu vaqtlardayoq Toshkentda "Donishmandlar mahallasi" mavjud bo'lgan va bu joyda o'z davrining eng yetuk ilm-ma'rifat namoyandalari faoliyat yuritgan.

Biz bu an'analarni davom ettirgan holda, poytaxtda ilm-fanni yanada rivojlantirish, bunga iste'dodli yosh olimlarni keng jalb qilish bo'yicha alohida dasturni amalga oshiramiz. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun Innovatsion rivojlanish vazirligi va Fanlar akademiyasi orqali olimlarning ilm-fan va innovatsiya sohalaridagi yangi tadqiqotlariga 100 million dollar ajratamiz. Jumladan, 70 million dollar ilmiy ishlanmalar va ularni iqtisodiyotning real sohalariga joriy etishga, qolgan qismi esa "Yoshlar shaharchasi"da joylashgan "Innovatsion xab" orqali startap loyihalariga beriladi.

Ushbu jarayonlarda barcha yoshlar erkin qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunga nufuzli xorijiy ekspertlar jalb qilinib, har bir loyiha ochiq tanlov asosida saralab olinadi. Shuningdek, IT park negizida Ilmiy innovatsiyalar markazi tashkil etilib, unga har yili 30 milliard so'm ajratiladi. Yosh olimlarning ilmiy maqola va materiallarini eng nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda chop etish xarajatlari ham budjetdan qoplab beriladi.

Aziz hamshaharlar!

“Poytaxt – madaniyat va ma’rifat bulog’i”, deb bejiz aytganimiz yo‘q. Bugungi kunda Toshkent shahrida 40 dan ziyod teatr va muzeylar, 60 dan ortiq konsert, tomosha va kinozallar, ochiq maydonlar, 30 ga yaqin istirohat bog‘lari va xiyobonlar mavjud. Bundan tashqari, madaniyat va san‘at yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlari, jumladan, Madaniyat va san‘at instituti, Konservatoriya, Milliy musiqa san‘ati instituti, Xoreografiya akademiyasi, Milliy estrada san‘ati instituti ham Toshkent shahrida joylashgan.

Ushbu ulkan salohiyatdan unumli foydalanib, poytaxtning 575 ta mahallasiga madaniyat ruhini yanada kengroq olib kirishimiz kerak. Shu bois, har bir mahallada madaniy hayotni boyitish bo‘yicha takliflarni sizlar bilan baham ko‘rmoqchiman.

Bu borada Toshkent shahrida Madaniyatni keng targ‘ib qilish jamg‘armasini tashkil etamiz. Ushbu Jamg‘arma hisobidan har bir mahallada oyida kamida bir marta taniqli aktor va xonandalar, san‘at va adabiyot namoyandalari bilan uchrashuvlar o‘tkaziladi. Mahalla, park va ochiq maydonlarda sayyor spektakl va konsertlar tashkil qilinadi. Bunga viloyat teatrlari, san‘atkorlar, baxshilar, maqomchilar ham jalb qilinadi. Shahar teatrlariga borish uchun mahallalar orqali bepul biletlar tarqatiladi. Haftada bir kun shahar muzeylariga kirish bepul bo‘ladi. Madaniyat va san‘at, til va adabiyot oliygohlari mahallalarda madaniy tadbirlarni tashkil qilishga bosh-qosh bo‘ladi.

Ushbu tadbirlar “Mahalla” va boshqa telekanallar orqali keng yoritiladi. Bu ishlarimiz haqiqatda “mahallada duv-duv gap” bo‘lib, milliy madaniyatimizni xalqimiz qalbidan chuqur joy olishiga ishonaman.

O‘ylaymanki, shahar faollari ushbu takliflarimni qo‘llab-quvvatlaydilar. Shu bilan birga, madaniyat sohasiga ham e‘tibor kuchaytirilib, 20 ta madaniyat markazlari quriladi va rekonstruksiya qilinadi.

Kelgusi yillarda sirk binosini zamonaviy talablar asosida ta'mirlaymiz hamda tarixiy Xadra maydonini qayta tiklaymiz. Bunda ushbu maskanni Toshkent shahar aholisi va poytaxtimiz mehmonlari, ayniqsa, bolajonlarimizning madaniy va ma'naviy hordiq chiqarishlari uchun yaxlit zamonaviy majmua sifatida tashkil etamiz. 2023-yilda Toshkent shahrida "Xalqaro sirk san'ati" festivalini ham aynan shu maydonda o'tkazishni taklif etaman.

Shuningdek, bolajonlarning yana bir sevimli maskani bo'lgan Toshkent hayvonot bog'i bo'yicha yangi konsepsiya ishlab chiqilib, davlat-xususiy sherikchilik tamoyili asosida tubdan rivojlantiriladi va poytaxtimizning eng gavjum go'shalaridan biriga aylantiriladi.

Sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Sport musobaqalari bo'yicha Osiyo va Jahon chempionatlarini o'zimizda o'tkazish bo'yicha boshlangan ishlarimizni davom ettirib, Toshkent shahrida 2024-yilgacha "Olimpiya shaharchasi" quriladi.

Kelgusi yilda Shayxontohurda 2,5 ming tomoshabinga mo'ljallangan zamonaviy muz saroyi ishga tushiriladi. Yangihayot tumanida yoshlarning muntazam sport bilan shug'ullanishiga sharoit yaratish maqsadida jami quvvati 2,5 ming o'rinli universal sport kompleksi barpo etiladi.

Yangi tariximizda ilk bor shu yil dekabr oyida Og'ir atletika bo'yicha jahon chempionatiga Toshkent shahri mezbonlik qiladi. 2022-yilda dzyudo, 2023-yilda boks bo'yicha jahon chempionatlari, 2025-yilda Yoshlar Osiyo o'yinlari ham aynan poytaxtimizda o'tkaziladi.

Aziz do'stlar!

O'zbek xalqining akademik shoiri G'afur G'ulom bir paytlar el-yurtimizning ezgu orzusini ifoda qilib, Toshkenti azimni ulug'lab: **"London, Parij, Rumoga alishmayman, ko'hna Shosh!"** – deb faxr bilan yozganini barchamiz yaxshi bilamiz.

Men ishonaman, siz, azizlar bilan, mard va oliyjanob xalqimiz bilan birgalikda fidokorona mehnat qilib, azim poytaxtimizni hamma havas qiladigan, dunyodagi eng go'zal, ilm-fan va innovatsiyalar, madaniyat yuksak darajada rivojlangan zamonaviy shaharga aylantiramiz. Buning uchun bizda barcha kuch va imkoniyatlar bor. Biz bunga albatta qodirmiz!

Barchamizni kamolot, baxt-saodat sari yetaklagan, beqiyos imkon yaratib bergan, o'zining samimiy mehrini ayamagan ona shahrimiz – jonajon Toshkentimiz dunyo turguncha tursin!

Hamisha ulug' maqsadlar bilan yashaydigan, doimo oldingi saflarda bo'lib kelayotgan Toshkent ahli, butun xalqimiz omon bo'lsin!

Barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonadoningizga fayz-u baraka tilayman.

Barchangizga katta rahmat.

*Toshkent shahri,
2021-yil 19-oktabr*

**O‘Z KUCHIMIZ, O‘Z MEHNATIMIZ,
MUSTAHKAM IRODAMIZ BILAN
HAR QANDAY YUKSAK MARRANI
EGALLASHGA QODIRMIZ**

*(Jizzax viloyati saylovchilar vakillari bilan
uchrashuvdagi nutq)*

Assalomu alaykum, hurmatli vatandoshlar!

Qadrli do'stlar!

So'zimning avvalida sizlarga va sizlarning timsolingizda mehnatkash va oliyjanob Jizzax ahliga o'zimning chuqur hurmat-ehтиromimni bildiraman.

Fursatdan foydalanib, barchangizni, butun xalqimizni bugungi qutlug' ayyom – "O'zbek tili bayrami kuni" bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Men mana shu qadimiy va tabarruk zaminda tug'ilib o'sganimdan, unga farzandlik mehri bilan bog'langanimdan hamisha faxrlanaman. Bugun ham huzuringizga ulkan mehr va sog'inch bilan sizlarning oq fotiha va ezgu duolaringizni olish uchun keldim, desam, ko'nglimdagi gapni aytgan bo'laman.

Muhtaram vatandoshlar!

Xabaringiz bor, Prezident saylovi munosabati bilan barcha hududlarimizda xalqimiz vakillari bilan bir oy davomida uchrashuvlar o'tkazdim. Bu uchrashuvlarda men avvalo el-yurtimiz, fuqarolarimizning fikri, hayotga qarashi va munosabati tubdan o'zgarib borayotganini yana bir bor chuqur his qildim.

Bu – keyingi besh yil davomida biz erishgan eng katta natijalardan biri, desak, yanglishmagan bo'lamiz. Chunki dunyoqarashning o'zgarishi – eng muhim yutuq. Insonning ongi va tafakkuri o'zgarsa – uning hayoti albatta yaxshi tomonga o'zgaradi.

Bo'lib o'tgan uchrashuvlarda aholi faqat o'z shahri yoki qishlog'i emas, balki butun mamlakatimiz hayotiga daxldor bo'lgan yangi taklif va tashabbuslarni o'rtaga tashlayotgani, ularning bugungi islohotlarga, crtangi kunga ishonchi kun sayin mustahkam bo'lib borayotgani, xalqimiz yangi O'zbekistonni bunyod etish-

ga har tomonlama tayyor ekanini ko'rib, odam xursand bo'ladi, albatta.

Bugun xalq bilan uchrashuvlarda mo'tabar nuroniylarimizning duolari, mehribon va munis opa-singillarimizning orzu-niyatlari, sanoat korxonalarida, ijtimoiy sohalarda va dalalarda halol mehnat qilayotgan yurtdoshlarimizning shijoati, navqiron yoshlarimizning yonib turgan ko'zlarida bir narsani yaqqol sezish mumkin. Bugun ko'pmillatli xalqimiz bitta o'y, bitta fikr bilan yashamoqda. Ular biz boshlagan xalqchil islohotlarga katta xayrixohlik va ishonch bilan qarab, mehnatimizning hosilini, samarasini tezroq ko'rishni istamoqda.

Bularning barchasi xalqimizning xohish-irodasi asosida tanlab olgan taraqqiyot yo'limiz har tomonlama to'g'ri ekanini anglatadi.

Men xalqimizning orzu-niyatlarini ro'yobga chiqarishni – butun O'zbekistonimiz qatori Jizzax viloyatini ham tubdan rivojlantirishni o'zim uchun eng asosiy maqsad qilib belgilaganman.

Aziz yurtdoshlar!

Biz Jizzax deganda ko'hna tarixi, qadriyat va udumlari, oriyatli va zahmatkash insonlari bilan nom taratgan diyorni tasavvur etamiz.

Bu hududdagi tarixiy yodgorliklar, noyob arxeologik topilmalar Jizzax vohasining azaldan sivilizatsiya va madaniyat beshiklaridan biri bo'lganini ko'rsatadi.

Mana shu tabarruk zaminda buyuk bobolarimiz – sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bekning o'chmas izlari qolgan. Bobur Mirzo o'z hayotining qiyin va mashaqqatli davrlarida bu vohadan mehr va panoh topgani, uzoq yillar o'ziga safdosh bo'lgan jizzaxlik mard va jasur o'g'lonlar haqida yozgan xotiralari "Boburnoma" sahifalari orqali yaxshi ma'lum.

Tarixning turli davrlarida yunon, arab, mo'g'ul bosqinlariga qarshi kurashlar, o'tgan asr boshlarida yuz bergan Jizzax qo'zg'oloni bu xalq hamisha o'z erki va ozodligi uchun mardona kurashib yashaganidan dalolat beradi.

Ma'lumki, dunyoda bola huquqlari bo'yicha dastlabki qonuniy me'yorlar 1804-yili Fransiya fuqarolik kodeksiga kiritilgan, deb hisoblanadi.

Biroq Jizzax vohasida kamol topgan huquqshunos alloma Ustrushoniy XIII asrdayoq "Bola huquqlari majmuasi" degan noyob asarini yaratib, go'dakning ona qornida paydo bo'lgan paytidan boshlab, voyaga yetguniga qadar bo'lgan huquqlarini mukammal bayon etib bergan.

Hamangiz yaxshi bilasiz, bugun yurtimizda bolalar huquqlarini himoya qilish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Bolalar Ombudsmani institutini tashkil etdik. Farzandlarimiz uchun yangi-yangi bog'cha va maktablar, madaniyat, san'at va sport muassasalarini barpo etmoqdamiz.

Shuningdek, Mehribonlik uylari tubdan ta'mirlanib, barcha zarur sharoitlar yaratilmoqda. Jizzaxdagi Mehribonlik uyi ham o'tgan yili kapital ta'mirdan chiqarilib, to'liq qayta jihozlangani sizlarga yaxshi ma'lum, albatta.

Lekin nomini "Mehribonlik uyi" deb ataganimiz, har qancha zo'r sharoit yaratganimiz bilan, baribir, bu dargohlar ota-ona, oilaning o'rnini bosa olmaydi.

Shu maqsadda, oilaviy bolalar uylarini tashkil etmoqdamiz. Mehr-oqibatli, bag'rikeng yurtdoshlarimiz ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni o'z oilalariga farzandlikka qabul qilayotgani ham-mamizni xursand qiladi.

Bunday saxovatpesha insonlar Jizzax viloyatida ham ko'plab topiladi. Mana, masalan, Sharof Rashidov tumanida yashovchi Dilbar Qarshiboyeva o'z xonadonida oilaviy bolalar uyini tashkil qilib, besh nafar bolani farzandlikka olgani alohida tahsinga sazovordir.

O'z navbatida, ulug' huquqshunos alloma Ustrushoniy bobomizning tabarruk xotirasini abadiylashtirish maqsadida Jizzax shahrining markaziy ko'chalaridan biriga uning nomini bersak, nima deysizlar?

Agarki, jizzaxlik olimlar, ijodkor, ziyolilar, jurnalistlar, jamoatchilik vakillari vohada yashab o'tgan ulug' allomalarning bebaho merosini har tomonlama chuqur o'rganish, bu mavzuda ilmiy tadqiqotlar, kitob va risolalar yaratish hamda keng targ'ib etish ishlarini boshlasalar, men ularning bu harakatlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga tayyorman.

Qadrli yig'ilish qatnashchilari!

Biz bugun yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni Yangi O'zbekiston strategiyasining asosi sifatida belgiladik.

Milliy taraqqiyot g'oyasi esa o'tgan asrning boshida maydonga chiqqan ma'rifatparvar bobolarimizning hayotiy dasturi bo'lgani barchamizga ma'lum.

Butun umrini shu ezgu maqsadga bag'ishlagan mashhur jadid bobolarimiz qatorida jizzaxlik ma'rifatparvarlarning ham munosib o'rni borligini alohida e'tirof etishimiz kerak. Jumladan, Husan domla, Ochil qori, Mulla Egamberdi, Toshpo'lat domla singari ziyoli insonlar bu yerda yangi usuldagi jadid maktablarini ochib, yosh avlodni ma'rifatli qilishga intilganlar.

Jizzaxlik yana bir taniqli shaxs – Nuriddin hoji Ma'rufxo'ja esa 1902-yilda shaxsiy mablag'i hisobidan Eski shahar mavzesida bilim dargohi barpo etgan. Eng muhimi, u yerda qizlarni ham o'qitish yo'lga qo'yilgan.

Ana shunday fidoyi insonlardan yana biri, Baxmal tumanida tug'ilib o'sgan iste'dodli adib Anqaboy Xudoybaxtov matbuot, adabiyotshunoslik va dramaturgiya sohalarida salmoqli ishlarni amalga oshirgan. Afsuski, u umrining ayni gullagan vaqtida – 35 yoshida, 1938-yilda buyuk safdoshlari Fitrat, Qodiriy, Cho'lponlar singari qatag'on qurboni bo'lgan.

Turli davrlarda yurtimiz ozodligi yo'lida jonini fido qilgan mard va vatanparvar ota-bobolarimiz haqida tarixiy haqiqatni chuqur o'rganish va xalqimizga yetkazish, ularning xotirasini abadiylashtirish biz uchun ham qarz, ham farzdir.

Hamrangiz yaxshi eslaysiz, bundan besh yil muqaddam biz ezgu niyatlar bilan Jizzax viloyatida xalqimizning atoqli farzandlari – Hamid Olimjon va Zulfiya opaga bag‘ishlab yodgorlik majmuasi, ular nomidagi ijod maktabi, muzey va xiyobon tashkil qilgan edik. Bu ikki ulug‘ ijodkorning hayoti chinakam vafo va sadoqat dostonidir.

Atoqli davlat va jamoat arbobi Sharof Rashidov xotirasiga nisbatan tarixiy adolatni tiklash maqsadida sobiq Jizzax tumanini u kishining nomi bilan atab, viloyat markazida bu ulug‘ zot sharafiga muhtasham xiyobon va haykal barpo etganimiz xalqimiz qalbidan, yangi O‘zbekiston tarixidan alohida o‘rin egalladi. Mana shunday ishlarimizning davomi sifatida yaqinda samarqandlik saylovchilar bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Sharof Rashidov tahsil olgan Samarqand davlat universitetiga u kishining nomini berish haqida tashabbus qilganimizdan ham xabaringiz bor, albatta.

Jizzax viloyatining iqtisodiy-ijtimoiy ravnaqi yo‘lida unutilmas xizmatlar qilgan mohir paxtakor Hamroqul Nosirov, mashhur quruvchi O‘rish Majidov, davlat idoralarida samarali faoliyat yuritgan Ubaydulla To‘raqulov, Sarvar Xudoyorov, taniqli olim va ijodkorlar Nazir Safarov, Sarvar Azimov, Asil Rashidov, Orifjon Ikromov, Muhammadjon Xolbekov, O‘rol Nosirov, Sa‘dulla Hakim, milliy madaniyatimiz rivojiga katta hissa qo‘shgan Orifxon Hotamov, Eson Lutfullayev singari san‘at darg‘alarining xotirasini bugun hurmat bilan tilga olamiz.

Yaqinda Jizzax pedagogika institutida Eson Lutfullayev nomidagi yosh maqomchilar ansambli tashkil etilgani xayrli ish bo‘ldi.

O‘zbekiston xalq hofizi, atoqli bastakor Orifxon Hotamovning madaniyatimiz rivojiga qo‘shgan ulkan hissasini e‘tiborga olib, Jizzax shahrida Orifxon Hotamov nomidagi maqom san‘ati va mumtoz qo‘shiqchilik bo‘yicha respublika tanlovini o‘tkazsak, o‘ylaymanki, har tomonlama o‘rinli bo‘ladi.

Xabaringiz bor, 2017-yili viloyat musiqali drama teatri butunlay qaytadan bunyod etildi. Farzandlarimiz uchun muhtasham

qo'g'irchoq teatri barpo etdik. Biz albatta bunday ma'naviyat maskanlarini hali ko'plab bunyod etamiz.

Ma'lumki, yaqin vaqtgacha viloyatda bor-yo'g'i 2 ta oliy o'quv yurti mavjud edi. Keyingi yillarda bu yerda yana 3 ta oliygohni tashkil qildik.

Bugungi shiddatli taraqqiyot davri oldimizga qo'yayotgan talablar hamda viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, Jizzax davlat pedagogika institutiga Universitet maqomini bersak, bu taklifga nima deysizlar?

Bugun Jizzax shahridagi oliygozlarda 31 mingdan ziyod talaba ta'lim olmoqda. Aholi va talaba yoshlarning xohish-istaklarini inobatga olib, shahardagi Forum majmuasi hududida zamonaviy kutubxona barpo etishni taklif qilaman.

Shu o'rinda, Jizzax viloyati – mohir chavandozlar yurti desam, mubolag'a bo'lmaydi. G'allaorol, Baxmal, Zomin, Forish, Sharof Rashidov tumanlarida chavandozlik, ko'pkari kabi milliy sport o'yinlari bo'yicha o'ziga xos an'ana va qadriyatlar shakllangan.

Ana shularni inobatga olib, Jizzaxda Yilqichilik va ot sportini rivojlantirish markazini tashkil etsak, maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylayman.

Hurmatli uchrashuv qatnashchilari!

Men bugun davramizda o'tirgan, Jizzax viloyatining faxri va g'ururiga aylangan qadrdonlarimni ko'rib turganimdan behad xursandman.

Jizzaxning tabarruk tuprog'ini ulug'lab, uning shon-shuhratini dunyoga tarannum etib kelayotgan Parda Ziyotov, Anorboy Eshmatov kabi Qahramon fermerlarimiz, Norqul Nusharov, Erkin Xolmatov, Abdullajon Turdiqulov, O'ng'or O'rinboyev, Islom Subhonqulov singari boy bilim va tajribaga ega faxriylarimizning nomlarini ehtirom bilan tilga olamiz.

Hotam Umurov, O'rishboy Yo'ldoshev, Abdug'ofur Mamatov, Xolbo'ta To'raqulov, Umarqul Rahmonqulov, Olga Xvan, Baxti Ochilova, Zulfiya Pardayeva singari zahmatkash olim va

pedagoglar, Bahrullo Lutfullayev, Ramiz Usmonov, Jo'ra Isroilov, Ergash Muhammad, Soyim Is'hoq, Shuhrat Jabborov, Abulqosim Mamarasulov, Mehri Abdurahmonova, Zulfiya Yo'ldosheva, Muharram Abduxalilova singari madaniyat va san'at, adabiyot va matbuot sohasi vakillariga yangi yutuqlar yor bo'lsin deymiz.

Xolida Alimova, Sanobar Suyarova, Bozorgul To'rayeva, Larina Pak, Mariya Safonova kabi faol xotin-qizlarimizning jamiyatimiz hayotidagi o'rnini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi.

Bobo-Usmon Boturov, Shohsanam Toshpo'latova, Maftuna Meliyeva kabi iste'dodli sportchi va murabbiylarga alohida tashakkur aytamiz.

Mana shunday shijoatli va jonkuyar insonlarni tarbiyalab yetishtirgan tabarruk zaminga, bag'rikeng va saxovatli Jizzax xalqiga farzandlik mehrim bilan bosh egib, ta'zim qilaman.

Muhtaram yurtdoshlar!

Biz yangi O'zbekistonni qurishning birinchi kunlaridan boshlab **"Xalq davlatga emas, davlat xalqqa xizmat qiladi"**, degan siyosatni eng ustuvor vazifa va tamoyil sifatida o'zimizga belgilab oldik. Shu ulug' maqsad yo'lida dastlabki muhim qadamlarni qo'ydik.

Barchangiz yaxshi bilasizlar, ilgari uzoq yillar mobaynida Jizzaxga Markazdan yetarli e'tibor berilmagani oqibatida viloyatning ko'plab sohalarida tizimli muammolar yig'ilib qolgan. Shuncha tabiiy resurslar va qazilma boyliklar bo'la turib, viloyatda birgina "Akkumulator zavodi" va paxta tozalash korxonalaridan boshqa sanoat deyarli yo'q edi.

So'nggi besh yilda amalga oshirgan islohotlarimiz natijasida Jizzaxda ham sezilarli o'zgarishlar ko'zga ko'rinib qoldi. Xususan, viloyatga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 8,5 barobarga, to'g'ridan to'g'ri xorijiy sarmoyalar 14 barobarga ko'paygan. Shuningdek, 3 mingdan ziyod yangi loyihalar ishga tushirilib, sanoat mahsulotlari hajmi bir necha barobarga oshdi.

Maktabgacha ta'lim qamrovi 16 foizdan 67 foizga yetkazildi. Aholi uchun 11 ming xonadonli uylar qurildi.

Shu bilan birga, viloyatdagi mavjud muammolarni barchamiz juda yaxshi bilamiz. Shu bois, erishilgan natijalarga mahliyo bo'lmagan, viloyatdagi 80 mingdan ziyod ishsizlar bandligini ta'minlashimiz, har yili mehnat bozoriga kirib keladigan 30 mingga yaqin yoshlarimizning kelajagi uchun mustahkam zamin yaratishimiz shart.

Buning uchun viloyatda hosildor yer, qazilma boyliklar, mehnatkash aholi va qulay transport koridorlari mavjud. Shulardan kelib chiqib, kelgusi besh yilda **“islohotlarimiz inson qadrini ulug'lash uchun”** tamoyili asosida shahar, tuman, mahalla va qishloqlarni rivojlantirish, xalqimizga munosib turmush sharoitini yaratish bo'yicha yangi reja va dasturlarni siz, aziz hamyurtlarim bilan maslahat qilmoqchiman.

Hurmatli saylovchilar!

Jizzax viloyatini, avvalambor, “zamonaviy sanoat karvon-boshilari”dan biriga aylantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratamiz.

Buning uchun nostandart yondashuvlar, Jizzax erkin industrial hududi, logistika va sanoat zonalarini hamda boshqa imkoniyatlardan keng foydalanamiz. Jumladan, menda katta qiziqish uyg'otgan Hindiston tajribasi asosida viloyatda “Jizzaxda ishlab chiqarish” sanoat dasturini amalga oshiramiz. Ushbu dasturda zamonaviy korxonalarini tashkil etish, muhandislik-infratuzilmaga ulanishga ko'maklashish, qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha barcha imtiyoz va preferensiyalar nazarda tutiladi.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun investitsiyalar va tashqi savdo vaziri o'rinbosari boshchiligida “Investorlarga ko'mak markazi” tashkil etiladi. Bu borada o'zaro yordam va amaliy hamkorlik bo'yicha Hindiston rahbariyati bilan kelishuvga erishildi.

Shuningdek, har bir tumanda loyihalarni ishlab chiquvchi “Loyiha guruhi” va tadbirkorlar ishtirokidagi “Xolding kompaniyasi” tashkil etiladi. Ushbu loyihalarning 30 foizgacha qismi To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi tomonidan moliyalashtiriladi.

pedagoglar, Bahrullo Lutfullayev, Ramiz Usmonov, Jo'ra Isroilov, Ergash Muhammad, Soyim Is'hoq, Shuhrat Jabborov, Abulqosim Mamarasulov, Mehri Abdurahmonova, Zulfiya Yo'ldosheva, Mu-harram Abduxalilova singari madaniyat va san'at, adabiyot va matbuot sohasi vakillariga yangi yutuqlar yor bo'lsin deymiz.

Xolida Alimova, Sanobar Suyarova, Bozorgul To'rayeva, Larina Pak, Mariya Safonova kabi faol xotin-qizlarimizning jamiyatimiz hayotidagi o'rnini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi.

Bobo-Usmon Boturov, Shohsanam Toshpo'latova, Maftuna Me-liyeva kabi iste'dodli sportchi va murabbiylarga alohida tashakkur aytamiz.

Mana shunday shijoatli va jonkuyar insonlarni tarbiyalab yetishtirgan tabarruk zaminga, bag'rikeng va saxovatli Jizzax xalqi-ga farzandlik mehrim bilan bosh egib, ta'zim qilaman.

Muhtaram yurtdoshlar!

Biz yangi O'zbekistonni qurishning birinchi kunlaridan boshlab **"Xalq davlatga emas, davlat xalqqa xizmat qiladi"**, degan siyosat-ni eng ustuvor vazifa va tamoyil sifatida o'zimizga belgilab oldik. Shu ulug' maqsad yo'lida dastlabki muhim qadamlarni qo'ydik.

Barchangiz yaxshi bilasizlar, ilgari uzoq yillar mobaynida Jizzaxga Markazdan yetarli e'tibor berilmagani oqibatida viloyatning ko'plab sohalarida tizimli muammolar yig'ilib qolgan. Shuncha tabiiy resurslar va qazilma boyliklar bo'la turib, viloyatda birgina "Akkumulator zavodi" va paxta tozalash korxonalaridan boshqa sanoat deyarli yo'q edi.

So'nggi besh yilda amalga oshirgan islohotlarimiz natijasida Jizzaxda ham sezilarli o'zgarishlar ko'zga ko'rinib qoldi. Xususan, viloyatga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 8,5 barobarga, to'g'ridan to'g'ri xorijiy sarmoyalar 14 barobarga ko'paygan. Shuningdek, 3 mingdan ziyod yangi loyihalar ishga tushirilib, sanoat mahsulotlari hajmi bir necha barobarga oshdi.

Maktabgacha ta'lim qamrovi 16 foizdan 67 foizga yetkazildi. Aholi uchun 11 ming xonadonli uylar qurildi.

Shu bilan birga, viloyatdagi mavjud muammolarni barchamiz juda yaxshi bilamiz. Shu bois, erishilgan natijalarga mahliyo bo'lmisdan, viloyatdagi 80 mingdan ziyod ishsizlar bandligini ta'minlashimiz, har yili mehnat bozoriga kirib keladigan 30 mingga yaqin yoshlarimizning kelajagi uchun mustahkam zamin yaratishimiz shart.

Buning uchun viloyatda hosildor yer, qazilma boyliklar, mehnatkash aholi va qulay transport koridorlari mavjud. Shulardan kelib chiqib, kelgusi besh yilda **“islohotlarimiz inson qadrini ulug'lash uchun”** tamoyili asosida shahar, tuman, mahalla va qishloqlarni rivojlantirish, xalqimizga munosib turmush sharoitini yaratish bo'yicha yangi reja va dasturlarni siz, aziz hamyurtlarim bilan maslahat qilmoqchiman.

Hurmatli saylovchilar!

Jizzax viloyatini, avvalambor, “zamonaviy sanoat karvon-boshilari”dan biriga aylantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratamiz.

Buning uchun nostandart yondashuvlar, Jizzax erkin industrial hududi, logistika va sanoat zonalari hamda boshqa imkoniyatlardan keng foydalanamiz. Jumladan, menda katta qiziqish uyg'otgan Hindiston tajribasi asosida viloyatda “Jizzaxda ishlab chiqaring” sanoat dasturini amalga oshiramiz. Ushbu dasturda zamonaviy korxonalarni tashkil etish, muhandislik-infratuzilmaga ulanishga ko'maklashish, qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha barcha imtiyoz va preferensiyalar nazarda tutiladi.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun investitsiyalar va tashqi savdo vaziri o'rinbosari boshchiligida “Investorlarga ko'mak markazi” tashkil etiladi. Bu borada o'zaro yordam va amaliy hamkorlik bo'yicha Hindiston rahbariyati bilan kelishuvga erishildi.

Shuningdek, har bir tumanda loyihalarni ishlab chiquvchi “Loyiha guruhi” va tadbirkorlar ishtirokidagi “Xolding kompaniyasi” tashkil etiladi. Ushbu loyihalarning 30 foizgacha qismi To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi tomonidan moliyalashtiriladi.

Har bir tumanga yiliga 30 million dollargacha, sanoat sohasi kam rivojlangan Yangiobod, Zafarobod, Mirzacho'l, Do'stlik va Baxmal tumanlariga 40 million dollargacha mablag' ajratib boriladi.

Viloyatda kelgusi besh yilda umumiy qiymati 12 milliard dollar bo'lgan 4 mingdan ziyod katta, o'rta va kichik investitsiya loyihalari amalga oshirilib, 120 mingta yangi ish o'rinlari yaratiladi. Ushbu loyihalarda zamonaviy mashinasozlik, elektrotexnika, energetika, qurilish materiallari, oziq-ovqat, to'qimachilik, charm-poyabzal kabi sohalarga alohida e'tibor qaratiladi.

Jumladan, "Jizzax" erkin iqtisodiy zonasi hududi kengaytirilib, 800 million dollarlik 90 dan ortiq sanoat loyihasi amalga oshiriladi va 15 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Hisob-kitoblarimizga ko'ra, iqtisodiyot va aholi daromadlari o'sishi tufayli hozirgi kunda avtomobilsozlik mamlakatimiz sanoatining eng yirik tarmoqlaridan biriga aylandi. Kelgusi besh yilda aholimizning avtomobillarga bo'lgan talabi yiliga 500–600 mingga yaqin bo'lishi kutilmoqda. Shuningdek, ushbu sanoat tarmog'i qishloq xo'jaligi, qurilish, kommunal soha uchun ham texnika va asbob-uskunalar ishlab chiqaradi.

Shuni inobatga olib, viloyatda avtomobil sanoatiga ixtisoslashgan yirik klaster tashkil etiladi. Ushbu klaster tayyor avtomobil va butlovchi qismlar ishlab chiqarish, konstruktorlik, logistika, kadrlar tayyorlash sohaslarini ham qamrab oladi.

Jumladan, Jizzax shahri, Paxtakor va Sharof Rashidov tumanlarida 500 million dollarlik 60 ta loyiha amalga oshirilib, ham avtomobil, ham butlovchi qismlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi, mahalliyashtirish 60 foizga yetkaziladi. Xususan, Sharof Rashidov tumanida qiymati 100 million dollarlik loyiha hisobidan avtomobillar uchun kuzov panellari, plastik qismlar, o'rindiqlar, yoqilg'i baklari va boshqa butlovchi hamda ehtiyot qismlar ishlab chiqariladi.

Bugun biz sizlar bilan tadbir o'tkazayotgan korxonalar ham mana shunday yirik loyihalardan biridir. Bu yerda Amerika va Yevropaning nufuzli injiniring kompaniyalari bilan birga, tajriba-konstruktorlik

va dizaynerlik markazi tashkil etiladi. Natijada 2026-yilga kelib, viloyatda ushbu tarmoq 13 trillion soʻmdan ortiq mahsulotlarni ishlab chiqaradi.

Viloyatda “nol”dan tashkil etilgan sanoat tarmoqlaridan yana biri – bu qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati hisoblanadi. Ayniqsa, sement va bazaltdan qurilish mahsulotlarini eng zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarish ilk bor Jizzaxdan boshlandi.

Kelgusida bu ishlar uzviy davom ettirilib, viloyatda 1,3 milliard dollar boʻlgan 310 ta loyiha amalga oshiriladi. Jumladan, Forish, Baxmal, Zafarobod va Yangiobod tumanlarida 56 ta konlar oʻzlashtirilib, ixtisoslashgan klasterlar tashkil etiladi.

Masalan, Forish tumanida bazalt toshi chuqur qayta ishlanib, kompozit quvur, mineral plita, armatura, sunʼiy tola, geosetka kabi mahsulotlar ishlab chiqaradigan texnopark tashkil etiladi. Unda 700 million dollarlik 13 ta loyiha amalga oshiriladi. Natijada mazkur tarmoqning ishlab chiqarish hajmi 3 barobarga koʻpayib, yiliga 450 million dollarga yetadi.

Yuqoridagi sohalarni rivojlantirish uchun metallurgiya sanoatini yanada kengaytirishimiz shart. Buning uchun viloyatdagi tabiiy resurs va imkoniyatlar bilan bir qatorda, boshqa hududlar va qoʻshni davlatlar bilan kooperatsiyaga asoslangan hamkorlik imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur.

Gʻallaorol tumanida metallurgiya sohasiga ixtisoslashgan, yillik 1,5 million tonna quvvatga ega boʻlgan “mega” kompleks loyihasining boshlanishi ham bu borada katta imkoniyat eshiklarini ochadi. Mazkur kompleks ishga tushirilgandan soʻng, yiliga 1,5 milliard dollarlik 50 turdagi metall mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Shuningdek, Forishdagi “Uchquloq” konida 120 million dollar xorijiy investitsiya hisobidan yiliga 500 ming tonna ruda qayta ishlanadi va 1 mingta yangi ish oʻrni yaratiladi.

Gʻallaoroldagi Qoʻytosh volfram koni tiklanib, “Savruk” va “Koʻkbuloq” mahallalaridagi 500 nafar aholining bandligi taʼminlanadi.

Yana bir masalaga e'tibor bering. Bugungi kunga qadar Jizzax viloyatida birorta ham elektr energiyasini ishlab chiqarish quvvatlari bo'lmagan. Shu bois, bu sohada 1 milliard dollarlik yirik loyihalar amalga oshirilib, quvvati 1 ming 200 megavatt bo'lgan elektr stansiyalari barpo etiladi.

Misol uchun, G'allaorolda Birlashgan Arab Amirligining "Masdar" kompaniyasi tomonidan 150 million dollar sarmoya hisobidan quvvati 220 megavatt bo'lgan quyosh elektr stansiyasi ishga tushiriladi.

To'qimachilik sanoatiga ixtisoslashgan Paxtakor, Arnasoy, Zarbdor, Sharof Rashidov tumanlari va Jizzax shahrida 550 million dollarlik 67 ta yangi korxonalar faoliyati yo'lga qo'yiladi. Misol uchun, Arnasoyda 25 million dollarlik mato bo'yash va unga gul bosish loyihasi doirasida 1 mingta doimiy ish o'rni yaratiladi.

Shuningdek, viloyatda yiliga 50 ming tonna sun'iy tola ishlab chiqarish quvvatlari bosqichma-bosqich ishga tushiriladi. Natijada ip-kalava ishlab chiqarish hajmi 1,7 barobar, gazlama mato 5 barobar, trikotaj mato 1,5 barobar va tayyor mahsulot 3 barobarga oshiriladi.

Oziq-ovqat sanoatida 720 million dollar bo'lgan 250 ta loyiha doirasida 10 mingta yangi ish o'rinlari tashkil etiladi. Bunda yuqori salohiyatga ega hisoblangan meva-sabzavot, go'sht va sutni chuqur qayta ishlashni rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi.

Jumladan, Sharof Rashidov tumanida to'liq xorijiy investitsiyalar hisobidan 270 ming tonna mahsulotlarni qayta ishlash va 30 ming tonna mahsulotni saqlash quvvatlariga ega bo'lgan "Mega-agrologistika kompleksi" ishga tushiriladi.

Charm-poyabzal sanoatida Do'stlik, G'allaorol va Sharof Rashidov tumanlari hamda Jizzax shahrida 128 million dollarlik 30 ta loyiha amalga oshiriladi va 11 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Masalan, Sharof Rashidov tumanida charm mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat zonasi tashkil etiladi va 16 ta

loyiha amalga oshirilishi natijasida eksport hajmi 5 barobarga oshib, 100 million dollarga yetkaziladi.

Farmatsevtika sanoatida imkoniyat katta bo'lgan Baxmal, Zomin, Forish, G'allaorol tumanlarida qiymati 350 million dollarlik 42 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, 15 mingta yangi ish o'rinlari yaratiladi. Ushbu maqsadlar uchun har bir tumanda ming gektardan plantatsiyalar tashkil etilib, dorivor o'simliklar yetishtirish va chuqur qayta ishlash bo'yicha 4 ta klaster barpo etiladi.

Eng muhimi, sanoati past bo'lgan Yangiobod, Zafarobod, Mirzacho'l, Do'stlik va Baxmal tumanlarida yangi korxonalar tashkil etishni qo'llab-quvvatlash maqsadida, bu hududlarga kiritilgan investitsiyalar va yangi loyihalarga uch yilgacha soliq va bojxona imtiyozlari beriladi. Shuningdek, "bir darcha" tamoyili asosida oilaviy tadbirkorlik va kichik biznes uchun mini texnologiyalarni yetkazib berish, ularni 100 ming dollargacha moliyalashtirish va o'qitish xizmatlari yo'lga qo'yiladi. Bu maqsadlar uchun 100 million dollar imtiyozli resurslar ajratiladi.

Islom taraqqiyot banki va Saudiya Arabistoni Hukumati bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish jamg'armasi"dan viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun yana 100 million dollar yo'naltiriladi. Bu orqali 25 ming nafar aholining bandligi ta'minlanadi.

Umuman, viloyatda kichik sanoat zonalari soni 23 tadan 40 taga yetkaziladi hamda ularda 201 million dollarlik 375 ta katta-kichik loyiha amalga oshirilib, 10 mingta yangi ish o'rinlari tashkil etiladi.

Viloyatdagi iqtisodiy zonalarni infratuzilma bilan ta'minlashga budjetdan 320 milliard so'm yo'naltiriladi.

Hududga faol investitsiyalar, yirik xorijiy kompaniyalarni jalb qilish maqsadida viloyatda har yili Xalqaro industrial Forumni o'tkazishni taklif etaman.

Yana bir muhim masala – raqobat tobora kuchayib borayotgan davrda yoshlarimiz yuqori texnologiyalarni mukammal egallashi

shart. Jizzax viloyati bu sohada tashabbus ko'rsatib, viloyatda IT sohasidagi maktab, park va oliygohni qamrab olgan IT klasteri tuziladi. Ushbu maqsadlar uchun viloyatda kerakli infratuzilmani rivojlantirishga 200 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi.

Endi har yili Jizzaxning shijoatli yoshlari o'rtasida tanlov o'tkazilib, g'olib bo'lgan "eng zo'r biznes g'oyalar" uchun bepul biznes-reja tayyorlanadi va ular moliyalashtirib boriladi. Bu tadbirlar uchun Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi jamg'armasidan 100 milliard so'm beriladi.

Viloyatning yana bir ustun sohasi hisoblangan transport-logistika yo'nalishida ham loyihalar yanada ko'paytiriladi. Jumladan, Mirzacho'lda Qozog'iston, Yangiobodda Tojikiston bilan chegaradosh hududlarda erkin savdo zonasi va agrologistika markazi tashkil etiladi. Sharof Rashidov tumanidagi sobiq "Osiyo bozori" o'rnida yirik ulgurji savdo markazi quriladi. Shuningdek, viloyatda har yili qo'shni davlatlar biznes vakillari uchun "Xalqaro yarmarka" o'tkazish yo'lga qo'yiladi.

Viloyat eksport hajmi kelgusi 5 yilda 3,2 barobarga ortib, yillik 620 million dollarga, shundan sanoat mahsulotlari eksporti 500 million dollarga yetkaziladi. Bunda eksport tarkibida qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ulushi 23 foizdan 75 foizga yetadi.

Har bir tumandan 10 tadan salohiyatli korxonalar saralab olinib, ularni tashqi bozorga olib chiqish dasturlari ishlab chiqiladi. Bu maqsadlar uchun 50 million dollar imtiyozli mablag' beriladi.

Qadrli yurtdoshlar!

Bir haqiqatni alohida aytib o'tmoqchiman. So'nggi yillarda viloyatga tadbirkorlik ruhi kirib kelgani, aholi ertangi kuniga ishonib biznesini boshlayotgani har bir tuman, shahar va mahallada yaqqol sezilmoqda. Bu sa'y-harakatlar aholi daromadlarini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda muhim o'rin tutishini inobatga olib, viloyatda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik uchun imkoniyatlarni yanada kengaytiramiz.

Birinchi galda, Jizzax viloyati kelgusi besh yilda yoshlar tadbirkorligi bo'yicha namunali hududga aylantiriladi. Buning uchun 50 mingdan ziyod yoshlar – tadbirkorlikka, 28 ming nafari – talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga o'rgatiladi. Bu ishlarga yiliga 50 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi. Yoshlarning tadbirkorlik loyihalari uchun 1 trillion so'm kredit ajratilib, 26 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Bundan tashqari, 15 ta yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari barpo qilinib, yosh tadbirkorlarning 840 ta loyihalari amalga oshiriladi. Natijada 10 mingta yangi ish o'rinlari tashkil etiladi. Yosh tadbirkorlarga asbob-uskunalar sotib olishi uchun subsidiyalar ajratish hisobidan 12 ming nafar aholining bandligi ta'minlanadi.

Bu ishlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 299 ta mahallaning har birida vatanparvar, bilimli, shijoatli, yangilikka chanqoq yoshlar orasidan "hokim yordamchilari" tayinlanadi. Ular bundan buyon mahallada asosiy islohotchi bo'lib, o'z "budjet"iga hamda tegishli vakolat va imkoniyatlarga ega bo'ladi. Mahalladagi uyushmagan yoshlar, ishsizlar va tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagi bo'lganlarning ro'yxatini tuzib, ularning ehtiyoji va layoqatini aniqlash, tadbirkorlik ko'nikmalariga va kasb-hunarga o'qitish ishlarini tashkil etadi. Shuningdek, banklar bilan hamkorlikda oilaviy tadbirkorlik va kooperatsiya loyihalarini ishlab chiqish, kredit olish va ishga tushirishda aholiga yaqindan ko'maklashadi.

Bundan tashqari, viloyatda ayollarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatish bo'yicha ham yangi tajriba yo'lga qo'yiladi. Buning uchun har bir tumanda talab yuqori bo'lgan tikuvchilik, pazandalik, sartaroshlik, hunarmandchilik kabi yo'nalishlarda "ayollar biznes markazlari" tashkil etilib, 25 ming xotin-qizlar kasbga davlat hisobidan o'rgatiladi. Har yili viloyatda "100 nafar faol tadbirkor ayol" tanlovi o'tkazilib, ularga 100 million so'mgacha imtiyozli kredit ajratiladi. Viloyatda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun 200 milliard so'm yo'naltiriladi. Bu mablag'ni, ishlatilishiga qarab, yana ko'paytirishga tayyorman.

Umuman olganda, viloyatda oilaviy tadbirkorlik dasturlari uchun har yili kamida 600 milliard so‘m imtiyozli kredit ajratiladi.

Viloyatning geografik joylashuvi, betakror va so‘lim tabiati bu yerda ichki va tashqi turizmni rivojlantirish uchun keng imkon beradi. Shulardan kelib chiqqan holda, Zomin, Forish, Baxmal tumanlari va “Aydar-Arnasoy” ko‘llar tizimida qo‘shimcha turistik zonalar va dam olish maskanlarini barpo etish bo‘yicha 300 million dollarlik loyihalar amalga oshirilib, 25 ming ish o‘rinlari yaratiladi.

Buning uchun maxsus dastur qabul qilinib, unda quyidagilar nazarda tutiladi:

- Jizzax shahridagi temir yo‘l vokzalidan ushbu hududlardagi turistik majmualarga tezyurar avtobuslar qatnovi yo‘lga qo‘yiladi;

- Toshkent shahri va boshqa hududlardan uyushgan holda keladigan turistlarga transport xarajatlarining bir qismi qoplab beriladi;

- ushbu tumanlarning turizm obyektlariga yo‘l va elektr tarmoqlarini tortish uchun 200 milliard so‘m ajratiladi;

- aholi xonadonlarida “oilaviy mehmon uylari”ni yo‘lga qo‘yish uchun o‘quv markazi tashkil etiladi va imtiyozli kreditlar, subsidiya va yangi yengilliklar paketi joriy etiladi;

- ushbu tumanlardagi turizm sohasidagi tadbirkorlar uchun maxsus soliq rejimi tatbiq etiladi. Bunda uch yil davomida aylanmadan olinadigan soliq va ijtimoiy soliqni 1 foiz stavkada, mol-mulk, yer, suv soliqlarini hisoblangan summadan bor-yo‘g‘i 1 foizini to‘laydi;

- yo‘l bo‘ylarida savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko‘rsatish obyektlari quriladi.

Shuningdek, “Zomin” turistik hududida zamonaviy tog‘-chang‘i kompleksi, tog‘-dor yo‘li, 8 ta sihatgohdan iborat “rekreatsion zona” barpo etiladi.

Umuman, viloyatda kichik biznes va xizmatlar sohasida “mahallabay” ishlash orqali 100 mingta yangi ish o‘rinlari tashkil etiladi.

Muhtaram do'stlar!

Bu zamin yeri hosildorligi, maydonining bepoyonligi va barcha turdagi mahsulot yetishtirish uchun mos kelishi bilan alohida ajralib turadi. Lekin shu vaqtgacha bu salohiyatni ishga sola olmaganimiz ham haqiqat.

Birgina misol, paxta yetishtirish qancha mashaqqat va ovo-ragarchiliklar, katta sarf-xarajatlar bilan amalga oshirilgani, hatto dekabrda ham paxta terilgani hali hammamizning yodimizda. Yaratilgan imkoniyatlar, klasterlar tashkil etilgani, investitsiya va texnika olib kelingani bugun o'z samarasini bermoqda. Bu yil yetishtirilgan mo'l-ko'l hosilni o'zingiz ko'rdingiz.

Fursatdan foydalanib, qariyb 260 ming tonnalik paxta xirmonini bunyod etib, yuzi yorug' bo'lgan dehqon va fermerlarimiz hamda klasterlar rahbar va ishchilarini samimiy tabriklab, ularga chuqur minnatdorlik bildiraman.

Bundan buyon yerdan olinadigan iqtisodiy samarani keskin ko'paytirish agrar sohadagi islohotlarning asosiy maqsadi bo'ladi.

Hozirgi paytda bir gektar yerdan olinayotgan o'rtacha daromad 1 ming dollarni tashkil etayotgan bo'lsa, uni 5 barobargacha oshirish choralarini ko'rish zarur.

Buning uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

– 100 ming gektar paxta va g'alla maydonlarida zamonaviy agrotexnologiyalarni qo'llash hamda yangi navlarni joriy etish hisobidan hosildorlik paxta yetishtirish bo'yicha o'rtacha 60 sentnergacha, g'alla hosildorligi esa 90 sentnergacha olib chiqiladi;

– bu maydonlarda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish uchun 500 milliard so'm subsidiya beriladi;

– 78 ming gektar ekin maydonining suv ta'minoti va 40 ming gektar yerning meliorativ holatini yaxshilash choralari ko'riladi. Buning uchun budjetdan 1,5 trillion so'm ajratiladi.

Bir narsaga e'tibor bering. Yuqorida agrologistika markazlari haqida gapirdik. Ularning samarali faoliyat yuritishi uchun yiliga

1 million tonna sifatli, xalqaro standartlarga javob beradigan, sertifikatlangan meva-sabzavot kerak. Ushbu mahsulotlarni yetishtirishni hozirning o'zidan reja qilib, har bir tumanda tizimli ishlarni tashkil qilishimiz lozim. Ana shu maqsadda 16 ming gektar paxta va g'alla maydonlari hosildorlikni oshirish hisobidan qisqartirilib, aholiga 50 sotixgacha uzoq muddatli ijaraga beriladi. Buning natijasida 35 ming aholi bandligini ta'minlash imkoni ham yaratiladi.

Masalan, Sharof Rashidov tumanidagi "Bobur" va "Abduolimov" hududlaridagi aholi o'z tomorqasidagi uzum va anor orasiga takroriy va to'qsonbosti ekinlarini ekish bo'yicha katta tajribaga ega. Shundan kelib chiqib, ushbu hududlarda paxta va g'alla o'rnida bog' va tokzorlar barpo etilib, qator orasidan 3-4 marta hosil olish tashkil qilinadi.

Bundan tashqari, 15 mingta xonadonda ixcham issiqxonalar qurish uchun imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratiladi.

Suv ta'minoti og'ir bo'lgan 125 ta mahallada 700 ta quduq qazilib, 13 mingdan ortiq xonadonning suv ta'minoti yaxshilanadi.

Kelgusi besh yilda foydalanishdan chiqqan va lalmi yerlar bo'lgan 160 ming gektar maydon o'zlashtirilib, bu yerlarda kooperatsiya usulida mahsulot yetishtirish yo'lga qo'yiladi. Bunda yangi yondashuv joriy etilib, tanlab olingan yer maydonlari auksionga qo'yiladi va yerlarni o'zlashtirish uchun har bir gektar uchun 10 million so'mgacha subsidiya belgilanadi.

Bu tajribani Do'stlik, Arnasoy, Yangiobod, G'allaorol, Baxmal, Zomin va Forish tumanlarida oborotdan chiqqan 10 ming gektar maydondan boshlaymiz. Ushbu yerlarda dehqonchilik qiladigan tadbirkorlar yer solig'ini gektariga 1 so'm miqdorida to'laydilar.

Shuningdek, Zafarobodda qurilayotgan suv inshooti hisobidan Forishda 20 ming gektar o'zlashtirilib, intensiv bog', yong'oqzor va uzumzor barpo qilinadi, kartoshka, sabzavot, poliz, moyli va dukkakli mahsulotlar yetishtiriladi. Natijada 30 ming aholi ish bilan ta'minlanadi.

Bundan tashqari, Baxmal, G'allaorol, Zomin, Sharof Rashidov, Zarbdor va Yangiobod tumanlarida 42 ta klaster korxonasi tashkil qilinib, 50 ming gektar maydonlarda tokzor va intensiv bog'lar barpo etiladi.

Yana bir loyiha. Joriy yilda 55 gektar adir yerlarda za'faron o'simligidan olingan hosil Italiyaga 2 million dollarga eksport qilingan. Ya'ni bir gektardan 36 ming dollardan daromad olingan. Bu loyiha 40 million dollar investitsiyalar hisobiga kengaytirilib, Baxmal va Zominda za'faron plantatsiyalari 2 ming gektarga yetkaziladi.

Xuddi shuningdek, Zarbdor, Zafarobod va Forishda 3 ming gektar yangi maydonlarda qovunchilik klasterlari barpo etilib, 5 mingta ish o'mi yaratiladi.

Zomin va Zarbdor tumanlarida yirik chorvachilik kompleksini tashkil etish bo'yicha qiymati 200 million dollarlik loyihani boshlaganmiz. Bu respublikadagi eng yirik loyiha bo'lib, ilg'or texnologiyalar asosida ozuqa tayyorlash, zotdor nasl olish, go'sht-sut ishlab chiqarish va qayta ishlash kabi barcha jarayonni qamrab olgan.

Shu bilan birga, viloyatda kelgusi besh yilda go'sht, sut, tuxum va baliq yetishtirish hajmi 2 barobarga oshiriladi. Buning uchun viloyatga xorijdan 35 ming bosh naslli qoramol, 70 ming bosh qo'y-echki olib kelinadi va o'zlashtirilgan yerlar hisobidan 40 ming gektar ozuqa ekinlari uchun ajratiladi.

G'allaorol, Zarbdor, Zomin, Sharof Rashidov va Jizzax tumanlarida qo'shimcha 150 million dona tuxum va 20 ming tonna parranda go'shti ishlab chiqarish bo'yicha 700 milliard so'mlik loyihalar ishga tushiriladi.

Shuningdek, aholi xonadonlarida parranda boqish orqali 25 mingta oila qo'shimcha daromad olish imkoniga ega bo'ladi.

Aydanko'l atrofidagi sun'iy ko'llarda aholi bilan birga, kooperatsiya usulida, 100 ming bosh o'rdak, g'oz va kurka boqish bo'yicha klaster faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Ko'p yillardan buyon muammoli masala bo'lib kelayotgan "Aydar-Arnasoy" ko'llari hududida ekologik barqarorlikni saqlash bo'yicha alohida dasturni amalga oshiramiz. Avvalo, "Aydar-Arnasoy" ko'llarini "Do'stlik" va "Janubiy Mirzacho'l" kanallari orqali to'yintirish ishlarini yakuniga yetkazamiz. Natijada birgina Do'stlik kanali orqali har yili 500 million kub metrgacha qo'shimcha suv tashlash imkoni yaratiladi.

Shuningdek, 6 ming gektar sun'iy suv havzalarida baliq yetishtirish bo'yicha hosildorlikni 4–5 barobarga oshirish va xonadonlarda intensiv usulda baliq boqishni ko'paytirish hisobidan viloyatda baliq mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 50 ming tonnaga yetkaziladi.

Masalan, Sharof Rashidov tumanidagi klaster baliq yetishtirishni kooperatsiya asosida tashkil qilib, xonadonlarda yetishtirilgan 1 ming tonna baliqni sotib olib, qayta ishlashni yo'lga qo'ygan. Buning hisobidan bitta xonadon o'rtacha 20 million so'mdan qo'shimda daromad olmoqda.

Shu bilan birga, klaster qoshida tashkil etilgan o'quv markazida har yili ming nafar yoshlar intensiv usulda baliq yetishtirish va uzumchilik bo'yicha tadbirkorlik faoliyatiga o'qitilmoqda. Bu kabi ilg'or klasterlar tajribasi barcha tumanlarda joriy etiladi.

Aziz vatandoshlar!

Mamlakatimizning har bir aholisi, xususan, jizzaxliklar ham bugundan yaxshi yashashi, uyi yorug' va issiq, mahalla va ko'chalari obod bo'lishi kerak. Busiz xalqimizni rozi qila olmaymiz.

Shu bois, biz "Obod qishloq", "Obod mahalla" dasturlarini birinchi bor 2018-yilda Jizzax viloyatida boshlab, Manas qishlog'i hamda Mirzacho'l tumani markazini qisqa muddatda obod qildik. Bu borada Jizzaxda orttirilgan tajriba butun mamlakatimiz uchun o'rnak va namuna bo'ldi, desak, bu ham adolatdan bo'ladi.

Shu ishlarni davom ettirish maqsadida "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida 208 ta qishloq va mahallada keng ko'lamli obodonlashtirish va qurilish-ta'mirlash ishlari amalga

oshiriladi va bu maqsadlar uchun 1 trillion so'm ajratiladi. Baxmal, Zomin, Forish va Yangiobod tumanlarining 28 ta mahallasida infratuzilmani yaxshilash va ijtimoiy obyektlar qurish uchun alohida 200 milliard so'm yo'naltiriladi.

Shuningdek, 875 kilometr ichimlik va 96 kilometr oqova suv tarmoqlari, 103 ta suv inshooti barpo etilib, bunga 2 trillion so'm mablag' yo'naltiriladi. Natijada aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 60 foizdan 90 foizga yetkaziladi.

Bundan tashqari, 5 ming kilometr elektr tarmoqlari, 2 ta podstantsiya, 1,5 mingta transformator yangilanadi va ta'mirlanadi.

Yo'l infratuzilmasini yaxshilash maqsadida 3,5 ming kilometr avtomobil yo'llari va ichki ko'chalar, 165 ta ko'prikn qurish-ta'mirlash ishlari bajarilib, bu ishlar uchun 2 trillion so'm yo'naltiriladi. Shuningdek, 200 million dollar investitsiya hisobidan Zomin, Baxmal, G'allaorol tumanlaridan o'tuvchi avtomagistralning 158 kilometri rekonstruksiya qilinadi.

Zarafshon daryosidan suv olish bo'yicha tarixiy loyiha yakunlanib, Baxmal, G'allaorol, Sharof Rashidov, Do'stlik, Paxtakor, Mirzacho'l tumanlari va Jizzax shahrida 700 ming aholining markazlashgan ichimlik suvi ta'minoti yaxshilanadi.

Aholining uy-joy bilan bog'liq masalalarini hal qilish maqsadida, kelgusi besh yilda jami 18 ming xonadonli ko'p qavatli uy-joylar barpo etiladi hamda uy-joyga muhtoj 3 mingta ehtiyojmand oilaga 120 milliard so'm subsidiyalar ajratiladi.

Sharof Rashidov, Zomin, G'allaorol, Baxmal, Paxtakor va Forish tumanlarida 6 ming xonadonli ko'p qavatli uylar, maktab, bog'cha, shifoxona, savdo markazi kabi obyektlardan iborat Yangi O'zbekiston mavzolari barpo etiladi.

Shu bilan birga, Jizzax shahri aholisi bugungi kunda 180 mingdan oshib, kelgusi besh yilda 230 mingga yetishi kutilmoqda. Lekin shaharning infratuzilmasi 50 yil ichida ancha eskirib, hali ham 50 ming aholiga mo'ljallangan holda qolib ketgan, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Shu bois, shaharning qiyofasi va infratu-

zilmasini tubdan yaxshilash, aholi uchun munosib sharoit yaratish bo'yicha alohida dasturni amalga oshiramiz.

Bunda, eng avvalo, Jizzax shahrida 10 ming xonadonga mo'l-jallangan, barcha ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmaga ega bo'lgan "Yangi O'zbekiston shaharchasi" va kichik sanoat zonasi barpo etiladi. Shahardagi 34 ta mahallaga 70 milliard so'm mablag' ajratilib, 534 ta ko'p qavatli eski uylarning barchasi ta'mirlanadi. Ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish bo'yicha 80 million dollarlik loyiha yakunlanib, markazlashgan ichimlik suvi qamrovi 100 foizga, oqova suv xizmatlari 90 foizga yetkaziladi.

Shaharning issiqlik ta'minotini yaxshilash bo'yicha ham maxsus dastur amalga oshirilib, "Temir yo'lchilar" ko'chasida 700 metrlik yo'lo'tkazgich quriladi va temir yo'l kesishmalaridagi transport tirbandligi bilan bog'liq muammo uzil-kesil hal etiladi. 50 gektar maydonda "Yangi O'zbekiston bog'i", 25 gektarda "yashil maydonlar" barpo etiladi, shaharda yiliga kamida 100 ming tup mevali va manzarali daraxtlar ekiladi.

Umuman olganda, kelgusi besh yilda Jizzax viloyatini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish uchun davlat hisobidan 45 trillion so'm ajratiladi va 230 mingga yaqin ish o'rinlari yaratiladi.

Qadrli do'stlar!

Ota-bobolarimiz aytganidek, inson ikki ne'matning qadriga yetishi zarur. Biri – xotirjamlik bo'lsa, ikkinchisi – sihat-salomatlikdir. Afsuski, ko'pchiligimiz buning qadriga yetmaymiz. Misol uchun, joriy yilda viloyatda o'tkazilgan tibbiy ko'riklarda 250 ming nafar aholida turli surunkali kasalliklar aniqlangan.

Viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi, Baxmal, G'allaorol va Do'stlik tumani shifoxonalari ayanchli holatda, 20 dan ziyod poliklinikaning uskunalari 30 yildan beri ishlatib kelinadi. Jizzax shahridagi 5 ta oilaviy poliklinikadan 2 tasi ijara, 3 tasi 30 yil avval ta'mirlangan.

Ana shu muammolarni bartaraf etish, viloyatda tibbiy xizmatlar sifati va qamrovini oshirish, uni yangi bosqichga olib chiqish va

odamlarni rozi qilish maqsadida barcha oilaviy shifokorlik punktlari va poliklinikalar tubdan ta'mirlanib, zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlanadi.

Shuningdek, qo'shimcha 23 ta oilaviy poliklinika va shifokorlik punktlari ochiladi. Jizzax shahrida 320 o'ringa mo'ljallangan ko'p tarmoqli viloyat shifoxonasi hamda eng zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan Bolalar diagnostika markazi tashkil etiladi.

Bundan tashqari, G'allaorol, Paxtakor va Zomin tumanlarida "Perinatal markazlar", Do'stlik, G'allaorol va Zomin tumanlarida jarohatlar va o'tkir qon-tomir kasalliklariga ixtisoslashgan tibbiyot markazlari faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Tez tibbiy yordam tasarrufidagi 100 dan ziyod "Damas" avtomobillari Jizzaxda ishlab chiqarilayotgan "Folksvagen" mashinalariga almashtiriladi. Tog'li va olis hududlar uchun tibbiy vertolyot faoliyati yo'lga qo'yiladi. Ushbu maqsadlar uchun kelgusi besh yilda budjetdan 2,1 trillion so'm mablag' ajratiladi.

Sir emaski, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish ishlariga malakali shifokorlarning yetishmasligi ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda viloyatda 1,5 mingga yaqin vrachlarga ehtiyoj mavjud. Ushbu ehtiyojni ta'minlash maqsadida tibbiyot oliygohlarida o'qiyotgan 1 ming 200 nafar jizzaxlik talabalarni o'z hududlarida ishga jalb etish uchun qulay sharoit yaratiladi. Ular bilan shartnoma tuzilib, ta'lim kontrakt pullari hokimliklar tomonidan to'lab beriladi.

Bundan tashqari, "Qishloq shifokori" dasturi kengaytirilib, yana qo'shimcha 6 ta olis qishloqqa ishlashga boradigan yosh shifokorlarga ham 30 million so'mdan beriladi.

Muhtaram saylovchilar!

Farzandlarimizga zamon talablari asosida ta'lim-tarbiya berish, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish "Inson qadri uchun" tamoyilining asosiy yo'nalishlaridan biridir.

Shu ma'noda, ta'limning poydevori bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimida boshlagan islohotlarimizni izchil davom ettiramiz hamda qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan 80 foizga yetkazamiz. Buning uchun 50 ta davlat bog'chalari quriladi va ta'mirlanadi, 730 ta xususiy va oilaviy bog'chalar tashkil etiladi.

Bog'chalar uchun oliy ma'lumotli pedagoglarni ko'paytirish maqsadida ushbu yo'nalishdagi qabul kvotalari 2 barobarga oshirilib, oliy ma'lumotli pedagog kadrlar ulushi 50 foizga yetkaziladi.

Ko'p bor ta'kidlaganimizdek, barcha islohotlarimiz zahirida maktablarda berilayotgan ta'lim-tarbiya yotadi. Viloyatda ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida alohida dastur qabul qilamiz. Unda, eng avvalo, rivojlangan mamlakatlardan malakali mutaxassislar olib kelinib, viloyatdagi 22 ming nafar o'qituvchining malakasi oshiriladi.

Shuningdek, xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda, o'quvchilarning kun davomida vaqtini mazmunli o'tkazishni nazarda tutuvchi alohida o'quv va to'garaklar dasturi ishlab chiqiladi. Chet tillari va IT fanlari bo'yicha 6 mingga yaqin o'qituvchilarning xalqaro sertifikat olishlari uchun barcha sharoitlar yaratiladi.

Maktablardagi o'quv rejalar o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatidan kelib chiqqan holda, ularning tanlovi asosida shakllantiriladi. Ya'ni, o'quv yuklamasi saqlangan holda, aniq yoki ijtimoiy fanlar o'quvchining tanlovi asosida o'rgatiladi.

Shuningdek, viloyatda 34 ta yangi maktab qurilib, 143 ta umumta'lim muassasasi rekonstruksiya qilinadi. Natijada 55 mingga to'qshimcha o'quvchi o'rinlari yaratiladi.

Baxmal, G'allaorol, Sharof Rashidov, Zomin, Zarbdor, Forish tumanlari va Jizzax shahridagi yuklamasi yuqori bo'lgan 25 ta maktab uchun to'qshimcha o'quv binolari quriladi.

Oliy ta'lim kelgusi besh yilda Jizzax viloyati rivojlanishining asosiy drayverlaridan biriga aylanishi kerak. Bu borada viloyat

yoshlarining oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 50 foizdan oshiriladi. Buning uchun viloyatdagi oliygohlar soni 8 taga yetkaziladi.

Jumladan, Jizzaxda mashinasozlik sanoati rivojlanayotganini hisobga olib, nufuzli xorijiy hamkorlar bilan birgalikda shu yo'nalishga ixtisoslashgan kasb maktablarini ochamiz.

Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash maqsadida, Jizzax politexnika institutida Innovatsion g'oyalar markazi tashkil etiladi. Shu bilan birga, xorijdan professor-o'qituvchilarni jalb qilish ko'lami kengaytiriladi.

Viloyat sporti haqida gap borganda, avvalo, hammaning ko'z oldiga "So'g'diyona" futbol jamoasi hamda "So'g'diyona Vumen" ayollar futbol jamoasi keladi. Mamlakatimiz oliy ligasida yuqori natijalarni ko'rsatayotgan ushbu jamoalarning Sardor Rashidov va Aziz G'aniyev kabi tarbiyalanuvchilari Osiyoda O'zbekistonimiz nufuzini dunyoga taratmoqda.

Xabaringiz bor, shu yil Latviyada o'tkazilgan futzal bo'yicha Jahon chempionatida nimchorak finalgacha yetib borgan milliy jamoamizning 14 nafar a'zosidan 9 nafari aynan Jizzax viloyati o'g'lonlari edi. Shuni hisobga olib, viloyatda futbolni yanada ommalashtirish va rivojlantirish bo'yicha katta ishlarni amalga oshiramiz. Jumladan, "So'g'diyona" futbol klubi bazasida Futbol akademiyasi tashkil etiladi. Akademiya bilan nufuzli Yevropa futbol jamoalari o'rtasida hamkorlik o'rnatilib, murabbiylar va iste'dodli yosh futbolchilarni u yerda malaka oshirishi yo'lga qo'yiladi.

Aziz yurtdoshlar!

Bugun biz kelgusi besh yil uchun juda katta marralarni belgilab olmoqdamiz. Shuni yaxshi anglashimiz kerakki, hech kim chetdan kelib biz uchun bu ishlarni qilib bermaydi. Faqat o'zimiz, o'z kuchimiz, halol va mashaqqatli mehnatimiz bilan hamma narsaga erishishimiz kerak. Irodamiz mustahkam, bag'rimiz keng bo'lishi kerak.

Barchamiz bir tan-u bir jon bo'lib, ahil va yakdil bo'lib, yaxshi niyat bilan harakat qilsak, har qanday marralarni egallashga qodirmiz.

Men hozirgi keskin va murakkab bir davrda O'zbekistonga rahbarlik qilishdek ulkan mas'uliyatni zimmamga olishga qaror qilgan ekanman, butun xalqimiz qatori, siz, aziz yurtdoshlarimga, mehnatkash Jizzax ahliga tayanaman.

Yana bir bor barchangizga sihat-salomatlik, oilangizga tinchlik va farovonlik, baxt-u saodat tilayman.

Jonajon Vatanimiz, ona xalqimiz doimo omon bo'lsin!

Katta rahmat sizlarga!

*Jizzax shahri,
2021-yil 21-oktabr*

**YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT
STRATEGIYASI ASOSIDA
DEMOKRATIK ISLOHOTLAR
YO‘LINI QAT’IY DAVOM
ETTIRAMIZ**

*(O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
lavozimiga kirishish tantanali marosimiga
bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining
qo‘shma majlisidagi nutq)*

Assalomu alaykum, muhtaram vatandoshlar!

Hurmatli Senat a'zolari!

Hurmatli Qonunchilik palatasi deputatlari!

Xorijiy diplomatik korpus vakillari!

Xonimlar va janoblar!

Avvalo, menga ulkan ishonch bildirib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib qayta saylagan barcha yurtdoshlarimga chin qalbidan minnatdorlik izhor etib, mehnatkash, oliyjanob va bag'rikeng xalqimizga farzandlik mehri va sadoqati bilan ta'zim qilaman.

Siz, azizlarga, sizlar orqali butun el-yurtimizga tinchlik va salomatlik, oilaviy baxt-saodat va farovonlik tilayman.

Jonajon Vatanimiz timsoli va mustaqilligimiz ramzi bo'lgan davlat bayrog'imiz, madhiyamiz va gerbimizga, menga topshirilgan Prezidentlik Oliy nishoni va bayrog'iga yuksak hurmat bajo keltiraman.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanishimni Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida olib borayotgan siyosatimizning yuksak e'tirofi sifatida qabul qilaman.

Muhtaram tantanali majlis ishtirokchilari!

Bo'lib o'tgan saylovlarda ko'pmillatli xalqimiz faol ishtirok etib, o'zining erkin xohish-irodasini, yuksak huquqiy ongi va siyosiy madaniyatini yaqqol namoyon etdi.

Xalqimiz bilan birgalikda tanlagan va amalga oshirayotgan rivojlanish yo'limiz naqadar to'g'riligini saylov natijalari yana bir bor tasdiqladi. Bu esa barchamizga yangi kuch, baland ruh va ishonch bag'ishlaydi.

Saylovning erkin va demokratik, ochiq va oshkora, sog‘lom raqobat va siyosiy kurash muhitida o‘tganini xalqaro va xorijiy kuzatuvchilar ham e‘tirof etdilar.

Prezident saylovida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining uzoq muddatli missiyalari butun saylov jarayonlarini bevosita kuzatib bordi. Ayniqsa, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari byurosi hamda parlament Assambleyasi qatorida birinchi marta Yevropa parlamentidan ham kuzatuvchilar ishtirok etdi.

Umuman, saylovda 18 ta xalqaro tashkilot va 45 ta xorijiy davlatning mingga yaqin vakillari xalqaro kuzatuvchi sifatida qatnashdi. Shu bilan birga, 1 ming 700 ga yaqin mahalliy va xorijiy jurnalistlar saylov jarayonlarini bevosita yoritib bordi. Ularning barchasi, saylov milliy qonunchiligimiz va umume‘tirof etilgan xalqaro tamoyillar asosida, yuqori saviyada o‘tganini alohida qayd etdilar.

Aziz yurtdoshlar!

Saylovda menga bildirilgan ishonch – yuksak sharaf, muqaddas burch ekanini, ayni vaqtda bu ishonch zimmamga qanday ulkan mas’uliyat va javobgarlik yuklashini ham chuqur his etib turibman.

Nomzodimni ilgari surgan va saylov kampaniyasida qo‘llab-quvvatlagan Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining a‘zolari va faollariga, barcha tarafdorlarim hamda ishonchli vakillarimga tashakkur aytaman.

Saylovda faol ishtirok etgan O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzod – Maqsuda Vorisovaga, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan – Alisher Qodirovga, O‘zbekiston Ekologik partiyasidan – Narzullo Oblomurodovga, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan – Bahrom Abdulhalimovga alohida minnatdorlik bildiraman. Ularga kelgusi ishlarida omadlar tilayman.

Biz saylov jarayonida o‘zaro raqobat qilgan bo‘lsak, endi barcha orzu-intilish va harakatlarimizni birlashtirib, siyosiy parti-

yalar bilan faol hamkorlik qilamiz. Ularning saylovoldi dasturlaridagi muhim amaliy g'oya va takliflar kelgusi faoliyatimizda e'tiborimizdan chetda qolmaydi.

Butun kuch va salohiyatimizni yagona ulug' maqsadimiz – Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratamiz.

Bugun shu yuksak minbarda turib, barcha hududlarimiz – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisiga;

yurtimizda tinchlik va do'stlik muhitini mustahkamlash yo'lida sidqidildan xizmat qilayotgan mahalla faollari, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari va din arboblarga;

ezgu duolari, hayotiy maslahatlari bilan bizning ishimizga unum va baraka berayotgan mo'tabar faxriylarimizga;

jamiyatimiz hayotida beqiyos o'ringa ega bo'lgan muhtarama ayollarimizga;

iqtisodiyot, sanoat, agrar va ijtimoiy sohalarda fidokorona mehnat qilayotgan ishchi-xizmatchilarga, tadbirkor va fermerlarga, quruvchi-bunyodkorlarga;

butun borlig'ini ilm-fan va ma'naviyatni yuksaltirish, navqiron avlod tarbiyasiga bag'ishlagan ustoz va murabbiylarga, ilmiy va ijodkor ziyolilarga, madaniyat va san'at ahliga;

el-yurtimiz sog'lig'ini asrashdek oliyjanob maqsad yo'lida o'zini ayamadan, mardona mehnat qilayotgan tibbiyot xodimlariga;

Jaloliddin Manguberdi, sohibqiron Amir Temur, Bobur Mirzo kabi ulug' ajdodlarimiz an'alarini munosib davom ettirayotgan mard va jasur harbiy xizmatchilarimizga;

jahon maydonlarida Vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarayotgan matonatli sportchilarimizga;

Markaziy saylov komissiyasi, okrug va uchastka saylov komissiyalari a'zolariga, xorijiy mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalarimiz hamda mahalliy hokimliklar xodimlariga;

saylov jarayonlarini keng va xolis yoritgan ommaviy axborot vositalari vakillariga, jurnalist va blogerlarga chin yurakdan minnatdorlik bildiraman.

Yosh avlodimizga – mening o‘g‘il-qizlarimga qarata aytmoqchiman: tomirlarida buyuk bobolarimizning g‘ayrat-shijoati jo‘sh urib turgan aziz farzandlarim, sizlar Yangi O‘zbekistonni barpo etishda doimo oldingi safda bo‘lasizlar, deb ishonaman.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishim munosabati bilan samimiy tabriklarini yo‘llagan mamlakatimizning barcha fuqarolariga, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar rahbarlariga, siyosat va jamoat arboblarga chuqur ehtiromimni izhor qilaman.

Fursatdan foydalanib, saylovda ishtirok etgan barcha xalqaro kuzatuvchilarga o‘z nomimdan, xalqimiz nomidan tashakkur aytaman.

Hurmatli tantanali marosim qatnashchilari!

Bugungi tantanali marosim poytaxtimiz markazida barpo etilgan, barcha zamonaviy sharoitlarga ega bo‘lgan muhtasham Senat binosida o‘tayotganida ham chuqur ramziy ma‘no bor, albatta.

Bu qutlug‘ maskan mamlakatimiz ravnaqi yo‘lida muhim qonun va qarorlar qabul qilinadigan nufuzli dargohga, zamonaviy milliy davlatchiligimiz ko‘zgusi va demokratiya maktabiga aylanadi, deb ishonaman.

Yangi O‘zbekiston timsollaridan biri bo‘lgan Senat binosi ham-mamizga muborak bo‘lsin!

Qadrli do‘stlar!

Barchangiz xabardorsiz, bundan besh yil oldin xalqimiz bilan bamaslahat Harakatlar strategiyasini qabul qilgan edik. O‘tgan davr mobaynida ushbu Strategiya asosida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Yangi muddatga lavozimga kirishayotgan Prezident sifatida jonajon Vatanimizning bugungi kuni va kelajagi uchun butun mas‘uliyat va javobgarlikni chuqur his etgan holda aytmoqchiman:

Xalqimiz bilan boshlagan demokratik islohotlar yo‘lini yanada qat‘iy davom ettiramiz va bu yo‘ldan hech qachon ortga qaytmaymiz!

Yangi O'zbekistonni birgalikda albatta barpo etamiz!

Asosiy qomusimiz kafili sifatida Konstitutsiya va qonunlarimiz talablarini so'zsiz bajarish, **“Inson qadri uchun”** degan ustuvor tamoyilni to'la ro'yobga chiqarish bundan buyon ham faoliyatimning bosh mezoni bo'lib qoladi.

Albatta, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz.

Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz.

Hurmatli tantanali marosim ishtirokchilari!

Bugungi davramizda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro tashkilotlar vakillari va xorijiy davlatlar elchilari qatnashayotgani barchamizga katta mamnuniyat bag'ishlaydi.

So'nggi yillarda yurtimizda demokratik islohotlarni amalga oshirish, jumladan, inson huquq va erkinliklari hamda qonun ustuvorligini ta'minlash borasida olib borayotgan ishlarimizdan, o'ylaymanki, siz, hurmatli diplomatlar ham xabardorsiz.

Bu sohadagi amaliy faoliyatimizning e'tirofi sifatida O'zbekiston birinchi marta Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari kengashi a'zoligiga saylanganini aytib o'tish kifoya.

Ayni paytda biz inson huquq va erkinliklarini himoya qilish va ta'minlashda amalga oshirgan ishlarimizdan ko'ra, oldimizda turgan vazifalar ko'p ekanini ham yaxshi tushunamiz.

Ma'lumki, bu oliy qadriyatni tom ma'noda qaror toptirish – biron-bir manzilga yetib borib to'xtash, degani emas. Inson huquqlarini himoya qilish uzluksiz davom etadigan jarayon ekanini barchamiz chuqur anglaymiz. Jahon tarixi va demokratik davlatlar tajribasi ham shundan dalolat beradi.

Shu munosabat bilan bu sohadagi vazifalarni amalga oshirishda biz xalqaro hamjamiyat, jumladan, Siz, muhtaram diplomatik korpus vakillarining yaqin hamkorligiga ishonamiz.

Qadrlı senator va deputatlar!

El-yurtimiz biz boshlagan xalqchil islohotlarga bugun xayrixohlik va qat'iy ishonch bilan qarab, ularning hosili va samarasini tezroq ko'rishni istamoqda. Ana shu haqli talabni inobatga olgan holda, biz Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqib, saylov jarayonida uni o'ziga xos umumxalq muhokamasidan o'tkazdik.

Bu muhim konseptual hujjatda islohotlarimizning uzviyligi va davomiyligini ta'minlash maqsadida **“Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari”** degan tamoyil asosiy g'oya va bosh mezon sifatida kun tartibiga qo'yildi.

Biz ushbu strategiyada yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini eng oliy qadriyat etib belgiladik.

Ta'kidlash kerakki, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab beradi. Biz bundan buyon faoliyatimizni **“inson – jamiyat – davlat”** degan yangi tamoyil asosida tashkil etamiz.

Saylovchilar bilan muloqotlar paytida bildirilgan fikr-mulohazalar, amaliy taklif va tashabbuslar asosida biz Taraqqiyot strategiyamizni yanada takomillashtirish ustida ish olib bormoqdamiz va bu jarayon yana davom etadi. Chunki Vatanimizning taqdiri va kelajagi bilan bog'liq ustuvor masalalarni hal etishda keng jamoatchilik, har qaysi fuqaroning fikri biz uchun o'ta muhimdir.

Bu borada yana bir dolzarb masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Kelgusi besh yil uchun ustuvor yo'nalishlarni belgilab olar ekanmiz, o'tgan davrda erishgan yutuqlarimiz bilan birga, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni ham tanqidiy nuqtayi nazardan

chuqur tahlil qilishimiz lozim. Nega deganda, o'z kelajagini o'z qo'li, o'z kuchi bilan yaratishga bel bog'lagan xalq va millat kechagi kundan to'g'ri saboq chiqarib, oldinga intilib yashaydi.

Saylovoldi uchrashuvlarida mamlakatimizdagi har bir shahar va tumanni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy rivojlantirish bo'yicha yangi rejalar tuzdik. Hozirgi kunda ana shu takliflarni umumlashtirib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha alohida-alohida dasturlarni ishlab chiqmoqdamiz va ularni yillar kesimida amalga oshiramiz.

Men bundan besh yil oldin, ya'ni Prezidentlik faoliyatimni boshlagan ilk kunlarda aytgan fikrimni yana takrorlayman: menga soxta va balandparvoz gaplarning keragi yo'q. Quruq va yolg'on gaplar, tagi puch raqamlar – bu faqat o'zimizni aldash bo'ladi. Bu faqat ishimizga ziyon yetkazadi.

Biz uchun umumiy ishimiz va harakatimizga foyda beradigan g'oya va fikrlar, amaliy taklif va tashabbuslar, aniq natijalar kerak. Bundan boshqa yo'lni men mutlaqo qabul qilmayman.

Hurmatli do'stlar!

Barchamiz ko'rib-bilib turibmiz: bugungi kunda insoniyat o'z tarixidagi nihoyatda murakkab davrni boshidan kechirmoqda. Biz ilgari ko'rmagan, bilmagan mislsiz xavf-xatar va tahdidlarga duch kelmoqdamiz.

Yer yuzida millionlab odamlarni hayotdan olib ketgan koronavirus pandemiyasi va uning oqibatida kelib chiqqan global iqtisodiy inqiroz hanuz davom etmoqda. Pandemiya qachon tugaydi va undan keyingi hayot qanday bo'ladi – buni hech kim oldindan bashorat qilolmaydi.

Afsuski, pandemiyaning salbiy ta'siridan O'zbekiston ham chetda qolayotgani yo'q. Bu xatarli kasallikka qarshi kurash, shunday og'ir sharoitda yashash va mehnat qilish bizdan katta kuch va mablag', yuksak iroda va qat'iy intizomni talab etmoqda.

Har qancha harakat qilishimizga qaramasdan, pandemiya tufayli ko'plab yurtdoshlarimiz, jumladan, bir qancha senator va

deputatlarimiz, rahbar safdoshlarimizdan judo bo'ldik. Bugun ularning barchasining xotirasini yana bir bor yod etib, oxiratlari obod bo'lsin, deymiz.

Hozirgi vaqtda dunyoda turli kuchlar o'rtasida qarama-qarshilik va ziddiyatlar kuchaymoqda, resurslar uchun shafqatsiz kurash ketmoqda. Mintaqamizdagi tinchlik va xavfsizlikka nisbatan yangi-yangi tahdidlar paydo bo'lmoqda.

O'z-o'zidan ravshanki, globallashuv va keskin raqobat zamoni, shiddat bilan o'zgarayotgan hayot bizning oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan, o'ta muhim va dolzarb vazifalarni qo'ymoqda.

Mana shunday murakkab va qaltis vaziyatda barchamiz tinch va osoyishta hayotimizni asrash, milliy mustaqilligimizni mustahkamlash uchun yanada jipslashib, hushyor va ogoh bo'lib, dadil va qat'iy harakat qilishimiz zarur.

Shu maqsadda har bir xonadon va mahallada, butun yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, aholining hayot darajasi va sifatini oshirish, jahon hamjamiyati bilan do'stlik va hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan strategik yo'limizni yanada izchil davom ettiramiz.

Qadrli yurtdoshlar!

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi yetti yo'nalishdan iborat etib belgilandi. Bu – bejiz emas. Zero, ajdodlarimiz yetti raqamini baxt-saodat va omad keltiradigan, ezgu niyatni ro'yobga chiqaradigan xosiyatli timsol, deb bilganlar.

Ruxsatingiz bilan, Taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshiriladigan eng ustuvor vazifalar haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

Birinchidan, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson qadri-qimmatini va uning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarimiz yangi pog'onaga ko'tariladi.

Bu borada, millati, tili va dinidan qat'i nazar, yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning, butun xalqimizning farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan **“Yangi O'zbekiston – xalqchil va**

insonparvar davlat” g‘oyasini amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratamiz. Shu asosda mahalliy boshqaruv organlarining joylarda muammolarni hal etishdagi roli va mas‘uliyatini yanada kuchaytiramiz. Buning uchun kelgusida davlat funksiyalarining katta qismi markazdan hududlarga o‘tkaziladi.

Jamiyat boshqaruvining tayanch bo‘g‘ini bo‘lgan, islohotlar samarasi bevosita aks etadigan mahalla tizimini hokimliklar bilan bog‘lash maqsadida har bir mahallada hokim yordamchisi lavozimi joriy etiladi. Hokim yordamchisi yangi ish o‘rinlarini yaratish va kambag‘allikni qisqartirishga mas‘ul bo‘ladi. Mahalla raisi esa ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni amalga oshirish, oila va mahallada sog‘lom muhitni shakllantirishga javob beradi.

Shu bilan birga, mahallalarda yoshlar masalalari bilan muntazam shug‘ullanadigan Yoshlar ishlari agentligining vakili ham bo‘ladi.

Bundan tashqari, hokimliklar va mahallalarning moliyaviy imkoniyatini kengaytirish maqsadida tuman budjeti qo‘shimcha manbalar bilan ta‘minlanib, mahallaning alohida jamg‘armasi shakllantiriladi.

Navbatdagi muhim vazifamiz – markaziy idoralarni transformatsiya qilish orqali fuqarolarga xizmat qiladigan ixcham va samarali boshqaruv tizimini yaratishdan iborat. Buning uchun, eng avvalo, vazirlik va idoralarni tashkil etish va tugatishning tartibi, ularni bir-biridan farqlab turadigan mezonlar, tarkibiy tuzilma va shtatlarni belgilashga oid aniq talablar ishlab chiqiladi. Shu asosda bir xil yo‘nalishdagi vazifalarni amalga oshirayotgan idoralar optimallashtiriladi.

Markaziy idoralarning hududiy tuzilmalar bilan ishlash jarayoniga yangicha yondashuvlarni joriy etib, eskirgan byurokratik usullardan voz kechamiz. Bunda hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni tezkorlik bilan mustaqil hal etish bo‘yicha vazirlik va idoralarning vakolatlari yanada kengaytiriladi.

Har bir tarmoq va hudud bo‘yicha qabul qilingan dasturlar ijrosi yuzasidan rahbarlarning hisobot berish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Shu bilan birga, Xalq qabulxonalari tom ma'noda xalq ovozi- ni, jamoatchilik fikrini ifoda etadigan tuzilmaga aylanishi uchun qo'shimcha huquqiy asoslar yaratiladi.

Ayni vaqtda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish jarayoniga yangicha, zamonaviy yondashuvlar joriy etiladi. Kadrlar davlat xizmatiga tanlov asosida qabul qilinadi, ular uchun uzluksiz malaka oshirish, natijadorlikni baholash va lavozim bo'yicha ko'tarilish mezonlari belgilanadi.

Bundan buyon har bir hudud, soha va tarmoq faoliyatiga ular- da fuqarolarning haq-huquqlari va qonuniy manfaatlari qanday ta'minlanayotganiga qarab baho beriladi.

Shu munosabat bilan **“Xalq davlat organlariga emas, dav- lat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak”**, degan da'vat- ga qo'shimcha qilib aytmoqchiman: **“Rahbarlar faqat davlatga emas, avvalo, inson va oilaga, ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilishi kerak”**. Shuning uchun har bir mutasaddi mahalla va tuman hayotini ipidan ignasigacha bilishi shart.

Ulug' ajdodlarimiz aytganidek, rahbar xalqqa yuk bo'lmasligi, aksincha, xalqning yukini yelkasiga olishi kerak. Agar qaysiki rah- bar davming bu o'tkir talabini tushunmasa, ularni endi xalqimiz ham, hayotning o'zi ham qabul qilmaydi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish- da xalq vakillari bo'lgan senator va deputatlar alohida muhim o'rin tutadi.

Oliy Majlis faoliyatini yanada takomillashtirish, xalqimiz ku- tayotgan, Yangi O'zbekiston taraqqiyotini tezlashtirishga xizmat qiladigan qonunchilik konsepsiyasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish, qonun ijodkorligi faoliyatini demokratlashtirish va ularning ijrosini ta'minlashga qaratilgan parlament nazoratini kuchaytirishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Bu borada parlament tomonidan mamlakatimiz bo'yicha muro- jaatlar bilan ishlash holati nazoratga olinadi. Joylardagi ijro idorasi

rahbarlari hisobotini eshitish va uning natijasiga muvofiq, ularga nisbatan ta'sirchan choralari ko'rish amalga oshiriladi.

Rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, jamiyat va davlat boshqaruv tizimi ayrim rahbarlarning subyektiv nuqtayi nazariga, sodda qilib aytganda, ularning qosh-qovog'iga qarab emas, aksincha, mustahkam huquqiy mezonlarga ega bo'lgan institutlar faoliyati orqali amalga oshirilishi zarur.

Bu borada oldimizda turgan yana bir muhim masala – Xalq deputatlari mahalliy kengashlari hamda hokimlarning vakolatlarini aniq belgilashga oid qonuniy asoslarni yaratish vaqti keldi, deb o'ylayman.

Fuqarolik jamiyati institutlarining erkin faoliyat yuritishi, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish e'tiborimiz markazida bo'ladi. Shu maqsadda Jamoatchilik palatasini tashkil etish ishlari jadallashtiriladi.

Jamoatchilik nazorati, davlat boshqaruvi va ijtimoiy loyihalarni hayotga tatbiq etishda fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kuchaytirishga doir dolzarb vazifalar amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda demokratik yangilanish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish uchun so'z va matbuot erkinligini, fuqarolarning axborot olish va uni tarqatish, o'z fikr va qarashlarini erkin bildirish huquqini ta'minlash borasida muhim chora-tadbirlar hayotga joriy etilmoqda.

Albatta, bunday ochiqlik va oshkoralik sharoitida ishlash, o'z faoliyatiga nisbatan bildirilayotgan tanqidiy fikrlarni to'g'ri qabul qilish eskicha qoliplar bilan yashayotgan ayrim amaldorlarga yoqmasligi ham mumkin. Lekin, bundan qat'i nazar, biz bu yo'lni davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri deb bilamiz va uni izchil davom ettiramiz.

Shu maqsadda amaldagi qonunchilikda davlat organlari va tashkilotlarining mansabdor shaxslari tomonidan ommaviy axborot

vositalari faoliyatiga to'sqinlik qilish, senzura o'rnatish, tahririyat xodimlariga bosim va tazyiq o'tkazish, materiallar va texnik vositalarni ulardan g'ayriqonuniy ravishda olib qo'yish harakatlari sodir etilgani uchun javobgarlikni kuchaytirish ko'zda tutilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, qonuniy faoliyat yuritayotgan barcha jurnalist va blogerlar bundan buyon ham qonun va Prezident himoyasida bo'ladi.

Ikkinchidan, adolat va qonun ustuvorligi – xalqchil davlat qurish, inson qadr-qimmatini ta'minlashning eng asosiy va zarur shartidir.

O'tgan davrda O'zbekistonda bu borada katta ishlar amalga oshirildi.

Ayni vaqtda odil sudlov tizimining chinakam mustaqilligi va ochiqligini ta'minlash, huquq-tartibot organlari faoliyatini takomillashtirish, advokatura institutini kuchaytirish, ushbu sohalar faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha oldimizda ko'pgina vazifalar turibdi.

Kelgusida ma'muriy sudlar faoliyatini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Sud xususiy mulk himoyasida turib, fuqaro va tadbirkorlarning huquqlarini tiklash orqali ijro idoralarini qonun doirasida ishlashga majbur qiladigan tizimni yaratishimiz zarur. Bu esa jamiyat taraqqiyotiga, birinchi navbatda, uning iqtisodiy ravnaqiga xizmat qiladi.

Biz mamlakatimiz rivojini, aholi farovonligini ta'minlashda hal qiluvchi o'rin egallaydigan tadbirkor va mulkdorlar huquqlarini har tomonlama himoya qilamiz. Bu borada qonun buzilishini mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydigan favqulodda holat deb baholaymiz.

Shu munosabat bilan xususiy mulk ustuvorligi qonunlarimizda asosiy tamoyil sifatida belgilandi. Davlat idorasi ma'lumotiga ishonib mol-mulk sotib olgan shaxsning huquqi buzilmasligi ta'minlanadi.

Erkin raqobatga asoslangan bozorni yaratish hisobidan aholi va tadbirkorlar energiya resurslari bilan kafolatli ta'minlanadi.

Aholi bandligini ta'minlash, yoshlar va ishsiz fuqarolarni davlat hisobidan malakali kasb-hunarga o'qitish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, ehtiyojmand aholini manzilli qo'llab-quvvatlash orqali 2026-yilgacha kambag'allikni ikki barobar qisqartirish ko'zda tutilmoqda.

Shu bilan birga, ijtimoiy himoya sohasida boshqaruv tizimi isloh qilinib, ijtimoiy xizmatlarning sifati yaxshilanadi va ko'lami kengaytiriladi.

Eng muhim masalalardan biri sifatida uy-joy masalasini hal etish, aholiga qulay yashash sharoitlarini yaratish doimiy e'tiborimiz markazida bo'ladi. Ushbu yo'nalishda qabul qilgan dasturlarimiz, jumladan, arzon uy-joylar dasturi asosida so'nggi besh yilda 140 mingdan ziyod yangi kvartira va yakka tartibdagi uy-joylar barpo etildi. Bu oldingi besh yilga nisbatan 10 barobar ko'p uy-joy qurildi, deganidir.

Ana shunday ishlarimiz ko'lamini yanada kengaytirib, kelgusida hududlarimizda 1 milliondan ortiq aholi uchun barcha qulaylik va ijtimoiy infratuzilmaga ega bo'lgan "Yangi O'zbekiston" massivlarini bunyod etamiz. "Obod mahalla", "Obod qishloq" dasturlari izchil davom ettiriladi.

Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, zamonaviy yo'l va kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish, jamoat transporti hamda hududlararo muntazam avtomobil, temir yo'l va havo qatnovini yaxshilash bo'yicha ham yirik loyihalar amalga oshiriladi.

Biz uchun strategik tarmoq bo'lgan qishloq xo'jaligi samardorligini tubdan oshirish va uni diversifikatsiya qilish g'oyat muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, agrar sohani rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini klaster asosida qayta ishlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash dolzarb vazifamiz bo'lib qoladi.

Qishloq joylarda yashayotgan aholining hayot darajasi va sifatini oshirish islohotlarimizning asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Shu

maqsadda fermer va dehqonlar daromadini 2 barobar ko'paytirish uchun zarur sharoitlarni yaratamiz, qishloq xo'jaligining yillik o'sish sur'atini kamida 5 foizga yetkazamiz.

To'rtinchidan, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili hisoblangan sifatli ta'lim-tarbiya masalasi bundan buyon ham doimiy e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm, tarbiya va yana bir bor tarbiya kerak. Bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o'qituvchilar, haqiqiy ziyolilar kerak.

Ochiq aytish lozim, biz bu zahmatkash, fidoyi insonlar oldida hali qarzdormiz. Shu boisdan ham, qanchalik qiyin bo'lmasin, o'qituvchilar mehnatini munosib rag'batlantirish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz. 2025-yilga borib, oliy toifali o'qituvchilarning oylik maoshini ekvivalent hisobida 1 ming dollarga yetkazish choralari ko'riladi.

Bu borada, avvalo, bog'cha tizimini maktab ta'limi bilan uyg'unlashtirish orqali bolalarimizni maktabga tayyorlash sifatini yanada yaxshilaymiz. Mamlakatimizning hamma hududlarida o'nlab yangi-yangi maktabgacha ta'lim muassasalari barpo etiladi. Barcha bog'chalar har yili 2 million nusxadagi zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlab boriladi.

Bog'cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borish g'oyat muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda tizimdagi 160 ming nafardan ziyod pedagog kadrlarning malakasi oshiriladi.

Bolalar soni o'sib borayotganini inobatga olib, yangi maktablar qurish, mavjudlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga, sohaning barcha bosqichlari o'rtasida uzviylikni ta'minlashga qaratilgan Milliy ta'lim dasturi ishlab chiqiladi.

Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 62 foizdan kamida 80 foizga, oliy ta'lim tizimida esa 50 foizga yetkazish, maktablarda ta'lim-tarbiya sifati va darajasini oshirishga birlamchi vazifa deb qaraymiz.

Yangi oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish bilan birga, talabalarni turar joy bilan ta'minlash bo'yicha boshlagan ishlari-mizni jadal davom ettiramiz.

Taraqqiyot strategiyamizda xalqimiz salomatligini ta'minlash bundan buyon ham bosh vazifa bo'lib qoladi. Ushbu sohaga yo'naltiriladigan mablag'larni 2 barobar oshirish, jumladan, kelgusi besh yilda oliy toifali shifokorlar maoshini ekvivalent hisobida 1 ming dollarga yetkazish mo'ljallanmoqda.

Asosiy maqsad – tibbiyot sohasini chinakamiga xalq dardiga darmon bo'ladigan, yuqori samara bilan ishlaydigan tizimga aylantirishdan iborat.

Tibbiyotning birlamchi bo'g'ini orqali tibbiy profilaktikaga, oilaviy shifokorlar rolini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, aholi orasida eng ko'p tarqalgan va erta o'limning asosiy sababi bo'lgan kasalliklarni barvaqt aniqlash, maqsadli skrining tadbirlarini amalga oshirish, profilaktik maxsus preparatlar bilan bepul ta'minlash hamda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish choralari ko'riladi.

Bunda axborot texnologiyalarini joriy etish hisobidan korrupsiya holatlarining oldini olish, eng muhimi, aholini rozi qilish asosiy vazifamiz bo'ladi.

Viloyat, tuman va shaharlarda ixtisoslashgan tibbiy xizmatlar ko'lamini kengaytiriladi. Davlat tibbiy sug'urta tizimi ishga tushirilib, mablag' aniq bemorga bog'langan holda ajratiladi.

Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish – biz uchun muhim yo'nalish bo'lib qoladi. Bunda biz avvalo aholi salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladigan xalqchil sport tizimini tushunamiz.

Shu maqsadda barcha shahar va tumanlarda ommaviy sportni rivojlantirishga, jumladan, sport maydonchalari, piyodalar va velosipedchilar uchun yo‘laklar, ekoparklar, ta’lim dargohlaridagi sport zallaridan iborat sport infratuzilmasini yaratishga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, Olimpiya va paralimpiya harakatini rivojlantirish uchun sport maktablarini ko‘paytiramiz va yangi sport obyektlarini barpo etamiz. Bu borada Olimpiya o‘yinlariga kiritilgan har bir sport turini rivojlantirish va ommalashtirish bo‘yicha kompleks dasturlar amalga oshiriladi.

Aziz do‘stlar!

Keksa avlod vakillariga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularni har tomonlama e‘zozlash – xalqimizning azaliy qadriyatidir. Ana shunday noyob fazilatni asrab-avaylash, farzandlarimizni shu ruhda tarbiyalash – barchamizning muqaddas burchimizdir.

Bugungi globallashuv davrida, pandemiya va iqtisodiy inqiroz hukm surayotgan og‘ir bir sharoitda dunyoning ayrim hududlarida keksalar o‘z muammolari girdobida yolg‘iz qolib ketayotgani ham sir emas. Shuning uchun muhtaram otaxon va onaxonlarimiz, mehnat faxriylarining hayotini mazmunli va fayzli qilish, ular uchun munosib turmush sharoiti yaratish, sog‘lig‘ini mustahkamlash bo‘yicha boshlagan ishlarimizni yanada kuchaytirishimiz zarur. Toki bu hurmatli insonlar o‘zlarining oila va jamiyat hayotida munosib o‘rni borligini doimo his qilib yashasinlar.

Shu maqsadda o‘tkazilayotgan, nuroniylarimizning ruhi va kayfiyatini ko‘taradigan “Uch avlod uchrashuvi”, “Keksalar haftaligi” singari ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni ko‘paytirish, umuman, har bir tumanda faxriylarimizni qo‘llab-quvvatlash ishlarini kengaytirish uchun alohida dasturlar tuzib, amalga oshirsak, ayni muddao bo‘ladi.

Jamiyatimizda mehr-oqibat, muruvvat va saxovat tamoyillarini yanada mustahkamlash maqsadida nogironligi bo‘lgan fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga alohida e’tibor

qaratiladi. Eng muhimi, bu tizim amalda ishlashi va ushbu toifadagi insonlar o'zlarini jamiyatning to'laqonli a'zosi, deb his etishlari zarur.

Jahon tajribasidan kelib chiqib, nogironligi bo'lgan fuqarolarni kafolatli ish o'rni va daromad manbai bilan ta'minlash uchun ularga aniq kvotalar belgilash bo'yicha amaldagi qonunchiligimizga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

Ma'lumki, yurtimizda ota-onasidan ajragan, mehrga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunarga o'qitish va turar joy bilan ta'minlash, jamiyatda munosib o'rin egallashiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

“Mehribonlik uylari” va maxsus maktab-internatlarda yashayotgan bolalarni oilaga yaqin muhitda, bilimli va kasb-hunarli etib tarbiyalash uchun “Mehr daftari” doirasida boshlagan ishlarni izchil davom ettirish barchamizning burchimizdir.

Bu borada olib borayotgan ishlarimizning amaliy natijasi sifatida bir misol keltirmoqchiman. Keyingi uch oy davomida oliyjanob insonlar tomonidan ana shunday dargohlarda tarbiyalanayotgan o'nlab bolalar farzandlikka qabul qilindi. Shu tufayli 3 ta “Mehribonlik uyi”, 1 ta “Bolalar shaharchasi” o'z faoliyatini tugatgani ayniqsa e'tiborlidir.

O'zbek xalqining yuksak insoniy fazilatlarini namoyon etayotgan ana shunday mehr-shafqatli, bolajon va bag'rikeng yurtdoshlarimizga, bolalar uylarini otaliqqa olib, ezgu ishlarni amalga oshirayotgan saxovatli tadbirkor va ziyolilarga, Milliy gvardiya xodimlariga o'z nomimdan, xalqimiz nomidan chuqur minnatdorchilik izhor etaman.

Hozirgi vaqtda xonadonlarimizning fayz-u farishtasi bo'lgan, farzandlarimizni barkamol insonlar etib tarbiyalashga munosib hissa qo'shayotgan ayollarimiz barcha islohotlarimizda faol ishtirok etmoqdalar. Hurmatli onalarimiz, opa-singillarimizga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish O'zbekistonda olib borilayotgan davlat si-

yosatining uzviy qismi bo'lib kelayotgani sizlarga yaxshi ma'lum. Shu bois xotin-qizlarimizning bandligini ta'minlash, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rni va nufuzini yanada oshirish, ularning o'z salohiyatini namoyon etishlari uchun sharoitlarni kengaytirish, gender tenglik, oila, onalik va bolalikni himoya qilish borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida Milliy dastur qabul qilamiz.

Navqiron yoshlarimizni, ayniqsa, qizlarimizni sog'lom va yetuk etib tarbiyalash, ularning qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarish, Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida kamol toptirish bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Biz xorijiy davlatlarda bilim olayotgan, mehnat qilib daromad topayotgan yurtdoshlarimizni, ularning mamlakatimizda yashayotgan oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni qabul qilamiz. Xususan, "Vatandoshlar" jamoat fondi orqali chet ellarda yashayotgan fuqarolarimiz va ularning oilalari bilan aloqalar kengaytiriladi. Hamyurtlarimizni ona tilimiz, madaniyat va urf-odatlarimiz asosida jiplashtirish, ularning bilim va salohiyatini mamlakatimiz taraqqiyotiga samarali yo'naltirish bo'yicha ishlar davom ettiriladi.

Beshinchidan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma'naviy va ma'rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ham g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Hammamiz yaxshi tushunamiz, agar jamiyat hayotining tana-si iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi – ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy g'oyalarni mujassam etadigan kuchli ma'naviyatga tayanamiz. Shu maqsadda **"Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat"** konsepsiyasini amalga oshiramiz.

Milliy qadriyatlarimizni yanada rivojlantirish, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi o'rni va nufuzini oshirish, madaniyat va san'atni yuksaltirish bilan bog'liq vazifalar doimiy kun tartibimizda turadi.

Muqaddas islom dinimizning insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etish, **“jaholatga qarshi – ma'rifat”** tamoyili asosida unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalashga alohida ahamiyat beramiz.

Sizlarga ma'lumki, O'zbekiston – ulkan imkoniyat va boyliklarga ega mamlakat. Lekin bizning eng katta boyligimiz – turli millat va elatlar, diniy konfessiyalar vakillari o'rtasidagi tinchlik va barqarorlik, o'zaro hurmat va hamjihatlikdir, desam, o'ylaymanki, barchangiz bu fikrga qo'shilasiz.

Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari yagona va ahil oila bo'lib yashayotgani, fidokorona mehnati bilan jonajon O'zbekistonimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shayotgani ayniqsa quvonarlidir.

Biz bunday bebaho boylik bilan haqli ravishda faxrlanamiz hamda davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini, mamlakatimizdagi do'stlik va ahillik muhitini yanada mustahkamlashga yo'naltiramiz.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti sifatida shuni alohida ta'kidlab aytaman: bizning davlat siyosatimizda bundan buyon ham barcha millat va elat vakillarining milliy o'zligini, ona tili va madaniyatini, dini, urf-odat va an'analarini saqlab qolish va rivojlantirishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Oltinchidan, bugungi kunda insoniyat ko'plab umumbashariy muammolarga duch kelmoqda va ularga yechim topish nihoyatda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Biz globallashuv har tomonlama avj olayotgan, shiddatli o'zgarishlar sodir bo'layotgan murakkab zamonda yashamoqdamiz. Bugungi kunda iqlim o'zgarishlari, ekologik muammolar, radikalizm, ekstremizm va terrorizm, odam savdosi, narkotrafik kabi tah-

didlar bizning mamlakatimizda ham yechilishi zarur bo'lgan dolzarb vazifalar hisoblanadi.

Bunday muammolarni hal etishda kuch va imkoniyatlarni birlashtirish, bu boradagi barcha sa'y-harakatlarni uyg'unlashtirish lozim. Bu esa, o'z navbatida, kelajagimiz qiyofasini belgilaydigan global muammolarning milliy va mintaqaviy darajadagi yechimlarini topish zarurligini anglatadi.

Yurtimizda ekologik tahdidlarning salbiy ta'siri ortib bormoqda. Buni kuni kecha sodir bo'lgan qum bo'ronlari ham yana bir bor tasdiqladi.

Orol dengizining qurishi bilan bog'liq vaziyat tobora keskin tus olmoqda. Shu borada biz Orolbo'yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi sifatida e'lon qilish bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining rezolutsiyasini hayotga tatbiq etishga doir tizimli va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz lozim. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining yangi ekologik siyosati asoslarini tashkil etishga qaratilgan Butunjahon ekologiya xartiyasini ishlab chiqish borasidagi faoliyatimizni jadallashtirish kerak.

Shu yil avgust oyida mamlakatimizda bo'lib o'tgan "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi konferensiyada qabul qilingan qaror va hujjatlarning izchil bajarilishi uchun xalqaro hamkorlarimiz bilan zarur chora-tadbirlarni amalga oshiramiz.

Yettinchidan, mamlakatimizda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashning ishonchli kafolati bo'lgan Qurolli Kuchlarimiz qudratini yanada oshirish ustuvor maqsadimiz bo'lib qoladi.

Dunyoda va mintaqamizda vujudga kelayotgan bugungi murakkab va tahlikali vaziyatda o'z hayotini Vatan himoyasidek sharaflilikka bag'ishlagan, xalqimiz faxriga aylangan jasur harbiylarimizning jangovar shayligi, jismoniy va ma'naviy tayyorgarligini kuchaytirish dolzarb vazifamizdir.

Harbiy xizmatchilar va soha faxriylarini, ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash, moddiy ta'minotini yanada yaxshilash, uy-joy bilan ta'minlash, farzandlarining zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi uchun biz barcha zarur chora-tadbirlarni ko'ramiz.

Biz pragmatik va chuqur o'ylangan tashqi siyosat va iqtisodiy diplomatiya borasidagi munosabatlarimizni yanada rivojlan-tiramiz.

Eng avvalo, Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha mamlakatlar bilan yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini tobora kuchaytirish bundan buyon ham asosiy maqsadimiz bo'ladi.

Mintaqamizning ajralmas qismi, yaqin qo'shnimiz bo'lgan Afg'onistonda tinch va osoyishta hayotni tiklash, bu mamlakatda iqtisodiy va gumanitar inqirozga yo'l qo'ymaslik uchun afg'on xalqi-ga qo'limizdan kelgan barcha yordamni ko'rsatamiz. Biz Afg'oniston bilan birgalikda yirik transport-kommunikatsiya loyihalarini amalga oshirishdan manfaatdormiz.

Rossiya, Xitoy, Amerika Qo'shma Shtatlari, Turkiya, Hindis-ton, Pokiston, Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Birlashgan Arab Amirliklari va dunyoning barcha mintaqalarida-gi sheriklarimiz bilan o'zaro manfaatli va ko'pqirrali aloqalarni kengaytirishga alohida e'tibor beramiz.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan tuzil-malari, parlamentlararo ittifoq, xalqaro moliyaviy institutlar va mintaqaviy tashkilotlar, jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'st-ligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy Kengash, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bilan ko'p tomon-lama munosabatlarni yangi, amaliy ma'no-mazmun bilan bo-yitamiz.

Biz – dunyoga, dunyo – bizga ochiq bo'lishi kerak. Bugun-gi hayot, bugungi taraqqiyotning talabi ham aslida shu. Biz ana shu hal qiluvchi tamoyilni albatta hayotimiz qoidasiga aylan-tiramiz.

Aziz va qadrli yurtdoshlarim!

Biz o'tgan besh yil davomida g'oyat qiyin va murakkab sinovlar davrida katta tajriba orttirdik. Qanchalik og'ir bo'lmasin, marrani baland olib yashash va ishlashga o'rgandik. Tabiiyki, marrani katta olgan xalqning qadamlari ham, erishadigan natijalari ham salmoqli bo'ladi.

Milliy rivojlanish yo'lida orttirgan tajribamizdan kelib chiqib, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida barcha soha va tarmoqlar, mintaqa va hududlar, xususan, har bir mahalla bo'yicha o'z oldimizga yanada yuksak vazifalar qo'ymoqdamiz.

Hammamiz ko'rib turibmiz – bugun zamon juda tez, mislsiz shiddat bilan o'zgarimoqda. Shuning uchun biz islohotlarimiz sur'atini aslo pasaytirmasdan, faqat oldinga borishimiz, har bir soat, har bir kundan unumli foydalanishimiz kerak. Chunki, Bahouddin Naqshband hazratlari aytganlaridek, “Kim vaqtini zoye ketkazsa, vaqt uning dushmaniga aylanadi”.

Mana shu dono hikmatni hech qachon unutmasligimiz kerak.

Ushbu hayajonli daqiqalarda bir fikrni alohida ta'kidlashni istardim: Prezident sifatida men mamlakatimiz tinchligi, el-yurt farovonligi, Vatan taraqqiyoti yo'lida butun borlig'imni bag'ishlab, xalqimga sadoqat bilan xizmat qilishni hayotimning ma'no-mazmuni deb bilaman. Men uchun bundan boshqa oliy maqsad, baxt-saodat yo'q.

Siz, qadrli vatandoshlarimning chin dildan qo'llab-quvvatlashingiz, nuroniy otaxon va onaxonlarimizning duolari, aziz yoshlarimizning ishonchi menga katta kuch-g'ayrat beradi. Shu bois sizlar bilan, xalqimiz bilan birga mehnat qilishdan hech qachon charchamayman.

So'zimning yakunida qalbidam, yuragimda bo'lgan ezgu tilaklarimni izhor etib, aytmoqchiman.

Aziz va mo'tabar Vatanimiz hamisha omon bo'lsin!

Xalqimizning baxt-u iqbolini, omadini bersin!

Barchamizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, yangi yutuq va zafarlar yor bo'lsin!

Ulug' va pok niyatlarimizni amalga oshirishda Yaratganning o'zi madadkor bo'lsin!

E'tiboringiz uchun tashakkur.

*Toshkent shahri,
2021-yil 6-noyabr*

MUNDARIJA

Yangi O'zbekiston – inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlatdir (<i>Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining X syezdida so'zlangan nutq</i>)	3
Yangi O'zbekistonda Yangi Qoraqalpog'istonni birgalikda bunyod etamiz (<i>Qoraqalpog'iston Respublikasi saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq</i>)	45
Xorazmning mard va oliyanob, tanti va mehnatkash xalqi – uning haqiqiy tayanch tog'idir (<i>Xorazm viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq</i>)	71
Har bir insonning tinch, erkin va farovon hayot kechirishini ta'minlash – ustuvor vazifamizdir (<i>Samarqand viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq</i>)	93
Namanganning bunyodkor xalqi bilan viloyatni har tomonlama obod maskanga aylantiramiz (<i>Namangan viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq</i>)	113
Farg'onani chinakam "Oltin vodiy"ga aylantiraylik! (<i>Farg'ona viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq</i>)	135
Andijon O'zbekistonning yuksak o'sish nuqtasi bo'lishiga ishonaman (<i>Andijon viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq</i>)	157
Cho'lda vatan yaratayotgan mardi maydon insonlar uchun munosib turmush sharoiti yaratamiz (<i>Sirdaryo viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq</i>)	179
Ko'hna sivilizatsiyalar, boy tarix va madaniyatdan yangi taraqqiyot sari (<i>Surxondaryo viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq</i>)	199
Fidokorona mehnatimiz, tinimsiz intilish va izlanish bilan ezgu maqsadlarga erishamiz (<i>Qashqadaryo viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq</i>)	221

Bilim va ma'rifat, azm-u shijoat va qat'iyat – Buxoroning taraqqiyot yo'lidir (<i>Buxoro viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq</i>)	245
Zamonamiz Farhodlari – Navoiy eli yanada ravnaq topsin! (<i>Navoiy viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq</i>).....	263
Ko'pmillatli, bag'rikeng diyor ahlining taraqqiyoti va baxt-saodati uchun (<i>Toshkent viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq</i>).....	281
Toshkentni ilm-fan va innovatsiyalar, madaniyat yuksak darajada rivojlangan zamonaviy shaharga aylantiramiz (<i>Toshkent shahri saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq</i>).....	307
O'z kuchimiz, o'z mehnatimiz, mustahkam irodamiz bilan har qanday yuksak marrani egallashga qodirmiz (<i>Jizzax viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq</i>).....	337
Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz (<i>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq</i>)	363

Rasmiy nashr

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

**Inson qadri, uning
huquq va erkinliklari,
qonuniy manfaatlari
uchun**

Muharrirlar: *Sunnat Xo'jaahmedov, Lola Fattoyeva*

Badiiy muharrir *Shuxrat Mirfayozov*

Texnik muharrir *Yelena Tolochko*

Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*

Musahhah *Munisa Ismailova*

Kompyuterda sahifalovchi *Shahlo Buriyeva*

Taqdimnoma raqami № 4642. 22.07.2020.
Bosishga 2022-yil 22-dekabrda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 ¹/₁₆. Ofset qog'oz.
"Times New Roman" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 31,85. Nashr tabog'i 21,28.
Adadi 5 000 nusxa. Shartnoma № 204-1/22.
Buyurtma №4341.

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida
tayyorlandi. 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi. 30.
Telefon: (71) 244-34-38. Faks: (71) 244-24-91.

"KOLORPAK" MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Yangi shahar ko'chasi 1a.

